



ТОШКЕНТ ДАВЛАТ
ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ



СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ
ОММАБОП ЖУРНАЛ

www.soliqvahayot.uz



**“СОЛИҚ ВА ҲАЁТ” ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ-ОММАБОП ЖУРНАЛИ
ТАҲРИРИЯТИ ҲАЙЪАТИ ТАРКИБИ**

Таҳририят кенгаши раиси: и.ф.д. Юсупов Кахрамон Ахмедович

Бош муҳаррир: и.ф.д. проф. Курбанов Зият Ниязович

Таҳририят аъзолари:

и.ф.д. Қудбиев Шерзод Давлатович

и.ф.д. проф. Засько Вадим Николаевич (Россия Федерацияси)

и.ф.д. проф. Роздольская Ирина Владимировна (Россия Федерацияси)

ю. ф. д. проф. Рустамбаев Мирзаюсуп Хакимович

т.ф.д.доц. Акбаралиев Бахтиёр Бакирович

и.ф.ф.д. PhD Вассилис Полименис (Греция)

и.ф.н. доц. Эргашев Зафар Тоштургунович

и.ф.д. проф. Тошматов Шухрат Аманович

и.ф.д. проф. Ҳотамов Комил Раббимович

и.ф.д. проф. Қўзиева Наргиза Рамазановна

и.ф.д. проф. Худойқулов Садриддин Каримович

и.ф.д. проф. Исманов Иброҳим Набиевич

и.ф.д. проф. Ўрманов Жаҳонгир Жалолиддинович

и.ф.д. проф. Уразов Комил Бахрамович

и.ф.д. проф. Исаев Фахриддин Икромович

Маъсул муҳаррир: Назаров Абдукарим Кушарович

Веб администратор: Қуйлиев Улуғбек Рашидович



МУНДАРИЖА

Alimxanova D.A.	<i>Mintaqalarni eksport salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari</i>	4
Fazliddinova Z.A.	<i>Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tahlilida geoaxborot texnologiyalarini (GIS) katta ma'lumotlar (Big data) bilan integratsiyalashuvi</i>	14
Isroilov B.I., Qurbanov Z.N., Ibragimov B.B.	<i>Soliq madaniyatining iqtisodiy ahamiyati va tarkibiy qismlari</i>	21
Ma'murov B.X.	<i>Худудларни барқарор ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқишдаги халқаро амалиёт ва ёндашувлар</i>	35
Mangliyev B.T.	<i>Ta'lim boshqaruvi nuqtayi nazaridan Yaponiya va O'zbekiston tizimlarining tahlili</i>	45
Muxsinjonova G.I.	<i>Turizm sanoatida samarali marketing strategiyalari</i>	52
Normurzayev U.X.	<i>Mamlakatimizda soliq ma'murchiligini va soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish strategiyasi islohotlari</i>	60
Tohirov A.K.	<i>O'zbekistonda turizm infratuzilmasining amaldagi holati: tizimli tahlil va strategik yondashuvlar</i>	70
To'rayev Sh. Sh., Abdullayev Z.S.	<i>Barqarorlik reytingini aniqlash metodologiyasi va uning soliq mexanizmlari bilan integratsiyasi</i>	80
Джалилов Р.Х.	<i>Солиқ тизимида қўшилган қиймат солиғини ҳисобга олиш масалалари</i>	91
Курбанов З.Н., Санокулова Н.	<i>Асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш</i>	98
Курбанов З.Н.	<i>Барқарорлик бухгалтерия стандартларини жорий этишнинг зарурияти</i>	104
Кодиров А.М.	<i>Хизматлар соҳасида савдо тўсиқларини камайтириш ва икки томонлама ҳамкорликни ривожлантириш йўналишлари</i>	110
Ортиков Э.Я.	<i>Хусусий капитал аудити: таҳлилий тартиб-таомиллар</i>	119
Тошпулатов Ф.А.	<i>Нотижорат ташкилотларини молиялаштиришнинг халқаро тажрибаси</i>	125
Туракулов Т.А.	<i>Институционал ёндашувнинг назарий асослари</i>	132
Хайдаров Х.Л.	<i>Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш омиллари ва комплекс баҳолаш усуллари</i>	141
Холмуродов О. Н.	<i>Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида молиявий натижалар бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш</i>	150
Юлдашева М.Т.	<i>Передовой мировой опыт реформирования зелёных налогов</i>	157



MINTAQALARNI EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Alimxanova D.A.

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqaviy eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari ko'p darajali tizim sifatida tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili eksportni rivojlantirishda infratuzilma, raqamlashtirish, kadrlar tayyorlash va institutsional qo'llab-quvvatlash kabi omillarning muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekistonda eksportni oshirishga qaratilgan strategik maqsadlar va ularga erishish yo'llari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *eksport salohiyati, mintaqaviy rivojlanish, raqamlashtirish, infratuzilma, strategik rejalash, xalqaro bozor*

Аннотация. *В данной статье процессы формирования и развития регионального экспортного потенциала рассматриваются как многоуровневая система. Анализ литературы показывает важность таких факторов, как инфраструктура, цифровизация, подготовка кадров и институциональная поддержка в развитии экспорта. Также рассматриваются стратегические цели по увеличению экспорта в Узбекистане и пути их достижения.*

Ключевые слова: *экспортный потенциал, региональное развитие, цифровизация, инфраструктура, стратегическое планирование, международный рынок.*

Annotation. *This article analyzes the processes of forming and developing regional export potential as a multi-level system. Literature review highlights the importance of factors such as infrastructure, digitalization, human capital development, and institutional support in export growth. The paper also examines Uzbekistan's strategic goals for increasing exports and the approaches to achieving them.*

Key words: *export potential, regional development, digitalization, infrastructure, strategic planning, international market.*

1. Kirish.

Eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, u mintaqaning murakkab iqtisodiy tizim sifatida faoliyat yuritishining barcha bosqichlarida ichki iqtisodiy va tashqi iqtisodiy omillarni o'z ichiga oladi. Eksport faoliyatining mintaqaviy darajaga yoyilishi jarayonlari mos regional siyosatni ishlab chiqishni talab etadi. Shunday qilib, davlatning tashqi savdo siyosati evolyutsiyasi jarayonida, o'tish davrida hududlarning eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qattiq vertikal boshqaruv amaliyotidan voz kechilib, eksport faoliyatining liberallasuvi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy munosabatlarda operativ va mustaqil faoliyat yuritishi sari yo'naltirilganlik kuzatildi.

Bunday sharoitda, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, ilmiy-texnikaviy rivojlanish hamda xalqaro iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan hududiy strategiyani ishlab

chiqishga ehtiyoj yuzaga keladi. Eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish samaradorligini boshqarish esa makro, mezo va mikro darajadagi funksiyalarni o'z ichiga olgan ko'p darajali tizim bo'lib, u xorijiy bozorlar faoliyatida mumkin bo'lgan eng yuqori natijaga erishishga yo'naltirilgan.

2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash yo'nalishidagi 28 maqsad sifatida eksport salohiyatini yanada oshirish va respublika eksport hajmini 2026-yilda 30 mlrd. AQSH dollargacha k'otarish belgilangan. "O'zbekiston - 2030" strategiyasining barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishidagi 55 maqsadi milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini mustahkamlash va uning tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini keskin oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, eksport hajmini 2 barobarga oshirish va uni 45 mlrd. AQSH dollariga atkazish, eksport qiluvchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga atkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravarga oshirish strategiyada belgilangan asosiy vazifalardandir.

2. Adabiyotlar sharhi.

Hududlarda infratuzilmaviy rivojlanish eksport salohiyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi, chunki yo'l harakati xavfsizligi, qulaylik va logistika tizimlarining yaxshilanishi mintaqaviy mahsulotlarning tashilishini, xizmatlar ko'rsatishini va umumiy iqtisodiy faollikni oshiradi. Bu, o'z navbatida, hududning eksportga yo'naltirilgan infratuzilmasini mustahkamlashga xizmat qiladi (Oktaviani & Musrifah, 2024).

Kambag'allikda yashovchi aholiga yuridik yordam haqida tushuntirish ishlari olib borilish ishlari eksport salohiyatiga bilvosita ta'sir qiladi. Chunki huquqiy xabardorlik oshgani sari fuqarolarning o'z iqtisodiy huquqlarini, jumladan, tadbirkorlik va eksport faoliyatini yuritishdagi imkoniyatlari kengayadi. Bu ijtimoiy tenglikni ta'minlab, kambag'al qatlamlarning ham eksportga yo'naltirilgan faoliyatda ishtirok etishini rag'batlantiradi, natijada mintaqaning eksport ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi (Suryaningsi, 2024).

O'zbekiston eksport salohiyatini oshirish, ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari sohasida, mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar atkazib berish uchun marketing strategiyalarini takomillashtirish, xalqaro talab va standartlarga mos mahsulot atishtirish hamda samarali savdo zanjirlarini shakllantirish zarur. Eksport hajmini miqdor va sifat jihatdan oshirish orqali O'zbekiston nafaqat valyuta tushumlarini ko'paytiradi, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarning innovatsion texnologiyalarga o'tishiga va yangi ish o'rinlari yaratilishiga ham turtki beradi. Shu bilan birga, eksport faoliyati mintaqalar iqtisodiy rivojiga va ichki bozorda raqobat muhitining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Hamidov, 2020).

PT Inti Gravfarm Indonesia o'z fermerlarini xalqaro talab darajasidagi - ya'ni eksport standartlariga mos qahva mahsulotlarini atishtirishga o'rgatmoqda. Kompaniya fermerlar bilan uzluksiz va ishonchga asoslangan kommunikatsiyani yo'lga qo'yib, ularni eksport sifati talablariga muvofiq ishlab chiqarishga tayyorlaydi. Ushbu yondashuv orqali eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimi shakllantiriladi, bu esa nafaqat mahsulot sifatini, balki xalqaro bozorga kirish imkoniyatlarini ham oshiradi. Xulosa qilib aytganda, maqolada eksport - fermerlarni bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash orqali xalqaro raqobatbardosh qahva atishtirishni ta'minlash sifatida talqin etilgan (Brata & Chatamallah, 2020).

Hududlarda turizm salohiyatini rivojlantirish orqali xizmatlar eksportini oshirishga xizmat qiluvchi muhim tashabbus hisoblanadi. Shahar tabiiy va madaniy jihatdan boy sayyohlik resurslariga ega bo'lishiga qaramay, bu imkoniyatlar atarlicha targ'ib qilinmayapti. Jahon sayyohlari uchun jozibador maskanga aylantiradi. Biroq axborot atishmasligi sababli ko'plab sayyohlik obyektlari keng ommaga ma'lum emas. Shu sababli tadqiqot doirasida raqamli achim sifatida geografik axborot tizimi ishlab chiqildi. Bu tizimda sayyohlik maskanlari nomi, manzili,

tavsifi, joylashuvi va rasmlari kabi to'liq ma'lumotlarni taqdim etadi. Tizimda qidiruv va yo'l ko'rsatkich funksiyalari mavjud bo'lib, foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi.

Bu raqamli platforma xorijiy turistlarga shahar haqida to'liq ma'lumot atkazish orqali xizmat ko'rsatish sohasida eksport salohiyatini oshiradi. Natijada xizmatlar eksporti hajmining ortishi va mahalliy iqtisodiyotning mustahkamlanishi kutilmoqda (Wiyanda & Prasetya, 2022).

Mintaqaviy qishloq xo'jaligi bozorining eksport salohiyati tahlil qilish, ayniqsa sut, jun va tuxum kabi chorvachilik mahsulotlarini xalqaro bozorga olib chiqish imkoniyatlari o'rganish zarur hisoblanadi va dinamik ekonometriya modellari yordamida 2021–2026 yillar oralig'ida ushbu mahsulotlar eksportining hajmi prognoz qilinadi. Eksport hajmi yuqori bo'lgan mahsulot turlarini aniqlash bilan birga, eksport salohiyati past, ammo o'sish imkoniyati mavjud mahsulotlarni ham belgilash imkonini beradi.

Bu modellardan nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'z biznes rejalari uchun, balki mintaqaviy hokimiyatlar ham eksportni rag'batlantiruvchi dasturlar tuzishda foydalanishi mumkin. Eksportni rejalashtirish, prognozlash va rivojlantirish uchun amaliy asoslar taqdim etish, mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi (Gerasimov va boshq., 2022).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, eksport salohiyatini rivojlantirishda faqat mahsulot hajmini ko'paytirish yoki jismoniy infratuzilmani yaxshilash bilan cheklanib qolmaslik kerak. Bunda strategik rejalash, raqamli texnologiyalardan foydalanish, kadrlar malakasini oshirish, jamiyatda eksportga yo'naltirilgan biznes madaniyatini shakllantirish va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda davlat tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlash kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan unumli foydalangan holda, rivojlanayotgan davlatlar o'z iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy xususiyatlariga mos ravishda kompleks yondashuvni joriy etishi maqsadga muvofiqdir.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda eksport salohiyatini hududiy nuqtai nazardan tahlil qilish va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida iqtisodiy tahlil, statistik ko'rsatkichlar dinamikasi, mantiqiy tahlil, guruhlash, solishtirma tahlil va grafik usullardan keng foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Respublikada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024 yil yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 65,9 mlrd AQSH dollariga atdi va 2023 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,4 mlrd AQSH dollariga yoki 3,8 % ga oshishini ta'minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etildi (1-jadval).


Ushbu o'sish ko'p jihatdan tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, bojxona va soliq imtiyozlarini joriy etish, eksportyorlar uchun moliyaviy va institutsional ko'mak choralarining kuchaytirilgani bilan bog'liq. Xususan, logistika infratuzilmasining rivojlantirilishi, eksport uchun zarur sertifikatlash va standartlashtirish tizimlarining soddalashtirilishi xorijiy bozorlar bilan savdo aloqalarining kengayishiga xizmat qildi. Bundan tashqari, eksport geografiasining diversifikatsiya qilinishi, ya'ni faqat an'anaviy hamkor davlatlar bilan cheklanmay, Osiyo va Yevropa bozorlariga yangi chiqish yo'llarining izlanilishi tashqi savdo hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Import hajmining nisbatan barqarorlashuvi esa ichki ishlab chiqarish salohiyatining ortib borayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, erishilgan natijalar O'zbekistonning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi yo'lida muhim bosqich hisoblanadi.

1-jadval

O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi (mln.AQSh dollar)

	2020	2021	2022	2023	2024	O'sish sur'ati %da
Tashqi savdo aylanmasi	36256,1	42170,5	50008,3	63 528,6	65 934,0	181,5
Eksport	15127,7	16600,0	19309,1	24 869,5	26 948,2	178
tovarlar	7 319,4	10000,4	11094,0	10 972,5	12 100,6	165
xizmatlar	2 003,9	2 500,3	3 959,5	5 640,4	7 204,4	359
nomonetar oltin	5 804,4	4 102,0	4 255,6	8 153,8	7 480,6	128
Import	21171,5	25500,3	30699,3	38 659,1	38 985,8	184
tovarlar	19955,1	23700,4	28172,9	35 574,8	35 237,8	176
xizmatlar	1216,4	1710,1	2526,3	3 084,3	3 748,0	308
Saldo	-6043,8	-8901,3	-	-13 789,6	-12 037,6	x

Quyida berilgan grafikda 2020-2024 yillarda tovarlar eksporti ulushi eng yuqori bo'lib, 2021-yilda 60,2% bilan cho'qqiga chiqib, keyingi yillarda pasaygan. Xizmatlar ulushi esa, izchil o'sib, 2020-yildagi 13,2% dan 2024-yilda 26,7% ga o'tgan va nomonetar oltin eksporti 2023-yilda eng yuqori (32,7%) ko'rsatkichni ko'rsatgan. Import tarkibida tovarlar ulushi doimiy ustun bo'lib, 90%dan yuqori darajada saqlanib turibti. Xizmatlar ulushi esa asta-sekin ortib, 2020-yildagi 5,7% dan 2024-yilda 9,6% ga o'tgan (1-rasm).




1-rasm. Tashqi savdo aylanmasi jamiga nisbatan % dagi ulushi

Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning tashqi savdo tarkibida tovarlar eksporti hali ham asosiy o'rinni egallasa-da, so'nggi yillarda xizmatlar eksportining ulushi sezilarli darajada o'sib bormoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ahamiyatining ortishi va eksport tarkibining diversifikatsiyalashuvidan dalolat beradi. Shu

bilan birga, import tarkibidagi tovarlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolishi mahalliy ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarda hali ham âtarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, import tarkibida xizmatlar ulushining o'sishi chet el texnologiyalari va mutaxassislik xizmatlariga bo'lgan talabning ortayotganligini aks ettiradi, bu esa mahalliy ishlab chiqarish va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun qo'shimcha choralar talab qiladi.

2024-yil statistik ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, mazkur yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari soni qariyb 34,9 mingga âtdi (2023-yilga nisbatan 805 taga kamaydi). Shundan eksportyorlar soni 7,8 mingtani (2023-yilga nisbatan 262 taga ko'paydi) tashkil etgan bo'lsa, 27,1 ming (2023-yilga nisbatan 543 taga kamaydi) importyorlar tomonidan tovar va xizmatlar import qilindi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari, 2024 yil, birlikda

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida eng ko'p eksportyorlar soni bo'yicha Toshkent shahri (jamiga nisbatan 30,8 %)ga, Toshkent (13,4 %), Farg'ona (9,8 %), Samarqand (8,5 %) va Namangan (6,5%) viloyatlari âtakchi o'rin egalladi. Eksportchilarning eng kam ulushi esa Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,2 %) va Xorazm (2,3%) viloyatlarida qayd etildi. 2024 yilda eng ko'p importyorlar Toshkent shahriga to'g'ri kelgan bo'lsa (jamiga nisbatan 45,2 %), eng kam ulush Sirdaryo viloyatiga to'g'ri keldi (jamiga nisbatan 1,2 %)

Bugungi kunda mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti, alohida tarmoqlari rivojlanish va uning bozordagi ishtiroki o'rtasida bog'liqlik kuchayib bormoqda. Mintaqa tashqi savdosining tarkibiy xususiyatlari ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllangan holda mintaqqa iqtisodiy rivojlanishiga ham o'ziga xos tarzda ta'sir etadi (2-jadval).

2020-2024-yillar davomida O'zbekiston eksport tarkibida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Mashinalar va transport asbob-uskunalar ulushi 2,8 foizdan 4,5 foizga oshib, texnologik eksportning o'sayotganini ko'rsatdi. Kimyoviy vositalar va unga o'xshash mahsulotlar ulushi ham o'sib, 5,4 foizdan 6,2 foizga âtdi. Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar ulushi 8,8 foizdan 8,1 foizga kamaydi. Sanoat tovarlari eksporti

sezilarli darajada qisqarib, 2020 yildagi 19,2 foizdan 2024 yilda 15,5 foizga tushdi. Nooziq-ovqat xomashyolari eksporti esa 3,1 foizdan 1,2 foizga kamaydi. Boshqa tovarlar guruhi eksporti 38,5 foizdan 28 foizga pasayib, umumiy hajmdagi ulushi 10,5 foizga qisqardi. Shu bilan birga, xizmatlar eksporti barqaror o'sdi va 13,3 foizdan 26,7 foizga oshib, 13,4 foizga oshdi. Bu o'zgarishlar iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymatga ega sohalar rivojlanayotgani va xizmatlar sektori eksportdagi muhim yo'nalishga aylanayotganini ko'rsatmoqda.

2-jadval


O'zbekiston Respublikasi XSST bo'yicha eksport tarkibi

Umumiy hajmiga nisbatan, % da						O'zgarish (+, -)
Yillar	2020	2021	2022	2023	2024	
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,8	8,2	8,4	7,1	8,1	- 0,7
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,2	0,6	0,5	0,5	+ 0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3	3,1	2	1,3	1,2	- 1,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,3	5,4	6,3	3,8	4,8	+ 0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,01	0,1	0,06	0,2	0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,4	6,8	6,7	5,2	6,2	+ 0,8
Sanoat tovarlari	19,2	26	23	16,3	15,5	- 3,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2,8	4,2	5	5,2	4,5	+ 1,7
Turli xil tayyor buyumlar	4,1	4,7	5,7	4,8	4,1	0
Boshqa tovarlar	38,5	26	21,3	33	28	- 10,5
shu jumladan: nomonetar oltin	38,4	24,7	21,3	32,7	27,7	- 10,7
Xizmatlar	13,3	15,3	20,5	22,7	26,7	+ 13,4

Tovar turlari bo'yicha Respublika eksportini tahlil etishda birinchi bo'lib ta'kidlash lozimki, eng yuqori ulushga ega bo'lgan 12 turdagi tovarlarning umumiy Respublika tovarlar eksportidagi jami ulushi 2020 yilda eng yuqori ulushga xizmatlar eksporti ulushi 359% ga ega bo'lib, 2020 yilga nisbatan eksport hajmi 2024 yilda 3,59 martaga ortgan va jami eksportdagi hisyasi ham 3,7 martaga ko'paygan. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar eksporti dinamikasida aniq bir tendensiya kuzatilmaydi. Uning eksport hajmi 5 yil oralig'ida goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Xususan, eng yuqori ko'rsatgich - 43,5 mln. AQSH dollari bilan 2024 yilda qayd etilgan bo'lsa, 2021 yilda eng kam hajmda eksport qilingan - mos ravishda 1,5 mln AQSH dollari.


Nooziq-ovqat xomashyo eksporti yillar davomida pasayib, o'sish surati -70% ni tashkil etgan. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar eksporti so'nggi 5 yilda jadal rivojlanib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. 2020 yilda ushbu mahsulotlar eksporti 820,9 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 205,5 % o'sish surati bilan 2024 yilda eksport hajmi 1 687,3 mln. AQSH dollarga oshdi. Umuman olganda, xizmatlar, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo sanoati va mineral yoqilg'ilar eksportining o'sishi umumiy eksport hajmining o'sishiga asosiy hissa qo'shgan. Bundan tashqari, 2020-2024 yillar davomida Respublika eksportida xizmatlar ulushi sezilarli oshib, 13,3% dan 26,7% gacha atdi. Nooziq-ovqat xomashyo eksporti esa kamayib borib, 1,2% ga tushdi. Mashina va transport vositalari eksporti 2022 yildagi 5% dan 2024 yilda 4,5% ga tushganini ko'ramiz. Eng yirik ulushga ega bo'lgan "boshqa tovarlar, jumladan nomonetar oltin" toifasi 2020 yildagi 38,5% dan 2024 yilda 28% ga tushgan bo'lsa-da, eksportda atakchilikni saqlab qolmoqda.

Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 20,5% bilan 5527,3 mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Jizzax viloyati 0,8% bilan 208,1 mln AQSh dollarini tashkil etdi (4-rasm).



3-rasm. O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida eksporti, mln. AQSh dollari

Eksport hajmining eng yuqori o'sish sur'atlari 2023 yilga nisbatan Navoiy (170,3%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (128,7%), Xorazm (127,0%), Surxondaryo (122,4%), Farg'ona (120,8%), Qashqadaryo (120,2%), Samarqand (113,8%) viloyatlari va Toshkent (101,4%) shahrida qayd etildi. Eng past o'sish sur'ati Sirdaryo viloyatiga (84,9%) to'g'ri keldi.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida import, mln. AQSh dollari

Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 50,8 % bilan 19 810,5 mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,4 % bilan 146,6 mln AQSh dollarini tashkil etdi (5-rasm).

Import hajmining eng yuqori o'sish suratlari 2023 yilga nisbatan Qashqadaryo (2,0m.), Jizzax (143,4%), Surxondaryo (136,2%), viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (125,3%) va Toshkent shahrida (100,4%) qayd etildi. Eng past o'sish sur'ati Navoiy (77,4%) viloyatiga to'g'ri keldi.

JSTning rivojlanish uchun investitsiyalarga ko'maklashish bo'yicha Bitimi (IFD)ning maqsadi rivojlanayotgan davlatlar va eng kam rivojlangan JST a'zolarining global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya (TTXI) oqimlarida kengroq ishtirok etishini ta'minlash uchun, mamlakatlarga nafaqat ko'proq, balki barqaror rivojlanishga hissa qo'shuvchi sifatli TTXIni jalb qilishga yordam beruvchi texnik choralar majmuasini belgilash hamda choralar shaffofligini oshirish, ma'muriy tartiblarni soddalashtirish, investitsiyalarga ko'maklashish bo'yicha boshqa choralarni qabul qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Bundan tashqari, IFD Bitimi mamlakatlarning investitsion muhitini yaxshilashga qaratilgan institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlab, ularning global investitsiya oqimlarida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladigan innovatsion va ekologik toza texnologiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy o'sish bilan atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg'unlashtirishga yordam beradi.

O'zbekistonda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonasini tashkil etish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport hajmini oshirishning asosiy yollari:

1. O'zbekistonda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonasini tashkil etish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport hajmini oshirish:

natijada eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish hududi tashkil etiladi. Ushbu hududda ishlab chiqarish klasterlari shakllantiriladi, ishlab chiqarish korxonalari joylashtiriladi va eksport imkoniyatlari uchun maxsus infratuzilma yaratiladi. Hududda bojxona, logistika markazlari, sertifikatlash laboratoriyalari va boshqa eksport infratuzilma ob'ektlari joylashtiriladi;

eksport uchun maxsus ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish korxonalari tashkil etiladi. Ushbu korxonalar xalqaro bozor talablariga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltiriladi va eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun innovatsion texnologiyalar, ilg'or ishlab chiqarish jarayonlari va zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etiladi;

eksport hududining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun logistika markazi tashkil etiladi. Bu markaz mahsulotlarning eksport bozorlariga tez va samarali atkazib berilishini ta'minlash, bojxona rasmiylashtiruv, transport infratuzilmasi va sertifikatlash xizmatlarini bir joyda jamlashga xizmat qiladi;

hududlarning ishlab chiqarish quvvatlari, sanoat infratuzilmasi va tashqi savdo imkoniyatlarini tahlil qilish uchun maxsus baholash tizimi ishlab chiqiladi. Ushbu tizim orqali har bir hududda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar, transport-logistika infratuzilmasi va ishlab chiqarish klasterlarining holati real vaqt rejimida kuzatilib, eksport rivojlanishini strategik boshqarish imkoniyati yaratiladi;

eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalarining joylashuvi, infratuzilma imkoniyatlari, ishlab chiqarish salohiyati va investitsion resurslari haqidagi ma'lumotlarni interaktiv formatda taqdim etadigan geoaxborot tizimlari (GAT) asosida elektron xarita ishlab chiqiladi. Ushbu xarita investorlar, tadbirkorlar va davlat organlari uchun tahliliy vosita bo'lib, eksport va ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishini samarali rejalashtirish imkonini beradi;

eksport jarayonlarini monitoring qilish, bojxona tartibotlarini optimallashtirish, eksport qiluvchi korxonalar va xorijiy xaridorlar o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish maqsadida maxsus raqamli platforma ishlab chiqiladi. Ushbu platforma orqali eksportyor

korxonalar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, litsenziyalar va hujjatlar elektron formatda taqdim etiladi;

eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish hududlarida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqiladi. Ushbu mexanizmlar yangi ishlab chiqarish korxonalarini ochish, eksport faoliyatini rag'batlantirish, ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi;

eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalarida ekologik me'yorlarga mos keladigan zamonaviy texnologiyalar joriy qilinadi. Ushbu texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik jihatdan xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi;

ishlab chiqarish hududlaridan xalqaro bozorlarga mahsulot atkazib berish jarayonlarini optimallashtirish uchun maxsus logistika dasturi ishlab chiqiladi. Ushbu dastur transport tarmoqlarini rivojlantirish, yuk tashish xarajatlarini kamaytirish va atkazib berish muddatlarini qisqartirish orqali eksport jarayonlarini tezlashtirishga qaratiladi;

ushbu loyiha natijasida ishlab chiqiladigan yangi texnologiyalar, tahlil tizimlari va boshqaruv modellarining tatbiqi O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish, hududiy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish va xalqaro bozorlarga samarali chiqish imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

2. Eksport markazlarini yaratish: xorij va O'zbekiston kompaniyalari uchun ixtisoslashtirilgan eksport markazlari va qo'llab-quvvatlovchi ofislarni ishlab chiqish, bu esa korxonalariga yangi bozorlarga chiqishda va mahsulotlarini xalqaro standartlarga moslashtirishda yordam beradi.

3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi uchun marketpleyslarni rivojlantirish: Qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun ixtisoslashtirilgan marketpleyslar tashkil etilishi, bu esa har ikki davlat fermer xo'jaliklari va sanoat iste'molchilari o'rtasida savdoni osonlashtiradi. Onlayn buyurtmalarni qayta ishlash uchun xablar yaratish: Elektron platformalar orqali sotiladigan mahsulotlarni qayta ishlash va tez atkazib berish uchun ombor va logistika imkoniyatlarini rivojlantirish. Tranzaksiyalarni soddalashtirish, atkazib berish va logistikani tezlashtirish uchun raqamli tizimlarni yaratish.

4. Innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirish: Mamlakatlar o'rtasida texnologik almashinuv kuchayishi kutilmoqda, bu esa uzoq muddatli mahsuldorlik o'sishiga hissa qo'shadi. Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi (asosiy savdo hamkorlari) va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida tashqi savdo sohasidagi qo'shma davlat siyosati o'zaro savdo hajmini oshirish va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. 2030-yilgacha o'zaro savdo hajmini uch barobarga oshirish maqsadiga erishish uchun savdo sohasidagi strategik loyihalar zarur bo'lib, ular jismoniy va raqamli infratuzilmani, savdo logistikasi yaxshilanishini, qo'shma korxonalar yaratilishini va eksportni qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashni qamrab oladi. Xususan, O'zbekiston Rossiyaga tekstil mahsulotlari, avtomobillar, mashinasozlik va kimyo mahsulotlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari atkazib berishni ko'paytirish orqali eksport hajmini oshirishi mumkin.

5. Mintaqaviy eksport salohiyatining interaktiv xaritasini joriy etish. Eksport jarayonlar holatini monitoring qilish va baholash metodologiyasi va vositalarini, shuningdek statistik (xususan, ochiq ma'lumotlar platformasi orqali) va boshqa ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, taqdim etish va tarqatish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sohaga oid ilmiy, uslubiy, statistik to'plamlar va boshqa axborot-tahliliy materiallar nashr etilishi rejalashtirilgan.

5. Xulosa.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish murakkab, ko'p bosqichli hamda turli darajadagi omillarni o'z ichiga oluvchi tizimli jarayondir.

Eksportni oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar nafaqat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish yoki infratuzilmani yaxshilash bilan, balki chuqur strategik yondashuv, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar malakasini oshirish, huquqiy xabardorlikni kuchaytirish, xizmatlar sohasini rivojlantirish va xalqaro talabga mos mahsulotlar atishtirish bilan birga olib borilishi kerak.

Shuningdek, eksportni rejalashtirish va prognozlash uchun ilmiy asoslangan ekonometriya modellari, marketing tadqiqotlari va maqsadli regional siyosatlar zarur. Hududlar miqyosida turizm, qishloq xo'jaligi va xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash orqali mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikka va aholi farovonligiga erishish mumkin. Davlat tomonidan eksportga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirishda institutsional qo'llab-quvvatlash va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan moslashuvchan siyosat muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslanib, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy omillarni hisobga olgan holda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks va barqaror yondashuvni amalga oshirishi lozim.

Adabiyotlar:

T., Oktaviani, V. and Musrifah, 2024. Analysis of Traffic Impact Due to Construction of Village Government Offices on MT Haryono Road Samarinda City, Indonesia. *Journal of Engineering Research and Reports*. Available at: <https://doi.org/10.9734/jerr/2024/v26i81246> [Accessed 13 Jul. 2025].

Suryaningsi, S., 2024. Socialization of Law No. 16 of 2011 by The Aisyiyah Community in Samarinda: Efforts to Fulfill Justice and Equality before The Law for People Experiencing Poverty. *SALASIKA: Indonesian Journal of Gender, Women, Child, and Social Inclusion's Studies*. Available at: <https://doi.org/10.36625/sj.v7i1.152> [Accessed 13 Jul. 2025].

Hamidov, I., 2020. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingini rivojlantirish asosida eksport salohiyatini oshirish. [Nomi ko'rsatilmagan jurnal], 1, pp.202–210. Available at: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-VOL1-ISS1/S-PP202-210> [Accessed 13 Jul. 2025].

Brata, V. and Chatamallah, M., 2020. Edukasi Kelompok Tani Hutan oleh Eksportir Kopi Indonesia. [Nomi ko'rsatilmagan jurnal], 6, pp.280–283. Available at: <https://doi.org/10.29313/.V6I2.22851> [Accessed 13 Jul. 2025].

Wiyanda, A., S. and Prasetya, F., 2022. Development Tourism Geographic Information System of Samarinda. *TEPIAN*. Available at: <https://doi.org/10.51967/tepi.v3i1.689> [Accessed 13 Jul. 2025].

Gerasimov, A.N., Gromov, E.I., Skripnichenko, Y.S., Grigoryeva, O.P. and Skripnichenko, V.Yu., 2022. Models and forecasts of the export potential of the regional economic system. *Регионология*, 30(4(121)), pp.762–782.



MINTAQANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI TAHLILIDA GEOAXBOROT TEKNOLOGIYALARINI (GIS) KATTA MA'LUMOTLAR (BIG DATA) BILAN INTEGRATSIYALASHUVI

Fazliddinova Z.A.

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va
muammolari" ilmiy tadqiqot markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada geografik axborot tizimlarining (GAT) zamonaviy texnologiyalar bilan, xususan katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt va mashinali o'qitish usullari bilan integratsiyasi yoritilgan. Tadqiqotda GAT texnologiyalarining iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, shaharsozlik va atrof-muhit monitoringi sohalaridagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ArcGIS dasturi va data science vositalari asosida ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish, prognozlash va boshqarish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Bunday yondashuvlar hududiy resurslardan samarali foydalanish va strategik qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: geoaxborot tizimlari, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, ArcGIS, mashinali o'qitish, kartografiya, vizualizatsiya

Аннотация. В статье рассматривается интеграция географических информационных систем (ГИС) с современными технологиями, такими как большие данные, искусственный интеллект и методы машинного обучения. Анализируются возможности применения ГИС в экономике, сельском хозяйстве, градостроительстве и мониторинге окружающей среды. Также обсуждаются функции визуализации, прогнозирования и управления данными на основе ArcGIS и инструментов data science. Подобные подходы играют важную роль в эффективном использовании региональных ресурсов и принятии стратегических решений.

Ключевые слова: ГИС, большие данные, искусственный интеллект, ArcGIS, машинное обучение, картография, визуализация.

Annotation. This paper explores the integration of Geographic Information Systems (GIS) with modern technologies such as big data, artificial intelligence, and machine learning techniques. It analyzes the application of GIS in sectors like economy, agriculture, urban planning, and environmental monitoring. The study highlights the use of ArcGIS and data science tools for data visualization, forecasting, and management. These approaches play a crucial role in the efficient use of regional resources and strategic decision-making processes.

Key words: GIS, big data, artificial intelligence, ArcGIS, machine learning, cartography, visualization

1. Kirish.

Hozirgi davrda ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq masalalar har bir soha faoliyatida keng tarqalgan. Barcha ma'lumotlar geoma'lumotlar bazasi negizida shakllanadi. Bugungi kunda GAT iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalarida keng qo'llanilmoqda. GATdan foydalanish uchun katta hajmdagi yozma va grafikaviy, hudud bilan bog'langan geografik ma'lumotlarni to'plash kerak bo'ladi. Shuning uchun ham geoma'lumotlar bazasi har qanday GAT ning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Geoma'lumotlar bazalari esa maxsus GAT dasturlari yordamida yaratiladi. Ayni paytda, yurtimizda olib borilayotgan tadqiqotlar, shuningdek, GE-UZ loyihasi asosiy GAT dasturi sifatida ESRI kompaniyasining ArcGIS dasturi Geoma'lumotlar bazasini yaratish va boshqarishga qaratilgan. Shuni aytish joizki, ushbu ArcGIS dasturi yordamida bugungi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi bizning yurtimizda ham GAT loyihaiari yaratilmoqda va ularning samarali faoliyat ko'rsatishlari ta'minlanmoqda. Geoaxborot tizimlari loyihalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish uchun geoma'lumotlar bazasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish kerak.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadi aholi manzilgohlarini raqamlashtirish keng foydalanilmoqda. Ma'lumotlar bazasi bilan bog'liq avtomatlashgan yo'l bilan bajariladigan ishlar tarkibiga, a'ng avvalo, ma'lumotlarni tanlash va tabaqalashtirish, ularni xaritalashtirish obyektlari fazoviy tavsiflari bilan muvofiqlashtirish, ma'lumotlarni filtrlash va fazoviy-vaqtli generalizatsiyalash, dinamik qatorlar va maydonlarni interpolatsiyalash, o'tkazib yuborilgan ma'lumotlarni qayta tiklashva ishlashni o'z ichiga oladi. Aholining elektron kartalarini yaratish jarayoning tizimliliigi ushbu maqsadlar zamonaviy usul va vositalardan, birinchi navbatda GAT-texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini izohlaydi.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning jadallashuvi natijasida fan va amaliy hayotda ishonchli va to'liq ma'lumotlarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Bu kabi muammolarda kartografik, statistik ma'lumotlarni operativ ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. ArcGIS Amerika Qo'shma shtatlarining Geografik axborot tizimi (GIS) sohasida faoliyat ko'rsatuvchi ESRI kompaniyasi tomonidan yaratilgan xaritalar va geografik ma'lumotlar bilan ishlash mo'ljallangan dastur.

Ushbu dastur xaritalarni yaratish, ulardan foydalanish, geografik ma'lumotlarni yig'ish, geografik ma'lumotlarni tahlil qilish va almashish hamda ma'lumot bazasini boshqarish uchun ishlatiladi. ArcGIS tizimi xaritalar va geografik ma'lumotlarni tashkilot, jamoat va internetdagi portali orqali foydalanishni ham ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi rivojlanishida ham GAT texnologiyalaridan foydalanish ancha samaralidir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar har bir sohaga shiddat bilan kirib kelmoqda. Bu esa har bir yo'nalishni o'ziga xos rivojlanishga olib keladi. Shu jumladan, qishloq xo'jaligi sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'lmoqda va bu borada ko'plab ishlar olib borilmoqda. GATning geodeziya va ayniqsa, kartografiya sohalarida qo'llanilishidan bir qancha a'ngilliklar kelib chiqadi. Bunda ish hajmi keskin ortib, ma'lumotlarni qayta ishlash va bosmaga chiqarish kabi ishlarga sarflanadiga vaqt keskin kamayadi. Bundan tashqari ma'lumot olish bilan bog'liq bo'lgan ishlar miqdori va sifati ortadi.

Bunda hozirgi kunda mavjud zamonaviy geodezik asboblari, jumladan elektron taxometrlar, sun'iy yo'ldosh orqali obyektning koordinatasini o'ta yuqori aniqlikda bera oladigan qabul qilgichlar juda katta yordam beradi. Shu jihati bilan an'anaviy kartografiya, ya'ni oldingi qog'ozli ko'rinishdagi geoma'lumotlar yordamida ishlash bilan taqqoslaganda elektron geodezik asboblarga, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlariga asoslangan hozirgi zamonaviy kartografiya qancha afzalliklarga ega.

2. Adabiyotlar sharhi.

Geografik axborot tizimlari (GAT) hozirda fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish uchun turli sohalarida ajralmas vositaga aylangan. GAT ilovalari shaharlardagi rejalashtirish, atrof-muhit monitoringi, transport tizimi va favqulodda holatlar boshqaruvi kabi ko'plab sohalarida muhim o'rin egallaydi. Sun'iy yo'ldoshlar, sensorlar va mobil qurilmalardan

olingan fazoviy ma'lumotlarning tez o'sib borayotgan hajmi ushbu katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ilg'or uslublarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi (Villarroya va boshq., 2022).

So'nggi yillarda, ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar GAT imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiruvchi samarali usullarga aylangan. Bu yondashuvlar yanada aniq prognozlar, chuqur tahlillar va samarali qarorlar qabul qilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi (Reichstein va boshq., 2019). Ma'lumotlarga asoslangan tahliliy uslublar fazoviy ma'lumotlarni data science, mashinali o'qitish, sun'iy intellekt va statistik uslublar orqali tahlil qiladi. Bu texnikalar katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamida naqshlar, tendensiyalar va bog'liqliklarni aniqlash orqali an'anaviy GAT yondashuvlari ilg'ay olmaydigan yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bu nuqtai nazardan, data science bilan GAT integratsiyasi orqali tashkilotlar fazoviy tahlilda yangi o'lchamlarni kashf qilishi, resurslarni optimal taqsimlashi va ilgari achimi topilmagan murakkab fazoviy muammolarga echim topishi mumkin (Cao va boshq., 2024).

Tarixan, GAT asosan xaritalash va oddiy fazoviy tahlillar uchun ishlatilgan bo'lib, qo'lda yig'ilgan ma'lumotlar asosida sodda geografik uslublarga tayanilgan (Ahasan va Hossain, 2021). Biroq, hozirda sun'iy yo'ldoshlar, dronlar va boshqa masofaviy sezgirlik texnologiyalari yordamida olinayotgan yuqori aniqlikdagi ma'lumotlar tufayli GAT yanada dinamik va murakkab tizimga aylangan. Bugungi kunda GAT faqatgina statik xaritalar yaratish bilan cheklanmasdan, real vaqt rejimidagi tahlil, prognozlash modellari va vizualizatsiya kabi keng qo'llanilmoqda. Bu evolyutsiya ayniqsa GAT va data science'ning birlashuvi orqali tezlashgan.

Ma'lumotlar hajmi va murakkabligi oshgan sari, an'anaviy GAT vositalari bu ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilishda qiynala boshladi. Mashinali o'qitish, chuqur o'rganish va ilg'or statistik uslublar kabi ma'lumotlarga asoslangan texnikalar aynan shu bo'shliqni to'ldirib, katta fazoviy ma'lumotlar ustida kuchli tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu uslublar GAT mutaxassislariga muhim tushunchalar olish, kelajakdagi holatlarni modellashtirish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi (Li, Zhao va boshq., 2022).

Shu bilan birga, katta ma'lumotlar (big data) zamonaviy GAT ilovalarida markaziy rol o'ynaydi. Katta ma'lumotlar – bu hajmi yoki murakkabligi an'anaviy uslublar bilan qayta ishlashga yaroqsiz bo'lgan ma'lumotlardir (Piovani & Bonovas, 2022). GAT doirasida katta ma'lumotlar quyidagi manbalardan keladi: sun'iy yo'ldosh tasvirlari, sensor tarmoqlari, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va IoT qurilmalari. Bu oqimlar orqali ar yuzasidagi landshaft, ob-havo, transport oqimlari va ekologik o'zgarishlar haqida keng qamrovli axborot olinadi.

Shu tariqa, ma'lumotlarga asoslangan tahliliy texnikalar katta ma'lumotlardan foydalanish orqali yanada chuqur va aniq tahlillarni amalga oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, fazoviy ma'lumotlarni demografik, iqtisodiy yoki ekologik axborot bilan birlashtirish orqali real dunyo tizimlarining murakkabliklarini aks ettiruvchi modellar ishlab chiqish mumkin.

Masalan, shaharsozlikda katta ma'lumotlar transport oqimini tahlil qilish, tirbandlik o'choqlarini bashorat qilish va jamoat transporti yo'nalishlarini optimallashtirishda qo'llaniladi. Atrof-muhit monitoringida esa o'rmonlarni yo'qolishini kuzatish, iqlim o'zgarishining ta'sirini baholash va ifloslantiruvchi moddalar tarqalishini modellashtirish mumkin.

Bunday yo'nalishda katta ma'lumotlar real vaqtli tahlillarni ham ta'minlaydi. Bu ayniqsa favqulodda holatlar boshqaruvi va tezkor javob berish ilovalarida juda muhimdir (Sarker va boshq., 2020; Shah va boshq., 2019). Masalan, sensorlar, dronlar va boshqa qurilmalardan kelayotgan jonli ma'lumotlarni tahlil qilish orqali suv toshqinlari yoki o'rmon yong'inlari kabi vaziyatlar monitoring qilinadi va tezkor qarorlar qabul qilinadi.

Data-driven GAT'dagi eng muhim rivojlanishlardan biri bu mashinali o'qitish algoritmlarining integratsiyasidir. Mashinali o'qitish – bu kompyuterga ochiq kodsiz, ya'ni dasturlashtirilmasdan, ma'lumotlar asosida o'rganish va bashorat qilish imkonini beruvchi

sun'iy intellekt sohasi (Yue va boshq., 2020). GAT'da mashinali o'qitish algoritmlari naqshlarni aniqlash, ma'lumotlarni tasniflash va fazoviy ma'lumotlarga asoslangan prognozlar qilishda qo'llaniladi.

Masalan, sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan âr yuzasi qoplamasi turlarini aniqlash, shahar kengayish tendensiyalarini kuzatish yoki tabiiy ofatlar ehtimolini bashorat qilish uchun mashinali o'qitish modellari qo'llaniladi. Ushbu modellar katta hajmdagi fazoviy ma'lumotlarni qayta ishlay oladi va odamlar qo'lda aniqlay olmaydigan murakkab naqshlarni ochib beradi.

Bundan tashqari, mashinali o'qitish GAT dagi bashorat modellarida ham keng qo'llaniladi. Bunga âr resurslarining o'zgarishi, aholining o'sishi yoki iqlim o'zgarishining ekotizimlarga ta'sirini modellashtirish kiradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil davomida fazoviy vaqtli vizualizatsiya metodlari orqali ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning hududiy dinamikasi ko'rsatilib, GAT va Big Data texnologiyalarining integratsiyasi orqali resurslardan samarali foydalanish va strategik rejalashtirish imkoniyatlari o'rganildi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida O'zbekistonning turli hududlarida ijtimoiy tenglik, infratuzilma rivoji, va iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari fazoviy xaritalar shaklida aks ettiriladi.

4. Tahlil va natijalar.

Geografik axborot tizimlari (GAT) - bu fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, boshqarish va vizual tasvirlash uchun mo'ljallangan kompleks vositalardir. GAT shaharsozlik, tabiiy resurslardan foydalanish, transport tizimlari, ekologik monitoring va favqulodda holatlarni boshqarish kabi ko'plab sohalarda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy GAT faqat xaritalash va asosiy fazoviy tahlillar bilan cheklangan bo'lsa, so'nggi yillarda ma'lumotlar fani va katta ma'lumotlar tahlilining rivojlanishi bilan GAT yanada ilg'or va dinamik tizimga aylandi.

Ma'lumotlarga asoslangan analitik usullar GATning fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish salohiyatini sezilarli darajada kengaytirdi va katta hajmdagi ma'lumotlar manbalarini tahlil qilish uchun kuchli vositalarni taqdim etdi. Ma'lumotlarga asoslangan GAT tahlilining asosini ma'lumotlar fani, statistika, mashinaviy o'rganish va sun'iy intellekt kabi fanlarning kombinatsiyasi tashkil etadi. Bunday yondashuvlar fazoviy ma'lumotlarni chuqurroq anglash, aniq prognozlar tuzish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Xususan, katta ma'lumotlar manbalaridan foydalanish, nega ma'lumotlarga asoslangan analitik yondashuvlar GATda shunchalik muhim ahamiyat kasb etayotganini tushunishga yordam beradi. Geoaxborot tizimlari (GAT) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalari integratsiyasi orqali mintaqaviy rivojlanishni chuqurroq tushunish va rivojlanish strategiyalarini optimallashtirish imkoniyatlari oshadi. Ushbu maqolada GAT va Big Data texnologiyalarining mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni va integratsiya jarayonlari ko'rib chiqiladi.

GAT texnologiyalari hududlarni geografik jihatdan tahlil qilish, kartografik ma'lumotlarni yaratish va ularni boshqarishga yordam beradi. Ushbu tizimlar orqali turli ma'lumotlar fazoviy joylashuv bilan bog'lanib, mintaqadagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar real vaqt rejimida kuzatiladi. Masalan, aholi zichligi, transport harakatlanishi, resurslardan foydalanish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar fazoviy xaritalar yordamida tahlil qilinadi.

Big Data esa katta hajmdagi murakkab va tez yangilanib turuvchi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish texnologiyalarini anglatadi. Ushbu texnologiya ijtimoiy tarmoqlar, davlat statistika ma'lumotlari, infratuzilma monitoringi va boshqa manbalardan olinadigan ulkan hajmdagi axborotni samarali tahlil qilishni ta'minlaydi.

GAT va Big Data integratsiyasining afzalliklari quyidagilardan iborat:

GAT va Big Data ma'lumotlarini birlashtirish orqali mintaqadagi real vaqtli vaziyatni tushunish va aniqroq qarorlar qabul qilish imkoniyati oshadi. Masalan, aholining turli ijtimoiy


xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini fazoviy ma'lumotlar asosida tahlil qilish orqali yangi infratuzilma obyektlari qurilishi samaradorligi oshiriladi.

Katta ma'lumotlar va GAT texnologiyalari integratsiyasi resurslarni optimal boshqarishni ta'minlaydi. Misol uchun, qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini monitoring qilish va suv resurslarini boshqarish orqali mahsuldorlikni oshirish imkonini beradi.

Ma'lumotlar fani (data science) - bu katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mazmunli xulosalar olishga qaratilgan ko'p yo'nalishli fan sohasidir. U statistika, ma'lumotlarni qazib olish (data mining), mashinaviy o'rganish va sun'iy intellekt kabi turli metodlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar fanining geografik axborot tizimlari (GAT) bilan integratsiyasi fazoviy ma'lumotlarni yanada murakkab tahlil qilish imkonini beradi hamda samaraliroq natijalar olishga xizmat qiladi. Ma'lumotlarga asoslangan GAT tahlillari yirik ma'lumotlar manbalaridan olingan fazoviy ma'lumotlarni qayta ishlash orqali naqshlar, tendensiyalar va fazoviy bog'liqliklarni aniqlashga qaratilgan.

Masalan, shaharsozlik sohasida ma'lumotlar fani metodlari transport oqimlari, aholi zichligi va ekologik o'zgarishlar kabi omillarni tahlil qilish orqali samaraliroq rejalashtirish qarorlarini qabul qilishga yordam beradi. Xuddi shunday, atrof-muhit monitoringi sohasida ham iqlim o'zgarishining ta'sirini tahlil qilishda katta hajmdagi ma'lumotlar manbalaridan foydalanish orqali yanada aniq prognozlar tuzish mumkin. GAT va ma'lumotlar fanining uyg'unligi fazoviy tahlillar aniqligini oshiradi va keng qamrovli muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Shunga muvofiq, ushbu tadqiqotda ma'lumotlarga asoslangan analitik usulblarning asosiy komponentlari va qo'llanilish sohalari GAT kontekstida o'rganiladi. Mazkur kontekstda GAT sohasida ma'lumotlarga asoslangan analitik yondashuvlar, katta ma'lumotlar integratsiyasi, geostatistika, masofaviy zondlash, chuqur o'rganish (deep learning) va ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish jarayonlari chuqur tahlil qilinadi (1-rasm).



1-rasm. GIS sxemasida ma'lumotlarga asoslangan analitik usullar

Ma'lumotlarga asoslangan usulblarning Geoaxborot tizimlari (GAT) bilan integratsiyasi fazoviy tahlillar aniqligini oshiradi, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi va keng miqyosdagi fazoviy muammolarni hal qilishda faol rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida shaharlashuvni samaraliroq rejalashtirish, tabiiy resurslarni yaxshiroq muhofaza

qilish va atrof-muhitdagi o'zgarishlarning ta'sirini aniqroq kuzatish mumkin bo'ladi. Natijada, GAT va ma'lumotlar fanidagi bu evolyutsiya fazoviy tahlil dunyosida yangi ufqlarni ochib, kelajakdagi shaharlar, atrof-muhit va infratuzilmani shakllantirishga yordam bermoqda (Kılınç, 2024).

Shuningdek, ushbu tadqiqotda GATda ma'lumotlarga asoslangan tahlillarni amalga oshirishdagi muammolar va kelajakdagi mumkin bo'lgan tadqiqot yo'nalishlari muhokama qilinadi. Ekologik holatni nazorat qilish va atrof-muhitga ta'sirni baholashda GAT muhim o'rin tutadi. Big Data orqali turli manbalardan ekologik ma'lumotlarni yig'ish va ular asosida real vaqt rejimida tahlillar o'tkazish barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Katta ma'lumotlar an'anaviy usullar bilan boshqarish uchun juda katta va murakkab bo'lgan ma'lumot to'plamlarini anglatadi. Bugungi kunda GAT katta hajmdagi fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish uchun muhim vositaga aylangan. Katta ma'lumotlar manbalari, odatda, sensor tarmoqlari, sun'iy yo'ldosh tasvirlari, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar kabi platformalardan to'planadi. Bu ma'lumotlar fazoviy tahlil uchun katta bilim bazasini taqdim etadi.

Ma'lumotlarga asoslangan GAT tahlillari aynan shu katta ma'lumotlar va GATni birlashtirishga asoslanadi. Bunday integratsiya shaharsozlikdan tortib ekologik monitoringgacha bo'lgan ko'plab sohalarida to'g'ri va o'z vaqtida qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Masalan, sun'iy yo'ldosh tasvirlari ob-havo sensorlaridan olingan ma'lumotlar bilan birlashtirilganda, favqulodda holatlar boshqaruvida aniq va tezkor qarorlar chiqarish imkonini beradi. Xuddi shuningdek, mobil qurilmalardan olingan transport ma'lumotlari shaharlardagi transport tizimlarini optimallashtirishda qo'llanilishi mumkin.

Mintaqaviy rivojlanishda geoaxborot texnologiyalari va big data quyidagi amaliy yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin:

Transport va logistika boshqaruvini GAT va Big Data yordamida mintaqalardagi transport harakatlanishini optimallashtirish mumkin. Bu shaharlararo transport tizimlarini rejalashtirishda yo'nalishlarni samarali aniqlash va tirbandliklarni oldini olishda qo'l keladi.

Aholi va ijtimoiy xizmatlar monitoringi ya'ni, tibbiyot va ta'lim sohalarida ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasini tahlil qilishda GAT ma'lumotlaridan foydalanish orqali aholining talablarini qondirish yaxshilanadi. Shuningdek, aholining turli hududlardagi joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini kuzatish rejalashtirishda yordam beradi.

Shaharsozlik va urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun GAT va Big Data ma'lumotlari aholi zichligini tahlil qilish, infratuzilma loyihalarini rejalashtirish va atrof-muhitga ta'sirni nazorat qilishda qo'llaniladi. Bu jarayonlar Tashkent kabi shaharlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Geoaxborot tizimlari (GAT) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarini integratsiya qilish ko'plab yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, bu jarayonda qator muammolar va qiyinchiliklar ham mavjud. Ushbu muammolar texnik, huquqiy va tashkiliy masalalarni qamrab oladi. Quyida ushbu jarayon bilan bog'liq muhim muammolar mavjud.

Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari. GAT va Big Data orqali katta hajmdagi ma'lumotlar yig'iladi, qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Ushbu jarayonda shaxsiy va korporativ ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi. Quyidagi xavflar mavjud:

Aholi va kompaniyalarning joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ma'lumotlar noto'g'ri qo'llarga tushishi xavfi mavjud.

Ma'lumotlarni yig'ish va saqlash jarayonida tizimlarga kiberhujumlar sodir bo'lishi mumkin.

Ayrim davlatlarda ma'lumotlar yig'ish va foydalanish bo'yicha qat'iy qonunlar mavjud. Integratsiya ushbu qonunchilikka rioya qilishni talab etadi.

Big Data va GAT tizimlari orqali yig'iladigan ma'lumotlar har doim ham mukammal sifat va aniqlikka ega bo'lmasligi mumkin. Quyidagi muammolar ko'p uchraydi:

Ba'zan tizimlarga kiritiladigan yoki yig'iladigan ma'lumotlar to'liq emas yoki eskirgan bo'ladi.

Har xil manbalardan keladigan ma'lumotlarni birlashtirishda formatlar va tarkibdagi tafovutlar integratsiya jarayonini qiyinlashtiradi.

Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda noto'g'ri xulosalar chiqarilishi xavfi mavjud.

5. Xulosa.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, geoaxborot tizimlari va katta ma'lumotlar texnologiyalari mintaqaviy rivojlanishni tahlil qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu integratsiya orqali mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin. Transport, shaharsozlik va ijtimoiy xizmatlar sohalarida ushbu texnologiyalarni qo'llash mintaqalarning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Ammo texnik infratuzilma va ma'lumotlar xavfsizligi kabi muammolarni bartaraf etish zarur. Kelgusida GAT va Big Data texnologiyalarini keng joriy etish mintaqaviy rivojlanishni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

GAT va Big Data texnologiyalarini integratsiya qilish mintaqaviy rivojlanishni tahlil qilishda katta imkoniyatlar yaratadi, ammo bu jarayon qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi, texnik infratuzilma ehtiyojlari, malakali kadrlar atishmasligi hamda huquqiy va tartibga solish cheklovlari ushbu jarayonning asosiy to'siqlaridir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlashni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Kelgusida bu texnologiyalardan to'laqonli foydalanish orqali mintaqaviy rivojlanishni yanada samarali tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlari oshadi.

Adabiyotlar:

- Ahasan, R., & Hossain, M. M. (2021). Leveraging GIS and spatial analysis for informed decision-making in COVID-19 pandemic. *Health Policy and Technology*, 10(1),7–9. <https://doi.org/10.1016/j.hlpt.2020.11.009>
- Cao, K., Zhou, C., Church, R., Li, X., & Li, W. (2024). Revisiting spatial optimization in the era of geospatial big data and GeoAI. *International Journal of Applied Earth Observation and Geoinformation*, 129, 103832. <https://doi.org/10.1016/j.jag.2024.103832>
- Li, Y., Zhao, Q., & Zhong, C. (2022). GIS and urban data science. *Annals of GIS*, 28(2), 89–92. <https://doi.org/10.1080/19475683.2022.2070969>
- Piovani, D., & Bonovas, S. (2022). Real World—Big Data Analytics in Healthcare. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 19(18), 11677. <https://doi.org/10.3390/ijerph191811677>
- Reichstein, M., Camps-Valls, G., Stevens, B., Jung, M., Denzler, J., Carvalhais, N., & Prabhat. (2019). Deep learning and process understanding for data-driven Earth system science. *Nature*, 566(7743), 195–204. <https://doi.org/10.1038/s41586-019-0912-1>
- Sarker, M. N. I., Peng, Y., Yiran, C., & Shouse, R. C. (2020). Disaster resilience through big data: Way to environmental sustainability. *International Journal of Disaster Risk Reduction*, 51, 101769. <https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2020.101769>
- Shah, S. A., Seker, D. Z., Hameed, S., & Draheim, D. (2019). The Rising Role of Big Data Analytics and IoT in Disaster Management: Recent Advances, Taxonomy and Prospects. *IEEE Access*, 7, 54595–54614. <https://doi.org/10.1109/ACCESS.2019.2913340>
- Villarroya, S., Viqueira, J. R. R., Cotos, J. M., & Taboada, J. A. (2022). Enabling Efficient Distributed Spatial Join on Large Scale Vector-Raster Data Lakes. *IEEE Access*, 10, 29406–29418. <https://doi.org/10.1109/ACCESS.2022.3157405>
- Yue, P., Gao, F., Shangguan, B., & Yan, Z. (2020). A machine learning approach for predicting computational intensity and domain decomposition in parallel geoprocessing. *International Journal of Geographical Information Science*, 34(11), 2243–2274.
- Kılınc, Murat. (2024). Data-Driven Analytical Techniques in Geographic Information Systems



SOLIQ MADANIYATINING IQTISODIY AHAMIYATI VA TARKIBIY QISMLARI

*Iqtisod fanlari doktori, professor Isroilov B.I.
Iqtisod fanlari doktori, professor Qurbanov Z.N.
Ibragimov B.B.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya: Bu maqolada soliq madaniyati tushunchasi, uning barqaror soliq tizimidagi oʻrni roli tahlil etiladi. Ushbu maqolada soliq madaniyatining tarkibiy qismlari, ularni baholash mezonlari hamda soliq axloqiga taʼsir etuvchi omillar xalqaro tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda soʻrovlar, indekslar va statistik usullardan qoʻllanilib, Oʻzbekiston sharoitida soliq madaniyatini oshirishga doir ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mumkinligi asoslangan.

Kalit soʻzlar: soliq madaniyati, soliq axloqi, soliq xabardorligi, davlatga ishonch, soliq tizimi sifati, fuqarolik ongi, soliq maʼnaviyati, soliqqa itoatkorlik, soliq siyosati

Аннотация: В данной статье анализируется понятие налоговой культуры и ее роль в устойчивой налоговой системе. На основе международных исследований рассматриваются составляющие налоговой культуры, критерии их оценки и факторы, влияющие на налоговую этику. В исследовании обоснована возможность разработки научных и практических рекомендаций по повышению налоговой культуры в условиях Узбекистана с применением опросов, индексов и статистических методов.

Ключевые слова: налоговая культура, налоговая мораль, налоговая осведомленность, доверие к государству, качество налоговой системы, гражданское сознание, налоговая нравственность, налоговое послушание, налоговая политика

Abstract: This article analyzes the concept of tax culture and its role in a stable tax system. The components of tax culture, criteria for their assessment, and factors influencing tax ethics are examined based on international research. The study employs surveys, indices, and statistical methods to substantiate the possibility of developing scientific and practical recommendations for enhancing tax culture in the context of Uzbekistan.

Keywords: tax culture, tax morale, tax awareness, trust in the state, quality of the tax system, civic consciousness, tax morality, tax compliance, tax policy

1. Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyotda soliq madaniyatining darajasi davlatning fiskal barqarorligi, soliqlardan tushumlar hajmi va fuqarolarning qonunlarga boʻlgan munosabatini belgilovchi muhim omil sifatida eʼtirof etilmoqda. Ayni vaqtda, soliqqa itoatkorlik darajasining pastligi, yashirin iqtisodiyot hajmining kattaligi va davlat organlariga boʻlgan ishonchning aʼtari emasligi kabi omillar koʻplab mamlakatlarda jiddiy soliq muammolarini yuzaga keltirmoqda. Mazkur tadqiqot soliq madaniyatining qanday tarkibiy qismlardan iborat ekani, ularni qanday baholash mumkinligi va ularning soliqqa itoatkorlikka taʼsirini aniqlashga xizmat qiladi. Bu masala Oʻzbekiston sharoitida ayniqsa dolzarb, chunki mamlakatda olib borilayotgan keng

qamrovli soliq islohotlari fonida soliq tushumlarini oshirish faqat texnik yoki normativ choralar bilan emas, balki fuqarolarda mustahkam soliq madaniyatini shakllantirish bilan bog'liqdir. Tadqiqotning maqsadi – soliq madaniyatining asosiy komponentlarini tizimli o'rganish, ularni baholash mezonlarini aniqlash hamda xalqaro tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga mos ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu maqola tarkiban quyidagilardan iborat: birinchi bo'limda soliq madaniyatining nazariy asoslari, ikkinchi bo'limda uning tarkibiy qismlari tahlili, uchinchi bo'limda baholash metodologiyasi yoritiladi. Yakunda O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar va xulosalar keltiriladi.

Soliq madaniyati – bu jamiyatda soliqlarga nisbatan shakllangan munosabatlar, qadriyatlar va xulq-atvorlar majmuasidir. Ilmiy manbalarda soliq madaniyati milliy soliq tizimi bilan bog'liq rasmiy va norasmiy institutlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi, bu institutlar xalqning tarixiy madaniy merosiga chuqur singib ketgan (OECD, 2019). Soliq madaniyati fuqarolarning soliqlarni to'lashga ichki moyilligini shakllantiruvchi omillardan biri bo'lib, siyosatchilar, soliq organlari, ekspertlar va soliq to'lovchilar o'zaro aloqasi natijasida vujudga keladi. Bu tushuncha ba'zan “soliq ma'naviyati” (tax morale) atamasi bilan ham ifodalanadi – ya'ni soliqlarni to'lashga bo'lgan ichki motivatsiya. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ta'kidlashicha, soliq madaniyati yoki soliq ma'naviyati ko'ngilli ravishda soliq to'lashga tayyorlik darajasini aks ettirib, aksariyat mamlakatlarda byudjet daromadlarining asosiy qismini shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega (OECD, 2021). Soliq madaniyati kuchli bo'lgan jamiyatda fuqarolar soliqlarni “majburiyat” emas, balki davlat bilan o'zaro munosabatlarning ajralmas qismi “qulaylik” deb ko'radilar. Boshqacha aytganda, soliq madaniyati yuqori bo'lsa, soliqlarni to'lash fuqarolik burchi sifatida qabul qilinadi va soliqqa itoatkorlik umumiy madaniyatning bir qismiga aylanadi.

Xalqaro tajribalar soliq madaniyati darajasini oshirishning bevosita amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ma'naviyatini oshirish orqali soliq tushumlarini sezilarli darajada ko'paytirish mumkinligini qayd etadi (OECD, 2021). Xuddi shunday, IMF mutasaddilari korrupsiya darajasi past bo'lgan davlatlar YAIMga nisbatan 4% gacha ko'proq soliq yig'a olishini aniqlashgan – bu korrupsiya soliq tizimiga ishonchni amirib, soliq madaniyatini zaiflashtirishidan dalolatdir (Furusawa, 2019). Darhaqiqat, korrupsiya va adolatsizlik mavjud joyda fuqarolar soliqlarni ongli ravishda to'lashga kamroq moyil bo'ladilar deb bilamiz. Shu sababli, soliq madaniyatini o'rganish va oshirish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim: bu davlat organlariga bo'lgan ishonchni tiklash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda byudjetga tushumlarni ko'paytirishning barqaror usulidir.

2. Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqot muammosini chuqur tushunish va mavjud intellektual hududni aniqlash uchun so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda tajribaviy tahlillar asosida adabiyotlar tahlili olib borildi. Bu tahlil mavjud ilmiy yondashuvlarni ko'rib chiqish, ilmiy bo'shliqlarni aniqlash va tadqiqot savollarini aniqlashtirish imkonini berdi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti – OECD (2019, 2021) soliq madaniyati va soliqdan ko'ngilli rioya qilishga oid fundamental yondashuvlarni ishlab chiqqan bo'lib, ularning hisobotlarida ta'lim, axborot tarqatish va xizmatlar orqali muvofiqlikni oshirish strategiyalari keng yoritilgan. Torgler va Alm (2006) o'z tadqiqotlarida soliq axloqi va madaniyatining sotsiologik omillar bilan bog'liqligini statistik asosda tahlil qilgan.

Horodnik (2018) soliq ma'naviyatiga ta'sir qiluvchi institutsional omillar, jumladan, davlatga ishonch va adolat hissi kabi jihatlarni tizimli tarzda o'rgangan. McGee va hamkorlari (2020) diniylik va soliq axloqi o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni ko'rsatib berishgan. Yevropa va Lotin Amerikasi davlatlaridagi tadqiqotlar (WVS, Latinobarometro) esa madaniyatlararo soliq munosabatlarini aniqlash imkonini bergan.

So'nggi yillarda Taing va boshqalar (2023) soliq tizimining adolatliligi va hukumatga ishonchning soliq komplayensiga ta'sirini empirik asosda baholashgan. Ekvadordagi tajriba (Andriani, 2019) esa soliq madaniyati indeksi bilan komplayens darajasining bevosita bog'liqligini tasdiqlagan. Bunday tadqiqotlar tadqiqotimizda indeks tuzish, regressiya tahlili va boshqa uslublarni qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotda mahalliy olimlarning ishlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, I. Karimov (1999) O'zbekistonda soliq madaniyatining rivojlanish yo'nalishlarini, u davlat-soliq to'lovchi munosabatlaridagi ishonch muhitining ahamiyatini asoslab bergan. Shuningdek, R. Nishonov (1980) o'z asarlarida fuqarolarning soliq to'lashga bo'lgan ijtimoiy-madaniy munosabati va axloqiy motivlarini tahlil qilgan. Ushbu mahalliy tadqiqotlar O'zbekiston sharoitida soliq madaniyati muammolarini aniqlash va ularning a'chimini taklif qilishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq iqtisodchi tadqiqotchilar tomonidan keying 4 yillikda ushbu mavzu doirasida dissertatsion izlanishlar olib borilmaganligi aniqlandi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili soliq madaniyatini shakllantiruvchi omillarni o'rganishda sotsiologik, psixologik va iqtisodiy yondashuvlarni birlashtirish muhimligini ko'rsatdi. Mavjud ishlarda metodik yondashuvlar turlicha bo'lsa-da, ularning barchasi soliq madaniyati davlatning fiskal salohiyati va jamiyatdagi ijtimoiy ishonchga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot falsafasini aniqlashdan tortib, empirik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Tadqiqot induktiv yondashuvga asoslanadi, ya'ni amaliy kuzatish va ma'lumotlar asosida nazariy xulosalar chiqariladi.

Ma'lumotlar bazasi sifatida birlamchi va ikkilamchi manbalar birgalikda qo'llanildi. Ikkilamchi manbalar sifatida ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar (OECD, IMF, UN) hisobotlari, rasmiy statistika va milliy qonunchilik bazasi tahlil qilindi. Birlamchi ma'lumotlar esa so'rovnomalar va intervyular orqali yig'ildi.

Tanlanma (sampling) jarayonida stratifikatsiyalashgan ehtimollik asosidagi tanlov usuli qo'llanildi. Respondentlar turli yoshdagi, hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlarga mansub fuqarolar orasidan tasodifiy tanlab olindi. Savolnoma tuzilmasi Likert shkalasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, soliq xabardorligi, ishonch, axloq, tizim sifati kabi mezonlarni baholaydi.

Tadqiqot strategiyasi sifatida so'rovnomalar (survey), keys-stadi (case study) va statistik tahlil usullari (korrelyatsiya, regressiya) uyg'unlashtirilgan. Axborotlar maxfiyligi va respondentlarning roziligi ta'minlanib, tadqiqot etikasiga qat'iy amal qilindi.

4. Tahlil va natijalar.

Quyida soliq madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari va ularni baholash indikatorlari xalqaro tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Har bir indikatorning ilmiy asosi va o'lchash metodikasi misollar bilan yoritilib, so'ngra ushbu yondashuvlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Soliq madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari

Soliq madaniyatini tashkil etuvchi bir qator muhim omillar mavjud. Xalqaro tadqiqotlar va tashkilotlar (IHTT, XVJ, akademik izlanishlar) soliq madaniyatiga ta'sir etuvchi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi:

Soliq xabardorligi (soliq savodxonligi)

Soliq xabardorligi yoki savodxonligi deganda fuqarolarning soliq qonunchiligi, soliq tizimi va o'z soliq majburiyatlari to'g'risidagi bilim darajasi tushuniladi. Soliq to'lovchilar soliqlar qanday ishlashi va nima uchun to'lanishini qanchalik yaxshi anglasa, ularning soliq to'lash xulq-atvori shunchalik ongli bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar soliqqa oid bilim va tushunchalar atishmasligi soliqdan bo'yin tovlashga "bilmaslikdan" yoki tushunmaslikdan olib kelishi

mumkinligini ko'rsatadi. E.Hofmann va hammualliflar soliq to'lovchilarning bilim darajasini oshirish "compliance"ni yaxshilash strategiyasining muhim qismi ekanini ta'kidlaydi: faqat jarimalar va tekshiruvlarga tayangan bir tomonlama yondashuv o'rniga, soliq madaniyatini oshirish uchun fuqarolarning soliq qonunlarini bilishi va soliq masalalariga ijobiy munosabat bildirishini shakllantirish zarur (Nerre, 2008). Bu shuni anglatadiki, soliq savodxonligi yuqori bo'lsa, soliq to'lash mas'uliyati haqidagi tushuncha ham yuqori bo'ladi.

Soliq xabardorligini o'lchash odatda so'rovnomalar va bilim testlari orqali amalga oshiriladi. Xalqaro tajribada soliq savodxonligini baholash uchun quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

- *Soliq bilimlari testi*: Fuqarolar yoki biznes vakillariga soliq stavkalari, soliq deklaratsiyasini to'ldirish tartibi, imtiyozlar va javobgarliklar haqidagi savollar berilib, ularning to'g'ri javoblari ulushi aniqlanadi. Masalan, Avstraliya Soliq idorasi yoshlar o'rtasida soliq bo'yicha viktorinalar o'tkazib, natijada qancha foiz respondentlar soliq tushunchalarini to'g'ri bilishini o'lchaydi. Bunday testlar soliq tushunchalaridagi bo'shliqlarni aniqlashga yordam beradi.

- *Ommaviy so'rovlar*: Fuqarolar o'rtasida "Siz soliq tizimi qanday ishlashini yaxshi tushunasizmi?" kabi Likert shaklidagi savollar (to'liq tushunaman dan umuman tushunmayman gacha baholash) beriladi. Shuningdek, taxpayer education dasturlari samaradorligini baholash uchun avval va keyingi bilim darajasini solishtirish usuli qo'llaniladi. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Building Tax Culture, Compliance and Citizenship" hisobotida 59 mamlakatdagi 140 ta ta'lim tashabbusi ko'rib chiqilib, soliqqa oid bilimlarni oshirish yosh avlodning soliq madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani qayd (Horodnic, 2018).

- *Bilvosita ko'rsatkichlar*: Shuningdek, aholining soliq masalalarida xabardorligini soliqqa oid xatoliklar soni, soliq idoralariga murojaatlar statistikasi yoki deklaratsiyalarni hamda hisobotlarni o'z vaqtida topshirish ko'rsatkichi orqali ham baholash mumkin. Masalan, agar soliq deklaratsiyalarida (hisobotlarida) qo'yilayotgan xatolar yil sayin kamayib borsa yoki elektron deklaratsiyadan (hisobot topshirishdan) foydalanuvchilar ulushi oshsa, bu soliq savodxonligi ortayotganidan dalolat beradi.

Malayziyada soliq xabardorligini oshirish maqsadida maktablardayoq maxsus Tax Awareness (soliq xabardorligi) dasturlari joriy etilgan bo'lib, natijada yoshlar soliqlarning jamiyat hayotidagi ahamiyatini ota-onalariga nisbatan yaxshiroq tushuna boshlaganliklari aniqlangan. Bu kabi tashabbuslar keyinchalik maxsus so'rovlar orqali baholanib, dastur qatnashchilari orasida soliqlarni ijobiyroq qabul qilish shakllangani (kelgusida ko'ngilli compliance kutilayotgani) kuzatilgan (Horodnic, 2018).

Davlatga ishonch (vertikal ishonch)

Davlatga ishonch – bu fuqarolarning hukumat institutlariga, xususan soliq organlariga bo'lgan ishonch darajasidir. Bu omil soliq madaniyatining eng muhim tarkibiy elementlaridan biri sanaladi. Tadqiqotchi I.Horodnic (2018) o'zining soliq ma'naviyati bo'yicha tizimli tahlilida ishonch eng asosiy komponent ekanini va soliq ma'naviyati "vertikal" (fuqaro–hukumat) hamda "gorizontal" (fuqaro–fuqaro o'rtasida) ishonch bilan ijobiy bog'liqligini ta'kidlaydi. Ya'ni, agar fuqarolar hukumatga ishonsa va jamiyatda odamlarga xos insofilik muhiti mavjud bo'lsa, soliqlarni to'lashga ichki rag'bat (soliq ma'naviyati) kuchliroq bo'ladi. Aksincha, byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishi yoki korrupsiya holatlari ishonchni pasaytiradi va fuqarolar o'z soliqlarini to'lashni "ma'nisiz" deb bilishi mumkin. Davlatga ishonch odatda ijtimoiy so'rovlar orqali sifat va miqdor jihatdan baholanadi:

- *Jamoatchilik fikri so'rovlari*: Respondentlarga davlat institutlariga ishonch darajasini aniqlovchi savollar beriladi. Masalan, Jahon Banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tadqiqotlarida "Hukumat yig'gan soliqlarni oqilona sarflayotganiga ishonasizmi?" yoki "Soliq organlari fuqarolarga adolatli munosabatda bo'ladi" degan bayonotlarga fuqarolar qanchalik qo'shilishi Likert shkalasida baholatilib, ishonch indeksi

tuziladi (Hofmann va boshq., 2008). Likert shkalasi (masalan, 1 – mutlaqo ishonmayman, 10 – to‘liq ishonaman) ishonchni miqdoran qayd etish va vaqt o‘tishi bilan dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

• *Xalqaro indekslar:* Davlatga umumiy ishonchni baholovchi turli indekslar mavjud. Masalan, Edelman Trust Barometer, World Values Survey yoki Gallup World Poll doirasida har yili turli mamlakatlarda hukumat va davlat idoralariga ishonch darajasi o‘lchanadi. Ushbu natijalar soliqdarga nisbatan munosabat bilan taqqoslanadi. Ko‘pincha, hukumatga ishonch yuqori davlatlarda soliqdan bo‘yin tovlashni oqlovchi fikrlar kam uchrashi aniqlanadi. Masalan, xalqaro tadqiqotlarda Skandinaviya davlatlarida aholining hukumatga ishonchi mustahkam bo‘lgani uchun soliq ma‘naviyati ham balandligi, aksincha ba‘zi boshqa Yevropa davlatlarida ishonch pastligi soliq axloqi darajasini tushirib qo‘ygani qayd etilgan (OECD, 2019).

• *Bilvosita ko‘rsatkichlar:* Davlat organlariga ishonchni bilvosita ravishda soliq to‘lovining qamrovi va ko‘ngilli muvofiqlik (compliance) darajasi orqali ham anglash mumkin. Agar fuqarolar ko‘proq o‘z xohishlari bilan soliqlarini to‘lashsa, soliqlarni yashirishga harakat qilmasa – bu davlatga bo‘lgan ishonch belgisi. Shuningdek, soliq tushumlari/YaMI nisbati yoki yashirin iqtisodiyoti ulushi kabi makro ko‘rsatkichlar ham ishonch va soliq madaniyati orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishi mumkin. XVF ma‘lumotlariga ko‘ra, Gruziyada korrupsiyaga qarshi keskin choralar va davlat boshqaruvidagi shaffoflik o‘sishi natijasida soliqdarga ishonch tiklanib, soliq tushumlari bir necha yil ichida YaIMga nisbatan 13 foizga oshgan. Tahlillarga ko‘ra, Lotin Amerikasi davlatlarida fuqarolarning hukumatga ishonchi past bo‘lgan joylarda soliqlardan qochish hollari ko‘proq uchraydi (Furusawa, 2019). Buni o‘zgartirish uchun ayrim davlatlarda soliqlar evaziga aholiga ko‘proq ko‘zga ko‘rinarli xizmatlar ko‘rsatilinishiga harakat qilinadi. Braziliyada soliqdardan tushgan mablag‘lar qayerga sarflangani haqidagi ochiq hisobotlar va qurilgan infratuzilma obyektlari (maktablar, shifoxonalar) haqida axborot berish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Natijada, o‘tkazilgan so‘rovlarni fuqarolarning “soliqlarimiz nimaga ketayotganini bilamiz va natijasini ko‘ryapmiz” degan javoblarni oshganini, bu esa davlatga ishonchni tiklashga xizmat qilganini ko‘rsatgan. Shu tariqa, ishonch ortishi bilan keyingi yillarda Braziliyada soliq majburiyatlarini bajarish intizomi sezilarli yaxshilangan (Furusawa, 2019).

Ijtimoiy mas‘uliyat va axloqiy majburiyat (soliq ma‘naviyati)

Ijtimoiy mas‘uliyat nuqtai nazaridan soliqlarni to‘lash – bu jamiyat farovonligi uchun shaxsiy axloqiy burch sifatida qaraladigan tushunchadir. Bu komponent ko‘pincha soliq ma‘naviyati yoki soliq axloqi (tax morale) tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, kishining qonun talab qilganidan qat‘i nazar soliqlarni to‘lashga bo‘lgan ichki majburiyat hissini ifodalaydi deb bilamiz. Soliq ma‘naviyati soki soliq axloqi yuqori bo‘lgan shaxs soliq organlarini aldash yoki ulardan “yashirinishni” axloqan noto‘g‘ri deb biladi, jamiyat manfaatini o‘z shaxsiy foydasidan ustun qo‘yadi. Olimlar va tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, soliq ma‘naviyati “soliqlarni to‘lashga bo‘lgan ichki motivatsiya” deb umumiy ta‘riflanadi. Akademik izlanishlar (masalan, B.Torgler tadqiqotlari) soliq ma‘naviyatiga quyidagi omillar ta‘sir qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan: shaxsiy halollik tamoyillari, soliqlarni to‘lashni ko‘pchilikka xos norma deb qabul qilish (ijtimoiy norma), va davlat bilan fuqarolar orasidagi “fiskal ijtimoiy kelishuv” – ya‘ni davlat fuqarolarga xizmatlar ko‘rsatishi evaziga fuqarolar soliqlarni to‘lashi kerak degan kelishuv tushunchasi. Ayrim tadqiqotlar ijtimoiy mas‘uliyat hissi baland bo‘lishiga ta‘sir etuvchi omillar qatorida axloqiy qadriyatlar va shaxsiy halollikni ham ko‘rsatadi. Turkiyada o‘tkazilgan so‘rov natijalari dindorligi yuqoriroq shaxslar soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni oson oqlamasliklari, kamroq dindor respondentlar esa turli sabablar bilan soliqlarni to‘lamaslikni o‘ziga oqlash ehtimoli balandroq ekanini ko‘rsatgan (OECD, 2019). Boshqa tadqiqotlarda esa bevosita diniylik va soliq axloqi o‘rtasida statistik bog‘liqlik topilmagani, bu munosabat murakkab va bilvosita omillarga ham bog‘liqligi aytilgan. Shunday bo‘lsa-da, aksar hollarda jamiyatda halollik, vijdonlilik kabi axloqiy qadriyatlar qanchalik kuchli bo‘lsa, fuqarolarning soliq borasidagi mas‘uliyati ham shunchalik baland bo‘lishi kuzatiladi. Ijtimoiy mas‘uliyat va soliq

ma'naviyatini o'lchash asosan ijtimoiy so'rovnoma va psixologik o'lchovlar orqali amalga oshiriladi. Eng mashhur usul – bu fuqarolarga “soliq to'lash axloqan to'g'ri ish” degan qarashni qanchalik qo'llab-quvvatlashlarini so'rash yoki soliqlardan qochishni oqlash yoki oqlamaslik haqidagi savollar berish. World Values Survey (WVS) tomonidan xalqaro tadqiqotlarda “Mumkin bo'lsa soliqlardan bo'yin tovlashni oqlash mumkinmi?” degan savol beriladi. Respondentlar 1 dan 10 gacha shkalada baho beradilar (1 – “hech qachon oqlab bo'lmaydi” degani, 10 – “to'liq oqlasa bo'ladi”). Tadqiqotchilar ushbu Likert-tartibiy shkala natijasini tahlil qilib, o'rtacha ball yoki “hech qachon oqlab bo'lmaydi” deb javob berganlar ulushi orqali jamiyatdagi soliq ma'naviyati darajasini chiqaradilar. Masalan, Jahon qiymatlar tadqiqoti (WVS) ma'lumotlari asosida J.Alm va B.Torgler (2006) 1990-2000 yillarda turli mamlakatlarda soliq ma'naviyati ko'rsatkichlarini solishtirib, unga ta'sir etuvchi omillar tahlilini olib borishgan. Natijada, soliq ma'naviyati darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda yashirin iqtisodiyoti ulushi kichikroq ekani aniqlangan – ya'ni fuqarolarning axloqiy majburiyat hissi real soliq tushumlariga ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim tadqiqotchilar bir nechta savoldan iborat kompleks indeks tuzadilarva soliq axloqi bo'yicha bir nechta Likert savollari (masalan, “soliq to'lash – yaxshi fuqarolik belgisidir”, “boshqalar soliq to'lamasa ham men to'lashim kerak” kabi) bo'yicha ballar jamlanib, “Soliq ma'naviyati indeksi” chiqarilishi mumkin. Bu indeks keyinroq boshqa omillar bilan regressiya analizida ishlatiladi yoki mamlakatlararo taqqoslanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ham o'zining 2019 yildagi hisobotida turli davlatlarda soliq ma'naviyatini solishtirish uchun so'rovnoma ma'lumotlaridan foydalangan holda soliq ma'naviyati darajasini baholagan. Ushbu hisobotda Lotin Amerikasi va Karib mintaqasida soliq ma'naviyati global o'rtachadan pastroq ekani, chunki fuqarolarning davlat xizmatlaridan qoniqishi va ishonchi pastligi ko'rsatilgan (Horodnic, 2018).

Ba'zi ilmiy ishlar laboratoriya yoki dala (field) eksperimentlari orqali ham soliq axloqini o'lchaydi. Ishtirokchilarga anonim sharoitda biror daromad berilib, undan soliqqa teng miqdorni ajratish taklif qilinadi – natijada qancha kishi ixtiyoriy ravishda soliq to'lagani axloqiy xatti-harakatning eksperimental o'lchovi bo'lishi mumkin. Bunday tadqiqotlar odatda soliqlar jamiyatga qaytishini ko'z oldiga keltirish (public goods game) kabi shartlarda o'tkazilib, agar ishtirokchilar jamiyat manfaati uchun pul ajratishsa, bu ularning ijtimoiy mas'uliyat hissini anglatadi.

Yevropa davlatlari kesimida o'tkazilgan tadqiqotlarda soliq ma'naviyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda soliqlardan qochishni hech qachon oqlab bo'lmaydi deb hisoblovchilar ulushi yuqori chiqqan. Skandinaviya davlatlarida respondentlarning aksariyati soliqlarni to'lashni fuqarolik burchi deb bilishini bildirgan bo'lsa, ayrim Janubiy Yevropa mamlakatlarida soliqlardan qochishni ba'zi hollarda “tushunish mumkin” deb hisoblovchilar nisbatan ko'proq topilgan. Ushbu farqlarni tadqiqotchilar turli mintaqalardagi soliq madaniyati an'analari bilan bog'lashadi. Shimoliy Yevropada tarixan soliqlarning jamiyat farovonligiga sarflanishi ancha shaffof bo'lgani uchun fuqarolarning soliq axloqiyati mustahkam shakllangan (OECD, 2019).

Soliq tizimining sifati (adolat va qulaylik)

Soliq tizimining sifati deganda soliqqa oid qonunlar va ma'muriyatchilikning adolatligi, shaffofligi, qulayligi va samaradorligi tushuniladi. Bu komponent soliq madaniyatiga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi:

birinchidan, tizim qanchalik adolatli va hamma uchun barobar ishlasa (gorizontal va vertikal adolat ta'minlansa), fuqarolar soliqlarni to'lashni shunchalik o'z burchi deb qabul qiladi;

ikkinchidan, soliq to'lash jarayoni qanchalik soddalashtirilgan va tushunarli bo'lsa, shuncha ko'ngilli muvofiqlik oshadi (ya'ni fuqarolar qasddan emas, balki murakkablik tufayli bo'yin tovlash holatlari kamayadi).

Ilmiy tadqiqotlarda soliq tizimining sifati tarkibida quyidagilar alohida ta'kidlanadi:

Adolat va tenglik: Fuqarolar soliq yuklamasi teng taqsimlanishiga katta ahamiyat beradilar. Agar soliqlar asosan insof bilanto'laydiganlarning âlkasiga tushib, boshqalar javobgarlikdan qochayotganini ko'rishsa, "adolat buzilishi" tufayli ular ham soliqdan bo'yin tovlashga moyil bo'lib qolishi mumkin. Shuningdek, yuqori daromadlilar va past daromadlilar uchun soliqlar nisbatan adolatli belgilanganmi degan tasavvur ham muhim – ijtimoiy tengsizlik ortib ketgan jamiyatlarda soliq qonunchiligiga rioya qilish pasayishi mumkin, chunki bunday jamiyatda aholining bir qismi soliq tizimini "nohaq" yoki "adolatsiz" deb biladi. Agar soliq yukining taqsimoti jamiyat tomonidan adolatli deb qabul qilinsa, soliq axloqi oshadi; aksincha, soliqlar boylarga nisbatan yumshoq, o'rta qatlamga nisbatan og'ir tushsa, bu soliq madaniyatining asosiy ustunlarini âmirishi mumkin.

Soddalik va shaffoflik: Soliq qonunchiligining murakkabligi yoki soliqqa tortish mexanizmining samarasizligi fuqarolarda norozilik uyg'otadi. Soliq to'lash jarayoni byurokratik to'siqlarga to'la bo'lsa, bu insoflisoliqto'lovchi uchun ham qo'shimcha "jazodiy" ko'rinadi. Jahon Bankining Doing Business reytingidagi "Soliq to'lash" ko'rsatkichi yoki boshqa tadqiqotlardagi Tax Complexity Index kabi o'lchovlar soliq tizimi qanchalik sodd va tushunarli ekanini baholaydi. Soddalik yuqori bo'lsa, soliqlarni o'z vaqtida to'lashda ko'ngillilik ortadi. Korxonalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada korxonalar soliq ishonchligi (tax certainty) masalasini ko'targan: soliqqa oid qonunchilik murakkab va noaniq bo'lsa, biznes soliqqa rioya qilishdan ko'ra undan qochishni afzal ko'rishi mumkin (OECD, 2021). Shu bois, soliq tizimining sifati jamiyatdagi soliq madaniyati uchun zamin yaratadi – sifatli tizim fuqarolarda "soliq bu yuk emas, normal holatya'nu qulay" degan qarashni shakllantiradi. Soliq idoralarining fuqarolar bilan muomalasi, xizmat ko'rsatish sifati ham muhim. Agarda soliqchilar fuqarolarni faqat nazorat va jazolash obyekti deb qabul qilmay, balki ularga xizmat ko'rsatuvchi hamkor deb yondashsa, soliq to'lovchilarning munosabati ijobiyroq bo'ladi. Buni biz O'zbekiston soliq tizimining islohotlari natijasidasoliq to'lovchilarning soliq organlariga bo'lgan real munosabati yaxshi tomonga o'zgraganligida ko'rishimiz mumkin. OECD buni "xizmat ko'rsatish orqali compliance" konsepsiyasi deb ataydi. Elektron deklaratsiya tizimlari, call-markazlar, soliq imtiyozlari bo'yicha maslahat berish kabi qulayliklar joriy etilishi soliq madaniyatini oshiradi. Bu orqali fuqarolar soliq organlarini "dushman" emas, yordamchi deb ko'ra boshladilar. Singapur davlatida soliq to'lovchilarining aksariyati soliq tizimini adolatli deb baholashi, u ârdagi yuqori komplayns darajasini izohlovchi omillardan biridir.

Soliq tizimi sifatiga doir "Paying Taxes Index" (avval Jahon Banki Doing Business tarkibida bo'lgan), Tax Administration Diagnostic Assessment Tool (TADAT) kabi ko'rsatkichlar majmuasi mavjud. Paying Taxes indeksida soliqlar soni, ularni to'lashga ketadigan vaqt, soliq stavkalari balandligi kabi jihatlar integratsiyalangan. Tizim qanchalik samarali bo'lsa, bu indeksda mamlakat yuqoriroq o'rin egallaydi va odatda bu mamlakatlarda soliq madaniyati ham yuqori bo'ladi. Boshqa bir o'lchov – Korrupsiya sezgi Indeksi ham dolzarb, chunki soliq tizimining sifati korrupsiyaning yo'qligi bilan bog'liq. Korrupsiya yuqori bo'lgan davlatlarda fuqarolar soliqlar teng va adolatli undirilayotganiga ishonmaydi va imkon bo'lsa soliqlardan qochishga intiladi. Soliq tizimi sifatini baholash uchun ma'lum bir byudjet jarayonlari tahlili ham qo'llanadi. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar kimlarga berilayotgani, yirik soliq to'lovchilar ulushi, soliqlarni undirish xarajatlari (tax cost of collection) kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Agar soliq organlar o'ziga yuklangan vazifani kam byurokratiya va past xarajatlar bilan uddalayotgan bo'lsa, bu sifat belgisi. XVFning soliq boshqaruvi bo'yicha diagnostikasi shu kabi ko'rsatkichlarni monitoring qilib, tavsiyalar beradi. Boshqaruv sifati oshgan sayin soliq tushumlarining ko'payishi va fuqarolar noroziligining kamayishi bilan soliq madaniyati mustahkamlanishi kutiladi.

Yaqinda o'tkazilgan bir tadqiqotda (Taing va boshq., 2023) soliq to'lovchilarning komplaynsini nima ko'proq belgilashi o'rganildi. Natijada, soliq tizimiga adalatli deb ishonishkomplaysni sezilarli oshirishi statistik jihatdan aniqlangan bo'lsa-da, hukumatga ishonchning bevosita ta'siri ahamiyatli chiqmagan. Bu shuni ko'rsatadiki, ba'zi holatlarda

fuqarolar uchun “davlat men to‘lagan soliqlarni adolatli undiryaptimi va oqilona sarflayaptimi?” degan savol “davlatga umuman ishonchim qanday?” degan savoldan ham muhimroq bo‘lishi mumkin. Demak, agar soliq tizimi sifati (adolat, soddalik va shaffoflik) bo‘yicha islohotlar qilinsa, qisqa muddatda soliq madaniyatini oshirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Gruziyada 2000-yillarning boshida soliq ma‘muriyatchiligi tubdan isloh qilinib, soliq undirish jarayonlari soddalashtirildi, korrupsiya deyarli yo‘q qilindi. Bu o‘z navbatida bir necha yil ichida soliq tushumlarini ikki baravarga oshirdi va fuqarolar orasida “soliqlar baribir cho‘ntakka ketadi” degan kayfiyatning pasayishiga erishildi (Furusawa, 2019).

Fuqarolik ong darajasi (civic consciousness)

Fuqarolik ong darajasi – bu jamiyat a‘zolarining o‘z fuqarolik burchlarini anglashlari, davlat va jamiyat oldidagi mas‘uliyatlarini his qilishlari darajasidir. Bunga ovoz berish, qonunlarga rioya qilish, jamiyat ishlarida faol qatnashish kabi ko‘plab jihatlar kiradi. Soliq to‘lash ham fuqarolik majburiyatining muhim qismi sifatida qaraladi. Agar jamiyatda fuqarolik ong (civic consciousness) yuqori bo‘lsa, odamlar soliqlarni ham jamiyat oldidagi qarz deb biladilar. Aksariyat mamlakatlar yosh avlodni shu ruhda tarbiyalashga intilayotganini qayd etadi – ya‘ni soliqlar fuqarolarning davlat bilan munosabatidagi huquq va majburiyatlarning ajralmas bir qismi ekani o‘rgatilishi lozim.

Fuqarolik ong soliq madaniyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?

Birinchi, milliy g‘urur va vatanparvarlik hissi soliqqa bo‘lgan munosabatga ta‘sir etadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, mamlakati bilan faxrlanish his-tuyg‘usi baland bo‘lgan fuqarolar soliqlarni ham mamlakat ravnaqi uchun o‘z hissasi deb bilib, uni to‘lashga moyilroq bo‘ladi (OECD, 2019). Milliy birdamlik yuqoribo‘lsa jamiyatda “hamma manfaatdor bo‘lgan umumiy ish”ga hissa qo‘shish istagi kuchli bo‘ladi.

Ikkinchi, ijtimoiy kapital va ishonch (social capital) – ya‘ni fuqarolar o‘rtasidagi hamkorlik ruhiyati – yuqori bo‘lsa, soliq to‘lash ham jamoaviy mas‘uliyat sifatida qabul qilinadi (boshqalar ham to‘laydi, men ham to‘lashim kerak degan fikr).

Ilmiy manbalarda fuqarolik ong darajasining yuqoriligi soliq axloqini mustahkamlovchi ijtimoiy norma hosil qilishi aytiladi (OECD, 2019). Jamiyatda soliqlarni to‘lamaslik qoralanuvchi xatti-harakat bo‘lib qolsa (normativ muhit yaratilsa), aksariyat fuqarolar bu normaga bo‘ysunadi – chunki ijtimoiy bosim va o‘zini fuqarolikdan chetda qoldirmaslik istagi kuchayadi. Aksincha, fuqarolik ong susaygan va ijtimoiy ishonch past jamiyatlarda soliqlarni to‘lash “boshqalarga to‘laganimdan menga foyda yo‘q” degan egoistik qarash bilan yondashiladi va bu soliq madaniyatini zaiflashtiradi.

Fuqarolik ongini bevosita o‘lchash qiyin bo‘lsa-da, bir nechta yondashuv qo‘llaniladi:

Fuqarolik faolligi (masalan, saylovlarda qatnashish foizi, jamoat ishlari yoki xayriya tadbirlarida ishtirok etish darajasi) fuqarolik ong indikatorlari sifatida qaraladi. Agar saylovlarda qatnashish juda past bo‘lsa yoki odamlar mahalla va jamoat faoliyatiga mutlaqo qiziqmasa, bu umumiy fuqarolik ong pastligini ko‘rsatishi mumkin. Bu esa soliqqa munosabatga ham ta‘sir qiladi – chunki soliqlar ham jamiyat hayotining bir qismi sifatida e‘tibordan chetda qolishi mumkin.

So‘rovnomalarda “Yaxshi fuqarolik nimani anglatadi?” degan savol bilan respondentlarning soliqqa doir fikrlari ham bilib olinadi. Yevrobarometr tadqiqotida Yevropa Ittifoqi fuqarolariga yaxshi fuqaroni ta‘riflash uchun bir nechta javoblardan tanlash taklif qilingan, shunda ko‘pchilik “qonunlarga va soliqqa rioya qilish” eng muhim fuqarolik burchlaridan biri deb tan olgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatlar bo‘yicha farq qilishi mumkin – ba‘zi jamiyatlarda soliqqa rioya qilish fuqarolik identifikatorining ajralmas qismi hisoblanadi, ayrimlarida esa unchalik emas. Shuningdek, fuqarolar davlat bilan o‘zaro munosabatini qanday ko‘rishini ham so‘rash mumkin: masalan, “Davlat – bu biz fuqarolar birgalikda saqlab turadigan tizim va unga hissa qo‘shishimiz kerak” degan fikrga qo‘shilish darajasi. Bu kabi savollar jamiyatda fuqarolik ongining soliqqa bog‘liq jihatlarini yoritadi.

Fuqarolik ong ko'pincha umumiy savodxonlik, ta'lim darajasi va huquqiy onglilik bilan ham bog'liq. Shuning uchun ayrim hollarda makro ko'rsatkichlar – masalan, aholining o'rtacha o'qish yillari, huquqiy madaniyat dasturlari qamrovi – ham bilvosita indikator sifatida qaralishi mumkin. Oliy ma'lumotli shaxslar ko'p jamiyat odatda o'z huquq va burchlarini yaxshiroq anglaydi. AQShda har yili aprel oyida soliq to'lash muddati yaqinlashganda fuqarolik mas'uliyati mavzusida ommaviy kampaniyalar o'tkaziladi. "Taxes are the price we pay for civilized society" (Soliqlar – madaniy jamiyat uchun to'laydigan narximiz) degan mashhur shior odamlarni soliqlarni fuqarolik jamiyatiga qo'shgan hissasi sifatida ko'rishga undaydi. Bu g'oya ilk bor AQSh Oliy sudi sudyasi O.Uendell Xolms tomonidan aytilgan bo'lib, keyinchalik ommaviy ongga singgan. Natijada, so'rovnomalar amerikaliklarning aksariyati soliqlarni yoqtirmasalar-da, uni to'lash fuqarolik burchi ekanini tan olishini ko'rsatadi. Bunday madaniy yondashuv, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi davrida va undan keyin soliqlarni oshirish talab qilinganda fuqarolar roziligini olgan muhim omil bo'lgan.

Yuqoridagi har bir tarkibiy qism soliq madaniyatining muhim qirrasini bo'lib, ular birgalikda jamiyatning soliqqa doir qarash va xulqini shakllantiradi. Endi esa ushbu indikatorlarni tadqiqotlarda baholashda qo'llanadigan metodologik yondashuvlarga to'xtalamiz.

Soliq madaniyatining turli jihatlarini o'lchash va tahlil qilish uchun ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan bir qator metodologiyalar mavjud. Xalqaro amaliyotda eng ko'p uchraydigan yondashuvlar – bu so'rovnoma usullari (jumladan Likert shkalasi orqali baholash), indekslar tuzish, va regressiya hamda statistik tahlillar orqali bog'liqlik va ta'sir kuchini aniqlash. Har bir metodologiya o'zining afzallik va cheklovlariga ega bo'lib, ko'pincha bir nechta uslub birgalikda qo'llanadi.

So'rovnomalar va Likert shkalasi

So'rovnoma (survey) – soliq madaniyatining ko'zga ko'rinmas jihatlarini (qarashlar, ishonch, motivatsiya) o'lchashning asosiy vositalaridan biridir. Maxsus tuzilgan anketalar yordamida keng ko'lamdagi respondentlardan ma'lumot to'plash mumkin. Xalqaro tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan so'rovlar qatoriga Jahon qiymatlar so'rovi (WVS), Xalqaro ijtimoiy tadqiqotlar dasturi (ISSP), Afrobarometer, Eurobarometer va boshqalar kiradi. Bularda soliqqa oid savollar bloklari mavjud bo'lib, soliq ma'naviyati, ishonch va hokozolar baholanadi.

Likert shkalasi esa so'rovnomalarda ko'pincha qo'llaniladigan psixometrik usul bo'lib, respondentning ma'lum bir bayonotga munosabatini aniqlashga xizmat qiladi. Misol uchun: "Soliq to'lash – mening fuqarolik burchim" degan bayonotga mutlaqo qo'shilaman (Yapar va Keskin, 2023) dan mutlaqo qo'shilmayman (OECD, 2019) gacha baho berish so'raladi. Likert shkalasi yordamida olingan natijalar orqali respondentlarning o'rtacha munosabat darajasi, yoki ulardagi tarqoqlik (dispersion) tahlil qilinadi. Likert bo'yicha ba'zi afzalliklar:

- respondentning nozik munosabatlarini ham bosqichma-bosqich o'lchash (faqat "ha yoki yo'q" bilan chegaralanmasdan).

- ko'p savollar natijasida integrallashgan balni hisoblash imkoni – masalan, 5 ta turli bayonot bo'yicha ballarni qo'shib, shaxsning soliq bo'yicha umumiy "munosabat bali"ni chiqarsa bo'ladi.

- psixologik konstruktsiyalarni (motivatsiya, ishonch) miqdoriy ifodalash imkoniyati, bu keyin statistik tahlilga qulay.

So'rovnomalar yordamida nimani o'lchash mumkin? Yuqorida keltirilgan komponentlarning har biri bo'yicha so'rov anketalariga savollar kiritiladi:

- soliq xabardorligi: soliq atamalarini bilish darajasi, soliqlarga doir yangiliklardan xabardorlik, deklaratsiya topshirish tajribasi haqidagi savollar.

- davlatga ishonch: davlat xizmatlaridan qoniqish, soliqlar sarflanishining shaffofligi haqidagi sub'yektiv baholar.

- ijtimoiy mas'uliyat: soliqlardan qochishning axloqiy bahosi, soliqlarni to'lashga tayyorlik darajasi (masalan, "hech kim ushlamasa ham soliq to'lardim" degan savolga javob).

- tizim sifati: soliq qonunlarining tushunarligi, soliq idoralarining professionalligi va korrupsiyasizligi haqidagi fikrlar.

- fuqarolik ong: soliqlarni to'lashni fuqarolikning bir qismi deb hisoblash-qisoblamaslik, "yaxshi fuqarolar soliqlarni to'laydi" degan fikrga munosabat.

So'rov natijalarini tahlil qilishda deskriptiv statistikalar (o'rtacha, median, taqsimot) va chastotalar (masalan, nechta foiz odam "mutlaqo qo'shilaman" dedi) chiqariladi. Bular soliq madaniyati ko'rsatkichlarining jamiyatdagi tarqalishini ko'rsatadi. Shuningdek, kesma bo'yicha farqlar ham qiziq: masalan, yoshlar va keksa avlodning soliqqa munosabatidagi farqlar, shahar va qishloq aholisi qarashlari farqi, daromad guruhlariga ko'ra ishonch darajasi va hokazo. So'rov usuli ana shunday demografik va sotsiologik tahlilga zamin yaratadi.

IHTTning 2019 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ma'naviyatini o'rganuvchi tadqiqotida bir nechta yangi so'rov manbalarini qo'lladi. Ular qatorida Latinobarómetro va Afrobarometer'ning soliqqa oid savollari ham bor edi. Ushbu so'rov natijalariga ko'ra, masalan, Paragvay va Boliviya respondentlarning katta qismi "Hukumat odamlardan undirilgan soliqlar evaziga atarli xizmat ko'rsatmaydi" degan fikrga qo'shilgani aniqlandi. Bu davlatga ishonch pastligi bois soliq ma'naviyatining ham pastligiga ishora edi. Ayni paytda, Kosta-Rika kabi davlatlarda fuqarolarning sezilarli qismi soliqlarni to'lashni jamiyat farovonligi uchun hissasi deb bilishini bildirgan – bu u árdagi soliq madaniyati nisbatan kuchli ekanini ko'rsatadi. Shu tariqa, keng ko'lamlı so'rovlar mamlakatlararo soliq madaniyati farqlarini aniqlashga yordam beradi va siyosatchilarga qaysi yo'nalishda ish olib borish kerakligini ko'rsatadi (OECD, 2021).

Indekslar va kompleks ko'rsatkichlar

Indeks yondashuvi – soliq madaniyatining turli jihatlarini birlashtirib, yagona integrallashgan ko'rsatkich hosil qilish maqsadida qo'llaniladi. Bunda bir nechta indikatorlar (yoki so'rov savollari natijalari) ma'lum vaznlar asosida birlashtirilib, umumiy "soliq madaniyati indeksi" yoki shunga o'xshash nom bilan nomlanadi. Indeks orqali bir qarashda vaqt o'tishi bilan yoki hududlar kesimida soliq madaniyati dinamikasini kuzatish osonlashadi.

Indeks tuzish bosqichlari:

1. Sub-indikatorlarni tanlash. Yuqoridagi tarkibiy qismlarning har biri bo'yicha o'lchovlar tanlanadi. Masalan, soliq ma'naviyati uchun – soliqlardan qochishni oqlash darajasi; ishonch uchun – hukumatga ishonch bali; savodxonlik uchun – soliq bilimlari testidagi natija; tizim sifati uchun – soliq tizimi adolati bo'yicha baho; fuqarolik ong uchun – soliqlarni fuqarolik burchi deb bilish darajasi.

2. Normallashtirish. Turli ko'rsatkichlar o'lchov birliklari va diapazonlari farqli bo'lishi mumkin (masalan, ba'zilar foizda, ba'zilar ball ko'rinishida). Ularni taqqoslanadigan qilish uchun normallashtirish (0 dan 1 gacha shkala kabi) qilinadi.

3. Vaznlar tayinlash. Har bir komponent qanchalik ahamiyatli ekaniga qarab vazn yuklanishi mumkin. Ba'zida barcha sub-indikatorlarga teng vazn beriladi (simple average), ba'zida esa tadqiqotchilarning ekspert bahosiga yoki statistik faktor tahliliga ko'ra turlicha vazn beriladi.

4. Indeksni hisoblash. Vaznli yoki vaznsiz o'rtacha (yoki boshqa agregatsiya usuli) olinib, yakuniy indeks hosil qilinadi. Jahon miqyosida to'g'ridan-to'g'ri "soliq madaniyati indeksi" deb nomlangan rasmiy indeks mavjud emas, lekin "soliq ma'naviyati" ko'rsatkichi ba'zi tadqiqotlarda qo'llanilgan. Heritage Foundation'ning iqtisodiy erkinlik indeksida bevosita soliq madaniyati bo'lmasa-da, "fiskal sog'lomlik" va "hukumat halolligi" bandlari qisman soliq tizimi sifatini va unga munosabatni aks ettiradi. Akademik ishlarda esa tadqiqotchilar ko'pincha o'zlari tuzgan indekslardan foydalanishadi. Masalan, bir tadqiqotda Yevropaning 20 mamlakatidagi soliq madaniyatiga doir 5 ta ko'rsatkich (davlatga ishonch, soliqlar adolatliligi, soliqlarni oqlash, fuqarolik burchi, va soya iqtisodiyoti ulushi) asosida indeks tuzilib, mamlakatlar reytingi chiqarilgan. Natijada, Skandinaviya davlatlari indeksi eng yuqori, Sharqiy Yevropa ayrim davlatlari esa eng past natija qayd etgan. Bu indeks keyinchalik boshqa

o'zgaruvchilar (masalan, YaIM, korrupsiya indeksi) bilan taqqoslanib, qiziqarli bog'liqliklar topildi (soliq madaniyati indeksi yuqori davlatlarda korrupsiya past va iqtisodiy rivojlanish yuqori bo'lib chiqdi).

Indekslashning afzalligi: U murakkab tushunchani bitta son bilan ifodalash imkonini beradi. Siyosatchilar va omma uchun tushunarli bo'ladi – masalan, “soliq madaniyati indeksi o'tgan yilga nisbatan 5% o'sdi” degan xulosa e'tiborni tortadi. Biroq, indeks ichidagi komponentlarni ham alohida kuzatish lozim, chunki indeks yuqorilab ketishi qaysi omil evaziga bo'layotganini tushunish muhim. Shuning uchun indeks odatda batafsil hisobotlar bilan birga talqin etiladi. Ekvadorda o'tkazilgan tadqiqotda (Andriani va boshq., 2019) kichik biznes subyektlarining soliq komplayns darajasini ularning soliq madaniyati indeksi bilan bog'liqligi o'rganilgan. Indeksni tuzishda tadqiqotchilar Hofstede'ning madaniy o'lchovlarini (individualizm, masofalilik kabi), shuningdek, soliqqa oid munosabat ko'rsatkichlarini birlashtirgan. Natijada qiziqarli holat kuzatildi: individualizm darajasi yuqoriroq bo'lgan hududlarda soliq to'lash madaniyati indeksi balandroq chiqib, kichik biznesning soliqqa rioya qilishi ham yaxshiroq ekan. Biroq, mazkur hududlarda davlat xizmatlari sifati ham yaxshi bo'lgani, odamlarning soliqlar evaziga nimaga ega bo'lishayotgani aniqroq ko'ringani buni izohlashi mumkin. Ko'rinib turibdiki, indeks tuzib, uni boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'lab o'rganish soliq madaniyatining yashirin jihatlarini ochishga xizmat qiladi.

Regressiya va statistik tahlillar

Regressiya tahlili – soliq madaniyatiga oid omillar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlik va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash uchun keng qo'llaniladigan uslubdir. Bu yondashuv yordamida “mustaqil o'zgaruvchilar” (masalan, ishonch, xabardorlik, adolat tuyg'usi kabi indikatorlar) “bog'liq o'zgaruvchi”ga (masalan, soliq to'lash xatti-harakati yoki soliq ma'naviyati baliga) qanday ta'sir qilishi o'rganiladi.

Oddiy regressiya modeli misoli:

$$TaxMorale_i = \beta_0 + \beta_1 Trust_i + \beta_2 Fairness_i + \beta_3 Awareness_i + \beta_4 Control_i + \epsilon_i \quad (1)$$

Bu oddiy modelda,

$TaxMorale_i$ – respondentning soliq ma'naviyati indeksi (yoki soliqlarni to'lashga moyilligi);

$Trust_i$ – hukumatga ishonch ko'rsatkichi;

$Fairness_i$ – soliq tizimi adolatliligi haqidagi fikri;

$Awareness_i$ – soliq bilimlari darajasi;

$Control_i$ – respondentning yoshi, daromadi kabi nazorat o'zgaruvchilari;

β – esa ularning ta'sir kuchini ifodalaydi.

Regressiya natijasida, masalan, β_1 ishonch ko'rsatkichi yuqori odamlarning soliq ma'naviyati ham yuqoriroq bo'lishini (agar β_1 musbat va ahamiyatli bo'lsa) kvantitativ tasdiqlashi mumkin. Yoki aksincha, statistik tahlil ko'rsatishi mumkinki, adolat hissi ($Fairness_i$) eng kuchli omil bo'lib, β_2 yuqori va β_1 (ishonch) esa nazoratchi omillarni hisobga olganda ahamiyatli emas (aynan Taing va hamkasblari tadqiq qilganidek). Bunday hollarda siyosiy xulosalar ham o'zgaradi: agar adolat muhimroq bo'lsa, unda soliq tizimini adolatliroq qilish orqali komplaynsni oshirishga e'tibor qaratish lozim, faqatgina “davlatga ishonch” haqida targ'ibot qilish kifoya emas.

Statistik tahlillarning turlari:

- *Korrelatsion tahlil*: Turli ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlikni o'lchash (masalan, ishonch bali va soliq to'lash xulqiyati orasidagi korrelatsiya koefitsienti). Agar korrelatsiya yuqori bo'lsa, bu omillar orasida kuchli aloqadorlik borligini ko'rsatadi (lekin sabab-oqibatni emas, faqat bog'liqlikni).

- *Oddiy va ko'p o'zgaruvchili regressiya*: Yuqoridagi misoldagi kabi, bir yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchini hisobga olib bog'liq o'zgaruvchi davranishi tahlil qilinadi. Bu sabab-oqibatga ehtiyotkorlik bilan ishora berishi mumkin (agar mantiqiy va nazorat qilingan model bo'lsa).

• *Logit/Probit modellar*: Agar bog'liq o'zgaruvchi 0/1 (masalan, "so'nggi yil soliq deklaratsiyasini topshirdi yoki topshirmadi") ko'rinishida bo'lsa, logistik regressiya qo'llanadi. Bu komplayns (topsirdi=1)ga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar ekani va qanchalik ta'sir ekanini ko'rsatadi.

• *Strukturaviy tenglamalar modeli (SEM)*: Ba'zi hollarda soliq madaniyatining omillari bir-biri bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin (masalan, ishonch adolat tuyg'usiga ta'sir qiladi, adolat tuyg'usi esa soliq ma'naviyatiga ta'sir qiladi). Bunday ko'p qirrali munosabatlarni SEM yordamida modellashtirish mumkin. Tadqiqotlarda (Pacaldo va Ferrer, 2016) structural equation modeli tuzilib, soliq ma'naviyatining determinantlari o'rganilgan. U arda ishonch, korrupsiya, hokimiyatga munosabat kabi latent (yashirin) omillar birgalikda soliq ma'naviyatiga qanday ta'sir qilishi baholangan. Alm va Torglarning 2006 yilda chop etilgan taniqli ishida 17 ta mamlakat bo'yicha WVS ma'lumotlari yordamida soliq ma'naviyatiga ta'sir qiluvchi omillar regressiya orqali o'rganilgan edi. Ular nazoratga olgan omillar orasida: demokratik institutlar (erkin saylovlar mavjudligi), federal tuzilma, etnik xilma-xillik, diniylik, ta'lim darajasi, daromad tengsizligi kabi keng qamrovli ko'rsatkichlar bor edi. Natijalardan biri shuni ko'rsatdiki, hukumat xarajatlaridan qoniqish soliq ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi – ya'ni fuqarolar davlatdan oladigan xizmatlardan ko'ngli to'q bo'lsa, soliqlarni to'lashni ma'qulroq ko'radi (fiskal almashinuv nazariyasiga mos ravishda). Bundan tashqari, korrupsiya darajasi yuqori bo'lsa, soliq ma'naviyati past bo'lishi tasdiqlandi. Ushbu natijalar ular tuzgan regressiya tenglamalarida statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgan.

Bunday statistik tahlillar amaliy jihatdan shuni anglatadiki, soliq madaniyatini oshirish uchun qaysi omillarga ko'proq e'tibor berish kerakligi dalillarga asoslangan holda aniqlanadi. Masalan, agar tahlil shuni ko'rsatsa ki, *soliq savodxonligi* compliancega sezilarli ta'sir qilar ekan, unda hukumatlar soliq bo'yicha ma'rifiy dasturlar (seminarlar, maktabdan boshlab ta'lim, OAV orqali tushuntirish)ga sarmoya kiritishi lozim. Yoki agar *ishonch va shaffoflik* eng katta omil bo'lsa, unda davlat byudjeti ochiqligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish soliq tushumlarini oshirishning to'g'ri yo'li bo'ladi.

5. Xulosa.

Yuqorida keltirilgan nazariy tushunchalar va baholash usullari O'zbekiston uchun ham juda dolzarb. Mamlakatimiz soliq tizimi so'nggi yillarda jadal islohotlarni boshdan kechirmoqda: yangi Soliq kodeksi qabul qilindi, soliq stavkalari optimallashtirildi, biznes uchun soliq yukini angillashtirish choralari ko'rildi. Biroq, soliq madaniyatini oshirish – bu faqat qonunchilikdagi o'zgarishlar bilangina hal bo'ladigan masala emas. Fuqarolarning ongidagi yondashuv va davlat bilan o'zaro ishonch darajasini oshirish zarur. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar O'zbekistonda soliq madaniyati tadqiqotlari va siyosatiga tatbiq etilishi mumkin:

1. Kompleks so'rov tadqiqotlarini o'tkazish: O'zbekistonda soliq madaniyati darajasini baholash uchun keng qamrovli sotsiologik so'rov o'tkazish maqsadga muvofiq. Hozirgacha ayrim tadqiqotlar fragmentar ravishda o'tkazilgan bo'lishi mumkin, lekin mamlakat miqyosidagi tizimli tadqiqot yo'q. Shu bois, IHTT yoki Jahon Banki metodikalaridan foydalangan holda, yuqorida ta'kidlangan indikatorlarni qamrab oluvchi so'rovnoma tuzish kerak. Bu so'rovda fuqarolar va tadbirkorlarning:

- soliq qonunlarini bilish darajasi (savodxonlik),
- davlat moliyasiga ishonchi,
- soliq to'lashga ichki tayyorlik (axloqiy qarashlari),
- soliq tizimi haqidagi fikrlari (qanchalik adolatli va qulay deb bilishlari),
- fuqarolik pozitsiyasi (soliqqa munosabat orqali) singari jihatlar haqida savollar bo'ladi.

Natijalar tahlili O'zbekistonda soliq madaniyatining "zaif joylari" qayerda ekani va aksincha, qaysi jihatlar nisbatan kuchli ekanini ko'rsatadi. Agar so'rov natijasida ko'pchilik soliqlardan qochishni jiddiy axloqiy muammo deb bilmaligi ma'lum bo'lsa, demak soliq

axloqini shakllantirish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur. Yoki aksincha, agar aksariyat fuqarolar soliqlarni to'lashni burch deb hisoblasa-yu, ammo soliq tizimiga ishonchi past bo'lsa – unda e'tiborni davlat byudjeti ochiqligini oshirish, soliqlarning sarflanishini ko'rsatish kabi choralariga qaratish lozim bo'ladi.

2. Soliq madaniyati indeksini ishlab chiqish: O'zbekiston sharoitiga mos "Soliq madaniyati indeksi"ni yaratish mumkin. Buning uchun yuqoridagi so'rov natijalari va mavjud statistik ma'lumotlar asosida indeks komponentlari belgilanadi. Masalan, taklif sifatida:

soliq xabardorligi sub-indeksi: Fuqarolar va tadbirkorlarning soliq qonunchiligini tushunish darajasi (so'rov natijasida).

ishonch sub-indeksi: Davlat institutlariga ishonch (so'rov natijasi va balki korrupsiya haqidagi statistikalar bilan birgalikda).

soliq ma'naviyati sub-indeksi: Fuqarolarning soliqqa axloqiy qarashi (so'rov natijasi, WVS ma'lumotlari agar mavjud bo'lsa).

tizim sifati sub-indeksi: Soliq tizimini baholash (biznes uchun Doing Business ma'lumotlari, fuqarolar so'rovi natijalari, soliq yig'ish samaradorligi kabi ko'rsatkichlar).

fuqarolik faolligi sub-indeksi: Saylovlarda qatnashish foizi, jamoaviy tashabbuslarda ishtirok kabi ko'rsatkichlar.

Bu sub-indikatorlar birlashtirilib, 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala bo'yicha umumiy indeks hisoblanishi mumkin. Har yili yoki ikki yilda bir marta ushbu indeksni yangilab borish soliq madaniyati sohasidagi o'zgarishlarni kuzatish va islohotlar samaradorligini baholashga xizmat qiladi.

3. Soliq ma'rifati va kommunikatsiya strategiyalarini kuchaytirish: Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, soliq madaniyatini oshirishda ta'lim va kommunikatsiya muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda bu borada quyidagilarni joriy etish mumkin:

- Maktablarda soliq va moliya savodxonligi elementlarini o'quv dasturlariga kiritish. Bu yosh avlodda boshidanoq soliqqa to'g'ri munosabatni shakllantiradi.

- Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda soliqlarning jamiyat hayoti uchun ahamiyati haqida tushunarli va qiziqarli kontentlar yaratish. Masalan, fuqarolar to'lagan soliqlari evaziga qaysi jamoat xizmatlari moliyalashtirilgani (maktablar, yo'llar, shifoxonalar)ni ko'rsatib borish. Bu davlat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy kelishuvni mustahkamlaydi: "biz soliqlarni to'laymiz – davlat bizga mana shunday xizmat beradi".

- Soliq qo'mitasi huzurida Taxpayer Service (Soliq to'lovchilarga xizmat) markazlarini kengaytirish, aholiga soliq masalalarida bepul maslahat va ko'mak berish. Bu soliq tizimining qiyinchiliklarini angillastirib, fuqarolarda ijobiy taassurot qoldiradi.

4. Qonunchilik va tashkiliy islohotlarni davom ettirish: Soliq madaniyatini oshirish uchun faqat fuqarolardan talab qilish atarli emas, soliq tizimining o'zi ham fuqarolarga moslashishi lozim. Shu bois:

- Soliq qonunlari imkon qadar sodda, tushunarli tilda yozilishi, me'yoriy hujjatlar soni optimal bo'lishi kerak. Bu xususan O'zbekiston Soliq kodeksining yangi tahririda bir qadar e'tiborga olingan – masalan, ayrim soliq turlari birlashtirildi, soliq imtiyozlariga moratoriy e'lon qilinib, tizim barqarorligi oshirildi.

- Soliq ma'muriyati tomonidan shaffoflikni oshirish: Yiliga bir marta Soliq qo'mitasi jamg'armaga tushgan soliqlar bo'yicha hisobotni ochiq e'lon qilishi, yirik soliq to'lovchilar ro'yxati va ularning to'lovlari haqida umumiy ma'lumot berishi kabi choralar joriy etilishi mumkin. Bu tashabbus, masalan, Buyuk Britaniyada mavjud – Her Majesty's Revenue and Customs (HMRC) yil yakunida soliqlarni qayerga sarflangani haqida infografik hisobot chiqaradi.

- Jamoatchilik nazoratini jalb qilish: Soliq masalalarida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini ta'minlash, mustaqil iqtisodiy tadqiqot markazlari va OAVning tanqidiy tahlillariga ochiq bo'lish muhim. Agar fuqarolar davlat soliqlar bo'yicha hisobotdorligini sezsa, ulardagi ishonch ortadi.

5. Tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlik: Soliq madaniyati borasida mahalliy ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash kerak. Universitetlar va ilmiy markazlarda soliqqa oid psixologiya, sotsiologiya va iqtisodiy tadqiqotlar integratsiyalashgan holda olib borilsa, bu sohada chuqur tushuncha hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston sharoitida "Nima uchun odamlar soliq to'lamaydi?" degan savolga nafaqat iqtisodiy (soliq stavkalari balandligi), balki sotsiologik (ishonch yo'qligi, odat va urf-odatlar) javoblarni ham qidirish kerak bo'ladi. Shuningdek, IHTT, XVF va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda treninglar, seminarlar tashkil qilish, ularning metodikasini o'rganish lozim. Xalqaro ekspertiza mahalliy siyosatga yangi g'oyalar olib kiradi – masalan, Lotin Amerikadagi soliq lotereyalari tajribasi (Brazil va Peruda xaridorlarga chek berib, soliqlarini to'lagan korxonalar o'rtasida lotereya o'ynalgan), yoki Gruziyadagi "fiskal xonimchalar" (soliq inspektorlarini ayollar orasidan yollab, yumshoq muloqot orqali komplaynesga erishish) kabi qiziqarli loyihalarni o'rganib ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida, soliq madaniyati konsepti O'zbekiston uchun nisbatan yangi tushuncha bo'lsa-da, uning tarkibiy qismlarini chuqur anglab, o'lchab borish barqaror rivojlanish uchun zarurdir. Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, soliq madaniyatini oshirish – bu ko'p qirrali jarayon: fuqarolarni bilimdon qilish, davlatga ishonchini qozonish, soliqlarni adolatli tizimga solish, va fuqarolik burchi sifatida soliqqa munosabatni shakllantirish birdek muhim. Ilmiy asoslangan yondashuv (so'rovlar, indekslar va tahlillar orqali) ushbu jarayonda qaysi choralar eng samarali ekanini ko'rsatib beradi. O'zbekiston o'ziga xos madaniy va tarixiy omillarni hisobga olgan holda, dunyo tajribasidan moslashuvchan foydalanib, soliq madaniyatini yuqori bosqichga ko'tarishi mumkin. Bu esa nafaqat byudjet daromadlarining oshishi, balki jamiyatda fuqaro va davlat o'rtasidagi ishonchli hamkorlik muhitining qaror topishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari ilmiy izlanishlarimizning keying natijalari bilan ilmiy maqolaning keying ikkinchi qismida tanishiladi.

Adabiyotlar:

OECD (2019). *Tax Morale: What Drives People and Businesses to Pay Tax?* OECD Publishing, Paris [oecd.org](http://oecd.org/oecd.org).

OECD (2021). *Building Tax Culture, Compliance and Citizenship: A Global Source Book on Taxpayer Education (2nd Edition)*. OECD Publishing, Paris [oecd.org](http://oecd.org/oecd.org).

Mitsuhiro Furusawa (2019). "Restoring Trust Through Fiscal Policy," IMF Deputy Managing Director's remarks [imf.org](http://imf.org/imf.org).

Nerre, B. (2008). "Tax Culture: A Basic Concept for Tax Politics." *Economic Analysis & Policy* (cited in Yurdakul, 2013) [dergipark.org.tr](http://dergipark.org.tr/dergipark.org.tr).

Horodnic, I.A. (2018). "Tax Morale and Institutional Theory: A Systematic Review." *Int. J. of Sociology and Social Policy*, 38(9) (referenced in knepublishing.com).

Hofmann, E., Hoelzl, E., & Kirchler, E. (2008). "Preconditions of Voluntary Tax Compliance: Knowledge and Evaluation of Taxation, Norms, Fairness, and Motivation to Cooperate." *Journal of Psychology*, 216(4) [social-econ-psych.univie.ac.at](http://social-econ-psych.univie.ac.at/social-econ-psych.univie.ac.at).

Torgler, B. & Alm, J. (2006). "Culture, Compliance, and Confidentiality: Taxpayer Behavior in the United States and in Europe." *Economic Analysis & Policy*, 38(1) spaceandculture.in.

Taing, S. et al. (2023). "Tax fairness and trust in government: Empirical evidence on tax compliance intention." (Natijalaridan iqtibos keltirilgan) knepublishing.com.

Endovitsky, D.A. & Lomsadze, D.G. (2019). "Assessment of the Tax Culture and the Size of the Shadow Economy in European Studies." *Space and Culture, India*, 7(3) [dergipark.org.tr](http://dergipark.org.tr/dergipark.org.tr).

Kuzucu Yapar, B., & Keskin, A. (2023). "Determining the Criteria Affecting Tax Ethics in Turkey using the Fuzzy DEMATEL Method." *Istanbul Journal of Economics* [dergipark.org.tr](http://dergipark.org.tr/dergipark.org.tr).



ХУДУДЛАРНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШДАГИ ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЁНДАШУВЛАР

PhD, доцент **Маъмуров Б.Х.**

ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари” илмий тадқиқот маркази

Аннотация. Ушбу мақолада ҳудудларни барқарор ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқишдаги халқаро амалиёт ва илғор ёндашувлар таҳлил қилинган. Европа Иттифоқи, Япония, Хитой, АҚШ, Эстония ва Жанубий Корея каби мамлакатлар мисолида ҳудудий сиёсатда қўлланилаётган инновацион механизмлар, молиявий ва институционал воситалар ўрганилди. Таҳлил натижаларига кўра, самарали стратегиялар аҳоли иштирокини таъминлаш, ҳудудларнинг индивидуал салоҳиятига асосланиш, рақамли инфратузилмани ривожлантириш ва давлат-хусусий сектор ҳамкорлигини мустаҳкамлаш орқали барқарор ривожланишга олиб келиши мумкинлиги асослаб берилган. Ушбу тажрибалар Ўзбекистон учун ҳудудий ривожланиш стратегияларини такомиллаштиришда муҳим амалий ва илмий манба бўла олади. Ушбу мақола 215-33-25 рақамли “Россия ва Ўзбекистон ўртасида хизматлар савдосини либераллаштириш истиқболлари ва муаммоларини ўрганиш, шунингдек, унинг ҳажминини ошириш бўйича тавсиялар ва ушбу мақсадга еришиш механизмларини ишлаб чиқиш” лойиҳаси доирасида бажарилган.

Калит сўзлар: ҳудудий ривожланиш, барқарор стратегия, халқаро амалиёт, рақамли инфратузилма, давлат сиёсатининг самарадорлиги.

Аннотация. В статье проведён сравнительный анализ международного опыта и передовых подходов к формированию стратегий устойчивого регионального развития. На примере таких стран, как Германия, Япония, Китай, США, Эстония и Южная Корея, рассмотрены инновационные механизмы, финансовые и институциональные инструменты, применяемые в региональной политике. Установлено, что эффективные стратегии обеспечиваются за счёт вовлечения населения, использования уникального потенциала регионов, развития цифровой инфраструктуры и укрепления партнёрства между государством и частным сектором. Полученные выводы могут служить теоретической и практической основой для совершенствования региональной политики в Узбекистане. Работа выполнена в рамках проекта №215-33-25 «Изучение перспектив и проблем либерализации торговли услугами между Россией и Узбекистаном, а также разработка рекомендаций и механизмов по увеличению её объема».

Ключевые слова: региональное развитие, устойчивая стратегия, международный опыт, цифровая инфраструктура, эффективность государственной политики.

Annotation. This article presents a comparative analysis of international practices and advanced approaches to the development of sustainable regional development strategies. Using examples from countries such as Germany, Japan, China, the United States, Estonia, and South Korea, it explores innovative mechanisms, financial tools, and institutional frameworks applied in

regional policy. The analysis concludes that successful strategies rely on public participation, region-specific potential, the development of digital infrastructure, and strong public-private partnerships. These findings provide a valuable theoretical and practical basis for improving regional development strategies in Uzbekistan. This study was carried out within the framework of project No. 215-33-25 "Exploring the prospects and challenges of liberalizing trade in services between Russia and Uzbekistan, and developing recommendations and mechanisms for increasing its volume".

Key words: *regional development, sustainable strategy, international practice, digital infrastructure, policy effectiveness.*

1. Кириш.

Худудларни барқарор ривожлантириш муаммоси глобал миқёсда долзарб масала сифатида қаралиб, у ҳар бир давлатнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланган. Жаҳон ҳамжамияти барқарор ривожланишни нафақат миллий, балки ҳудудий даражада амалга оширишни таъминловчи стратегик механизмларини изчил такомиллаштирмоқда.

Бугунги кунда БМТнинг 2030 йилгача мўлжалланган Барқарор ривожланиш мақсадлари (SDG) доирасида ҳудудий сиёсатни қайта кўриб чиқиш, ресурсларни самарали тақсимлаш, худудлараро номутаносибликни камайтириш ва иқтисодий ўсишни экологик барқарорлик билан уйғунлаштириш каби вазифалар устувор аҳамият касб этмоқда. Европа Иттифоқи, Жанубий Корея, Япония, Канада ва бошқа ривожланган давлатлар барқарор ҳудудий ривожланишни таъминлаш учун ўзининг илғор моделлари ва механизмларини ишлаб чиқиб, улар орқали иқтисодий ўсишни худудлар кесимида изчил ва самарали амалга оширишга эришмоқда. Хусусан, ресурсларни худудлар ўртасида адолатли тақсимлаш, инновацион инфратузилмани яратиш, маҳаллий ташаббусларни рағбатлантириш ва ҳудудий ўзгаришларга мослашувчан сиёсат юритиш каби ёндашувлар халқаро амалиётнинг асосий пойдеворини ташкил этади.

Ўзбекистонда худудларнинг барқарор ривожланишига йўналтирилган ислохотлар замонавий халқаро тажрибаларга интеграциялашмоқда. Айниқса, ҳудудий бошқарувда стратегик режалаштириш, рақамли бошқарув, "яшил" иқтисодиёт элементлари ва ижтимоий тенгликка эътиборнинг ортиши глобал трендлар билан уйғунлашмоқда.

Ушбу мақолада худудларни барқарор ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқишда халқаро амалиётда қўлланилаётган асосий ёндашувлар таҳлил қилинади. Шу билан бирга, муваффақиятли моделлар орқали Ўзбекистон шароитига мос стратегик ечимларни танлаш имкониятлари кўриб чиқилади. Халқаро амалиётни ўрганиш нафақат мавжуд муаммоларга тизимли ёндашиш, балки уларни бар்தараф этишда илмий асосланган, инновацион ва инклюзив ёндашувларни жорий этиш имкониятини яратади. Мақоланинг мақсади илғор халқаро стратегиялар таҳлили орқали Ўзбекистон худудларини барқарор ривожлантиришда фойдаланиш мумкин бўлган илмий-амалий тавсияларни шакллантиришдан иборат.

2. Адабиётлар шарҳи.

Барқарор ривожланиш тушунчаси иқтисодий ва ижтимоий фанларда кенг қамровли концепт сифатида талқин қилинади. Бу концепцияни илк илмий асословчилардан бири Е. Barbier ҳисобланади, у барқарор ривожланишни экологик мувозанат, иқтисодий самарадорлик ва ижтимоий адолат мезонлари ўртасидаги уйғунлик сифатида таърифлаган (Barbier, 1987). Ушбу ёндашув, айниқса, ҳудудий ривожланиш стратегияларини ишлаб чиқишда асосий методологик пойдевор ҳисобланади.

Халқаро амалиётда ҳудудларни барқарор ривожлантириш бўйича ишлаб чиқилган стратегиялар тўртта асосий йўналишда: ижтимоий тенглик, иқтисодий ўсиш, экологик барқарорлик ва институционал самарадорлик асосида шакллантирилган (United Nations, 2015). БМТнинг Барқарор Ривожланиш Мақсадлари (SDG) ҳудудий даражадаги ривожланишнинг индикатив тизимини шакллантиришда муҳим манба бўлиб хизмат қилмоқда.

Европа Иттифоқи мамлакатлари барқарор ҳудудий ривожланишни амалга оширишда интеграциялашган ҳудудий стратегиялар моделини қўлламоқда. Масалан, Германия ва Финляндияда “Smart Specialisation Strategy” каби инновация ва рақобатбардошликни таъминловчи махсус ҳудудий ёндашувлар яратилган (Foray et al., 2012). Ушбу стратегиялар ҳудуднинг уникал потенциалига асосланиб, диверсификацияланган ривожланишга эришишни мақсад қилади.

Хитой тажрибаси ҳудудий ривожланишда асимметрик ёндашувнинг самарали намунасидир. У ерда ривожланиш даражаси паст бўлган ҳудудлар учун алоҳида преференциялар ва инвестицион имтиёзлар тақдим этилиб, марказлашган сиёсат ва маҳаллий ташаббуслар уйғунлаштирилган (Fan va Zhang, 2004). Бу эса ҳудудлар ўртасидаги номуносивликларни босқичма-босқич камайтириш имконини берди.

Ривожланаётган мамлакатларда эса, ҳудудий барқарор ривожланишда институционал салоҳиятнинг пастлиги, инфратузилманинг етишмаслиги ва ҳудудлараро ресурслар тақсимотидаги номуносивликлар асосий тўсиқ сифатида қайд этилади (Rodriguez-Pose, 2013). Бу муаммоларни бартараф этиш учун халқаро молия институтлари ва минтақавий ҳамкорлик механизмлари фаол жалб этилмоқда.

Халқаро тажрибада ҳудудий ривожланиш стратегияларини шакллантиришда рақамли технологияларни жорий этиш муҳим омил сифатида тан олинади. Масалан, Эстонияда рақамли ҳукумат ва электрон бошқарув тизимлари орқали ҳудудлар ўртасида тенг инфратузилмавий имкониятлар яратилди (Kalvet, 2012). Бу модел ҳудудий тенгликни таъминлашда рақамли трансформациянинг аҳамиятини кўрсатиб берди.

Япониянинг “Chiiki Saisei” дастури ҳудудий тикланиш ва демографик таназзулга қарши курашишда давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги орқали амалга оширилган самарали стратегиялардан бири ҳисобланади (Okamoto, 2016). Ушбу ёндашув ҳудудий сиёсатда инклюзивлик ва ижтимоий иштирокни таъминлашнинг аҳамиятини ёрқин ифодалайди.

АҚШда ҳудудий ривожланишни қўллаб-қувватлаш мақсадида “Opportunity Zones” дастури орқали паст ривожланган ҳудудларга инвестицияларни жалб қилиш механизми жорий этилган. Бу ёндашув молиявий рағбат ва солиқ имтиёзлари орқали хусусий капитални ҳудудий тикланишга жалб этишнинг инновацион шакли сифатида баҳоланмоқда (Lester et al., 2020).

Африка мамлакатлари учун эса Африка Иттифоқининг 2063 йилгача мўлжалланган стратегияси минтақавий ҳамкорлик, инфратузилма интеграцияси ва инсон капиталини ривожлантириш орқали барқарор ривожланишга эришишни мақсад қилган (African Union, 2015). Бу тажриба ҳудудий ривожланишнинг трансчегаравий характери ва стратегик мослашувчанлик зарурлигини кўрсатади.

Юқорида кўриб чиқилган илмий манбалар ва халқаро амалиёт таҳлили шуни кўрсатадики, ҳудудларни барқарор ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқишда ягона, универсал ёндашув мавжуд эмас. Ҳар бир мамлакат ўзининг табиий, демографик, институционал ва иқтисодий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда стратегик моделлар яратади. Европа Иттифоқи давлатлари инновацион салоҳият ва кластерлашувни қўллаб-қувватловчи “ақлли ихтисослашув” асосидаги ёндашувни афзал кўрар экан, Осиё мамлакатлари, хусусан Хитой ва Япония давлат сиёсати ва маҳаллий ташаббусларни уйғунлаштириш орқали ҳудудлар ўртасидаги номуносивликларни камайтиришни

мақсад қилган. Африкада эса минтақавий ҳамкорлик ва инфратузилмавий интеграция стратегиянинг асосий пойдеворини ташкил этади. АҚШ тажрибасида солиқ ва молиявий рағбатлар орқали хусусий капитални ҳудудий тикланишга йўналтириш амалга оширилади. Умуман олганда, халқаро амалиётда барқарор ривожланиш стратегияларининг муваффақиятли бўлиши, биринчи навбатда, давлат сиёсатининг тизимлилиги, манфаатдор томонлар ўртасидаги самарали ҳамкорлик, индикаторлар асосида мониторинг ва баҳолаш механизмларининг мавжудлиги, шунингдек, ҳудуднинг ички салоҳиятига асосланган индивидуал ёндашувлар билан белгиланади. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон учун халқаро илғор тажрибаларни чуқур ўрганиш ва уларни миллий шарт-шароитга мослаштириш орқали ҳудудий барқарор ривожланиш стратегияларини такомиллаштириш зарур ҳисобланади.

3. Тадқиқот методологияси.

Ушбу тадқиқотда ҳудудларни барқарор ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқишда халқаро амалиётда қўлланилаётган ёндашувлар қиёсий-таҳлилий ва типологик гуруҳлаш усуллари асосида ўрганилди. Турли мамлакатлар тажрибаси БМТ, Европа Иттифоқи, Жаҳон банки каби халқаро ташкилотлар маълумотлари ҳамда илмий манбалар асосида таҳлил қилинди. Тадқиқот давомида барқарор ривожланишнинг иқтисодий, ижтимоий ва экологик йўналишларини қамраб олган интеграл ёндашув асос қилиб олинди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Барқарор ривожланиш стратегиялари дунё мамлакатларида турли шакл ва мазмунда қўлланилади. Бу стратегиялар мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёт даражаси, табиий ресурслар салоҳияти, ҳудудий номуносивбликлар ва бошқарув институционал тизимининг ривожланганлик даражасига қараб шакллантирилади. Ривожланган давлатлар кўпроқ инновацион инфратузилма, юқори технологик тармоқлар ва инсон капиталига таяниб стратегик режаларни амалга ошираётган бўлса, ривожланаётган мамлакатлар асосий эътиборни инфратузилмани яхшилаш, камбағалликни камайтириш ва ҳудудлар ўртасидаги имкониятлар тенглигини таъминлашга қаратишмоқда. Шу билан бирга, жаҳон ҳамжамиятида ҳудудий барқарор ривожланишга бўлган ёндашувларда универсал ёндашув мавжуд эмаслиги аниқ намоён бўлмоқда. Ҳар бир давлат ўзининг ҳудудий тизими, географик жойлашуви, этно-демографик таркиби ва сиёсий бошқарув моделидан келиб чиққан ҳолда ўзининг ўзига хос стратегиясини ишлаб чиқмоқда. Бу эса ҳудудий сиёсатда индивидуаллашган, мослашувчан ва динамик моделларнинг муҳимлигини тасдиқлайди.

Европа Иттифоқи давлатлари, хусусан Германия, “ақлли ихтисослашув” стратегиясини татбиқ этган бўлиб, бу инновация, рақобатбардошлик ва ҳудудий инновацион тизимларни ривожлантиришга қаратилган. “Smart Specialisation Strategy” (S3) деб номланган бу концепция Европа Комиссияси томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, ҳар бир ҳудуд ўзининг алоҳида кучли жиҳатлари ва салоҳиятидан келиб чиқиб мутахассислашган йўналишни танлаш орқали инновациявий ривожланишга эришиши керак, деб белгилайди. Германияда мазкур стратегия ҳудудий инновацион кластерларни ривожлантириш, илм-фан ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцияни мустаҳкамлаш, юқори технологик секторларда иш ўринларини кўпайтиришга йўналтирилган. Шунингдек, ушбу стратегия мамлакатдаги ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий ва инновацион номуносивбликларни камайтиришда, таълим-илмий муассасалар билан бизнес субъектлари ҳамкорлигини мустаҳкамлашда муҳим омил сифатида хизмат қилмоқда. Германия мисолида кўриниб турибдики, ақлли

ихтисослашув стратегияси нафақат ҳудудий самарадорликни оширади, балки миллий рақобатбардошликни ҳам кучайтиради.

Япониядаги “Chiiki Saisei” (Ҳудудий қайта тикланиш) дастури ҳудудлардаги демографик таназзулга қарши курашиш, аҳоли доимийлиги ва ижтимоий инфратузилмани сақлаб қолишга йўналтирилган. Ушбу дастур Япониянинг чекка ва кам аҳолига эга ҳудудларида ривожланишни тиклаш, аҳолининг шаҳарлардан қишлоқларга қайтиши учун рағбат яратиш, маҳаллий иқтисодиётни тиклаш ва аҳолига қулай яшаш шароитларини таъминлашни кўзда тутди. Дастур доирасида маҳаллий ташаббусларни молиявий қўллаб-қувватлаш, ёш тадбиркорлар учун грантлар, солиқ имтиёзлари ва стартап дастурлари тақдим этилади. Шу билан бирга, маҳаллий ҳокимиятлар ва давлат ташкилотлари ўртасида ҳамкорлик механизми йўлга қўйилган бўлиб, ҳудудларнинг таълим, соғлиқни сақлаш ва транспорт инфратузилмасини яхшилашга катта эътибор қаратилмоқда. Бу стратегия Япониянинг минтақавий дисбаланс муаммосини юмшатиш ва ижтимоий барқарорликни таъминлашда муҳим восита сифатида хизмат қилмоқда. У маҳаллий даражада ижтимоий бирдамликни мустаҳкамлаш ва инновацион жамоавий бошқарув механизмларини шакллантиришга имкон бермоқда.

Хитойда ҳудудий ривожланиш стратегияси марказлашган инвестициялар орқали ривожланмаган ҳудудларни қўллаб-қувватлашни назарда тутди. Хусусан, мамлакатнинг ғарбий ва шимолий ҳудудларида амалга оширилаётган “Western Development Strategy” ва “Belt and Road Initiative” каби йирик дастурлар доирасида инфратузилма, саноат зоналари, логистика марказлари ва таълим муассасалари яратилмоқда. Бу орқали мамлакат ҳудудларидаги ишсизлик даражасини пасайтириш, аҳоли даромадини ошириш ва ички бозорни фаоллаштириш мақсад қилиб қўйилган. Хитойнинг марказлашган бошқарув тизими бу каби йирик стратегияларни тез ва кенг қамровда амалга ошириш имконини беради. Шу билан бирга, ҳудудлардаги ривожланиш даражаси тўғрисида мунтазам мониторинг ўтказилиб, ресурслар тақсимооти маълум индикаторларга асосланган ҳолда юритилади. Ушбу ёндашув Хитойнинг иқтисодий ўсишида ҳудудлар ўртасидаги мувозанатни сақлаш ва ички тараққиётни диверсификациялашда муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

АҚШда “Opportunity Zones” дастури кам ривожланган ёки иқтисодий қийинчиликларга дуч келаётган ҳудудларга хусусий инвестицияларни жалб қилишга қаратилган. Бу дастур инвесторларга солиқ имтиёзлари орқали рағбат бериш йўли билан амалга оширилади. Масалан, инвесторлар мазкур ҳудудларда инвестиция қилиб, солиқ тўловларини кечиктириш ёки камайтириш имкониятига эга бўладилар. Шу тариқа, иқтисодий фаоллик оширилади, янги иш ўринлари яратилади ва ҳудуднинг умумий иқтисодий ҳолати яхшиланади. Бу ёндашув АҚШнинг айрим заиф ҳудудларини барқарор иқтисодий ривожлантириш учун самарали механизм бўлиб хизмат қилади.

Эстония рақамли технологиялар ва электрон ҳукумат тизимини муваффақиятли жорий этган мамлакатлардан бири ҳисобланади. У ерда ҳудудий ривожланиш рақамли инфратузилмага асосланади, бу эса ҳудудлар ўртасидаги рақамли номуносивликни камайтиришга хизмат қилади. Электрон хизматлар орқали аҳолига қулайликлар яратилади, бизнес учун тўсиқлар камаяди ва инновацион лойиҳаларни амалга ошириш имконияти ошади. Бу модель ҳудудий тенгсизликларни бартараф этиш ва ривожланишни тезлаштириш учун янги имкониятлар яратади.

Жанубий Корея иқтисодиётида ҳудудий кластерлар - муайян тармоқ ёки соҳадаги корхоналар ва тадқиқот марказларининг жамланмалари муҳим роль ўйнайди. Бу кластерлар ўртасидаги тармоқлараро интеграция ва ҳамкорлик ишлаб чиқаришни географик жойлашувга мувофиқлаштириш орқали ресурсларни самарали тақсимлашга ва технологиялар алмашинувига сабаб бўлади. Бу механизм айниқса экспортга йўналтирилган тармоқлар учун жуда фойдали бўлиб, уларнинг халқаро

рақобатбардошлигини оширади. Бу турдаги кластерлар барқарор ҳудудий ривожланишни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.

Халқаро амалиёт таҳлили шуни кўрсатадики, турли мамлакатларда ҳудудий ривожланишга нисбатан ёндашувлар сиёсий-иқтисодий тизим, ҳудудлар ўртасидаги номутаносиблик даражаси, иқтисодий тараққиётнинг босқичи ва миллий устуворликларга қараб шаклланади. Баъзи мамлакатлар инновацияга асосланган “ақлли ихтисослашув” моделини қабул қилган бўлса, бошқалари демографик барқарорлик, рақамли инфратузилма, марказлашган сармоя ёки хусусий капитални жалб этиш каби йўналишларни асос қилиб олган. Ушбу стратегик моделлар умумий мақсад ҳудудлар барқарорлиги ва самарадорлигини таъминлашга хизмат қилса-да, уларнинг амалга ошириш воситалари ва институционал механизми сезиларли даражада фарқ қилади. Қуйидаги жадвалда турли мамлакатларда қўлланилаётган ҳудудий ривожланиш стратегияларининг асосий жиҳатлари ва устувор соҳалари солиштирма шаклда кўрсатиб берилган (1-жадвал).

1-жадвал

Турли мамлакатларда ҳудудий ривожланиш стратегияларининг солиштирма таҳлили

Давлат	Асосий ёндашув	Йўналтирилган соҳалар
Германия	“Ақлли ихтисослашув” стратегияси доирасида ҳудудлар ўз салоҳиятидан келиб чиққан ҳолда аниқ тармоқларга ихтисослашади. Ҳудудий инновацион кластерлар ва университет-бизнес ҳамкорлиги орқали янги ишлаб чиқариш ва илмий салоҳият шакллантирилади.	Илғор технологиялар, рақобатбардош саноат кластерлари, илм-фан ва бизнес интеграцияси, инновацияни жойларда ривожлантириш.
Япония	“Chiiki Saisei” (Ҳудудий қайта тикланиш) дастури асосида кам аҳолига эга ҳудудларни демографик тиклаш, аҳолини ушлаб қолиш ва маҳаллий хўжалик фаоллигини қўллаб-қувватлаш асосий мақсад қилиб белгиланган. Давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигида маҳаллий ташаббуслар рағбатлантирилади.	Ижтимоий инфратузилма, аҳоли доимийлиги, маҳаллий фаолликни ошириш, ёшлар ва тадбиркорлар учун имтиёзли дастурлар.
Хитой	Марказлашган сармоялар орқали паст ривожланган ҳудудларга инвестиция жалб этилади. “Бир камар - бир йўл” ташаббуси доирасида транспорт, саноат ва таълим инфратузилмаси кенг қўламда ривожлантирилади. Давлат режаси ва ҳудудий эҳтиёж уйғунлаштирилади.	Логистика ва коммуникация инфратузилмаси, камбағалликни камайтириш дастурлари, ҳудудлараро тенгликни таъминлаш, иш ўринлари яратиш.
АҚШ	“Opportunity Zones” дастури орқали иқтисодий қийин аҳволдаги ҳудудларга хусусий сармоялар жалб этилади. Солиқ имтиёзлари ва бошқа молиявий рағбатлар орқали хусусий секторнинг фаол иштироки таъминланади.	Хусусий инвестицияларни ҳудудларга йўналтириш, янги иш ўринлари яратиш, кичик бизнесни ривожлантириш, ижтимоий хизматлар инфратузилмаси.
Эстония	Рақамли ҳукумат тизими ва электрон инфратузилма ҳудудлар ўртасидаги рақамли тенгликни таъминлашга хизмат қилади. Давлат хизматлари тўлиқ онлайн кўринишда амалга оширилади.	Рақамлаштириш, рақамли тенглик, давлат хизматларининг самарадорлиги, электрон ҳужжат айланмаси ва фуқароларни рақамли фаолликка жалб қилиш.

Жанубий Корея	Кластерлашув ва тармоқлараро интеграция орқали ҳудудларда юқори технологияли саноат соҳалари ривожлантирилади. Давлат томонидан илмий тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишлари қўллаб-қувватланади.	Илмий тадқиқотлар, инновацион ишлаб чиқариш, экспортбоп саноат тармоқлари, таълим ва технологик парклар.
--------------------------	--	--

Юқоридаги жадвал таҳлили шуни кўрсатадики, инновация, рақамли инфратузилма ва ижтимоий уйғунликка қаратилаётган эътибор турли давлатларда умумий тенденция бўлиб хизмат қилади. Ҳар бир мамлакат ҳудудий барқарор ривожланишни таъминлашда шу уч омилга алоҳида аҳамият бермоқда. Инновацияларнинг жорий қилиниши иқтисодий фаолликни ошириш ва янги иш ўринлари яратиш имконини беради, рақамли инфратузилма эса ҳудудлар ўртасидаги рақамли номутаносибликни камайтиради. Ижтимоий уйғунлик эса жамиятда барқарорликни сақлаш, ижтимоий муаммоларни баргараф этиш ва аҳолининг ҳаёт сифати ошишига олиб келади.

Ҳар бир ҳудуднинг ривожланиш стратегиясини шакллантиришда “индивидуаллашган ёндашув” муҳим аҳамият касб этади. Бу ёндашув ҳудуднинг ўзига хос хусусиятлари, иқтисодий имкониятлари, табиий ресурслари ва ижтимоий муаммоларига асосланади. Яъни, барча ҳудудларга бир хил сиёсат ёки модельни татбиқ этиш ўрнига, ҳар бир ҳудуд учун алоҳида мослаштирилган ривожланиш траекторияси белгиланган зарур. Бу ҳудуднинг кучли ва заиф жиҳатларини ҳисобга олишга, шунингдек, имкониятлардан максимал даражада фойдаланишга ёрдам беради.

Самарали ҳудудий ривожланиш моделлари одатда бир нечта муҳим компонентларни уйғунлаштириш орқали амалга оширилади. Бу компонентларга инфратузилма инвестициялари, солиқ рағбатлари, рақамли трансформация ва ижтимоий дастурлар киради. Мисол учун, инфратузилмага инвестициялар ҳудуднинг транспорт, алоқа ва энергия соҳаларидаги салоҳиятини оширади; солиқ рағбатлари хусусий секторни жалб қилади; рақамли трансформация ҳудуднинг рақамли фаоллигини оширади, ижтимоий дастурлар эса аҳолининг ижтимоий муаммоларини енгишга ёрдам беради. Бу жиҳатлар биргаликда барқарор ва комплекс ривожланишни таъминлайди.

Барча мамлакатлар ўз стратегияларини шакллантиришда инклюзивлик ва аҳолининг фаол иштирокини муҳим омил сифатида қабул қилган. Давлат, хусусий сектор ва фуқаролик жамияти ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик ва уйғунлик ҳудудий ривожланишни муваффақиятли амалга оширишнинг кафолати ҳисобланади. Аҳолининг фаол иштироки стратегик режаларнинг реал эҳтиёжлар ва муаммоларга мос келишига, шунингдек, ижтимоий барқарорликнинг таъминланишига олиб келади. Бу ёндашув давлат бошқаруви, бизнес ва жамият ўртасида ишонч муҳитини мустаҳкамлайди.

Барқарор ривожланишни мониторинг қилиш учун индикаторлар тизими жорий қилинган мамлакатларда давлат сиёсатининг самарадорлиги сезиларли даражада ошган. Масалан, Европа давлатларида “Regional Competitiveness Index” каби рейтинглар ҳудудларни иқтисодий рақобатбардошлик асосида баҳолаш учун кенг қўлланилади. Бу индекслар ҳудуднинг иқтисодий салоҳияти, инновациялари, инфратузилмаси ва ижтимоий ҳолатига оид кўрсаткичларни ўз ичига олади. Шу тариқа, давлатлар барқарор ривожланиш стратегияларини таҳлил қилиш, камчиликларни аниқлаш ва мақсадли чоралар кўриш имконига эга бўлади. Бу жараён ҳудудий сиёсатнинг самарадорлигини ошириш ва ресурсларни самарали тақсимлашга ёрдам беради.

Барқарор ривожланиш стратегияларининг муваффақиятида институционал муҳитнинг роли беқиёсдир. Очiq ва шаффоф бюджет сиёсати, масъулиятли маҳаллий

бошқарув, қонунчиликнинг барқарорлиги ва фаолликнинг таъминланиши ҳудудий ривожланишнинг кафолати ҳисобланади. Ўзаро ишончга асосланган ва самарали бошқарув тизими ресурсларнинг оқилона тақсимланишига, коррупциянинг камайишига ва инвестиция муҳитини яхшиланишига сабаб бўлади. Шунингдек, маҳаллий жамоаларнинг қарорлар қабул қилишдаги иштироки стратегик режаларнинг аниқ ва реал бўлишига ёрдам беради.

Барқарор ривожланиш стратегияларининг муҳим ўлчови сифатида экологик барқарорлик ҳам қаралади. Бир қатор давлатларда “яшил иқтисодиёт”ни ривожлантиришга йўналтирилган дастурлар амалга оширилмоқда. Бу дастурлар энергия тежамкор инфратузилмани жорий этиш, қайта тикланувчи энергия манбаларига сармоя киритиш ва карбон чиқиндиларини камайтиришга қаратилган. Масалан, Европа Иттифоқи ва баъзи бошқа мамлакатларда экологик инновациялар ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш барқарор ҳудудий ривожланишнинг устувор йўналишлари сифатида қабул қилинган. Бу ёндашув нафақат табиатни асраш, балки иқтисодий фаолликни ҳам мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Ўзбекистонда барқарор ривожланиш соҳасидаги муаммолар мавжуд. Жумладан:

инфратузилма ва рақамли трансформациянинг норасмийлиги ва чуқурлиги пастлиги. Ўзбекистонда рақамли инфратузилма жадал ривожланмоқда, бироқ ҳудудлар орасида рақамли тенгсизлик ҳали ҳам мавжуд. Қишлоқ ва чекка ҳудудларда интернетга кириш имкониятлари ва сифатли рақамли хизматлар чекланган. Бу рақамли трансформацияни тўлиқ ва самарали амалга оширишда тўсиқлар яратади, шу билан бирга, ҳудудлар ўртасида иқтисодий фарқларни кучайтириши мумкин;

иқтисодий диверсификациянинг камлиги. Ўзбекистон иқтисодиёти асосан саноат ва қишлоқ хўжалигига боғлиқ бўлиб, ҳудудларда иқтисодий диверсификация етарли даражада эмас. Бу ҳолат айрим ҳудудларнинг иқтисодий жиҳатдан заиф бўлишини ва барқарор ривожланишга эришишда қийинчиликларни келтириб чиқармоқда;

ижтимоий уйғунлик ва камбағаллик масалалари. Айрим ҳудудларда камбағаллик даражаси юқори бўлиб, ижтимоий хизматлар ва инфратузилмалар етарли эмас. Бу ижтимоий нотенгликлар ва барқарор ривожланишга тўсқинлик қилади. Аҳолининг ижтимоий эҳтиёжлари тўлиқ қондирилмагани қатор ижтимоий муаммоларнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда;

экологик муаммолар ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш масалалари. Ўзбекистонда айрим ҳудудларда сув ресурслари танқислиги, ернинг чўллашиши ва атроф-муҳитнинг заҳарланиши каби экологик муаммолар мавжуд. Бу омиллар ҳудудий ривожланишни чеклаш билан бирга, аҳолининг ҳаёт сифатига салбий таъсир кўрсатади. Экологик барқарорлик бўйича давлат сиёсати ва амалга ошириш механизмлари янада такомиллаштирилиши зарур;

институционал ҳамда бошқарув соҳасидаги камчиликлар. Ҳудудий ривожланишда масъул органлар ўртасида ҳамоҳанглик, шаффофлик ва масъулият даражаси етарли эмас. Институционал салоҳиятни ошириш, маҳаллий ҳокимият органларининг фаолиятини яхшилаш ва давлат-хусусий шериклик механизмларини ривожлантириш зарур. Бу эса стратегияларнинг самарали амалга оширилишига ёрдам беради.

5. Хулоса.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, барқарор ривожланиш ҳудудлар иқтисодиётини барқарорлаштириш, ижтимоий муаммоларни енгиш ва экологик мувозанатни сақлашда муҳим омил ҳисобланади. Турли мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, инновация, рақамли инфратузилма ва ижтимоий уйғунликка қаратилган ёндашувлар ҳудудий барқарор ривожланишни таъминлашда самарали натижалар беради. Шу билан бирга, ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусиятлари ва эҳтиёжларини

инобатга олган индивидуаллаштирилган стратегиялар ривожланиш траекториясини аниқлашда асосий аҳамиятга эга.

Ўзбекистонда барқарор ривожланишни мустақамлаш учун рақамли трансформация, иқтисодий диверсификация, ижтимоий ҳимоя ва экологик барқарорлик соҳаларида тизимли чора-тадбирлар амалга оширилиши зарур. Шунингдек, ҳудудларда кучли институционал муҳит яратиш, давлат, хусусий сектор ва жамият ўртасида ҳамкорликни мустақамлаш ривожланишнинг барқарор ва самарали бўлишини таъминлайди. Мақсадли мониторинг ва баҳолаш тизимлари орқали бу жараёнларнинг самарадорлиги назорат қилиниши лозим.

Натижада, барқарор ривожланишга йўналтирилган стратегияларни самарали амалга ошириш Ўзбекистоннинг барқарор иқтисодий ўсишини таъминлаб, аҳолининг ҳаёт даражасини оширишга, ижтимоий адолатни мустақамлашга ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишга хизмат қилади. Бу эса мамлакатнинг миллий ва ҳудудий ривожланиш мақсадларига эришишда муҳим омил бўлиб қолади.

Ўзбекистонда барқарор ривожланишни мустақамлашга қаратилган қуйидаги таклифларни келтириш мумкин:

чекка ва қишлоқ ҳудудларда юқори тезликдаги интернет ва рақамли хизматларни яратиш бўйича махсус дастурлар ишлаб чиқилиши лозим. Бу рақамли трансформацияни ҳудудлар бўйича тенг ривожлантиришга, янги имкониятларни очишга ва иқтисодий фаолликни оширишга хизмат қилади;

ҳудудларда саноатнинг турли соҳаларини ривожлантириш, қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва кичик ҳамда ўрта бизнесни қўллаб-қувватлаш учун инвестициялар жалб қилиниши керак. Бу иш ўринлари яратиш ва камбағалликни қисқартиришга ёрдам беради;

камбағал ва ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламлар учун ижтимоий хизматлар қўламини кенгайтириш, соғлиқни сақлаш муассасаларини модернизация қилиш ва ижтимоий уйғунликни таъминлашга қаратилган дастурлар амалга оширилиши зарур;

сув ресурсларини оқилона бошқариш, энергия тежамкор технологияларни жорий этиш ва карбон чиқиндиларини камайтиришга қаратилган “яшил иқтисодиёт” лойиҳаларини амалга ошириш, шунингдек, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чораларини кучайтириш муҳим вазифадир.

Ушбу таклифлар мамлакатимиз ҳудудларининг иқтисодий, ижтимоий ва экологик барқарорлигини таъминлашга хизмат қилади ҳамда рақамли трансформация, инвестициялар, ижтимоий ҳимоя ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳаларидаги чора-тадбирларни тизимли амалга оширишга асосланган.

Хулоса қилиб айтганда, барқарор ривожланиш ҳудудларнинг иқтисодий, ижтимоий ва экологик жиҳатдан мувозанатли ривожланишини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Бунинг учун инновацияларни жорий этиш, рақамли инфратузилмани такомиллаштириш, ижтимоий уйғунликни мустақамлаш ва экологик барқарорликка алоҳида эътибор қаратиш лозим. Ўзбекистонда ушбу йўналишлардаги мақсадли ва индивидуаллаштирилган стратегиялар амалиётга татбиқ этилиб, ҳудудий ривожланишнинг самарадорлиги оширилиши зарур.

Адабиётлар:

African Union (2015). Agenda 2063: The Africa we want. Addis Ababa: African Union Commission.

Barbier, E.B. (1987). ‘The concept of sustainable economic development’, *Environmental Conservation*, 14(2), pp. 101–110.

Fan, S. and Zhang, X. (2004). ‘Infrastructure and regional economic development in rural China’, *China Economic Review*, 15(2), pp. 203–214.

Foray, D., David, P.A. and Hall, B. (2012). 'Smart specialisation – the concept', Knowledge Economists Policy Brief, 9, pp. 1–5.

Kalvet, T. (2012). 'Innovation: A factor explaining e-government success in Estonia', Electronic Government, 9(2), pp. 142–157.

Lester, T.W., Tilly, C. and Zipperer, B. (2020). 'Opportunity zones and economic development', Economic Development Quarterly, 34(2), pp. 113–130.

Okamoto, K. (2016). 'Regional revitalization in Japan: From policy to practice', Asia Pacific Journal of Public Administration, 38(3), pp. 157–169.

Rodríguez-Pose, A. (2013). 'Do institutions matter for regional development?', Regional Studies, 47(7), pp. 1034–1047.

United Nations (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: UN.

Кадиров, А., Ахмедиева, А., & Маъмуров, Б. (2023). Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўналишлари. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(3), 183–190. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp183-190>

Маъмуров Б.Х. (2016) Государственная поддержка инновационной активности системы предпринимательства // Технологии информационного общества. – С. 318-319.

Маъмуров Б.Х. (2020) Цифровая трансформация в экономике Узбекистана // Big Data and Advanced Analytics. – №. 6-2. – С. 181-187.

Маъмуров, Б. (2023). Худудларда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш стратегияси ва истиқболлари. *Nashrlar*, 1(1), 326–329. <https://doi.org/10.60078/2023-vol1-iss1-pp326-329>

Маъмуров, Б. Х. (2020) Цифровая трансформация в экономике Узбекистана / Б. Х. Маъмуров // BIG DATA and Advanced Analytics = BIG DATA и анализ высокого уровня: сб. материалов VI Междунар. науч.-практ. конф., Минск, 20-21 мая 2020 года: в 3 ч. Ч. 2 / редкол.: В. А. Богуш [и др.]. – Минск: Бестпринт, – С. 181–187.



ТА'ЛИМ BOSHQARUVI NUQTAYI NAZARIDAN YAPONIYA VA O'ZBEKISTON TIZIMLARINING TAHLILI

Mangliyev B.T.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yaponiya ta'lim tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Yaponiyaning tartib-intizomga asoslangan, samarali va bosqichli ta'lim modeli O'zbekiston ta'lim tizimi bilan qiyosiy tahlil qilinib, milliy tizimga mos innovatsion yondashuvlar taklif etiladi. Shuningdek, Yaponiya ta'limida o'qituvchilarning kasbiy o'sishi, dars jarayonlarining kreativligi va jamiyat tomonidan ta'limga bo'lgan yuksak e'tibor alohida e'tirof etiladi. Maqolada Yaponiya ta'limini moliyalashtirish tizimi, oliy ta'limga kirish darajalari va xalqaro reytinglardagi natijalari haqida ham fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Yaponiya ta'limi, O'zbekiston, tartib-intizom, qiyosiy tahlil, innovatsiya, ta'lim islohoti.*

Аннотация. *В данной статье анализируются этапы формирования и развития системы образования Японии, а также её ключевые особенности. Японская модель образования, основанная на дисциплине и поэтапности, сопоставляется с системой образования Узбекистана, на основе чего предложены инновационные подходы, адаптированные к национальной системе. Особое внимание уделяется профессиональному росту учителей, креативности учебного процесса и высокому общественному доверию к сфере образования. Также рассматриваются механизмы финансирования японского образования, уровень поступления в вузы и результаты международных рейтингов.*

Ключевые слова: *образование Японии, Узбекистан, дисциплина, сравнительный анализ, инновации, образовательная реформа.*

Abstract. *This article analyzes the development stages and key features of Japan's education system. Japan's model, which is based on discipline and a step-by-step structure, is compared with Uzbekistan's education system, offering innovative, adapted approaches for national implementation. Special emphasis is placed on teacher professional development, creative teaching practices, and society's strong respect for education. The article also explores Japan's education financing system, university enrollment rates, and performance in international rankings.*

Keywords: *Japanese education, Uzbekistan, discipline, comparative analysis, innovation, education reform.*

1. Kirish.

Yaponiya bugungi kunda nafaqat Osiyo mintaqasida, balki butun dunyo miqyosida o'zining iqtisodiy qudrati, siyosiy barqarorligi, ijtimoiy tashkiloti va ilmiy-innovatsion yutuqlari bilan rivojlanayotgan davlatlar orasida âtakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Bu muvaffaqiyatlar asosi, avvalo, ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy yapon ta'limi har tomonlama mukammallikka intiluvchi tizim bo'lib, u yuqori darajadagi infratuzilmaviy imkoniyatlar, kuchli intellektual salohiyat va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda shakllangan. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi yutuqlar ko'plab davlatlar, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'rganishga arzigulik tajriba sifatida e'tirof etilmoqda.

Yaponiya ta'lim tizimining asosiy afzalliklaridan biri - bu ta'lim jarayonining jamiyatdagi tartib-intizom madaniyati bilan bevosita uyg'unlashganligidir. Chunki ta'lim-tarbiya samaradorligi avvalo o'quv muhitining ichki tartibga asoslanganligiga bog'liq. Yapon jamiyatida intizomli bo'lish nafaqat maktab, balki butun ijtimoiy hayotning ajralmas qismi hisoblanadi. Maktabda bu tamoyil bolalarning maktab binosini o'zlari tozalashi, sinfga darsdan oldin kirib tayyorlanishi, sinfdan va koridorlarda harakatlanishning qat'iy tartibga solingani orqali amalda namoyon bo'ladi. Bunday intizomiy yondashuvlar bolalarning mas'uliyat hissini erta yoshdan shakllantirib, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'zini va boshqalarni hurmat qiladigan fuqarolar etib voyaga âtkazadi.

Shuningdek, yapon ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biri - o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida urg'u berilishidir. Dars jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy interaktiv va kreativ metodlar keng qo'llaniladi. Masalan, muammoli vaziyatlardan chiqish, guruhli ishlash, loyihaviy topshiriqlarni bajarish, muhokama va prezentatsiyalar orqali fikr almashish kabi metodlar o'quvchilarning tashabbuskorlik va ichki motivatsiyasini oshiradi. O'quvchilar nafaqat tayyor bilimni o'zlashtiradi, balki uni tahlil qilish, qo'llash va yangi g'oyalar yaratish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Bu esa innovatsion tafakkurli, ijodiy salohiyatga ega bo'lgan yangi avlodni tarbiyalash imkonini beradi.

Tarixiy nuqtayi nazardan qaralganda, Yaponiyada zamonaviy ta'lim tizimi asoslari 1872-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bilan belgilangan. Bu qonun G'arb mamlakatlari, xususan, Prussiya va AQSh ta'lim modellari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, yapon milliy qadriyatlari bilan uyg'unlashgan holda tatbiq etilgan. Yapon konstitutsiyasida har bir bola bepul umumiy ta'lim olish huquqiga ega ekani qat'iy belgilangan bo'lib, bu davlat tomonidan ta'limga berilayotgan yuksak e'tibor va mas'uliyatni anglatadi.

Yaponiyada o'qituvchi kasbining nufuzi nihoyatda yuqori darajada. Bu, avvalo, ularga munosib maosh to'lanishi va jamiyatda o'qituvchiga bo'lgan yuksak hurmat bilan bog'liq. O'qituvchilar o'z faoliyatlari davomida uzluksiz ravishda kasbiy rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Malaka oshirish jarayoni esa an'anaviy seminar va kurslar bilan cheklanmaydi — o'qituvchilar o'zaro dars kuzatuv (lesson study), tahlil va muhokama, tajriba almashinuvi kabi zamonaviy yondashuvlardan foydalanishadi. Bu tizim pedagogik mahoratni doimiy oshirish, dars sifatini yaxshilash va ilg'or uslublarni amaliyotda qo'llashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning ish vaqti uzoq bo'lishi, darsdan tashqari mashg'ulotlar, hujjatlarni tayyorlash va ota-onalar bilan ishlash kabi ko'plab faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bu mehnat yuki og'ir bo'lishiga qaramay, o'qituvchilar o'z kasbini yuksak mas'uliyat bilan bajaradilar.

Yaponiyaning ta'lim tizimi - bu intizom, mas'uliyat, uzviylik va yangilikka ochiqlik tamoyillariga asoslangan ilg'or modeldir. Bu model boshqa davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham samarali tajriba manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2. Adabiyotlar sharhi.

Yaponiya rivojlangan davlatlar qatorida eng ilg'or ta'lim tizimiga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham u boshqa ko'plab mamlakatlar, jumladan, Indoneziya uchun ham o'rnak sifatida ko'riladi. Mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini baholashda xalqaro PISA (OECD tomonidan o'tkaziladigan) natijalari asosiy mezon sifatida ishlatiladi.

Yaponiyaning taraqqiyoti, jumladan ta'lim sohasidagi yutuqlari, o'z milliy qadriyatlariga sodiqlik asosida shakllangan. Yapon xalqi o'z an'analari va madaniyatiga katta hurmat bilan qaraydi. Ular ta'limni juda qadrlashadi va uni mukammal boshqarishadi. Ayniqsa, ta'limda axloqiy va xarakter tarbiyasi muhim o'rin egallaydi.

Yaponiya ta'lim tizimi G'arb tamoyillari va o'z milliy metodlarini uyg'unlashtirgan. Bu tizim mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirishga ham yordam beradi - bu holat ko'plab boshqa davlatlar uchun dolzarb muammodir.

Yapon ta'limi bitiruvchilarining ijodkorligi va yangilik yaratish qobiliyati butun dunyoda tan olingan. Bunga Honda va Suzuki kabi mashhur avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning muvaffaqiyatlari misol bo'la oladi - ular qisqa vaqt ichida yangilik yaratishda atakchi hisoblanadi.

Yapon ta'limi faqat davlat xizmatchilarini emas, balki ilmiy tadqiqotlar olib borishga qodir bo'lgan mutaxassislarni ham atishtira oladi (Rifmasari va boshq., 2023).

Yaponiya samarali va unumli ta'lim tizimini, ayniqsa maktab ta'limi yo'nalishida, muvaffaqiyatli tarzda shakllantirgan davlat sifatida tanilgan. Xalqaro miqyosda o'tkaziladigan PISA va TIMSS kabi akademik baholash testlarida yapon o'quvchilari boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida yuqori natijalarga erishganliklari qayd etilgan. Oliy ta'lim darajasida ham, Yaponiya boshqa Osiyo davlatlari bilan solishtirganda, ilmiy-tekshirish faoliyati va akademik natijalar bo'yicha samarali tizimga ega.

Shunga qaramay, bugungi kunda Yaponiyada ta'lim tizimi isloh qilinishi zarur bo'lgan asosiy sohalardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki mavjud ta'lim tizimi qat'iylik va moslashuvchanlikning atishmasligi bilan tavsiflanadi. Bu holat ichki va tashqi muhitdagi tezkor o'zgarishlarga munosib javob qaytara olmayotganini anglatadi. Natijada, yapon jamoatchiligi orasida ta'lim tizimi zamonaviy bilimlarga asoslangan jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh inson kapitalini atishtirishda davom eta oladimi degan savollar ko'ndalang qo'yilmoqda (Kitamura, 2019).

Yaponiya dunyodagi eng yirik oliy ta'lim tizimlaridan biriga ega. Hozirda yaponiyalik 18 yoshli yoshlarning taxminan 80 foizi o'rta maktabni tugatgach, oliy ta'limning turli shakllariga o'qishga kiradi. Ularning 60 foizi to'rt yillik yoki ikki yillik kollejlarga va universitetlarga o'qishga kiradi, qolgan 20 foizi esa diplom bermaydigan texnik va kasbiy tayyorgarlik kollejlariga o'qishga qabul qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda oliy ta'limga kiruvchilar foizi Yaponiyaga nisbatan yuqori bo'lishi mumkin, biroq Yaponiyaning aholisi nisbatan ko'p bo'lgani sababli, u arda oliy ta'limga qabul qilinadigan talabalar soni ancha katta hisoblanadi.

So'nggi 20 yil ichida o'rta maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga o'tish ko'rsatkichi keskin oshdi va hozirda ko'pchilik yoshlar biror shakldagi oliy ta'limdan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega. Yaponiya eng puxta tashkil etilgan oliy ta'lim tizimlaridan birini yaratgan bo'lib, bu tizim "ommaviylashtirilgan" va demokratlashtirilgan ta'lim sifatida baholanadi. Biroq, bu yirik tizim ko'pincha Yaponiyaning oliy ta'limdagi muvaffaqiyati belgisi sifatida qaralmaydi. Sababi, mazkur tizimda sifatsizlik bilan bog'liq jiddiy muammolar saqlanib qolgan (Fukudome, 2019).

Yaponiyaning Ta'lim vazirligi markazlashuv va mahalliy boshqaruv o'rtasidagi muvozanatni ta'minlagan bo'lib, ta'limni rivojlantirish uchun "ikki tomonlama byudjet" tizimi joriy etilgan - bunda ta'lim xarajatlarining deyarli yarmi mahalliy hokimiyatlar tomonidan qoplanadi.

Yaponiya hukumati ta'limga umumiy milliy daromadning 20 foizidan ortig'ini sarflaydi va ushbu mablag'lar odatda ta'lim jarayonini samarali qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Mahalliy

(shahar yoki tuman) hokimiyatlar markaziy hukumat bilan birga ta'limni moliyalashtirishda faol ishtirok etadi va har bir hududdagi ta'lim muassasalariga zarur moliyaviy yordam ko'rsatadi.

Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar, banklar va badavlat shaxslarning xayriya mablag'lari ham ta'lim dasturlarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Yaponiyaliklar hayotining oxiriga yaqin xayriya qilishni yaxshi ko'rishadi, bu esa ta'lim faoliyatiga katta yordam beradi (Mahrouse, 2021).

Yaponiyaning Ta'lim vazirligi markazlashuv va markazdan chiqarish (desentralizatsiya) jarayonining uyg'unligiga asoslangan bo'lib, ta'limni rivojlantirish uchun "ikki tomonlama byudjet" tizimini qo'llaydi. Bu orqali mahalliy hokimiyatlar ta'lim xarajatlarining deyarli yarmiga moliyaviy hissa qo'shadi.

Shuningdek, Yaponiya hukumati tomonidan ta'limga ajratiladigan mablag' miqdori umumiy milliy daromadning 20 foizidan ortiqni tashkil etadi va bu mablag'lar ta'lim jarayonini samarali qo'llab-quvvatlashda foydali tarzda sarflanadi. Mahalliy (shahar va tuman) hokimiyatlar markaziy hukumat bilan hamkorlikda ta'limni moliyalashtirishda faol ishtirok etadilar. Har bir mahalliy boshqaruv organi o'z hududidagi ta'lim muassasalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning, banklarning va sarmoyadorlarning xayriyalari Yaponiyada ta'limni moliyalashtirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yaponiyaliklar hayotlarining oxirgi bosqichida ko'proq xayriya qilishga moyil bo'lishadi va bu xayriyalar ta'lim faoliyatlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi (Mahrouse, 2021).

Yaponiyaning ta'lim tizimi uzoq yillardan beri turli soha vakillari uchun qiziqish manbai bo'lib kelgan - bu tizimni iqtisodiy yuksalish davrida o'z mamlakatlarida joriy qilishni istaganlardan tortib, uni Yaponiyaning umumiy jamiyati haqidagi ko'rinishi sifatida tahlil qilganlargacha. Ta'lim tizimi "teng" (yoki tenglikka asoslangan) deb hisoblanishi mumkinmi, degan bahslar ham uzoq yillardan beri davom etmoqda.

Masalan, Cummings (1980) maktab tizimi tenglikka asoslanganligini ilgari surgan bo'lsa, Rohlen (1983) esa bu fikrga zid bo'lgan murakkab jihatlarni ta'kidlagan. So'nggi tadqiqotlarda Yapon ta'lim tizimi tenglik masalasida global nuqtai nazardan ko'proq solishtirma yondashuvda ko'rib chiqilmoqda (Kariya va Rappleye, 2020). Boshqa ishlarda esa tenglik, teng huquqlilik (egalitarizm) va iste'dodga asoslangan tizim (meritokratiya) tushunchalarining siyosatda va ta'lim qarorlarini qabul qiluvchilar qarashlarida qanday shakllangani ko'rib chiqiladi (Okada, 2012).

Bundan farqli o'laroq, Okano o'z tadqiqotida ushbu siyosiy o'zgarishlarning bevosita o'quvchilarga qanday ta'sir qilganiga e'tibor qaratadi. Uning "Yaponiya ta'limi va ijtimoiy adolat" nomli kitobi Yaponiya maktab tizimi bo'yicha yangilangan bahoni taqdim etadi. Bu ayniqsa so'nggi o'ttiz yildagi katta ijtimoiy, iqtisodiy va demografik o'zgarishlarni hisobga olgan holda juda muhimdir.

Kitob birinchi navbatda "ijtimoiy adolat" tushunchasini aniqlab beradi: bu - ta'lim imkoniyatlarining taqsimlanishi va mazmuni qanday aniqlanishi mexanizmlarini anglatadi. Keyingi bo'limlarda 2019 yilgacha bo'lgan Yapon ta'lim tizimi tarixi, uning mamlakat taraqqiyotiga qanday ta'sir qilgani ko'rib chiqiladi. Islohotlar va jamoatchilikning ularga munosabati ham tahlil qilinadi; Okano bu islohotlar ko'pincha taxmin qilinganidek tub emasligini ko'rsatadi (Juil, 2022).

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda Yaponiya va O'zbekiston ta'lim tizimlari tizimli va qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Metod sifatida SWOT tahlil, komparativ tahlil va kontent-analiz usullaridan foydalanildi. Xususan, Yaponiya ta'limining kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlari hamda xavf omillari aniqlab chiqildi. O'zbekiston ta'limi bo'yicha rasmiy hujjatlar, islohot strategiyalari va xalqaro reytinglar tahlil qilindi. Tadqiqotda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik

qarashlar asosida nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur yondashuvlar orqali O'zbekiston ta'lim tizimiga mos takliflar ilgari surildi.

4. Tahlil va natijalar .

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida 2025-yilga borib o'qituvchilar oylik ish haqlarini 1000 AQSh dollariga o'tkazish maqsadi belgilangan bo'lib, bu nafaqat ta'lim sohasida ijtimoiy himoyani kuchaytiradi, balki o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, 2019-yil 8-oktabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" asosida oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi - har bir yosh fuqaroning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishi uchun qulay muhit yaratishdir. Bu boradagi siyosatni amalga oshirishda ta'lim menejmenti tizimining takomillashtirilganligi muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy menejment yondashuvlariga tayangan holda, ta'lim jarayoni qatnashchilarining (o'qituvchi, o'quvchi, boshqaruvchi, jamoatchilik) o'zaro hamkorligini ta'minlash, strategik rejalashtirish, sifat monitoringi va resurslardan oqilona foydalanish masalalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda. Bugungi kunda ta'lim muassasalari rahbarlari uchun menejment kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilayotgani ham shu jarayonning bir qismidir.

O'zbekiston ta'lim tizimi tarkibiy jihatdan barcha bosqichlarni qamrab olgan bo'lib, maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha uzviy integratsiyani shakllantirishga intilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro reytinglar va baholash tizimlariga integratsiya qilish, ta'lim sifatining monitoringini yo'lga qo'yish, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini keng tatbiq etish ham ta'lim boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yaponiya bilan O'zbekiston ta'lim tizimini qiyosiy tahlil qilganimizda, yapon ta'limi tarkibiy jihatdan ancha ilg'or va uzluksiz tizimga asoslangani ko'zga tashlanadi. Maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab 6 yillik boshlang'ich, 3 yillik quyi o'rta, 3 yillik yuqori o'rta maktab bosqichlariga bo'linadigan Yapon ta'lim tizimi qat'iy bosqichlilik va ixtisoslashuvga tayangan. Har bir bosqichda o'quvchilar bilim darajasi asosida saralab olinadi, bu esa natijadorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Yaponiyada darsdan tashqari mashg'ulotlar - sport, san'at, fan va texnika yo'nalishlaridagi to'garaklar, shuningdek, ijtimoiy faollikni oshiruvchi loyihalar keng rivojlangan. Ahamiyatli jihati shundaki, bu mashg'ulotlar hatto dam olish kunlari ham tashkil etiladi va ularning samaradorligi yuqori baholanadi.

Yaponiya ta'lim tizimining boshqaruv modeli ham o'ziga xos: bu tizimda markazlashuv va mahalliyashtirishning muvozanatli uyg'unligi ta'minlangan. Har bir ta'lim bosqichining moliyalashtirilishi "ikki tomonlama byudjet" mexanizmi orqali amalga oshiriladi -ya'ni, ta'lim xarajatlarining bir qismi markaziy hukumat, boshqa qismi esa mahalliy boshqaruv organlari tomonidan qoplanadi. Bu model O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham samarali tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonda ham ta'lim menejmenti tizimini kuchaytirish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy obro'sini mustahkamlash, shuningdek, maktablar va OTMLar boshqaruvini raqamlashtirish orqali ularning mustaqilligini kengaytirish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. O'zaro taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimi yapon modeli tajribasini kontekstual tahlil asosida milliy ehtiyojlarga moslashtirgan holda amaliyotga joriy etsa, islohotlarning natijadorligi yanada ortadi.

5. Xulosa.

O'zbekiston ta'lim tizimi keyingi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida jadallik bilan rivojlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Taraqqiyot strategiyasi" doirasidagi islohotlar, xususan, 2030-yilgacha mo'ljallangan Ta'lim konsepsiyasi asosida oliy ta'lim muassasalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish, o'qituvchilarning ijtimoiy maqomini oshirish, ularning oylik ish haqlarini sezilarli darajada ko'paytirish kabi chora-tadbirlar natijasida ta'lim sifati va ta'lim menejmentining samaradorligi oshmoqda.

Yaponiya ta'lim tizimi namunasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimi faqatgina bilim berishga emas, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi va jamiyat uchun foydali inson sifatida shakllantirishga yo'naltirilishi zarur. Yaponiyada o'quvchilar maktabgacha ta'limdan boshlab uzluksiz, bosqichma-bosqich rivojlanish zanjiriga kiradi. Bosqichlarning har biri uzviy bog'langan bo'lib, bunda darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlari, jamoaviy tozalash ishlari, o'quvchilarning maktab ichki intizomiga rioya qilishi orqali tarbiyaviy jihatlar mustahkamlanadi.

Ta'lim boshqaruvi (ta'lim menejmenti) sohasida ham Yaponiya ilg'or tajribaga ega. Bu árda markaziy va mahalliy boshqaruv o'rtasida muvozanatli "ikki tomonlama byudjet" modeli mavjud bo'lib, ta'lim sohasiga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslar davlat, mahalliy hokimiyat, xususiy sektor va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayoni an'anaviy tizimlardan farqli ravishda o'zaro dars kuzatish, tahlil va tarmoq hamkorliklar orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv O'zbekistonda ham pedagoglar malakasini oshirishning samarali usuli sifatida joriy qilinishi mumkin.

Yaponiya tajribasi asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Ta'limda tartib-intizomni kuchaytirish – maktab ichki intizomi, o'quvchilarning mas'uliyatini oshirish va ularni mehnatga o'rgatish orqali shaxsiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirish kerak.

Bosqichma-bosqich uzluksiz ta'lim tizimini mustahkamlash – maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bo'g'inlar uzviy bog'langan yagona tizim sifatida ishlashi zarur.

Ta'lim menejmentida desentralizatsiyani kuchaytirish – mahalliy hokimiyatlar, jamoatchilik va xususiy sektorning ta'lim tizimini boshqarish va moliyalashtirishdagi ishtirokini oshirish tavsiya etiladi.

O'qituvchilarni uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy tizim yaratish – o'zaro dars kuzatish, "ustoz-shogird" tizimi va ilg'or tajriba almashinuvi asosida doimiy malaka oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish lozim.

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodikalarni tatbiq etish – o'quvchilarning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlovchi, ularning qiziqishiga mos kreativ yondashuvlar joriy qilinishi muhim.

Darsdan tashqari faoliyatlar tizimini kengaytirish – sport, san'at, fan va texnologiyaga oid to'garaklarning soni va sifatini oshirish orqali o'quvchilarning har tomonlama qobiliyatini rivojlantirish lozim.

Ta'limga xayriya va ijtimoiy sheriklik asosida investitsiya jalb etish – xususiy sektor, banklar va jismoniy shaxslarning xayriya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish kerak.

Umuman olganda, Yaponiya ta'lim tizimi nafaqat o'z ichki samaradorligi, balki uning jahon standartlari darajasidagi natijalari bilan ham e'tirof etilmoqda. O'zbekiston sharoitida bu tajribaning asosiy yo'nalishlarini tizimli tahlil asosida tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

Rifmasari, Y., Gusteti, M., Hendriani, M., Rusdinal, R., Gistituati, N., & Ananda, A. (2023). Learn from the Japanese Education System. *International Journal of Educational Dynamics*, 6(1), 349-356. <https://doi.org/10.24036/ijeds.v6i1.450>

Kitamura, Y. (2019). Background and Context of Education System in Japan. In: Kitamura, Y., Omomo, T., Katsuno, M. (eds) *Education in Japan. Education in the Asia-Pacific Region: Issues, Concerns and Prospects*, vol 47. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-13-2632-5_1

Fukudome, H. (2019). Higher Education in Japan: Its Uniqueness and Historical Development. In: Kitamura, Y., Omomo, T., Katsuno, M. (eds) *Education in Japan. Education in the Asia-Pacific Region: Issues, Concerns and Prospects*, vol 47. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-13-2632-5_3

Mahrouse, M. (2021). Japan's Education System, And its financing. *Sohag University International Journal of Educational Research*. <https://doi.org/10.21608/SUIJER.2021.174765>.

Mahrouse, M. (2021). Japan's Education System, And its financing. *Sohag University International Journal of Educational Research*. <https://doi.org/10.21608/SUIJER.2021.174765>.

Juul, K. (2022). Education and Social Justice in Japan. *Japan Forum*, 34, 275 - 277. <https://doi.org/10.1080/09555803.2022.2056229>.



TURIZM SANOATIDA SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI

Muxsinjonova G.I.

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya. Mazkur ishda turizm sanoatida samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan. Unda raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot, segmentatsiya, tajriba marketingi, influencer marketing, hamkorlik aloqalari, mobil texnologiyalar va barqaror turizm tamoyillaridan foydalanish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, har bir strategiyaning turli turist segmentlariga ta'siri va zamonaviy texnologiyalar yordamida mijozlarni jalb qilish usullari ko'rib chiqilgan. Ish yakunida turizm subyektlari uchun tavsiya etiladigan kompleks marketing yondashuvlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Turizm marketing, Raqamli marketing, Ijtimoiy tarmoqlar, Influencer marketing, Ekoturizm, Tajriba marketing, Turist segmentatsiyasi

Аннотация. В данной работе освещены вопросы разработки эффективных маркетинговых стратегий в индустрии туризма и их внедрения в практику. Он анализирует способы использования цифрового маркетинга, продвижения через социальные сети, сегментации, опытного маркетинга, маркетинга влияния, партнерских отношений, мобильных технологий и принципов устойчивого туризма. Также было рассмотрено влияние каждой стратегии на различные туристические сегменты и способы привлечения клиентов с помощью современных технологий. В завершение работы предложены комплексные маркетинговые подходы, рекомендуемые для субъектов туризма.

Ключевые слова: туристический маркетинг, цифровой маркетинг, социальные сети, маркетинг влияния, экотуризм, опыт маркетинга, туристическая сегментация.

Abstract. This paper highlights the issues of developing effective marketing strategies in the tourism industry and their implementation in practice. He analyzes the ways to use digital marketing, social media promotion, segmentation, experiential marketing, influencer marketing, partnerships, mobile technology, and the principles of sustainable tourism. The impact of each strategy on different tourism segments and ways to attract customers using modern technology were also considered. At the end of the work, comprehensive marketing approaches recommended for tourism entities are proposed.

Keywords: tourism marketing, digital marketing, social networks, influencer marketing, ecotourism, marketing experience, tourism segmentation.

1. Kirish.

Bugungi kunda turizm sohasi global miqyosda jadal rivojlanayotgan va raqobatbardosh bozor hisoblanadi. Har bir turistik kompaniya o'z mijozlarini jalb qilish va ularning talablariga javob berish uchun marketing strategiyalarini samarali ishlab chiqishi zarur. Shu bilan birga, marketing axborotlarini to'g'ri ishlatish ham turizm sohasidagi muvaffaqiyatning kalitidir.

O'zgaruvchan bozorlarda, yangiliklar va tendensiyalarni kuzatib borish, mijozlar xohish-istaklarini aniqlash va ularga moslashtirilgan takliflarni yaratish marketingning muhim qismiga aylangan.

Shunday qilib, marketing axborotlaridan samarali foydalanish nafaqat kompaniyaning daromadlarini oshiradi, balki mijozlarning sodiqligini ham ta'minlaydi.

Statistikaga ko'ra, global turizm sanoati 2024-yilda 1.5 trillion dollarni tashkil etgan va bu raqamning 2025-yilda 6% ga o'sishi kutilmoqda (UNWTO, 2023).

Shuningdek, so'nggi yillarda onlayn turizm xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi marketing axborotlarining ahamiyatini yanada kuchaytirdi, chunki sayohatlarni rejalashtirishda mijozlar 70% holatda internet orqali qaror qabul qiladilar. Bu statistik faktlar turizm marketing axborotlarining samarali ishlatilishi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Turizm marketing axborotlaridan samarali foydalanish masalasi zamonaviy tadqiqotlarda keng muhokama qilinmoqda. So'nggi yilda bir qator olimlar ushbu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va o'zlarining fikrlarini bildirishgan.

“Raqamli asrda marketing: turizmdagi yangi yondashuvlar” nomli maqolalarida turizm marketingida axborot texnologiyalari va raqamli platformalarning o'sib borayotgan rolini tahlil qilganlar. Ular, marketing axborotlari turizm sohasida mijozlarga individual xizmat ko'rsatish uchun qulay imkoniyatlar yaratganligini ta'kidlagan. Shuningdek, raqamli ma'lumotlar yordamida mijozlarning xohish-istaklarini aniq tahlil qilish va ularning ehtiyojlariga mos takliflar yaratishning marketingda samarali strategiya ekanligini ko'rsatgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli marketing axborotlari kompaniyalar uchun mijoz sodiqligini oshirish va yangi bozorlarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi (Smith & Johnson, 2023).

Garcia va Thompson (2023) o'zlarining “Turizm ma'lumotlarga asoslangan marketing: mijozlar tajribasini oshirish” nomli ilmiy ishida, ular marketing axborotlaridan foydalanishning mijoz tajribasini yaxshilashdagi ahamiyatini o'rgangan. Ular, marketing axborotlarining to'liq va to'g'ri tahlili mijozlar bilan yanada mustahkam aloqalar o'rnatishga yordam berishini va shuningdek, xizmatlar sifatini yaxshilashda yordam berishini ta'kidlagan. Garcia va Thompsonning izlanishlari, marketing axborotlarini faqat reklama yoki sotuvni oshirish uchun emas, balki mijozlarning ehtiyojlarini to'liq qondirish va ularning tajribasini boyitish uchun ishlatishning muhimligini ko'rsatadi.

Katta ma'lumotlarning roli nomli maqolada katta ma'lumotlar (Big Data) va marketing axborotlarining o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Lee va Kimning (2023) fikricha, katta hajmdagi axborotlar turizm marketingning an'anaviy metodlarini yangilashga yordam beradi va kompaniyalarga mijozlarning xulq-atvorini oldindan prognoz qilish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotda marketing axborotlaridan samarali foydalanish kompaniyalar uchun raqobatbardosh afzalliklarni yaratish imkoniyatini taqdim etishi ta'kidlangan.

“Turizm marketingida barqarorlik: iste'molchi ma'lumotlarining roli” nomli tadqiqotida, olimlar turizm marketingida barqarorlik va marketing axborotlari orasidagi aloqani o'rganishgan. Ularning fikricha, mijozlar haqidagi axborotlar turizm marketingda barqaror amaliyotlarni rivojlantirishga yordam beradi, chunki marketing orqali ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni targ'ib qilish mumkin. Martinez va Sotoning (2023) izlanishlariga ko'ra, marketing axborotlaridan foydalangan holda, turizm kompaniyalari o'zlarining ekologik va ijtimoiy maqsadlariga erishishlari mumkin, bu esa mijozlar orasida ijobiy imij yaratadi va brend sodiqligini oshiradi.

“Turizm marketingida bashoratli tahlillar: vaziyatni o'rganish” nomli ishida, olimlar bashoratli tahlil (predictive analytics) va marketing axborotlarining turizm sanoatida qo'llanilishini o'rganishgan. Ular, marketing axborotlaridan foydalangan holda, mijozlarning kelajakdagi ehtiyojlarini va xulq-atvorini prognoz qilish mumkinligini aniqladilar. Zhou va Zhangning (2023) fikricha, bashoratli tahlil yordamida turizm kompaniyalari o'z xizmatlarini

va marketing strategiyalarini yanada samarali ishlab chiqishlari mumkin, bu esa daromadlarni oshiradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari to'rt asosiy tahliliy yondashuv - statistik tahlil, SWOT tahlili, induktiv va deduktiv usullar - kompleks qo'llanilishiga asoslangan. Ushbu usullar turizm sohasida marketing axborotlaridan foydalanish samaradorligini har tomonlama o'rganish, raqobatbardosh strategiyalarni shakllantirishga, mijozlar ehtiyojini qondirishga va barqaror rivojlanishga ta'sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

4. Tahlil va natijalar.

Olimlarning olib borgan tadqiqotlari marketing axborotlarining turizmda samarali qo'llanilishini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar va katta ma'lumotlar yordamida marketing strategiyalarini shakllantirish, mijozlar ehtiyojlarini aniq tushunish va ularning tajribasini yaxshilash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, marketing axborotlarining samarali ishlatilishi turizmda raqobatbardoshlikni oshirishga, mijozlar sodiqligini ta'minlashga va barqaror rivojlanishga yordam beradi.

1-jadval

Turizm sohasidagi onlayn reklama kampaniyalarining samaradorlik ko'rsatkichlari (World Tourism Organization (UNWTO), 2023)

Yil	Kampaniya hajmi (dollar)	Yangi mijozlar soni	Ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar (foiz)	O'zgarish darajasi (%)
2022	500,000	10,000	5%	10%
2023	750,000	15,000	7%	15%
2024	1,000,000	20,000	10%	20%

SWOT tahlili kompaniyaga o'zining marketing strategiyasini yanada rivojlantirish uchun kuchli tomonlarni kuchaytirish, zaif tomonlarni bartaraf etish va bozor imkoniyatlarini optimal foydalangan holda tahdidlar bilan kurashish imkoniyatini beradi. Misol uchun, kompaniya onlayn marketing kanallarini kengaytirish va eko-turizmni rivojlantirish orqali yangi bozorlarni zabt etishi mumkin.

Induksiya va deduksiya metodlari yordamida turizm kompaniyalarining marketing axborotlarini to'liq tahlil qilish va umumiy xulosalarga kelish mumkin.

Induksiya metodidan foydalanib, turizm kompaniyasi bir nechta hududlarda o'tkazilgan marketing kampaniyalarining natijalarini o'rganadi va ularning asosiy tendensiyalarini aniqlaydi. Misol uchun, agar bir necha shaharlar yoki mamlakatlarda marketing axborotlarini samarali ishlatish natijasida mijozlar soni ortgan bo'lsa, bu umumiy tendensiyani anglatadi va kompaniya shu tendensiyadan foydalangan holda marketing strategiyasini kengaytirishi mumkin.

Deduksiya metodini qo'llagan holda, umumiy prinsiplardan kelib chiqib, kompaniya o'ziga xos aniq strategiyalarni ishlab chiqadi. Masalan, agar umumiy tahlil shuni ko'rsatgan bo'lsa, marketing kampaniyalarini maqsadli auditoriyaga yo'naltirish kerak, deduksiya tahlilga asoslanib, kompaniya o'z reklamalarini maxsus auditoriyalar uchun moslashtiradi.

Statistik tahlil, SWOT tahlili va induksiya-deduksiya metodlari yordamida turizm sohasidagi marketing axborotlarining samaradorligini o'rganish va tahlil qilish mumkin. Statistik tahlil marketing kampaniyalarining natijalarini o'lchashga yordam beradi, SWOT tahlili kompaniyaga kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi, induksiya-deduksiya metodlari esa umumiy va aniq xulosalarga kelishga yordam beradi. Ushbu metodlarning

barchasi turizm kompaniyalarining marketing strategiyalarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda turizm marketing axborotlaridan samarali foydalanish xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan va jadal rivojlanmoqda. Xorijda turizm sohasida marketing axborotlari nafaqat mijozlarga yo'naltirilgan reklama va mahsulotlarni taklif qilishda, balki bozor segmentatsiyasi, raqobatbardoshlikni oshirish, xizmatlarni shaxsiylashtirish va mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Quyida bir nechta davlatlarning tajribalariga to'xtalib o'tamiz:

Ispaniya turizm marketing axborotlaridan samarali foydalanishning etakchi mamlakatlaridan biridir. Ispaniya Turizm Tashkiloti (Turespaña) o'zining marketing strategiyalarini yanada samarali qilish uchun keng qamrovli axborot tizimlariga ega. Ispaniya aholisi va turistlar to'g'risidagi ma'lumotlar (demografik xususiyatlar, sayohatni rejalashtirish usullari, qiziqishlar va xohishlar) tahlil qilinadi. Bu ma'lumotlarga asoslanib, turistlarning istaklariga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan marketing kampaniyalari ishlab chiqiladi. Masalan, "Costa Brava" va "Madrid" kabi turistik mintaqalar o'zining marketing strategiyalarini mijozlarga yo'naltirilgan axborotlar orqali optimallashtirgan.

Yaponiya turizm marketingida innovatsion texnologiyalardan keng foydalanadi. Yaponiya Turizm Agentligi (JNTO) va boshqa tashkilotlar, turistlarni jalb qilishda sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumot (Big Data) va turli onlayn platformalar yordamida marketing axborotlarini yig'ish va tahlil qilishadi. Yaponiya, masalan, turistlarning yoshi, xohish-irodalari va sayohat qilish odatlarini aniqlash uchun katta ma'lumotlardan foydalanadi. Bundan tashqari, mamlakatda mobil ilovalar orqali turistik xizmatlar haqida ma'lumotlar taqdim etilib, mijozlarning ehtiyojlariga qarab reklama va takliflar shaxsiylashtiriladi.


Fransiya o'zining "Tourisme & Vous" nomli platformasida turistlarga maxsus axborot taqdim etadi. Ushbu platforma turistik ma'lumotlar, ekskursiyalar, cheklangan takliflar va madaniy tadbirlar haqida individual ma'lumotlarni taqdim etadi. Fransiyada turizm bo'yicha marketing axborotlari taqdimotining samarali bo'lishi uchun raqamli marketing strategiyalari keng qo'llaniladi, bu orqali turistlarga maqsadli reklamalar va takliflar yuboriladi. Turizmni rivojlantirishda onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar muhim o'rin tutadi.

AQShda turizm marketingi odatda an'anaviy va raqamli kanallarni birlashtirishga asoslanadi. Milliy va shtat darajasidagi turizm tashkilotlari, masalan, "Visit California" yoki "Brand USA", keng marketing kampaniyalarini amalga oshirib, turistlar bilan to'g'ridanto'g'ri aloqada bo'ladilar. Axborot tizimlari va mobil ilovalar orqali turistlarga tavsiyalar, maxsus takliflar va aksiyalar taqdim etiladi. Shuningdek, AQShda turizm sohasida katta ma'lumotlar tahlili va ijtimoiy tarmoqlarni samarali foydalanish marketingning asosiy vositalaridan biridir.

O'zbekiston turizm sohasida marketing axborotlaridan samarali foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganishi va bu usullarni joriy etish imkoniyatiga ega.

O'zbekistonning turizm salohiyati juda katta bo'lib, mamlakatda boy tarixiy meros, tabiiy go'zalliklar, madaniyat va an'analar mavjud. Biroq, marketing sohasida hali ham rivojlanish zarurati mavjud. O'zbekistonning marketing axborotlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

O'zbekistonda turizm marketingi sohasida raqamli texnologiyalarni kengaytirish, internet va mobil ilovalarni marketing vositalari sifatida ishlatish imkoniyatlari katta. Misol uchun, turizm bo'yicha maxsus mobil ilovalar yaratish, sayohatlarni rejalashtirishda yordam beradigan platformalarni ishlab chiqish, turistlar uchun shaxsiylashtirilgan takliflar va aksiyalarni taqdim etish mumkin. optimallashtirish mumkin.



1-rasm. Jahon mamlakatlarining turizm marketing axborotlaridan foydalanish holati⁹

O'zbekiston turizm sohasida katta ma'lumotlardan (big data) foydalanish imkoniyatiga ega. Turistlarning xarid qilish odatlari, sayohatga chiqish vaqtlari, yo'nalishlar va qiziqishlariga oid ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish orqali marketing strategiyalarini aniqroq va samaraliroq qilish mumkin. Masalan, O'zbekistonning tarixiy yodgorliklari yoki tabiiy go'zalliklariga qiziqadigan turistlarga moslashtirilgan reklama va takliflar yaratish mumkin.

O'zbekistonning turizm bozoridagi salohiyatini yanada oshirish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va marketing tarmoqlarini kengaytirish zarur. Xorijiy mamlakatlardagi turizm marketing tajribalarini o'zlashtirish va mamlakat ichidagi turistik xizmatlarni raqobatbardosh qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Misol uchun, O'zbekistonning turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, madaniy merosga oid marketing kampaniyalarini amalga oshirishda xorijiy tajribalarni joriy etish mumkin.

O'zbekistonning turizm sanoatida eng muhim omillardan biri – Ispaniya, Yaponiya, Fransiya, va AQShda internet orqali ma'lumot yig'ish yuqori darajada amalga oshiriladi. Bu mamlakatlar turistlar haqida ma'lumot yig'ish uchun raqamli texnologiyalarni keng ishlatib, marketing strategiyalarini shakllantiradilar.

O'zbekistonda bu ko'rsatkich hali past darajada (40%) bo'lib, bu mamlakatda internet va raqamli platformalar orqali ma'lumot yig'ish tizimi hali rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Yaponiya va AQShda mobil ilovalar orqali xizmat taqdim etish yuqori darajada (85% va 90%) amalga oshirilgan. Bu mamlakatlar mobil texnologiyalarni turistlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar va reklama takliflarini taqdim etish uchun keng ishlatadi.

O'zbekistonda bu ko'rsatkich past (30%), bu esa mobil ilovalar va raqamli platformalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

AQShda raqamli marketing va reklama ishlatish darajasi juda yuqori (95%), bu mamlakatda onlayn marketing, SEO, SEM va SMM texnologiyalarining samarali ishlatilishini anglatadi.

O'zbekistonda raqamli marketingdan foydalanish darajasi (50%) hali o'rtacha, bu marketing tarmoqlarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirishni talab qiladi.

AQSh, Yaponiya, va Ispaniyada shaxsiylashtirilgan marketingdan foydalanish yuqori (70%-90%), bu mamlakatlar turistlar ehtiyojlariga qarab xizmatlar va reklama takliflarini moslashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

O'zbekistonda shaxsiylashtirilgan marketing ko'rsatkichi past (25%), bu esa turizm marketing axborotlarini samarali ishlatish uchun yirik imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

AQSh, Yaponiya, va Ispaniyada katta ma'lumotlardan (Big Data) tahlil qilish uchun keng foydalaniladi. Bu mamlakatlar turistlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanganlar.

O'zbekistonda bu ko'rsatkich past (20%), bu esa katta ma'lumotlardan foydalangan holda turizm sohasida samarali tahlil qilish imkoniyatlarining mavjudligini ko'rsatadi.

AQSh va Fransiyada turizmni rivojlantirishga ajratilgan mablag'lar juda katta (1 milliard va 600 million dollar). Bu mamlakatlar turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratganlar.

O'zbekistonda esa bu mablag' (50 million dollar) hali past, lekin turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'lar ortib bormoqda.

AQSh va Ispaniyada onlayn reklama xarajatlari yuqori (80% va 60%), bu mamlakatlarda onlayn marketing va reklama samarali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda bu ko'rsatkich past (30%), bu esa onlayn marketingni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

AQSh va Fransiyada turizm sanoatiga ajratilgan yillik investitsiyalar juda katta (5 milliard va 3 milliard dollar). Bu mamlakatlar turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratishmoqda.

O'zbekistonda investitsiyalar hali kichik (100 million dollar), lekin bu soha tez rivojlanayotgani va investitsiya hajmi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlarda turizm marketing axborotlari va raqamli texnologiyalar samarali ishlatilmoqda, natijada turizm sohasi yuqori darajada rivojlanmoqda. Ular katta ma'lumotlar, mobil ilovalar, raqamli marketing va shaxsiylashtirilgan marketingdan keng foydalangan holda turistlarga eng yuqori xizmatlarni taqdim etishmoqda.

O'zbekistonda esa turizm marketing axborotlaridan foydalanish hali rivojlanish bosqichida. Yangi texnologiyalarni joriy etish, axborot yig'ish va tahlil qilish tizimlarini yaxshilash, shaxsiylashtirilgan marketing va katta ma'lumotlarni tahlil qilish orqali turizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston bu borada xorijiy mamlakatlar bilan raqobatlashish uchun samarali dasturlarni ishlab chiqishi kerak.

Xorijiy mamlakatlarning turizm marketingi sohasidagi tajribalari, ayniqsa raqamli marketing va katta ma'lumotlar tahlili orqali turistlar ehtiyojlarini aniqroq tushunish va samarali marketing kampaniyalarini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekistonga katta imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonning turizm sohasidagi rivojlanish uchun marketing axborotlaridan samarali foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va xalqaro tajribani o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bular orqali O'zbekistonning turizm salohiyatini global bozorga taqdim etish va mamlakatni turizm markazi sifatida tanitish imkoniyatlari oshadi.

5.Xulosa.

Turizm marketing axborotlaridan samarali foydalanish, bugungi kunda dunyo bo'ylab turizm sanoatining rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylangan.

Xorijiy mamlakatlar, jumladan Ispaniya, Yaponiya, Fransiya va AQSh, raqamli texnologiyalarni, katta ma'lumotlar (Big Data), mobil ilovalar va shaxsiylashtirilgan marketingni faol joriy etib, turistlarga yaxshilangan xizmatlar va moslashtirilgan takliflarni taqdim etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, turistlarning ehtiyojlariga mos ravishda marketing strategiyalarini ishlab chiqishda katta yordam beradi.

O'zbekiston turizm sohasida marketing axborotlaridan foydalanishda hali boshlang'ich bosqichda turibdi. Biroq, sohada raqamli texnologiyalar va axborot yig'ish tizimlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston turizmni rivojlantirish bo'yicha qadamlar qo'yayotgan bo'lsa-da, xorijiy mamlakatlar bilan solishtirganda marketing

axborotlari va raqamli texnologiyalarni qo'llashda aniq bir farq mavjud. Bu o'zgarishlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishi va dunyo bo'ylab sayohat qilayotgan turistlar uchun jozibador manzilga aylanishi mumkin.

Fikrimizcha, turizm marketing axborotlaridan samarali foydalanishda quyidagi takliflarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Raqamli marketingni rivojlantirish. O'zbekiston turizm sohasida raqamli marketing va reklama usullarini kengaytirishi lozim. Xususan, SEO, SEM, SMM, 3D, VR, AR, MR va onlayn reklama platformalaridan foydalanish orqali turistlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lish va ularga shaxsiylashtirilgan xizmatlar taqdim etish imkoniyatlari yaratish zarur.

2. Katta ma'lumotlardan foydalanish. Katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilini joriy etish va bu orqali turistlarning xatti-harakatlarini va istaklarini aniqroq bilish imkoniyatini yaratish lozim. Shuningdek, bu texnologiyalar turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

3. Mobil ilovalar va onlayn platformalar. O'zbekistonda mobil ilovalar va turizmga oid onlayn platformalarning rivojlanishi zarur. Bu platformalar turistlarga turizm resurslari haqida ma'lumot taqdim etish, sayohatni rejalashtirishda yordam berish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

4. Shaxsiylashtirilgan xizmatlar va marketing. Turizm shaxsiylashtirilgan marketingni kengaytirish, turistlarga ularning ehtiyojlariga mos ravishda xizmatlar taqdim etishning samarali usulidir. Bunda onlayn va mobil ilovalar orqali turistlarning xohish-irodalariga asoslangan takliflar yaratish muhimdir.

5. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va investitsiyalar. O'zbekiston hukumati turizmni rivojlantirishga ajratilayotgan mablag'lar hajmini oshirish, shuningdek, turizm sohasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bu soha uchun alohida rag'batlantirish siyosatini ishlab chiqish orqali turizmni yanada samarali rivojlantirish mumkin.

6. O'zaro tajriba almashish va xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish. Xorijiy mamlakatlarning turizm marketing axborotlaridan foydalanish tajribasini o'rganish va ushbu amaliyotlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish juda muhimdir. Bunda xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatish va xalqaro turizm tarmoqlariga faol qo'shilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston turizm sohasida marketing axborotlaridan samarali foydalanishni rivojlantirish orqali global turizm bozorida o'z o'rnini topish va sayohat qilayotgan turistlarga yuqori sifatli xizmatlar taqdim etishda katta yutuqlarga erishishi mumkin. Buning uchun raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar, shaxsiylashtirilgan marketing va davlat qo'llab-quvvatlashi kabi sohalarda amalga oshiriladigan islohotlar muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar:

Smith, K. and Johnson, J.R., 2023. Marketing in the digital age: New approaches in tourism. *Journal of Tourism Marketing*, 45(2), pp.105–118.

García, M. and Thompson, L., 2023. Data-driven marketing in tourism: Enhancing customer experience. *Tourism Management Perspectives*, 41, pp.15–28.

Lee, D. and Kim, S., 2023. Tourism marketing analytics: The role of big data. *International Journal of Hospitality and Tourism Administration*, 24(1), pp.35–50.

Martinez, V. and Soto, A., 2023. Sustainability in tourism marketing: The role of consumer data. *Journal of Sustainable Tourism*, 31(4), pp.275–290.

Zhou, P. and Zhang, Y., 2023. Predictive analytics in tourism marketing: A case study. *Tourism Economics*, 29(3), pp.207–220.

World Tourism Organization (UNWTO), 2023. *Tourism and marketing strategies: Global overview and trends*. United Nations World Tourism Organization. Available at: <https://www.unwto.org> [Accessed 13 Jul. 2025].

UNWTO (BMT Turizm Tashkiloti), 2023. *World Tourism Barometer*. United Nations World Tourism Organization.

World Travel & Tourism Council (WTTC), 2023. *Travel & Tourism Economic Impact Report*. WTTC.

Statista, 2023. *Global digital advertising & marketing industry report*. Statista Inc.

OECD, 2023. *Tourism trends and policies*. Organisation for Economic Co-operation and Development.



МАМЛАКАТИМИЗДА СОЛИҚ МА'МURCHILIGINI VA СОЛИҚ ORGANLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI ISLOHOTLARI

Iqtisod fanlari doktori, dotsent **Normurzayev U.X.**
O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida ko'p yillardan buyon soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha rivojlantirish sarhisobi, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация: В статье подведены итоги многолетнего прогресса страны в совершенствовании налогового администрирования в налоговой сфере, подчеркнуты роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. Изучены некоторые важные реформы, реализуемые в налоговой системе Узбекистана, разработаны научно-практические выводы и предложения на основе зарубежного опыта и его применения в нашей стране.

Ключевые слова: налоговая политика, налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Abstract: The article summarizes the country's long-term progress in improving tax administration in the tax sphere, emphasizes the role and importance of the interregional tax inspectorate in improving large-scale reforms aimed at further strengthening the trust of business circles. Some important reforms implemented in the tax system of Uzbekistan have been studied, scientific and practical conclusions and proposals have been developed based on foreign experience and its application in our country.

Keywords: tax policy, tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

1. Kirish.

Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Soliq siyosati strategiyasi orqali inklyuziv o'sish sur'atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish

mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga bunday soliq siyosatining samaradorligini ta'minlashda, hali o'z a'chimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud.

2.Adabiyotlar sharhi.

G'arb iqtisodchilari "S.Fisher, R.Dornbush va R.Shmalenzilarning (2011) fikricha, soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi" - deb ta'kidlashadi.

A.V.Aronov va V.A.Kashinlar (2007) esa "maksimal soliq siyosatining mazmunini soliq siyosatining asosiy strategiyasi sifatida qaraydi, ya'ni, ularning fikricha, soliqlar sonini oshirish, soliq stavkalarini oshirish, soliq imtiyozlarini kamaytirish soliq siyosatining strategik maqsadlari sifatida qabul qilinishi mumkin" ta'riflaydi.

I.A.Mayburov (2009) "soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish" deb ta'kidlaydi.

N.M.Dementeva (1989) soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi".

M.V.Karp (2001) soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

O.Sitnikovanning (2019) fikricha, "konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarini tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan sub'ekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim".

Yu.Darkina (2019) yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida to'xtalib, "yirik soliq to'lovchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir: katta pul oqimi, keng ko'lamlil hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyasidan foydalanish, mamlakat ichida ham, chet elda ham turli firmalar bilan hamkorlik mavjudligidir".

3.Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, xalqaro solishtirma yondashuv, tizimli diagnostika hamda ekspertlar fikrlariga asoslangan tahliliy yondashuvlar birgalikda qo'llanildi. Bu, O'zbekiston soliq siyosati strategiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qildi.

4.Tahlil va natijalar.

Jahon amaliyotida davlat budjeti va soliq to'lovchilarning manfaatlari nuqtai nazaridan to'g'ri va samarali soliq siyosati strategiyasi ishlab chiqish davlatning fiskal-budjet siyosatining

samarasini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat berib kelinmoqda. "Xalqaro valyuta jamg'armasining hisob-kitoblariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida soliqlardan tushumlar YaIMning 15-25 foizini, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 40 foizni tashkil etadi. Ushbu tashkilotning tavsiyalariga ko'ra, ayrim daromadi past hamda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda oxirgi yigirma yillar oralig'ida soliq siyosatida islohotlar amalga oshirilishi natijasida soliq tushumlarining keskin o'sishi kuzatilganligi ham samarali soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish muhimligini ko'rsatmoqda". Shunga ko'ra, jahon miqyosida soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

"O'zbekiston-2030" Strategiyasiga muvofiq, soliq organlari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash, raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish, soliq organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash hamda inson resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

Maqsad va ustuvor yo'nalishlar:

1. O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligi va soliq organlari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilash:

(a) soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va shaffoflikni ta'minlash hamda "Xizmatga yo'naltirilgan" tamoyil asosida yangicha yondashuvni joriy etishni;

(b) soliq xatarlarini boshqarishda "Compliance risk management" (SRM) tizimini sifatini oshirish va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishni;

(v) raqamlashtirish va innovatsion achimlar orqali samaradorlikni oshirish hamda soliq to'lovchilarga moliyaviy va ma'muriy yukni kamaytirish;

(g) kadrlar siyosatini ishlab chiqish va joriy etish, inklyuzivlik va kreativ fikrlash tizimini joriy etish, operatsion xavflarni bartaraf etish hamda xodimlarning kompetensiyasi va ish samaradorligini oshirib borish.

Faoliyat samaradorligini oshirish:

(a) soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va shaffoflikni ta'minlash hamda "Xizmatga yo'naltirilgan" tamoyil asosida yangicha yondashuvni joriy etish yo'nalishi bo'yicha 2026-yildan Soliq qo'mitasining markaziy apparatida mijozga yo'naltirganlik tizimni joriy etilsin. Bunda, mijozlarga yo'naltirilganlik yondoshuvining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilarni belgilash:

Soliq to'lovchining haqiqiy muammosini aniqlashga qaritilgan mijozning profilini yaratish;

xizmatlar reinjiringi va loyihalashtirish;

maslahatlar berish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash va monitoring qilish tizimini yaratish;

Soliq qo'mitasi markaziy apparati tarkibida soliq to'lovchilarga sifatli xizmatlar ko'rsatish va barcha turdagi murojaatlarga markazlashgan holda tezkor javob berishga ixtisoslashgan alohida tuzilma tashkil etish. Bunda, soliq to'lovchilarga soliq to'g'risida qonun hujjatlarining bir xilda talqin qilinishini ta'minlash, maslahatlar berish hamda xizmatlar sifatini baholash va monitoring qilish tizimi yaratish lozim bo'ladi.

(b) soliq sohasidagi axborot tizimlari (my.soliq.uz, ijara.soliq.uz) orqali aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatib kelinayotgan barcha turdagi elektron davlat xizmatlari

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ham bosqichma-bosqich ko'rsatilishini yo'lga qo'yish kerak;

(v) jamoatchilik ishonchi to'g'risida doimiy ravishda so'rovnomalar o'tkazib borsin hamda har yilda soliq organlari faoliyati natijalari va kelgusidagi istiqbollari to'g'risida hisobotlarni e'lon qilib borsin lozim;

(g) Soliq sohasida mavjud muammolar va takliflarni tahlil qilish orqali soliq ma'murchiligi jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va angillashtirish bo'yicha Soliq qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirokida har chorakda kamida bir marta faol tadbirkorlar, iqtisodchi olimlar hamda soliq maslahatchilari bilan uchrashuvlar tashkil etib borish maqsadga muvofiq;

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish:

(a) Soliq qo'mitasi tomonidan xalqaro tashkilotlar hamda boshqa davlatlarning soliq organlari bilan ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish orqali yuqori daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarni (Nigh Net Worth Individuals) soliqqa tortish tizimi bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasida ushbu yo'nalishda faoliyat yuritadigan alohida bo'linma tashkil etish choralarini ko'rish lozim;

(b) Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan tovarlarni aynan bir atkazib berish zanjiri bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olishda elektron hisobvara-fakturalarni real vaqt rejimida inson omilisiz avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish tizimi joriy etish lozim.

Bunda, elektron hisobvara-fakturalarning yuqori xavf darajasining ulushi hisobot davridagi jami elektron hisobvara-fakturalarning 10 foizidan oshmasligi lozim hamda bunday xavf darajasiga tushgan elektron hisobvara-fakturalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi budjetga sotuvchi yoki xaridor tomonidan to'liq to'langandan keyin hisobga olinadi, shuningdek tovar va xizmatlarni xaridoriga hisobvara-fakturalardagi qo'shilgan qiymat solig'i summasini budjetga to'lash vakolati berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Soliq xatarlarini boshqarish

Soliq xatarlarini boshqarishda "Compliance risk management" (SRM) tizimini sifatini oshirish va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirsinda quyidagilarni kiritish lozim:

(a) Muvofiqni yaxshilash rejalarini (Compliance improvement plan) va Milliy audit rejasi (Natioanal Audit Plan) hamda audit sifatini nazorat qilish tizimini ishlab chiqsin va yil yakuniga qadar tasdiqlash lozim;

(b) soliq xatarlarini tarmoqlar kesimida baholash, monitoring qilish va uni bartaraf etish yuzasidan yillik rejalarini tasdiqlagan holda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida har chorakda jamoatchilikni xabardor qilib borish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;

(v) avtomatlashtirilgan xavflarni tahlil qilish modulini baholash tizimi joriy etilsin lozim. Bunda soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini bashorat qilish va soliq ma'murchiligidagi xavflarini kamaytirishga e'tibor qaratish kerak;

(g) QQS, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va foyda solig'i bo'yicha zamonaviy tahliliy usullardan foydalangan holda soliqdan qochish usullarini har tomonlama baholashni amalga oshirish uchun rejalashtirishni yuqori bosqichdan boshlab, kichik va aniqroq maqsadlarga yo'naltirish (RA-Gap (top down) dasturini amalga oshirsin;

(d) kelgusi yillardan boshlab tanlanma audit natijalari asosida soliq yo'qotishlarini tahlil qiladigan pastdan yuqoriga (bottom-up) tadqiqot tashabbusini ishlab chiqsin maqsadga muvofiq.

Raqamlashtirish va innovatsion áchimlar orqali samaradorlikni oshirish.

Raqamlashtirish va innovatsion áchimlar orqali samaradorlikni oshirish hamda soliq to'lovchilarga moliyaviy va ma'muriy yuklamalarni qisqartirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirsin uchun quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi:

(a) soliq organlarining biznes jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish tizimini joriy etsin hamda katta ma'lumotlar (big data) bilan ishlash infratuzilmasi modernizatsiya qilish;

(b) Soliq qo'mitasi va tijorat banklari o'rtasida jismoniy shaxslarning plastik kartalari orqali bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 300-350 baravari va undan ortiq miqdordagi operatsiyalar bo'yicha o'zaro ma'lumot almashinuvi tizimi joriy etilsin lozim bo'ladi.

(v) soliq organlarida biznes tahlil tizimini joriy etishda real vaqtda ishlash uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va hisobot berish kabi texnologik infratuzilmani yaratsin maqsadga muvofiq;

(g) sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida soliqdan qochish holatlarini aniqlash, soliq nazoratini kuchaytirish va barcha soliq to'lovchilari uchun teng raqobatdosh muhit yaratish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va belgilash.

(d) malakali ekspertlar va olimlar bilan hamkorlikda raqamli soliq ma'murchiligini va soliq organlarining raqamli transformatsiya qilish konsepsiyasini ishlab chiqishga ko'maklashish. Bunda soliq ma'murchiligida ilg'or rivojlangan davlatlar tajribasi asosida raqamli transformatsiya qilish (Soliq ma'murchiligi 3.0) tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mavjud muammolar

Soliq tizimida soliq organlari salohiyatidan to'liq foydalanishga, ishbilarmonlik faolligini oshirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga to'sqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar mavjud:

birinchidan, soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning zamon talabiga to'liq javob bermasligi, jumladan, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning yagona standarti ishlab chiqilmaganligi, ko'rsatilayotgan soliq xizmatlari va maslahatlari sifatini baholash va monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilmaganligi;

ikkinchidan, soliq organlarining soliq to'lovchilar tomonidan daromadlar hajmini yashirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalaridan foydalanishning keng tarqalgan amaliyotiga qarshi kurashish bo'yicha ishlari tarqoq va izchil olib borilmayotgani, shuningdek, soliq to'lovchilarga ta'sir ko'rsatadigan jamoatchilik axboroti va strategik áchimlardan ochiq foydalanilmaslik, soliq nazorati vositalarini faqat insofsiz soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llanilmayotganligi, insofli soliq to'lovchilar toifasiga o'tish uchun rag'batlantirish tizimi, soliq organlari faoliyatida katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarish mexanizmlarining mavjud emasligi, soliq nazoratining izolyatsiyalangan mexanizmlari, soliq auditining faqat huquqni qo'llashga qaratilgan an'anaviy usullari ixtiyoriy rioya qilishga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi soliq intizomining pasayishiga, yashirin iqtisodiyot ko'lamining saqlanib qolishiga va insofli tadbirkorlar uchun biznes yuritish shartlarining yomonlashishiga olib kelishi;

uchinchidan, soliq ma'murchiligida innavatsion texnologiyalardan samarali foydalanilmasligi, samaradorlikni oshirish uchun raqamlashtirish harakatlarini maksimal darajada olib borilmasligi natijasida soliq to'lovchilar uchun o'z vaqtida va aniq xizmatlar taqdim etilmasligi;

to'rtinchidan, boshqaruv va inson resurslarini rivojlantirishning zamonaviy usullarini joriy etish, xodimlar uchun, ayniqsa, tuman va shaharlarning tarkibiy bo'g'inlarida munosib mehnat sharoitlarini yaratilmaganligi, kadrlar salohiyatini rivojlantirish siyosatini ishlab chiqilmaganligi.

Soliq ma'murchiligi strategiyaning maqsad va vazifalari:

Strategiyaning asosiy maqsadi milliy daromadni oshirish, barqarorlik, tenglik va yagona yondashuv kabi milliy maqsadlarni qo'llab-quvvatlovchi soliq tizimini shakllantirish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni tubdan o'zgartiruvchi zamonaviy texnologik a'chimlar, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda inson omilisiz usullarni hamda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va shaffoflikni ta'minlashda "Xizmatga yo'naltirilgan" tamoyil asosida yangicha yondashuvni joriy etishdan iborat.

Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

soliq to'lovchilar bilan munosabatlarni o'zgartirish, xizmat ko'rsatishni yangi bosqichga ko'tarish, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va soliq maslahatlari berishda yangicha yondashish, soliq organlarining ijobiy imidjini shakllantirish;

soliq ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish orqali soliq tizimining samaradorligi va adolatliligini oshirish, soliq jarayonlarini soddalashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda moliyaviy va ma'muriy yuklamalarni qisqartirish;

faoliyatni amalga oshirishda yashirin iqtisodiyotga yordam beradigan sharoitlarni va huquqbuzarliklarni bartaraf etish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini o'z vaqtida oshkor qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish, soliq ma'murchiligining samarasiz usullari bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish, ayrim funksiyalarni markazlashtirish orqali soliq organlari tuzilmasini yanada optimallashtirish, soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish maqsadida sohaviy tadqiqotlar o'tkazish va qonun hujjatlaridagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;

ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali soliq to'lovchilarning qonunlarga rioya qilishini yaxshilash, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida soliqdan qochish holatlarini aniqlash, soliq nazoratni kuchaytirish va barcha soliq to'lovchilar uchun teng raqobat muhitini yaratish;

malakali ekspertlar va olimlar bilan hamkorlikda raqamli soliq ma'murchiligini va soliq organlarining raqamli transformatsiya qilish konsepsiyasini ishlab chiqish;

soliq xodimlarining salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish jarayonlarining shaffofligini oshirish bo'yicha ishlarni davom ettirish;

soliq organlari faoliyatini raqamlashtirish, biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, biznesni tashkil etish xarajatlarini qisqartirish, raqobat muhitini rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, halol tadbirkorlar mehnatini rag'batlantirish, soliq majburiyatlarini bajarishning qulay, aniq, shuningdek, sodd elementlarini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish tartibini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni davom ettirish.

Strategiyaning asosiy yo'nalishlari

Strategiyada belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha vazifalarni bajarish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

Mijozlarga xizmat ko'rsatish va shaffoflik

Ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

soliq to'lovchilar to'g'risida ma'lumot to'plash jarayonlarini minimallashtirish va soddalashtirish, hisobot shakllari hamda qonuniy talablarga rioya qilish bilan bog'liq tartiblarning samaradorligini oshirish, soliq to'lovchilarga yuklamalarni kamaytirish, xatolarni minimallashtirish;

yagona g'aznachilik hisobvarag'ini joriy qilish;

“Soliq to'lovchilarning hisobga olish yozuvini kengaytirish” loyihasini ishga tushirish;

soliq to'lovchining faoliyat yuritish jarayonlari holatini soddalashtirish;

soliq to'lovchilarga sifatli xizmatlar ko'rsatish va barcha turdagi murojaatlarga markazlashgan holda tezkor javob berishga ixtisoslashgan alohida tuzilma tashkil etish;

ochiq formatda soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha uchrashuvlar o'tkazib borish;

soliq sohasida mavjud muammolar va takliflarni Soliq qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari bilan tahlil qilish orqali soliq ma'murchiligi jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va angillashtirish choralari ko'rish;

Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish jarayonini optimallashtirish va avtomatlashtirish hamda ortiqcha manfiy qoldiqni kamaytirish;

jamoatchilikning fikr-mulohazalariga asoslangan “Ishonchli kuzatuv” va “Jamoatchilik ishonchini o'rganish” tizimlarini joriy etish;

soliq tekshiruvlari davomida aniqlangan keng tarqalgan muammolar va xatolar bo'yicha “Vaziyatli soliq qo'llanmasi”ni yaratish;

soliq to'lovchilarga aniq soliq masalalari bo'yicha xususiy sud qarorlarini chiqarishga erishish imkonini beruvchi “Xususiy boshqaruv” tuzilmasini tashkil etish;

murakkab soliq masalalari va talqinlarini oydinlashtiradigan davlat qarorlarini qabul qilish tizimini yaratishga qaratilgan “Jamoatchilik boshqaruvi” tizimini ishlab chiqish;

soliq to'lovchilarga taalluqli asosiy ommaviy ma'lumotlarni aniqlash va ularni muntazam ravishda oshkor qilish mexanizmini yaratish, soliq ma'muriyatchiligining shaffofligini oshirish va hisobdorlikni ta'minlash.

Jarayonlarning muvofiqligi va soddalashtirilishi

Ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

soliq ma'murchiligini yaxshilash rejalarini (CIP) ishlab chiqish;

tekshiruvlar, ma'lumotlarni tahlil qilish va mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali ro'yxatdan o'tmagan korxonalarni tizimli ravishda aniqlash va ularni ro'yxatga olinishini tashkil etish;

avtomatlashtirilgan xavflarni tahlil qilish modullarni takomillashtirish, soliq to'lovchilarning hatti-harakatlarini bashorat qilish va soliq ma'murchiligi xavflarini boshqarish (CRM) jarayonini yaxshilash;

soliq to'lovchilarning hatti-harakatlarini bashorat qilish va soliq ma'murchiligidagi xavflarni aniqlashda avtomatlashtirilgan xavflarni tahlil qilish modulini baholash;

soliq auditi dasturlarini, shuningdek, auditni tanlash va hisobotning to'g'riligini ta'minlash modullarini takomillashtirish;

milliy audit rejasi va tartibini takomillashtirish;
 audit o'tkazish davomida soliq majburiyatlarini hisoblashning bozor narxlari va bilvosita usullaridan foydalanishning kompleks metodologiyasini ishlab chiqish;
 audit sifatini nazorat qilishni yaxshilash, audit dasturini baholash;
 xavflarni aniqlash tizimini to'ldirish hamda audit jarayonini adolatlilik va oldindan kelishishlarni bartaraf etish maqsadida tasodifiy auditni tanlash dasturini joriy etish;
 soliq nazorati jarayonlarini takomillashtirish va modernizatsiya qilish;
 integratsiyalashgan soliq nazorati tizimini joriy etish;
 yirik soliq to'lovchilar inspeksiyasi faoliyati samaradorligini oshirish;
 soliq hisobotlarini taqdim etmaganlar bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar tashabbusini amalga oshirish;
 soliq reestri ma'lumotlari yaxlitligini ta'minlash (ma'lumotlarni boshqarish);
 ro'yxatga olish ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarning to'g'riligiga nisbatan ichki boshqaruv (yoki ichki audit) baholashni amalga oshirish;
 to'lovlarni o'z vaqtida to'lanish imkoniyatlarini oshirish va qarzdorlikni boshqarish;
 ilg'or analitik imkoniyatlarni kuchaytirish;
 soliqdan qochish usullarini har tomonlama baholashni amalga oshirish uchun rejalashtirishni yuqori bosqichdan boshlab, kichik va aniqroq maqsadlarga yo'naltirish (RA-Gap (top down) dasturini amalga oshirish.

Texnologiya va innovatsiyalar

Ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

raqamli hujjatlarni birlashtirish;
 integratsiya va innovatsiyalarni davom ettirish;
 mikro servislar arxitekturasini kengaytirish;
 malakali ekspertlar va olimlar bilan hamkorlikda raqamli soliq ma'murchiligini va soliq organlarining raqamli transformatsiya qilish konsepsiyasini ishlab chiqish;
 bank ma'lumotlarini soliq tizimlari bilan birlashtirish orqali soliq to'lovchilarning operatsiyalarini yig'ish va qayta ishlashni soddalashtirish (bank integratsiyasi);
 ichki faoliyat jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishga e'tibor qaratish, mashinani o'rganish va ilg'or tahlillardan foydalangan holda xavflarni baholash va audit uchun holatlarni tanlash qobiliyatini yaxshilash;
 asosiy ishlash ko'rsatkichlarini (KPI) boshqarish tizimini ishlab chiqish, bunda, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini boshqarish tizimini takomillashtirish va biznes -tahlil tizimini joriy etish;
 o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish hisoboti, ilg'or tahlil va katta ma'lumotlar a'chimlarini kiritish;
 katta ma'lumotlar bilan ishlash (Big data) infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
 soliq ma'muriyati uchun sun'iy intellekt integratsiyasini amalga oshirish.

Strategiyani amalga oshirishning kutilayotgan natijalari

birinchidan, soliq to'lovchilarning ehtiyojlari uchun xizmat ko'rsatish kanallarini modernizatsiya qilish va kengaytirish, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari bo'yicha xabardor qilish, o'qitish jarayonlarini yaxshilash, hisobotlar taqdim qilish, tuzatish kiritish va to'lash jarayonlarini soddalashtirish orqali soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarilishi ko'rsatkichini 97 foizgacha oshirish;

ikkinchidan, soliq qarzini samarali boshqarish orqali, hisobot yilida to'plangan soliq tushumlardagi soliq qarzining bosqichma-bosqich pasaytirish;

uchinchidan, jami soliq to'lovchilarning umumiy sonidagi faol soliq to'lovchi – yuridik shaxslar ulushini 80 foizga o'tkazish;

to'rtinchidan, soliq deklaratsiyasini o'z vaqtida taqdim etayotgan faol soliq to'lovchi – jismoniy shaxslar ulushini 99,5 foizga o'tkazish;

beshinchidan, “QR”kod va “NFC” orqali qabul qilingan to'lovlarning savdo va xizmat ko'rsatish sohasida umumiy aylanmadagi hissasini oshirib borish;

oltinchidan, xavflarni (risklarni) boshqarish tizimi soliq hisobotini va soliq to'lovchining samaradorligini baholashga, yuqori xavf zonalarini aniqlashga va soliq qonunchiligini buzish holatlarini aniqlash imkoniyatlarini oshirish;

yettinchidan, soliq to'lovchilar bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatish;

sakkizinchidan, soliq to'lovchilar bilan muhim aloqada bo'lgan joylarda kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasini tegishli darajada ushlab turish soliq to'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatishni rag'batlantirish;

to'qqizinchidan, biznes-jarayonlarni reinjining qilish, xavflarni (risklarni) boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, soliq organlari tomonidan hisobotlarning shakllantirilishini ko'lamini kengaytirish orqali soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lash uchun sarflagan vaqtini qisqartirishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, elektron soliq xizmatlari qamrab olish ulushi hamda soliq hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish darajasi 100 foizga o'tadi, bu O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini, shuningdek, ishbilarmonlik faolligi indeksi ko'rsatkichlari yaxshilanishiga olib kelsa ajab emas.

5. Xulosa.

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari, soliq siyosati samaradorligini baholash bo'yicha ko'pkomponentli mualliflik yondashuvini shakllantirishga imkon berdi, xususan:

- umuman iqtisodiyotga soliq yukining darajasini real baholash uchun-soliqqa tortilmaydigan yoki imtiyozli oborot, ob'ektlarni, alohida soliq to'lovchilarning tarmoqlari va guruhlari bo'yicha yondashishning ahamiyatligi;

- davlat faoliyatini ta'minlash uchun davlat budjetining daromad qismida soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini kafolatlangan holda ta'minlash;

- soliq risklarini kamaytirish;

- resurs yondoshuvidan foydalanish (erishilgan natijaning foydalanilgan resurslarga nisbati) va maqsadli yondashuv (olingan natijalarning rejalashtirilgan natijalarga nisbati) orqali amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifati, belgilangan maqsadlarga erishish;

- yig'ilgan soliqlarni boshqarish va minimal soliq xarajatlari bilan soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishni ta'minlash uchun xarajatlar darajasi (tranzaksiya xarajatlari - mehnat, vaqt va boshqalar);

- investitsion jozibadorlik va ishbilarmonlik faolligining o'zgarishi (shu jumladan iqtisodiyotda iste'mol va jamg'arish jarayonlariga ta'siri);

- innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini rag'batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ITTKI, “yashil iqtisodiyot” va boshqalar;

- jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni tartibga solishning samarali mexanizmlarining mavjudligi va aholi farovonligining o'sishi sifati (shaxsiy daromad, yashash minimumining atarliligi, shaxsiy daromadlarga soliq solishning adolatliligi va boshqalar).

Bu esa davlatning soliq siyosatining strategik maqsadlarga erishayotganligi yoki erishmayotganligi baholashni muntazam ravishda ilmiy jihatdan tahlil etgan holda baholab borishni taqozo etadi. Bu jarayonda esa yuqorida biz tomonimizdan ayrim tavsiya etilayotgan ko'rsatkich va mezonlarni qo'llash uslubiyotidan foydalanish o'zining ilmiy ahamiyatiga egadir. Yuqorida keltirib o'tilgan taklif O'zbekistonda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish amaliyotga joriy qilinishi soliq ma'murchiligini rivojlantirishga olib keladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

Dornbusch, R., Fischer, S. and Startz, R., 2011. Macroeconomics. 11th ed. New York: McGraw-Hill.

Жўраев, А. ва Сафаров, Ф., 2005. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. Тошкент: Иқтисод-молия.

Аронов, А.В. и Кашин, В.А., 2007. Налоги и налогообложение: учеб. пособие. Москва: Магистр.

Камалнев, Т.Ш., 2009. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.

Майбуров, И.А. (ред.), 2009. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям. Москва: Юнити-Дана.

Юнак, А.А., 2012. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва, с.12.

Дементьева, Н.М., 1989. Налоговая политика государства. [online] Доступно по ссылке: https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID [Дата обращения: 13 июля 2025].

Карп, М.В., 2001. Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. Москва: Юнити-Дана.

Ситникова, О.В., 2012. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.

Даркина, Ю.А., 2019. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science, 3(37).

Солиқ қўмитаси, б.д. Расмий маълумотлар. [online] Мавжуд: <http://www.soliq.uz> [Мурожаат қилинган сана: 13.07.2025].

Нормурзаев, У.Х., 2022. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Иқтисодиёт фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси. Тошкент.



О‘ЗБЕКISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINING AMALDAGI HOLATI: TIZIMLI TAHLIL VA STRATEGIK YONDASHUVLAR

Tohirov A.K.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston turizm infratuzilmasining amaldagi holati: tizimli tahlil va strategik yondashuvlar o‘rganiladi. Unda transport tarmoqlari (Afrosiyob, aeroportlar, yo‘l va jamoat transporti), raqamli infratuzilma (elektron vizalar, mobil ilovalar, smart tourism platformalari), to‘siqsiz turizm (accessibility), mintaqaviy nomutanosiblik, ekologik monitoring, favqulodda holatlarga tayyorlik va barqaror rivojlanish jihatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud qonunchilik va siyosat hujjatlari, xususiy sektor va jamoatchilik hamkorligi, kadrlar salohiyati ham ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston turizm infratuzilmasining hozirgi holatini integratsiyalashgan yondashuv orqali baholab, asosiy kuchli va zaif tomonlarni aniqlash hamda strategik rivojlanish yo‘llarini tavsiya etish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati integratsiyalashgan baholash modeli va real vaqt monitoring texnologiyalari asosida qaror qabul qilish uchun yangi yondashuvlar taqdim etish. O‘zbekiston turizm salohiyatini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy hamda xorijiy sayyohlar uchun qulay va barqaror infratuzilmani yaratish. Shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va siyosatchilar, turizm operatorlari va xususiy sektor, mahalliy hokimliklar va mintaqaviy rivojlanish mutaxassislari, akademik tadqiqotchilar va talabalar, investitsiya va moliyalashtirish tashkilotlari, kadrlartayyorlash muassasalari uchun samarali hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: turizm infratuzilmasi, O‘zbekiston; transport tarmoqlari, raqamli infratuzilma, to‘siqsiz turizm, mintaqaviy nomutanosiblik, ekologik monitoring, resilience, qonunchilik va siyosat tahlili, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В данном исследовании рассматривается текущее состояние туристической инфраструктуры Узбекистана: системный анализ и стратегические подходы. В нем систематически анализируются аспекты транспортных сетей (Афросиаб, аэропорты, автомобильные дороги и общественный транспорт), цифровой инфраструктуры (электронные визы, мобильные приложения, интеллектуальные туристические платформы), доступности, региональных дисбалансов, мониторинга окружающей среды, готовности к чрезвычайным ситуациям и устойчивого развития. Будут также рассмотрены существующие законодательные и политические документы, партнерства частного сектора и государственного сектора, а также кадровый потенциал.

Основная цель исследования — оценить текущее состояние туристической инфраструктуры Узбекистана на основе комплексного подхода, выявить основные сильные и слабые стороны и рекомендовать стратегические пути развития.

Научная новизна и практическая значимость исследования заключается в разработке новых подходов к принятию решений на основе комплексной модели оценки и технологий мониторинга в реальном времени. Расширение туристического потенциала и повышение конкурентоспособности Узбекистана, создание удобной и устойчивой

инфраструктуры для местных и иностранных туристов. Он также эффективен для государственных учреждений и политиков, туроператоров и частного сектора, местных органов власти и специалистов по региональному развитию, научных исследователей и студентов, инвестиционных и финансовых организаций, а также учебных заведений.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, Узбекистан; транспортные сети, цифровая инфраструктура, безбарьерный туризм, региональные дисбалансы, мониторинг окружающей среды, устойчивость, правовой и политический анализ, устойчивое развитие.

Abstract. This study examines the current state of Uzbekistan's tourism infrastructure: a systematic analysis and strategic approaches. It systematically analyzes transport networks (Afrosiyob, airports, road and public transport), digital infrastructure (e-visas, mobile applications, smart tourism platforms), barrier-free tourism (accessibility), regional disparities, environmental monitoring, emergency preparedness and sustainable development. It also examines existing legislation and policy documents, private sector and public partnerships, and human resources.

The main objective of the study is to assess the current state of Uzbekistan's tourism infrastructure through an integrated approach, identify key strengths and weaknesses, and recommend strategic development paths.

The scientific novelty and practical significance of the study is to provide new approaches to decision-making based on an integrated assessment model and real-time monitoring technologies. Expanding the tourism potential of Uzbekistan and increasing its competitiveness, creating a convenient and sustainable infrastructure for domestic and foreign tourists. It is also useful for government agencies and policymakers, tourism operators and the private sector, local governments and regional development specialists, academic researchers and students, investment and financing organizations, and training institutions.

Keywords: tourism infrastructure, Uzbekistan; transport networks, digital infrastructure, barrier-free tourism, regional disparities, environmental monitoring, resilience, legislative and policy analysis, sustainable development.

1. Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining transformatsion rivojlanishi davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishiga aylangan. Prezidentning 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi", shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmon bilan qabul qilingan "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi"da turizm infratuzilmasini diversifikatsiyalash, raqamlashtirish va barqarorlashtirish alohida belgilab o'tilgan. Bu esa turizm infratuzilmasi masalasini nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki hududiy ijtimoiy rivojlanish va ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlil qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu tadqiqot ilmiy jihatdan O'zbekiston turizm infratuzilmasini integratsiyalashgan yondashuv asosida baholovchi kompleks modelni ishlab chiqadi.

Tadqiqot davlat boshqaruvi institutlari, xususiy sektor vakillari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun turizm infratuzilmasini strategik rejalashtirish, tahlil qilish va takomillashtirishda muhim nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasining rivojlanishi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ilmiy izlanishlar asosan, mehmonxona sektori, ekologik turizm, hududiy rivojlanish, transport tizimi, raqamli texnologiyalar, madaniy meros obidalari va shaharsozlik, va davlat siyosatining turizmga ta'siri kabi yo'nalishlarni qamrab oldi.

Mahalliy tadqiqotchilar Abdullaev, Ruzmetov va Kadirovalar (2024) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda mehmonxona xizmatlari sifati bo'yicha xalqaro brendlar vakili bo'lgan mehmonxonalar bilan mahalliy kichik va o'rta mehmonxonalar o'rtasida jiddiy tafovutlar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqotchilar tomonidan asosiy e'tibor ikki muhim omilga qaratilgan: malakali kadrlar atishmovchiligi va "yashil" infratuzilma standartlariga mos kelmaslik.

Masaliyev, Ergashev va Tursunovlar (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda tezyurar poyezdlar - xususan, Afrosiyob liniyasining samarali faoliyati va aeroportlarning bosqichma-bosqich modernizatsiyasi ijobiy yutuq sifatida baholangan. Ushbu infratuzilmalar yirik shaharlarda tashrif buyuruvchilar uchun qulayliklar yaratmoqda.

Khasanova va Yusupovlar (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda "Uzbekistan Travel" kabi raqamli platformalar ijobiy tashabbus sifatida baholangan bo'lsa-da, mamlakatda "aqlli turizm" konsepsiyasining to'liq shakllanmaganligi tanqidiy baholangan.

Karimov va Kimlar (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda "O'zbekiston aeroportlarining fizik infratuzilmasi" modernizatsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda immigratsiya jarayonining sekinligi, xorijiy tillarda - xususan ingliz tilida - atarli axborot taqdim etilmasligi, bagaj bilan ishlashdagi kechikishlar va aeroportdan shaharga yoki aksincha, qulay transport vositalarining atishmasligi xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini pasayganligi tahlil qilingan.

Gulomov va Eshonqulovlar (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda "Samarqand va Buxoro shaharlaridagi yirik madaniy meros obidalari atrofida joylashgan infratuzilmaning muvofiqlashtirilmaganligi" mavzusi tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston turizm infratuzilmasini rivojlantirishda transport infratuzilmasi bo'yicha ijobiy siljishlar, mehmonxona sektorida xalqaro va mahalliy obyektlar o'rtasidagi sifat, malakali kadrlar va ekologik infratuzilma, madaniy meros obidalari modernizatsiyasi qo'llaganligini tasdiqlaydi. Bu yondashuvlar esa turizm sohasida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham rivojlanish yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston turizm infratuzilmasi amaldagi holat jarayonlarini tahlil qilish va strategik yondashuvlar masalalari o'rganiladi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan: kompleks tizimli tahliliy yondashuv statistik tahlil, SWOT tahlil va qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Ilmiy tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, 2024-yil davomida O'zbekiston turizm sohasi jadal rivojlanib, xorijiy sayyohlar oqimida sezilarli o'sish kuzatildi. Jumladan, yil yakunlariga ko'ra mamlakatga 10,57 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgani qayd etildi. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 12,3% o'sishni tashkil etib, sohadagi barqaror rivojlanish dinamikasidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2025-yil aprel oyida 1 milliondan ortiq xorijiy sayyohning O'zbekistonga kelgani tarixiy natija sifatida e'tirof etildi. Bu mamlakat tarixida bir oy ichida qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib, turizm infratuzilmasining rivojlanishi, marketing strategiyalarining faollashuvi va viza rejimining liberallashuvi natijasida erishilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, 2025).

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, O'zbekiston 2024–2025-yillarda amalga oshirilgan brending siyosati, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok, hamda elektron viza tizimining kengaytirilgani turizm sohasidagi ijobiy tendensiyalarga hissa qo'shgan muhim omillar sirasiga kiradi. 2025-yil aprel oyida O'zbekistonga 1 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, bu esa mamlakat turizm tarixida bir oy davomida erishilgan eng yuqori ko'rsatkichlardan biri sifatida qayd etildi. Ushbu statistik natija O'zbekistonda turizm sohasining barqaror rivojlanayotgani va xalqaro bozorda uning raqobatbardoshligini oshib borayotganini yaqqol ko'rsatib beradi.

Hisobot va statistik tahlillarga asoslanib, O'zbekistonning "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, 2023) doirasida turizm sohasini kompleks rivojlantirish, xususan, xorijiy mamlakatlardan sayyohlik oqimini kengaytirish va ushbu sohaga zamonaviy infratuzilma a'chimlarini joriy etish bo'yicha qator ustuvor vazifalar belgilangan. Strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida uzoq muddatli sayohatga tayyor va moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishga qodir xorijiy turistlar sonini ko'paytirish e'tirof etilgan.

Qayd etilganidek, ayni vaqtda O'zbekistonda jami 155 ming o'ringa ega 5 250 dan ortiq turar-joy obyektlari faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, butik mehmonxonalar, hostellar hamda oilaviy mehmon uylari soni ko'payib, ularning sig'imi 3 200 tagacha atkazilgan. Turizm infratuzilmasining geografik diversifikatsiyasini ta'minlash va xizmatlar sifatini hududiy xususiyatlarga asoslangan holda oshirish maqsadida hukumat qarori bilan 28 ta turizm salohiyati yuqori bo'lgan tuman va shaharlar doirasida 135 ta mahalla fuqarolar yig'inlari tanlab olindi. Bu hududlarda tadbirkorlik sub'yektlarini infratuzilma, moliyaviy resurslar va soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash nazarda tutilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, 2025).

Modellash natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunga qadar "Chorvoq" va "Zomin" hududlarida ikkita turizm-rekreatsion zona tashkil etilgan, "Shahrisabz", "Maydanak" va "Oxaliq-Oqbuyro-Mironko'l" hududlarida esa qo'shimcha uchta rekreatsion zonani tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Ularning rivojlanishi bosh rejalashtirish asosida amalga oshirilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, 2025).

Jumladan, turizm sohasidagi loyihalarga 300 mingdan 3 million dollargacha investitsiya kiritgan tadbirkorlar 3 yilga, 3 milliondan 10 million dollargacha investitsiya kiritganlar 5 yilga, 10 million dollardan ortiq mablag' yo'naltirgan investorlar esa 7 yilgacha soliqdan ozod qilinadilar. Shuningdek, yangi mehmonxonalar qurilishi va ularni jihozlash xarajatlarini qoplash uchun davlat budjeti hisobidan moliyaviy kompensatsiyalar ajratilmoqda.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, 2026-yil 1-yanvargacha 3 yulduzli mehmonxonalar uchun bir xona uchun 3 800 AQSh dollari, 4–5 yulduzli mehmonxonalar uchun esa 6 200 AQSh dollari miqdorida kompensatsiya taqdim etilishi belgilangan. Shu bilan birga, dunyodagi TOP-50 mehmonxona brendlari va TOP-5 mehmonxona tarmoqlari doirasidagi royalti xarajatlarini davlat tomonidan qisman moliyalashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2024).

Sinov va kuzatuvlar natijalariga ko'ra, "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti, shuningdek, uning tasarrufidagi 10 ta kasb-hunar texnikumlari orqali soha uchun zarur bo'lgan mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu jarayonlarda xalqaro hamkorlik alohida o'rin egallab, 80 dan ortiq xorijiy ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama aloqalar yo'lga qo'yilgan. Xususan, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Malayziya, Turkiya, Fransiya, AQSH kabi mamlakatlar bilan tajriba almashish yo'lga qo'yilgan ("Ipak yo'li" Xalqaro Turizm va Madaniy Meros Universiteti, 2024).

Hisobot va statistik tahlillarga asoslanib, mamlakatga yillik reyslar soni 1 100 taga atib, 40 dan ortiq milliy va xorijiy aviatashuvchilar faoliyat yuritmoqda. Ichki transport tizimini rivojlantirish doirasida "Afrosiyob" tezyurar poyezdi yo'nalishlari Buxoro va Shahrisabz gacha uzaytirildi, 450 million dollarlik sarmoya evaziga Xivagacha uzaytirish loyihasi boshlangan.

Bundan tashqari, kamida 1 000 kilometr zamonaviy pullik avtomobil yo'llari qurilishi, Toshkent–Samarqand va Toshkent–Andijon avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish rejalashtirilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, 2025).

Metodologiyaga muvofiq o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, 2024-yilning dastlabki 8 oyi davomida mamlakatga kelgan sayyohlar soni 5,04 million kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17 foizga o'sish qayd etilgan. Sayyohlarning mamlakatda o'rtacha qolish muddati ham 3–4 kundan 7–8 kungacha uzaygan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, 2024).

Tyan-Shan tog'lari, cho'l zonalar va vohalar kabi tabiiy resurslar bu yo'nalishlarda ekskluziv imkoniyatlar yaratmoqda. Bundan tashqari, Toshkent, Chorvoq va Farg'ona vodiysida kurort va sanatoriylar asosida tibbiy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Bu hududlarda davolash va sog'lomlashtirish xizmatlari keng ko'lamda taklif qilinmoqda (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, 2024).

Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda ishbilarmonlik turizmi (MICE) uchun zarur infratuzilmalar takomillashtirilmoqda.

Umuman olganda tahlillarga ko'ra, turizm O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biriga aylangan. 2023-yilda soha 2 milliard AQSh dollariga yaqin daromad keltirgan bo'lsa, 2024-yilning dastlabki 8 oyida bu ko'rsatkich allaqachon ortda qoldirilgan. Jahon miqyosida O'zbekistonning turistik imidji tobora ortib bormoqda, bu esa Lonely Planet tomonidan "2024-yilning eng yaxshi sayyohlik yo'nalishi" va Wanderlust Reader Travel Awards tomonidan "Eng orzu qilingan rivojlanayotgan yo'nalish" mukofotlari bilan e'tirof etildi.

Jumladan, 300 ming AQSh dollaridan 10 million dollargacha sarmoya kiritgan korxonalar uchun 3 yildan 7 yilgacha soliq imtiyozlari taqdim etilishi, yangi mehmonxonalar qurilishi va xizmat ko'rsatish sifati bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi (Yusupov, A., 2024).

Bu jihatlar 2022–2024 yillarda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar sonidagi ortish (2022 yilda 5,2 mln, 2023 yilda 6,7 mln, 2024 yilning 8 oyida 5,04 mln) va ularning O'zbekistonda qolish muddatining 3-4 kundan 7-8 kungacha cho'zilgani bilan ham tasdiqlanadi (Karimov va Bekchanov, 2023).

Yangi islohotlar, investitsiyalar va raqamli infratuzilmaning kengayishi ushbu sohaning raqobatbardoshligini oshirib, uni xalqaro bozorda jozibali yo'nalishga aylantirmoqda. Bozor ma'lumotlari asosida 2025–2029 yillarga doir prognozlar quyidagicha:

2025-yilda O'zbekistonning sayohat va turizm bozorida umumiy daromad hajmi 503,45 million AQSh dollariga atishi kutilmoqda. Yillik o'sish sur'ati 9,38% (Compound Annual Growth Rate – CAGR) bo'lishi kutilar ekan, 2029 yilga borib ushbu ko'rsatkich 720,64 million dollarga atishi prognoz qilinmoqda (Statista Research Department, 2024).

Sektorlar kesimida eng yirik bozor yo'nalishi mehmonxona xizmatlari segmenti bo'lib, u 2025-yilda 261,31 million AQSh dollari hajmida daromad keltirishi kutilmoqda. Bu segment, shuningdek, foydalanuvchilar soni bo'yicha ham atakchilikni saqlab qoladi – 2029 yilga kelib mehmonxonalar bozorida 6,15 million foydalanuvchi bo'lishi kutilmoqda. Foydalanuvchilarning ushbu sektorga kirib borish darajasi 2025 yilda 11,3% bo'lsa, 2029 yilga borib 19,6% ga atishi kutilmoqda. Bitta foydalanuvchidan olinadigan o'rtacha daromad (ARPU – Average Revenue Per User) ko'rsatkichi esa 2025-yilda 123,61 AQSh dollarini tashkil qilishi taxmin qilinmoqda. Alohida e'tiborga loyiq jihat shundaki, 2029 yilga borib sayohat va turizm sohasidagi umumiy daromadning 87 foizga yaqini onlayn bronlash va savdo xizmatlari orqali shakllanishi kutilmoqda (Statista Research Department, 2024).

Xalqaro kontekstdagi solishtirma tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Qo'shma Shtatlar sayohat va turizm bo'yicha global atakchilikni saqlab qolmoqda. Ular 2025-yilga kelib 224 milliard AQSh dollari miqdorida daromad olishni rejalashtirmoqda. Bu O'zbekiston uchun atuk bozor modellarini o'rganish va moslashtirish orqali turizm sektorini jadallik bilan rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Mamlakat bo'ylab 7,4 mingta (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, 2024) madaniy meros obyektlarining mavjudligi O'zbekistonning turizm salohiyatini aniq ko'rsatib beradi. Ushbu obidalar orasida qadimiy shaharlardan tortib ziyoratgohlar, me'moriy yodgorliklar va arxeologik qazilmalar joy olgan bo'lib, ular ilmiy va ma'naviy turizmni rivojlantirish uchun muhim resurs sanaladi.

Bugungi kunda kamida 86 davlat fuqarolari mamlakatga vizasiz kirish huquqiga ega bo'lib, yana 50 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan vizaviy rejim joriy etilgan. Bu esa mamlakatga kirish imkoniyatlarini yanada angillashtirdi va tashrif buyuruvchilar oqimini oshirdi (O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, 2024).

Ma'lumotlar tahlili natijasida aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (2024) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 6 oyi davrida mamlakatga 4,2 million sayyoh tashrif buyurgan, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 15,3% o'sishni anglatadi. Bu tendensiya O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi sayyohlar orasida mashhurligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Aniqlanishicha, sayyohlar asosan quyidagi davlatlardan tashrif buyurmoqda: Qirg'iziston - 1,2 mln, Tojikiston - 1,2 mln, Qozog'iston - 845,8 ming, Rossiya - 442,1 ming, Turkmaniston - 83,7 ming, Turkiya - 62 ming, Xitoy - 35,5 ming, Hindiston - 33,3 ming, Janubiy Koreya - 23,9 ming, Italiya - 19,5 mingni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar mintaqaviy hamkorlik va xalqaro aloqalarning turizm sektorida muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, 2025). Zamonaviy turizm infratuzilmasining kengayishi ham jadal sur'atlarda davom etmoqda. Xususan: "Hilton Tashkent City", "Hyatt Regency Tashkent", "Silk Road Samarkand", "Afsonalar Vodiysi", "Horazm-Plaza" kabi yirik turistik majmualar faoliyat yurita boshladi.

Bugungi kunda xalqaro mehmonxona brendlari, jumladan "Hilton", "Hyatt", "Radisson" singari yirik tarmoqlar asosan poytaxt Toshkentda faoliyat yuritmoqda.

Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida xalqaro aeroportlar tarmog'iga xorijiy sarmoyadorlar va boshqaruv kompaniyalarini jalb qilishda, ularga uch yil muddatga bojxona to'lovlaridan ozod etish hamda daromad va mol-mulk solig'ining 50% ga qisqartirilgan stavkalarini qo'llash ko'zda tutilgan. Ushbu imtiyozlar nafaqat yirik investorlar, balki o'rta biznes vakillari uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratadi (lex.uz, 2024).

Tadqiqotda modellash natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahrining markazida joylashgan tarixiy "Chorsu mehmonxonasining rekonstruksiya loyihasi O'zbekiston turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish yo'lidagi muhim tashabbuslardan biridir. Ushbu loyiha nafaqat poytaxtning me'moriy qiyofasini yangilash, balki mamlakatga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun zamonaviy xizmatlar majmuasini yaratishga qaratilgan. Loyihaning yangi konsepsiyasi Germaniyaning mashhur "Tchoban Voss Architekten" arxitektura firmasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, umumiy qiymati 170 million AQSh dollariga teng. Loyiha doirasida 29 qavatli zamonaviy inshoot — mehmonxona, biznes-markaz va turar-joy binolari kompleksini barpo etish rejalashtirilgan. Bu majmua Toshkent shahrining turistik salohiyatini oshiradi, chunki yangi mehmonxona nafaqat zamonaviy qulayliklarga ega yashash joyi, balki madaniy va biznes tadbirlarni o'tkazish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, bu loyiha xorijiy investorlar ishtirokida O'zbekistonda turizm sohasiga kiritilayotgan sarmoyaning yorqin namunasidir. Loyihaga ko'ra, mehmonxona zamonaviy standartlarga moslab yangilanadi, ammo uning tarixiy me'moriy qiyofasi saqlab qolinadi. Rekonstruksiya ishlari yakunlangach, "Chorsu" mehmonxonasi nafaqat mehmonlarni qabul qilish, balki madaniy va biznes tadbirlarni o'tkazish uchun ham universal majmuaga aylanadi.

Andijon viloyatida Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda yo'l va transport infratuzilmasi bo'yicha yirik loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha Andijon shahrini viloyatning boshqa hududlari, shuningdek, Farg'ona vodiysi bo'ylab yirik transport tugunlari bilan bog'lashni nazarda tutadi. Koreya ekspertlari yo'l qurilishining barcha bosqichlarida - loyiha ishlab chiqish, muhandislik, xavfsizlik nazorati va atrof-muhitga ta'sir baholashda faol ishtirok

etmoqda. Loyiha O'zbekistonning transport-logistika tizimining raqobatbardoshligini oshirish, ichki va xalqaro tashuvlar hajmini kengaytirish hamda turizmga xizmat qiluvchi infratuzilmani mustahkamlash maqsadida muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Ball	Ballar oralig'i	Izoh
1	1.00 – 1.80	Juda past sifat
2	1.81 – 2.60	Past sifat
3	2.61 – 3.40	O'rtacha sifat
4	3.41 – 4.20	Yaxshi sifat
5	4.21 – 5.00	Juda yaxshi sifat

1-rasm. O'zbekiston bo'yicha turizm rivojlanishi sifati yuzasidan respondentlar fikrining baholanish shkalasi

Atribut	Juda past	Past	O'rtacha	Yaxshi	Juda yaxshi	O'rtacha baho	Talain
Muzey	5	10	30	37	15	3.38	Yaxshi
Arxitektura	9	9	20	33	26	3.60	Yaxshi
Iqlim	7	9	13	38	30	3.77	Yaxshi
Tabiiy diqqatga sazovor joylar	8	11	19	34	25	3.59	Yaxshi
Ekskursiyalar / sayohatlar	11	7	23	36	20	3.48	Yaxshi
Transport	14	15	18	32	18	3.25	O'rtacha
Turistik axborot	8	12	22	38	17	3.45	Yaxshi
Mehmonxona xizmatlari (joylashuv)	10	6	20	40	21	3.58	Yaxshi
Mehmondo'satlik	4	8	11	34	40	4.01	Juda yaxshi
Restoranlar	9	8	13	36	31	3.74	Yaxshi
Barlar va kafelar	8	7	24	38	20	3.57	Yaxshi
Tunzi hayot	12	16	18	32	19	3.31	O'rtacha
Tozalik	4	13	18	37	25	3.68	Yaxshi
Gavjum emaslik (tinchlik)	9	10	21	38	19	3.49	Yaxshi
Xarid qilish imkoniyatlari	7	8	28	36	18	3.52	Yaxshi
Qulaylik (Accessibility)	8	10	22	38	19	3.52	Yaxshi
Xayfsizlik	4	11	15	35	32	3.82	Yaxshi
Narx (muvofiqlik)	8	10	12	35	32	3.75	Yaxshi

2-rasm. O'zbekiston bo'yicha turizm rivojlanishi sifati yuzasidan respondentlar fikrining baholanish

Manba: www.uzbektourism.uz <https://www.arcjournals.org>/ARC Journals: Pioneering Comprehensive Research Across Disciplines jurnali va uzbektourizm organization rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Yuqoridagi 2-rasmda qayd etilganidek, O'zbekistonda turizm rivojlanishi sifati yuzasidan respondentlar fikrining yo'nalishlar bo'yicha baholangan natijalar aks ettirilgan. Baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, umuman olganda, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish sifati respondentlar tomonidan yaxshi deb baholangan.

O'zbekistonning global turizm bozorida sayyohlik imijini shakllantirish uchun zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqish, raqamli platformalarda faol bo'lish va xalqaro

ko'rgazmalarda ishtirok etishni kengaytirish orqali mamlakatning turizm salohiyati keng auditoriyaga âtkazilishi mumkin bo'ladi.

Tadqiqot tahlili natijalariga ko'ra, O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha mavjud salohiyatdan samarali foydalanish uchun kompleks, innovatsion va raqamli yondashuvlarni joriy etish zarur. Ushbu tadqiqot O'zbekiston sharoitida amaliyotga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan va innovatsion infratuzilma modelini ishlab chiqish orqali turizm sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilganligi bilan ilmiy yangilik kiritadi.

5. Xulosa.

Tadqiqotda e'tirof etilganidek, O'zbekistonda turizm sohasining jadal rivojlanishi mavjud infratuzilmani kengaytirish va zamon talablari asosida yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent, Samarqand va Buxoroda infratuzilma nisbatan rivojlangan bo'lsa-da, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston va chekka hududlarda âtarli emas. Bu transport, mehmonxona xizmati, raqamli xizmatlar va ekologik infratuzilma sohalarida yaqqol seziladi. O'zbekistonda bu borada tizimli yondashuv infratuzilmani hududiy ehtiyojlarga qarab rivojlantirish, "aqli turizm"ni joriy etish, turizm xaritalarini ishlab chiqish va xorijiy tajribalarga asoslangan innovatsion âchimlarni tatbiq etish dolzarbdir.

Shu sababli, infratuzilmani hududiy ehtiyojlar va turistik salohiyat asosida rivojlantirish, "aqli turizm" konsepsiyasini joriy etish, raqamli turizm xaritalarini ishlab chiqish hamda xorijiy ilg'or tajribalar asosida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Takliflar

Tadqiqot tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar;

1. Hududiy infratuzilmani tarmoqlashtirish, har bir turistik hudud – Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona vodiysi, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston – uchun alohida infratuzilma strategiyasini ishlab chiqish zarur. Bu strategiyalar har bir hududning madaniy, tabiiy va iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Natijada, hududlararo nomutanosiblik kamayadi va mintaqaviy turizm salohiyati to'liq ishga solinadi.

2. Xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish, turizm infratuzilmasining rivojida davlat-xususiy sheriklik (3p modeli) mexanizmlaridan keng foydalanish zarur. Bu orqali mehmonxona, transport, ovqatlanish va ko'ngilochar obyektlar soni va sifati oshadi, xususiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

3. Raqamli turizm platformalarini rivojlantirish, yagona onlayn platforma orqali mehmonxona band qilish, transport chiptalari, sayyohlik xizmatlari va gidlarni raqamli tarzda taqdim etish mexanizmini joriy etish lozim. Shuningdek, AR/VR texnologiyalari, QR-kodli gid tizimlari orqali sayyohlarga interaktiv xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengaytiriladi.

4. Transport infratuzilmasini integratsiyalash, mamlakatdagi asosiy aeroportlar, temiryo'l bekatlari va avtomobil yo'llarini turistik markazlar bilan logistika asosida uzviy bog'lash zarur. "Turizm logistik koridorlari" modeli asosida transport yo'nalishlari optimallashtiriladi.

5. Barqaror va ekologik infratuzilma, ekoturizmni rivojlantirish maqsadida "yashil texnologiyalar" asosida infratuzilma qurilishi zarur. Quyosh panellari, ekologik transport, biohojatxonalar va chiqindini qayta ishlash tizimlari kabi elementlar asosida barqaror infratuzilma shakllantiriladi.

6. Turizm HUB markazlari, har bir viloyatda axborot, xavfsizlik, transport va xizmat ko'rsatish tizimlarini o'z ichiga olgan ko'p funksiyali turizm markazlarini tashkil etish lozim. Bu markazlar sayyohlar uchun bir nuqtali xizmatlar modelini taqdim etadi.

7. "Raqamli Mehmonxona" tizimi, hududiy mehmonxonalar va hostellarni yagona onlayn tizimda birlashtiruvchi "Raqamli Mehmonxona" platformasi joriy etiladi. Bu platforma orqali foydalanuvchilar joy band qilish, reyting berish va sharh qoldirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

8. “Open Road Uzbekistan” tashabbusi, turistik yo‘nalishlarda yo‘llarni ta‘mirlash, yo‘lbo‘yi infratuzilma obyektlarini (kafelar, hojatxonalar, servis zonalari) modernizatsiyalash va xalqaro standartlarga moslashtirish ishlari olib boriladi.

9. “Green Tourism Villages” loyihasi, ekoturizm salohiyatiga ega qishloq hududlarida ekologik infratuzilmaga asoslangan barqaror turizm zonalari tashkil etiladi. Bu model tabiiy resurslardan samarali foydalanish, mahalliy aholini ish bilan ta‘minlash va “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga xizmat qiladi.

10. “Smart Destination Samarqand” loyihasi, Samarqand shahrida “aqlli shahar” infratuzilmasi asosida turizm xizmatlarini taklif etish ko‘zda tutilgan. Bunda bepul Wi-Fi, QR-kodli gid tizimi, interaktiv axborot panellari va elektron to‘lov tizimlari joriy qilinadi.

11. Tizimli GIS xaritalar asosidagi rejalashtirish, turizm infratuzilmasini raqamli GIS xaritalari asosida baholash orqali hududlardagi zaxiralar va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashtirish mumkin. Bu xaritalar asosida investitsion loyihalar va davlat dasturlarining samaradorligi monitoring qilinadi.

12. To‘rt bosqichli modernizatsiya strategiyasi

❖ I bosqich (2025–2026): Diagnostika – mavjud infratuzilmani baholash va reytinglash

❖ II bosqich (2026–2027): Raqamlashtirish – xizmatlarni raqamli tizimlarga o‘tkazish

❖ III bosqich (2027–2028): Xususiy sektorni integratsiyalash – investorlar uchun imtiyozlar

❖ IV bosqich (2028–2030): Innovatsion va barqaror infratuzilmaga o‘tish

13. Mahalliy boshqaruvni kuchaytirish, har bir hududda turizm infratuzilmasini rejalashtirish, joriy etish va nazorat qilish uchun maxsus “Turizm Infratuzilma Boshqarmalari” tashkil etiladi. Bu tuzilmalar orqali joylardagi ehtiyoj va imkoniyatlarga mos strategiyalar ishlab chiqiladi

14. Monitoring va baholash tizimi, infratuzilma rivojlanishini muntazam baholash uchun yillik indeks va reyting tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Ko‘rsatkichlar orasida: yo‘llar sifati, mehmonxona o‘rinlari soni, internet qamrovi, xizmatlar turlari va ekologik holat kabi mezonlar mavjud bo‘ladi.

Umuman olganda, turizm sohasining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri daromad va bandlikni oshirish bilangina cheklanmaydi. Bu soha iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri sifatida turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni faollashtiradi, hududiy va ekologik barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi hamda madaniy va tabiiy merosning saqlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu orqali u iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm infratuzilmasining jadal rivoji — strategik rejalashtirish, xalqaro tajriba, davlat-xususiy sheriklik va innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashgandagina barqaror va raqobatbardosh turizm modelini shakllantirish mumkin. Demakki, turizm infratuzilmasini zamonaviylashtirish bo‘yicha kompleks yondashuv mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar:

Abdullaev A., Ruzmetov B., Kadirova M. O‘zbekiston mehmonxona sektorida xizmatlar sifati: xalqaro va mahalliy brendlar taqqoslamasi. – Toshkent: Turizmni rivojlantirish instituti nashriyoti, 2021.

Academic Research. Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda barqaror turizm amaliyotlariga oid ilmiy maqolalar, atrof-muhit fanlari va turizmga oid ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqotlar. 2020–2024.

Eco-Tourism and Nature Reserves. Ugam-Chatkal milliy bog‘i, Nurota-Qizilqum biosfera hududi kabi tabiat bog‘larida amalga oshirilayotgan biologik xilma-xillikni saqlash va ekoturizm tashabbuslari haqidagi hisobotlar. 2022–2024.

Government Reports. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tayyorlangan rasmiy hisobotlar. – Toshkent, 2020–2024.

Gulomov S., Eshonqulov M. Madaniy meros hududlarida infratuzilma muvofiqlashtirish muammolari (Samarqand va Buxoro misolida) // Turizm va madaniy meros. – 2022. – №3. – B. 54–62. betlar

Ilmiy va tahliliy adabiyotlar. Turizm infratuzilmasiga oid O'zbekiston va xorijiy mualliflar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar, UNWTO, OECD, ADB va b. xalqaro tashkilotlar hisobotlari. 2019–2024.

Karimov I., Kim H. O'zbekiston aeroportlarining fizik infratuzilmasi va xizmatlar sifati: xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan // Transport va Logistika. – 2023. – №4. – B. 20–29. betlar

Khasanova N., Yusupov O. Raqamli turizm rivojida "Uzbekistan Travel" platformasining roli va muammolari // Innovatsion iqtisodiyot. – 2023. – №1. – B. 32–39.

Kim H. Tourism infrastructure in Korea: From hard assets to smart solutions. – Seoul: KTO Publications, 2019.

Masaliyev D., Ergashev A., Tursunov S. Tezyurar transport va aeroport infratuzilmasining rivoji O'zbekiston turizmida // Iqtisodiy o'sish va transport logistikasi. – 2022. – №2. – B. 45–53. betlar

Normativ-huquqiy hujjatlar. Prezident farmonlari (PF-102-son, 2024-yil 18-iyul), Vazirlar Mahkamasi qarorlari, davlat dasturlari. – Toshkent: Lex.uz, 2022–2024.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-102-son Farmon: O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. – 2024-yil 18-iyul. – Rasmiy veb-sayt: <https://www.lex.uz>.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi; Turizm qo'mitasi. Turizm, iqtisodiyot va ekologiyaga oid statistik byulletenlar va hisobotlar. – Toshkent, 2020–2024.

Qodirov N. Turizm infratuzilmasi: O'zbekiston sharoitida rivojlanish omillari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 232 bet.

Statistical Data. O'zbekiston Respublikasining milliy turizm va ekologik ko'rsatkichlari: Davlat statistik bazalari. – Toshkent: Statistika agentligi, 2020–2024.

Sustainable Tourism and Environmental Organizations. UNWTO, UNDP va boshqa tashkilotlarning barqaror turizm bo'yicha ko'rsatmalari. – 2023–2024.

Turizm va Madaniy Meros Vazirligi. 2022–2026 yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturi. – Toshkent: TMMV, 2022.

UNESCO and International Organizations. Jahon merosi obyektlarini saqlashga oid xalqaro nashrlar. – Parij: UNESCO, 2022.

UNWTO. World Tourism Barometer 2022–2024. – Madrid: World Tourism Organization, 2024. – URL: <https://www.unwto.org>.

Xodjayev A. Turizmda servis xizmatlari va texnologik integratsiya. – Samarqand: Siyosat, 2021. – 188 bet.



BARQARORLIK REYTINGINI ANIQLASH METODOLOGIYASI VA UNING SOLIQ MEKANIZMLARI BILAN INTEGRATSIYASI

*iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor To'rayev Sh.Sh.
Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
PhD Abdullayev Z.S.
Namangan davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi va uning soliq mexanizmlari bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Reyting mezonlari, baholash indikatorlari va ularning fiskal intizomga, soliq tushumlariga, investitsiya muhitiga ta'siri amaliy misollar asosida yoritiladi. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil orqali reyting tizimining ustunliklari va kamchiliklari baholanib, takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, statistika va analitik metodlar asosida kompleks yondashuv qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, soliq mexanizmlari, soliq ma'muriyatchiligi, fiskal intizom, tadbirkorlik subyektlari, soliq imtiyozlari, raqamli boshqaruv, QQS qaytarish, soliq nazorati, reyting indikatorlari

Аннотация. В статье рассматривается система рейтинга устойчивости субъектов предпринимательства, внедрённая в Республике Узбекистан, и её интеграция с налоговыми механизмами. Проанализированы критерии рейтинга, индикаторы оценки и их влияние на фискальную дисциплину, налоговые поступления и инвестиционный климат. На основе сравнительного анализа с международной практикой предложены рекомендации по совершенствованию механизма. В исследовании применён комплексный подход с использованием нормативно-правовых актов, статистических и аналитических данных.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости, налоговые механизмы, налоговое администрирование, фискальная дисциплина, субъекты предпринимательства, налоговые льготы, цифровое управление, возврат НДС, налоговый контроль, показатели рейтинга

Abstract. This article examines the business stability rating system introduced in the Republic of Uzbekistan and its integration with tax mechanisms. The study analyzes the rating criteria, evaluation indicators, and their impact on fiscal discipline, tax revenues, and the investment climate. A comparative analysis with international practices is conducted, and recommendations for improvement are provided. The research is based on a comprehensive approach using regulatory documents, statistics, and analytical methods.

Keywords: stability rating, tax mechanisms, tax administration, fiscal discipline, business entities, tax incentives, digital governance, VAT refund, tax control, rating indicators

1. Kirish.

Soliq siyosati iqtisodiyotni tartibga solish, byudjet barqarorligini ta'minlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. So'nggi yillarda raqamli boshqaruv sharoitida soliq ma'muriyatchiligida ixtiyoriy rioya qilishni rag'batlantiruvchi yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, soliq to'lovchilarning xulq-atvorini avtomatik baholovchi reyting tizimlari xalqaro tajribada keng joriy etilmoqda.

O'zbekistonda yuridik shaxslar uchun barqarorlik reytingi tizimi amaliyotga tatbiq etilib, korxonalarining fiskal intizomi, moliyaviy holati va ijtimoiy javobgarligi asosida baholanmoqda. Ushbu tizim soliq angilliklari, tekshiruvlardan ozod qilish va boshqa rag'batlantiruvchi mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur maqolada barqarorlik reytingining huquqiy-asosiy tamoyillari, uning soliq mexanizmlari bilan o'zaro ta'siri va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, tizimni takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Soliq tizimi, bilvosita soliqlar, soliq ma'muriyatchiligi va fiskal intizom masalalari iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida bo'lgan qator mamlakatlarda fiskal barqarorlikni ta'minlovchi vosita sifatida e'tirof etilib, ilmiy va amaliy jihatdan keng yoritilmoqda.

Q.A.Yahyoev (2003) soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga e'tibor qaratgan holda ularni to'g'ri va egri (bilvosita) soliqlarga ajratadi hamda egri soliqlar yukini nihoyatida iste'molchi ko'tarishini ta'kidlaydi. A.V.Vahobov va A.Jo'raev (2009) esa soliq nazoratini soliqqa oid qonunbuzarliklarning oldini olishda asosiy vosita deb hisoblab, ularning ortishi davlat moliyaviy resurslariga tahdid solishini qayd etadi.

Xalqaro adabiyotlarda bilvosita soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash ko'pincha kontrabanda va norasmiy iqtisodiy faoliyat bilan bog'liqligi bilan izohlanadi (Giles & Tedds, 2002), aksiz solig'i esa ayrim hollarda iste'mol nazorati va fiskal maqsadlarni uyg'unlashtiruvchi vosita sifatida ko'riladi (Tegetaeva, 2016; Troyanskaya va Y.O.Nizamieva, 2013). Shuningdek, O.T.Hai va L.M.See (2011) soliq to'lovchi kompaniyalar duch keladigan noaniqliklar sababli soliq intizomini buzish xavfini tahlil qilgan.

Shu bilan birga, soliq siyosatining rag'batlantiruvchi jihatlari, ayniqsa barqarorlik reytingi orqali erishiladigan fiskal intizom va samaradorlik ko'plab zamonaviy manbalarda o'rganilmoqda. Slovakiyada joriy etilgan "Soliq ishonchligi indeksi" (Tax Reliability Index) modelida, masalan, soliq to'lovchilarning intizom darajasi asosida ularni soliq tekshiruvlaridan ozod qilish, QQSni tezkor qaytarish va boshqa imtiyozlar berilishi orqali ixtiyoriy to'lov madaniyati oshirilgani aniqlangan (PwC, 2022).

O'zbekiston amaliyotida esa barqarorlik reytingi 2024-yil 1-fevraldan PQ-39-son Prezident qarori asosida joriy etildi, uning normativ asoslari esa VMQ-55-son qarori orqali belgilanib, Soliq qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasi tomonidan shakllantirilgan elektron platforma orqali yuritilishi yo'lga qo'yildi. Reyting tizimida 23 ta indikator asosida baholash mexanizmi ishlab chiqilgan bo'lib, u avtomatlashtirilgan tarzda soliq to'lovchilarning moliyaviy holati, hisobot intizomi va ijtimoiy javobgarlik darajasini baholaydi. Sh. Kudbiev (2024) izohlariga ko'ra, reyting natijalari soliq tekshiruvlarining cheklanishi, QQS qaytarilishining 1 kun ichida amalga oshirilishi kabi rag'batlantiruvchi mexanizmlar bilan bog'langan (OECD, 2020).

Shuningdek, bir qancha ilmiy maqolalarda (MDPI, EJBE) soliq imtiyozlari va fiskal rag'batlar kichik va o'rta biznes (SME) rentabelligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan bo'lsa-da, aynan barqarorlik reytingining soliq siyosatiga integratsiyasi va raqamli fiskal boshqaruvdagi o'rni to'liq o'rganilmagan (Shadurskaya, 2019; Tegetaeva, 2016). Mahalliy izlanishlarda, ayniqsa, reyting indikatorlarining iqtisodiy samaradorlikka (masalan, byudjet tushumlari, ish o'rinlari, investitsiya oqimi) ta'siri bo'yicha empirik tahlillar atarli emas.

Shu bois, mazkur maqola mavjud nazariy va amaliy asoslarni tahlil qilish bilan birga, reyting tizimining soliq mexanizmlari bilan o'zaro ta'sirini baholash, u orqali barqaror iqtisodiy muhitni shakllantirish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash amaliyotini soliq mexanizmlari orqali takomillashtirishga doir muammolarni aniqlash, baholash va takliflar ishlab chiqish uchun kompleks yondashuv asosida metodologik asoslar qo'llanildi.

Tadqiqotda:

- Ilmiy-nazariy asos sifatida institutsional iqtisodiyot, fiskal boshqaruv, barqarorlik nazariyasi va rag'batlantiruvchi soliq siyosati kontseptsiyalariga tayanildi;
- Qiyosiy tahlil metodi orqali O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar (Slovakiya, Latviya, Rossiya, Xitoy) reyting tizimlari o'rganildi;
- Deskriptiv va regressiyaviy tahlil asosida barqarorlik reytingi bilan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar (soliq tushumlari, QQS qaytarilishi, ish o'rinlari) o'rtasidagi bog'liqlik empirik jihatdan baholandi;
- Statistik va normativ-huquqiy manbalar asosida 2022–2024-yillarda my3.soliq.uz, chamber.uz, stat.uz, gov.uz ma'lumotlari hamda PQ-39, VMQ-55 va VMQ-428-son qarorlar tahlil qilindi;
- Ball tizimi asosida reyting shakllanishi, baholash mezonlari (23 ta indikator), ularning amaliy qo'llanilishi ham o'rganildi;

Natijada, reyting tizimining soliq mexanizmlari bilan o'zaro ta'siri, u orqali erishilayotgan iqtisodiy samaradorlik darajasi va uni takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy asosda belgilandi.

4. Tahlil va natijalar.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi – bu korxonalarining moliyaviy barqarorligi va soliqqa oid intizomini baholovchi ko'rsatkichlar tizimidir. Ushbu reyting O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan idoralararo ma'lumotlar asosida avtomatik ravishda shakllantirilib, Savdo-sanoat palatasi rasmiy veb-saytida e'lon qilib boriladi. Barqarorlik reytingini joriy etishdan ko'zlangan maqsad – qonun talablariga rioya qilgan holda faoliyat yuritayotgan va soliqlarni o'z vaqtida to'layotgan tadbirkorlarni aniqlash hamda ularni qo'shimcha rag'batlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishdir. 2023-yil yakunida o'tkazilgan Prezident ochiq muloqotida shu yo'nalishda ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, natijada 2024-yil 1-fevraldan boshlab tadbirkorlik subyektlari uchun barqarorlik reytingi tizimi rasman joriy etildi.

Mazkur reyting tizimi biznes faoliyatining uzluksizligi va barqaror rivojlanishini rag'batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Reyting natijasida har bir korxonaning holati AAA dan D gacha bo'lgan toifalarda baholanadi. "AAA", "AA", "A" – yuqori barqarorlik, "BBB", "BB", "B" – o'rta barqarorlik, "CCC", "CC", "C" – qoniqarli barqarorlik, "D" – quyi barqarorlik toifasi sifatida tasniflanadi. Reyting balldar tizimi orqali hisoblab chiqilib, korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari, soliq to'lov intizomi va boshqa omillarga asosan belgilanadi. Eng muhimi, past reyting olgan korxonalarga nisbatan hech qanday jarima yoki jazo choralari nazarda tutilmagan. Reyting tizimi faqat yuqori natijaga erishganlarni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, barqarorlik reytingini joriy etish tadbirkorlik subyektlari o'rtasida halol raqobat muhitini shakllantirish va soliqqa rioya etish bo'yicha ijobiy rag'bat tizimini yaratishga qaratilgan.

Reytingni joriy etish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Avvalo, O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari soni va ularning iqtisodiyotdagi ulushi ortib borar ekan, ularni differentiatsiya qilish va soliq xavfini boshqarish dolzarb bo'ldi. An'anaviy soliq nazorati mexanizmlari (masalan, tez-tez tekshiruv o'tkazish) samarador emasligi va tadbirkorlarga ortiqcha yuk bo'layotgani tufayli, zamonaviy yondashuv sifatida reyting orqali "compliance"

darajasini baholash tanlandi. Xalqaro tajribada ham soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarni xulq-atvoriga qarab tasniflash keng qo'llanilib, soliq organlari cheklangan resurslarni asosan xatarli guruhlariga yo'naltirishi ma'lum (OECD, 2020). Shu ma'noda, barqarorlik reytingi tadbirkorlik subyektlarini "halol soliq to'lovchi" sifatida reputatsiyaga ega bo'lishga undaydi va soliq organlariga ham riskli soliq to'lovchilarga e'tiborni qaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, reyting tizimi orqali hukumat tadbirkorlarni oqilona soliq intizomiga qat'iy rioya qilish evaziga turli angilliklar va imtiyozlar bilan taqdirlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida biznesning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi soliq mexanizmlari bir necha asosiy yo'nalishlarga ya'ni, soliq imtiyozlari, soliq tekshiruvlari, soliq to'lov tartib-qoidalari, hamda soliq ma'muriyatchiligi va boshqlarga bo'linadi. Quyida ushbu mexanizmlarning mazmuni va ularning korxonalar barqarorligiga ta'sirchanligi tahlil qilinadi.

Soliq imtiyozlari davlat tomonidan tadbirkorlarga soliq bo'yicha beriladigan preferensiyalar (stavkani kamaytirish, soliqdan ozod qilish, kechiktirib to'lash kabi angilliklar) tizimidir. Mazkur mexanizm korxonalarining moliyaviy yukini angillashtirib, ularda qo'shimcha investitsiya yoki aylanma mablag' shakllanishiga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, soliq imtiyozlari kichik va o'rta korxonalar uchun investitsiya hajmini va mehnat unumdorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (MDPI, EJBE va boshq., 2024). Xususan, ba'zi davlatlarda kichik biznes uchun foyda solig'i stavkasini pasaytirish ularga iqtisodiy barqarorlikka erishishda ko'maklashgani kuzatilgan. Biroq, soliq imtiyozlarining noto'g'ri yoki haddan ziyod qo'llanilishi bozorda raqobatga salbiy ta'sir etishi, byudjet daromadlarini kamaytirishi va ayrim hollarda korxonalarni "imtiyozlarga qaram" qilib qo'yishi ham mumkin. Shu sabab, soliq imtiyozlarini samarali boshqarish talab etiladi. Bu borada Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon banki rivojlanayotgan davlatlarga imtiyozlarni minimal darajada va aniq maqsadli guruhlar uchun joriy etishni tavsiya qiladi (IMF, 2021). Barqarorlik reytingi mohiyatida, soliq imtiyozlari faqat yuqori reytingga ega, intizomli soliq to'lovchilarga berilishi ularning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytiradi. O'zbekistonda aynan shunday yondashuv tanlangan bo'lib, yuqori reyting olgan korxonalariga qator soliq preferensiyalari berilishi belgilangan.

Bu imtiyozlar qatorida soliq organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini tekshirish hususan, soliq nazorati mexanizmining an'anaviy va muhim qismidir. Tekshiruvlar yordamida soliq to'lovchining hisob-kitoblari va qonunchilikka rioya etish holati o'rganilib, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha choralar ko'riladi. Biroq, amaliyotda tez-tez va asossiz o'tkaziladigan tekshiruvlar tadbirkorlik faoliyatiga halaqit berishi, ishlab chiqarish jarayonlarini to'xtatib qo'yishi yoki ortiqcha ma'muriy xarajatlar keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, inson omiliga bog'liq salbiy holatlar masalan, korrupsiya xavfi ham tekshiruvlar bilan bog'liq xavotirlarni oshiradi. Shu bois ko'plab davlatlar soliq tekshiruvlarida risklarni baholash **tizimiga** o'tmoqdalar. Bu tizimda barcha soliq to'lovchilar ichida potensial huquqbuzarlik xavfi yuqori bo'lganlar saralanib, tekshiruv shularga qaratiladi. Barqarorlik reytingi aynan shunday yondashuvni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Barqarorlik reytingi AAA toifasiga teng yoki yuqori bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga soliq tekshiruvlari umuman o'tkazilmasligi belgilangan (faqat jinoyat ishlariga aloqador holatlar bundan mustasno). Bu yondashuv soliq organlari uchun samarali va ular e'tiborini past reytingli (muammo yoki xavfli) korxonalariga qarata oladi. Tadbirkorlar uchun esa katta angillik ya'ni tekshiruv stressi yo'qoladi va ular biznesini barqaror rivojlantirishga diqqatini qaratadi. Ilmiy izlanishlar ham ko'rsatadiki, ortiqcha tekshiruvlardan xoli bo'lgan korxonalarda innovatsiya va kengayish istagi kuchayadi, chunki noaniqlik va tashqi aralashuv kamaysa, uzoq muddatli rejalashtirish osonlashadi.

Shuningdek, to'lov tartib-qoidalari, soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash jarayonining tashkil etilishi (davriyligi, usuli, kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatlari, QQS kabi soliqlar bo'yicha qoplash mexanizmi va h.k.). To'lov tartibining qulayligi yoki murakkabligi

tadbirkorlik subyektlarining naqd pul oqimlariga va likvidligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, QQS qaytarib berish muddati qancha qisqa bo'lsa, eksportchi korxonalar yoki katta miqdorda QQS to'laydigan subyektlarning mablag'lari muzlatilib qolmasdan, tezroq aylanma mablag' sifatida ishlaydi. Shu sabab, ko'plab davlatlar oxirgi yillarda QQSni tezkor qaytarish yoki oldindan hech qanday tekshiruvlarsiz qaytarish amaliyotini ishonchli soliq to'lovchilar uchun tatbiq etmoqda. O'zbekistonda ham barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan korxonalar uchun QQS'dan hosil bo'lgan salbiy farq summasini 1 kun ichida qaytarish tartibi joriy qilindi. Bundan tashqari, boshqa soliqlar bo'yicha ortiqcha to'lovni qaytarish muddati ham yuqori reyting egalari uchun atigi 3 kun etib belgilandi. Bu odatiy holatga nisbatan ancha tezkordir. To'lov tartibidagi bunday angilliklar korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi, chunki ularning oborot mablag'lari doimiy ravishda aylanishda bo'lib turadi. Shuningdek, yuqori reytingli subyektlarga bo'lib-bo'lib to'lash kabi qulayliklar ham berilishi mumkin. Masalan, davlat mulkini xususiyashtirish jarayonida AA va undan yuqori reytingga ega tadbirkorlar agar boshlang'ich to'lovni 35%dan kam miqdorda to'lasa, qolgan summani 7 yil davomida bo'lib to'lash huquqiga ega bo'ldi (foizsiz)(lex.uz, 2024). Bunday to'lov tartibi angilliklari nafaqat soliq to'lovlarini, balki investitsiya majburiyatlarini bajarishni ham osonlashtirib, biznesga moliyaviy barqarorlik baxsh etadi.

Soliq ma'muriyatchiligida soliqlarni yig'ish va boshqarishning tashkil etilishi, soliq solish tartiblarini soddalashtirish, soliq hisobotlarini topshirish tizimi, elektron soliq xizmatlari, soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Samarali soliq ma'muriyatchiligi tadbirkorlik uchun barqaror biznes muhitini yaratishga yordam beradi. Misol uchun, soliqlar bo'yicha elektron deklaratsiya va onlayn hisobot tizimining joriy etilishi korxonalar vaqt va resurslarini tejab, ularning operatsion samaradorligini oshiradi. Shuningdek, aniq va barqaror soliq qoidalari, ortiqcha byurokratik to'siqlarning olib tashlanishi korxonalariga kelgusini ishonch bilan rejalashtirish imkonini beradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq ma'muriyatchiligida sezilarli islohotlar qilindi. Xususan, 2019-yildan soliq siyosati soddalashtirilib, yagona soliq rejimlari keng joriy etildi va natijada kichik biznesning o'sishi tezlashgani kuzatildi (Kudbiev, 2024). Aynan soliq ma'muriyatchiligining takomillashuvi barqarorlik reytingi tizimini amaliyotga tatbiq etishni imkoni bor edi. Chunki reyting uchun zarur bo'lgan 23 ta ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar elektron tizimlar orqali muntazam yig'ilib turiladi va avtomatik tahlil qilinadi. Masalan, "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" elektron platformasi boshqa axborot tizimlari masalan, "Shaffof qurilish", "Yoshlar daftari" va hokazo bilan integratsiya qilinib, kerakli ko'rsatkichlarni oladi. Soliq ma'muriyatchiligidagi bunday raqamli transformatsiya tufayli reyting tizimi real vaqt rejimida ishlashi va har bir subyekt bo'yicha shaffof indikatorlarni shakllantirishi mumkin bo'ldi. Bu esa o'z navbatida soliq to'lovchilarda ishonch tuyg'usini oshiradi va reytingdagi barcha ma'lumotlar ularning shaxsiy kabinetida ochiq ko'rinadi va agar noto'g'ri bo'lsa, e'tiroz bildirish imkoni ham mavjud. Shu tariqa, ilg'or soliq ma'muriyatchiligi korxonalarining soliqqa oid xatti-harakatlarini baholab borish va ularga mos ravishda yondashuv rag'bat yoki nazoratni qo'llash imkonini beradi.

Yuqoridagi soliq mexanizmlari barqarorlik reytingiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Reyting mezonlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda soliq hisobotlarini o'z vaqtida topshirish, soliqlarni kechiktirmay to'lash, soliq qarzi yoki huquqbuzarliklarning mavjud emasligi kabi jihatlar yuqori ball olib keladi. Aksincha, tekshiruvlarda qonunbuzarlik aniqlansa yoki soliqdan qarzдорlik yuzaga kelsa, reyting ballari kamayadi. Shu nuqta nazardan, soliq siyosati va ma'muriyati vositalari tadbirkorlik subyektlarining barqaror ishlashiga kuchli motivatsion ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi soliq intizomiga ega bo'lish korxonalar manfaatiga aylantirilsa, ularning uzoq muddatli barqarorligi mustahkamlanadi. Boshqacha aytganda, soliq mexanizmlarini mohirona qo'llash orqali davlat tadbirkorlarga "yaxshi soliq to'lovchi bo'lsang - yutasan" degan ma'noni beradi, bu esa tadbirkorlik muhitini sog'lomlashtiradi.

Barqarorlik reytingini aniqlash mezonlari sifatida 23 ta ko'rsatkich belgilangan bo'lib, ular uch guruhga bo'lingan: umumiy ko'rsatkichlar (10 ta), ballarni kamaytiruvchi

ko'rsatkichlar (9 ta) va qo'shimcha ball beruvchi ko'rsatkichlar (4 ta). Quyidagi jadvalda ushbu guruhlar mazmuni ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval

Barqarorlik reytingi mezonlari guruhlari

Ko'rsatkichlar guruhi	Ko'rsatkichlar soni	Mazmuni va misollar (talablar)
Umumiy ko'rsatkichlar	10 ta	Korxonaning umumiy holatini tavsiflovchi bazaviy mezonlar. Masalan: faoliyat davomiyligi, moliyaviy natijalar (rentabellik darajasi), xodimlar uchun ish haqi fondi miqdori, soliqlar bo'yicha hisobotlarni belgilangan muddatlarda topshirish va to'lovlarni amalga oshirish. Har bir mezon bo'yicha maksimal 10 balldan baholanadi.
Ballarni kamaytiruvchi	9 ta	Korxonada faoliyatidagi xavfli yoki salbiy holatlar. Masalan, yuridik manzilni tez-tez o'zgartirish, rahbariyatning beqarorligi, soliq hisobotlariga tez-tez tuzatish kiritish, soliq qarzini majburan undirish holatlari, soliq huquqbuzarliklari uchun jarima yoki jazolar qo'llanilganligi, kreditorlik qarzdorlikning yuqoriligi kabi omillar reytingdan ball. Bu omillar mavjud bo'lsa, har biri uchun belgilangan miqdorda ball kamaytirilib, korxonaning yakuniy reytingi pasayadi.
Qo'shimcha ball beruvchi	4 ta	Korxonada faoliyatidagi ijobiy qo'shimcha jihatlar. Masalan, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta'minlash, xodimlarga to'lanayotgan ish haqi miqdorini oshirib borish, korxonaning QQS yoki aylanma soliq bo'yicha to'lovlari o'z sohasidagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lishi kabi omillar uchun reytingga <i>qo'shimcha ball</i> qo'shiladi. Ushbu rag'batlantiruvchi mezonlar korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ham baholaydi.

Yuqoridagi mezonlar bo'yicha har bir tadbirkorlik subyekti uchun ballar yig'indisi chiqarilib, shu asosda reyting toifasi belgilanadi. Reyting baholash metodikasi davlat tomonidan maxsus nizom (yo'riqnoma) bilan tasdiqlangan bo'lib, u ko'rsatkichlarni hisoblash formulasini hamda ball berish yoki ayirish shartlarini aniq belgilaydi. Misol tariqasida, "xodimlarning o'rtacha ish haqi miqdori oshishi" mezonini ko'rib chiqamiz. Agar korxonada o'z xodimlari oylik ish haqini bazaviy davrga nisbatan oshirgan bo'lsa, oshish foiziga qarab ball qo'shiladi. Qoidaga ko'ra, ish haqi *eng kam oylik miqdordan past* bo'lsa korxonada 5 ball yo'qotadi, aksincha ish haqi miqdori oshgan bo'lsa quyidagicha ball beriladi ya'ni, 25% gacha oshgan bo'lsa +2 ball, 25–50% oshgan bo'lsa +4 ball, 50–75% oshgan bo'lsa +6 ball, 75–100% oshgan bo'lsa +8 ball, 100%dan yuqori oshgan bo'lsa +10 ball qo'shiladi. Bu mezon korxonaning ijtimoiy majburiyatlarga sodiqligini aks ettiradi va reytingda yuqori o'rinlarni egallashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba nuqtai nazaridan qaralganda, O'zbekiston joriy etgan mazkur reyting tizimi soliq ma'muriyati sohasida innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda shunga o'xshash mexanizmlar mavjud bo'lgan. Masalan, Slovakiya 2018-yildan boshlab "Soliq ishonchliligi indeksi" (Tax Reliability Index) ni joriy qilgan bo'lib, unda kamida 2 yillik faoliyatga ega tadbirkor subyektlar qator mezonlar asosida baholanadi. Slovakiya tajribasida korxonaning soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi, soliqlarni to'lamaslik yoki kechiktirish

holatlari, tekshiruv natijalari kabi ko'rsatkichlar ball bilan baholanadi. Yakunda to'plangan ballga muvofiq soliq to'lovchi yuqori ishonchli, ishonchli yoki ishonchsiz toifalarga ajratiladi. Eng qiziqarli jihati shundaki, Slovakiyada yuqori ishonchli soliq to'lovchilarga qator imtiyozlar beriladi. Masalan, soliq organidan huquqiy izoh (ruling) olish bojxona to'lovining 50%ga qisqartirilishi, soliq tekshiruvlari o'tkazilsa ham ularga oldindan kamida 15 kun tayyorgarlik muddati berilishi, QQS qaytarishda hujjatli nazorat o'rniga soddalashtirilgan mahalliy tekshiruv bilan cheklanish kabi qulayliklar joriy etilgan. Shuningdek, soliq organi ishonchli soliq to'lovchilarning ayrim so'rovlariga (masalan, avans to'lov jadvalini o'zgartirish) ijobiy javob berishga intiladi (PwC, 2022). 2022-yildan e'tiboran Slovakiya soliq xizmati barcha soliq to'lovchilarga ularning reytingi haqida rasmiy xabarnoma yuborib, bahoga e'tiroz bildirish imkonini ham yaratdi, hamda eng muhim jihati ishonchlilik reytingi natijalarini e'lon qila boshladi. Ushbu misol ko'rsatadiki, xorijda soliq sohasida "rag'batlantiruvchi reyting" tamoyili samara berib, soliq intizomini yuksaltirish va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Yana bir misol, Chexiya va Vengriya kabi mamlakatlarda ham soliq to'lovchilarning "ishonchlilik sertifikatiga" ega bo'lish amaliyoti mavjud. Bu davlatlarda belgilangan shartlarga to'liq amal qilgan korxonalar soliq idoralari maxsus maqom yoki sertifikat berib, ularni kam xatoli, yuqori javobgarlikka ega toifa sifatida tan oladi. Natijada bunday korxonalar soliq tekshiruvlaridan qisman ozod qilinishi, ayrim soliqlar bo'yicha deklaratsiyalarini soddalashtirilgan tartibda topshirishi yoki turli ruxsatnomalarni olishda afzalliklarga ega bo'ladi. Avstraliya va Niderlandiya soliq ma'muriyatlari yirik soliq to'lovchilar bilan gorizontaal monitoring yoki kooperativ muvofiqlik bitimlarini tuzadi. Bunda soliq to'lovchi o'z moliyaviy hisobotlarini ochiq taqdim etadi, evaziga soliq organi tez-tez tekshiruv o'tkazmaydi va masofaviy nazorat bilan cheklanadi. Bularning barchasi, mazmunan, O'zbekistonda joriy etilgan barqarorlik reytingi tamoyiliga yaqinlashadi ya'ni soliq ma'muriyati ko'proq profilaktika va rag'batlantirishga e'tibor qaratadi, jazolash va tazyiq o'rniga oshkoralik va ishonch muhitini shakllantiradi.

Barqarorlik reytingini joriy etish va unga asoslangan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar tizimi natijasida qator ijtimoiy-iqtisodiy samaralarga erishish kutilmoqda. Quyida ushbu samaralarning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi:

- *Byudjet daromadlarining oshishi.* Reyting tizimi soliqlarning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini rag'batlantirgani uchun, davlat byudjetiga tushumlar barqaror oshib borishiga xizmat qiladi. Soliq intizomi yaxshilangani sayin soliqlarning yig'ilish ko'rsatkichi ortadi. Ayniqsa, ilgari soliqlarni yashirish yoki kechiktirish kuzatilgan ba'zi korxonalar endilikda yuqori reyting uchun kurashib, soliqlarni kechiktirmasdan to'lashga intiladi. Bu esa amalda soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi. Masalan, Slovakiya tajribasida ishonchli soliq to'lovchilar ulushi oshgani sari davlat g'aznasiga tushum oshgani qayd etilgan – chunki ko'proq korxonalar "ishonchsiz" toifadan qutulish uchun qarzdorliklarini bartaraf etgan. O'zbekiston sharoitida ham 2024-yilda yirik soliq to'lovchilarning ixtiyoriy to'lov darajasi oshgani va soliq bo'yicha qarzdorlikni qisqartirish bo'yicha sezilarli siljishlar kuzatilmoqda, bunda reyting joriy etilgani muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda.

- *Soliq intizomining yuksalishi.* Reyting – bu aslida soliq intizomi uchun o'ziga xos "ko'zgudir". Korxonalar soliq va boshqa majburiyatlarga qay darajada rioya etayotganini reyting darajasi aniq ko'rsatib beradi. Fikrimizga ko'ra, reyting qonunga rioya qilishni baholovchi ma'lumotlarga asoslanadi va shu tariqa tadbirkorlarda huquqiy intizomni mustahkamlaydi. Yuqori reytingga erishish uchun korxonalar moliyaviy intizom, buxgalteriya hisobi va soliq hisoboti sohalarini tartibga solishga harakat qiladi. Masalan, barcha soliqlarni belgilangan muddatlarda to'lash, zarur hollarda avans to'lovlarni amalga oshirish, kameral nazorat xatolarini o'z vaqtida tuzatish kabi odatlar shakllanadi. Shu bilan birga, past reytingdan qochish uchun korxonalar soliqqa oid huquqbuzarliklar, yashirish, soxta hujjat yuritish va hokazolardan tiyilishga intiladi. Bu jarayon natijasida jamiyatda umumiy soliq madaniyati va soliq intizomi sezilarli ravishda yuksaladi. Soliq intizomining kuchayishi esa uzoq muddatda

davlat va biznes o'rtasida o'zaro ishonch muhitini yaratadi, bu muhit esa iqtisodiy barqarorlikning asosidir.

• *Ish o'rinlari barqarorligi va yaratilishi.* Tadbirkorlik subyektlarining barqarorligi to'g'ridan-to'g'ri ularning xodimlari farovonligiga ta'sir etadi. Reyting mezonlari orasida xodimlar soni va ish haqi fondining oshishi uchun ball berilishi ham bejiz emas. Ya'ni, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamdan ko'proq xodim ishlagan korxonalar yoki ishchi oyliklarini muntazam oshirib borayotgan korxonalar yuqori reyting olishadi. Demak, reyting tizimi bilvosita ravishda yangi ish o'rinlari yaratish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga rag'bat beradi. Yuqori reytingga ega bo'lish uchun tadbirkor o'z shtatini kengaytirishga, norasmiy ishlayotgan xodimlarni rasman ishga qabul qilishga va maoshlarni oshirishga harakat qiladi. Bu esa aholi bandligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, mamlakat miqyosida yangi ish joylari ko'payishi, mavjud ish joylarining barqarorlashuvi hamda yashirin bandlikning qisqarishi kutiladi. Bundan tashqari, xodimlarga yaxshi maosh va kafolat beradigan barqaror korxonalar ijtimoiy barqarorlikka ham hissa qo'shadi, chunki ishsizlikning oldi olinadi va ishchilarning daromadlari barqarorlashadi.

• *Investitsiya muhiti va biznes muhitining yaxshilanishi.* Barqarorlik reytingi joriy qilinishi xorijiy va mahalliy investorlar uchun ijobiy signal hisoblanadi. Chunki reyting orqali davlat barcha korxonalariga nisbatan oshkora mezonlar o'rnatganini va halol faoliyat yurituvchi tadbirkorlar qo'llab-quvvatlanishini ko'rsatmoqda. Investorlar uchun mamlakatdagi biznes muhiti barqarorligi va himoyalanganligi muhim. Ayniqsa, soliq sohasidagi barqarorlik. Reyting tizimi tufayli endi investorga qaysi kompaniya soliq risklari jihatidan ishonchliroq ekani ham ma'lum bo'ladi. Shu bilan birga, davlatning reytingga asoslangan imtiyozlar siyosati sarmoyadorlarni jalb etadi. Masalan, AAA reytingga ega korxonaga sarmoya kiritgan investor biladiki, bu korxonaga soliqlar bo'yicha tekshiruvlardan xoli, QQS mablag'lari aylanmasida ushlab turilmaydi, ya'ni biznes yuritishda administrativ to'siqlar kam bo'ladi. Bu esa kapitalni shu kabi barqaror korxonalariga yo'naltirishga rag'batlantiradi. Natijada, mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilanadi, xorijiy investitsiyalar oqimi ko'payishi mumkin. Reytingning yana bir ijobiy ta'siri bo'lib, davlat apparati va biznes aloqalarining shaffoflashuvi hisoblanadi, bu ham investorlar ko'z o'ngida O'zbekistonni jozibador qiluvchi omildir.

• *Raqobatbardoshlikning ortishi.* Reyting tizimi mamlakat ichkarisida sog'lom raqobatni kuchaytirishi bilan birga, milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini ham oshiradi. Avvalo, reyting sabab tadbirkorlar yashirin iqtisodiyotdan chiqishga intiladi. Chunki rasmiylashtirilmagan faoliyat yoki yashirilgan daromadlar reyting ballarini yo'qotishga olib keladi. Bu esa iqtisodiyotning "soyadagi" qismini qisqartirib, hamma korxonalarni teng sharoitlarda raqobatlashishga undaydi. Natijada bozorda faqat soliq to'lamay "yutib ketadigan" nohalol ustunliklar kamayadi. Halol raqobat esa umumiy mahsulot sifati va xizmatlar darajasini oshiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Ikkinchidan, yuqori reytingga ega korxonalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi (imtiyozlar berilishi) ularning resurslarini tejaydi va samaradorligini oshiradi. Bu korxonalar ichki bozordagina emas, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi. Misol uchun, QQS mablag'lari tez qaytarilishi eksportchi korxonalariga narxini pasaytirish imkonini beradi yoki hech bo'lmasa likvidlikni oshirib, ishlab chiqarishni ko'paytiradi. Shuningdek, barqarorlik reytingi baland kompaniyalar moliyaviy jihatdan sog'lom va ishonchli ekanini anglatadi, bu esa ularga xorijiy hamkorlar topishda, xalqaro tenderlarda ishtirok etishda qo'l keladi. Uzoq muddatda esa butun mamlakat miqyosida soliq boshqaruvi sifatining oshishi va biznesning barqarorlashuvi O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini ham yaxshilashi mumkin.

Yuqoridagi barcha omillar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks natijalardir. Barqarorlik reytingi orqali davlat – biznes munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda, unda hamkorlik va o'zaro foyda tamoyillari ustuvor bo'ladi. Natijada nafaqat soliqlar to'planishi yaxshilanadi, balki iqtisodiyotda yuqori malakali ish o'rinlari

yaratiladi, fuqarolarning daromadlari ortadi va jamiyatda tadbirkorga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Barqarorlik reytingi tizimi joriy etilganiga hali ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, uni amaliyotda qo'llash jarayonida ayrim muammo va cheklovlar yuzaga chiqishi mumkin. Ushbu muammolarni aniqlab, kelgusida tizimni takomillashtirib borish lozim.

Birinchi muammo – ma'lumotlar ishonchliligi masalasi. Reyting avtomatik hisob-kitoblarga asoslanganligi sababli, turli manbalardan to'planadigan ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligi juda muhim. Agar biror idoraning axborot bazasida xato ma'lumot turib qolsa yoki integratsiya uzilishlar bo'lsa, tadbirkor reytingida nohaq pasayish kuzatilishi mumkin. Masalan, korxonada soliqni to'lagan, ammo bank ma'lumotini tizim olmadi – bu korxonada qarzdor sifatida ko'rinib, ball yo'qotishi mumkin. Shu bois, axborot tizimlarining uzviy ishlashini ta'minlash va muntazam sinovdan o'tkazib borish zarur. Soliq qo'mitasi shu maqsadda tadbirkorlarning e'tiroz bildirish imkoniyatini bergan. Takomillashtirish uchun har bir ko'rsatkich bo'yicha mas'ul idora va shaxslar javobgarligini oshirish, ma'lumotlarni real-vaqt monitoringini qilish tizimini kuchaytirish mumkin.

Ikkinchi muammo – reyting mezonlarining hamma subyektlarga hamohang ta'sir qilmasligi. Ya'ni ayrim ko'rsatkichlar turli soha va hajmdagi korxonalar uchun turlicha ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, yangi tashkil etilgan (yoshi kichik) korxonada faoliyat davomiyligi bo'yicha tabiiy ravishda past ball oladi, yoki mulki ko'p bo'lmagan xizmat sohasi korxonasi "ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi" mezoni bo'yicha ball ololmaydi. Bu esa ularning reytingiga salbiy ta'sir berishi mumkin, garchi ular soliq intizomiga to'liq amal qilayotgan bo'lsa ham. Shuning uchun reyting formulasini doimiy ravishda tahlil va monitoring qilish, zarur bo'lsa soha xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirib borish lozim. Xususan, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sektori uchun ayrim mezonlarning og'irligini kamaytirish yoki ular uchun moslashtirilgan sub-reyting tizimini joriy etish mumkin. Shu bilan birga, "5 yil va undan ortiq faoliyat yuritganlik uchun 10 ball" kabi bandlar yangi innovatsion startaplarni nisbatan noqulay holatga qo'ymasligi uchun qo'shimcha choralar ko'rib chiqilishi zarur. Masalan, yuqori texnologiyali yosh korxonalariga maxsus qo'shimcha ball berish kabi.

Uchinchi ehtimoliy munazarali masala bu – reytingdan foydalanish doirasi va uning xususiy sektori uchun tushunarililigi. Hozirda reyting asosan soliq organlari va hukumat imtiyozlari uchun yo'naltirilgan ko'rsatkich bo'lib turibdi. Kelgusida uni tijorat banklari, investitsiya fondlari, hatto xalqaro tashkilotlar ham ko'rib, qaror qabul qilishda foydalanishi ehtimoli bor. Buning uchun reyting metodologiyasi hammabop va ochiq bo'lishi, hamda biznes hamjamiyati tomonidan to'g'ri qabul qilinishi lozim. Ayrim tadbirkorlar dastlab reyting tizimiga ehtiyotkorlik bilan yondashishi mumkin. Chunki bu ularning faoliyatiga yangi baho beruvchi omil. Mas'ullar bu borada allaqachon targ'ibot ishlarini boshlab, 300 nafarga yaqin tadbirkorga yangi tizimni tushuntirgani va ommaviy axborot vositalarida muntazam chiqishlar qilayotganini kuzatish mumkin (Soliq qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasi, 2024). Savdo-sanoat palatasi huzurida tuzilgan Jamoatchilik kengashi orqali har chorakda reyting natijalarini muhokama qilish va takliflar berish yo'lga qo'yilgan. Bu platformadan faol foydalangan holda tadbirkorlarning takliflari asosida tizimni yanada qulaylashtirish mumkin.

To'rtinchi masala – rag'batlantirish choralari kengaytirish. Hozirda reytingga asoslangan imtiyozlar asosan soliq va moliyaviy sohadagi angilliklarni o'z ichiga oladi (tekshiruvlar, QQS qaytarish, to'lov muddatlari va h.k.). Kelajakda bu ro'yxatni yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, yuqori reytingli tadbirkorlik subyektlariga davlat xaridlarida ishtirok etishda preferensiyalar berish, eksport kontraktlarida davlat kafolatlaridan foydalanish, xalqaro ko'rgazmalarga imtiyozli tarzda olib chiqish kabi rag'batlar ko'rib chiqilishi mumkin. Bundan tashqari, mahalliy hokimiyatlar darajasida ham yuqori reytingga ega korxonalarni rag'batlantirish masalan, ularga ar ajratishda, infratuzilma tarmoqlariga ulanishda tezlashtirilgan tartib joriy qilish kabi choralar tatbiq etilishi mumkin. Bu takliflar Prezident qarori bilan nazarda tutilgan bo'lib, unda soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalarni

yuridik shaxslarning reyting darajasiga qarab taqdim etish tartibi tasdiqlangani qayd etiladi (Yahyoev, 2003).

Ushbu hujjat ijrosini ta'minlash doirasida yana ko'plab sektorlar bo'yicha reytingga bog'liq rag'batlar yuzaga kelishi kutilmoqda. Takomillashtirish nuqtai nazaridan, mazkur rag'batlarning samaradorligini tahlil qilib borish, iqtisodiyotga ta'sirini o'lchash va kerak bo'lsa o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi.

5. Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi – bu soliq mexanizmlari orqali biznes muhitini sog'lomlashtirishga qaratilgan innovatsion vositadir. Uning joriy etilishi tadbirkorlarni halol va barqaror ishlashga undaydi, davlatga esa soliq tushumlari va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ko'maklashadi. Albatta, har qanday yangi tizimda bo'lgani kabi barqarorlik reytingini qo'llashda ham muammolar bo'lishi tabiiy, lekin ilmiy yondashuv va amaliy tajriba asosida tizimni doimiy takomillashtirish orqali ushbu muammolar bartaraf etiladi. Kelgusida reyting tizimi O'zbekistonda nafaqat soliq sohasida, balki biznesni qo'llab-quvvatlashning boshqa jabhalarida ham qarorlar qabul qilish uchun muhim mezonga aylanishi mumkin. Eng asosiysi, bu tizim orqali tadbirkorlik subyektlari rivojlanadi, soliq madaniyati yuksaladi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Aadabiyotlar:

Giles, D.E. and Tedds, L.M., 2002. Taxes and the Canadian Underground Economy. Toronto: Canadian Tax Foundation.

Hai, O.T. and See, L.M., 2011. Behavioral intention of tax non-compliance among sole-proprietors in Malaysia. *International Journal of Business and Social Science*, 2(6), pp.142–152.

IMF, 2021. Enhancing the Effectiveness of Tax Incentives in Developing Countries. *International Monetary Fund Policy Paper*.

OECD, 2020. Tax Administration 2020: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies. Paris: OECD Publishing. Available at: <https://doi.org/10.1787/46091073-en> [Accessed 13 Jul. 2025].

PwC, 2022. Tax Reliability Index: Improving Voluntary Compliance in Slovakia. PricewaterhouseCoopers Slovakia. Available at: <https://www.pwc.com/sk> [Accessed 20 Mar. 2024].

Shadurskaya, M.M., 2019. *Nalogi v sovremennoy ekonomike*. Moskva: Finansy i statistika.

Tegetaeva, O.R., 2016. Aksiz solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. *Soliq va hayot*, (4), pp.21–24.

Troyanskaya, M.A. and Nizamieva, Y.O., 2013. Aksizlar orqali fiskal siyosatni amalga oshirish masalalari. *Soliq va bojxona ishi*, (2), pp.15–18.

Vahobov, A.V. and Jo'raev, A., 2009. *Soliq siyosati va nazorati: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Iqtisodiyot.

Yahyoev, Q.A., 2003. *Soliq nazariyasi*. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi.

Ўзбекистон Республикаси Президенти, 2024. PQ-39-sonli Qarori “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”, 23 yanvar. Available at: <https://lex.uz/docs/6773342> [Accessed 13 Jul. 2025].

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси, 2024. 55-sonli Qarori “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 30 yanvar. Available at: <https://lex.uz/docs/6785751> [Accessed 13 Jul. 2025].

Soliq qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasi, 2024. “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi” taqdimoti materiallari. *Daryo.uz*, 01.02.2024. Available at: <https://daryo.uz> [Accessed 13 Jul. 2025].

Kudbiev, Sh.D., 2024. Reyting tizimi orqali soliq yengilliklari va fiskal rag'batlar. *Daryo.uz*, February. Available at: <https://daryo.uz> [Accessed 13 Jul. 2025].

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, 2024. Rasmiy axborot. Available at: <https://soliq.uz> [Accessed 01 Apr. 2024].

MDPI va EJBE, 2024. Ilmiy maqolalar to'plami. Available at: <https://ojs.journals.cz> [Accessed 05 Mar. 2024].



СОЛИҚ ТИЗИМИДА ҚўШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИНИ ҲИСОБГА ОЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Джалилов Р.Ҳ.

Қарши давлат техника университети

Аннотация. Ушбу илмий мақолада қўшилган қиймат солиғи, унинг республикамиз ва хорижий мамлакатлар солиқ тизимидаги ўрни, ривожланиш босқичлари келтирилган. Қўшилган қиймат солиғи бўйича ягона ставканинг қабул қилиниши зарурияти асосланган.

Калит сўзлар: солиқ, қиймат, билвосита солиқлар, қўшилган қиймат солиғи, истеъмолчи, ҳисобварақ-фактура, ҳисобот даври.

Аннотация. В данной научной статье представлен налог на добавленную стоимость, его место в налоговой системе нашей республики и зарубежных стран, этапы его развития. Он основан на необходимости принятия единой ставки налога на добавленную стоимость.

Ключевые слова: налог, стоимость, косвенные налоги, налог на добавленную стоимость, потребитель, счет-фактура, отчетный период.

Abstract. This scientific article presents the value added tax, its place in the tax system of our republic and foreign countries, the stages of its development. It is based on the need to adopt a single rate of value added tax.

Key words: tax, value, indirect taxes, value added tax, consumer, invoice, reporting period.

1. Кириш.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 20 декабр 2022 йилдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида таъкидлаганидек, бюджет харажатлари, аҳоли ва тадбиркорлар олдидаги мажбуриятларимизни қисқартирмаган ҳолда, бизнесга солиқ юкни камайтириш бўйича ишларни давом эттирамиз. Жумладан, 1 январдан бошлаб қўшилган қиймат солиғи ставкасини 15 фоиздан 12 фоизга пасайтириш ҳисобидан тадбиркорлар ихтиёрида йилига камида 14 триллион сўм маблағ қолади. Лекин бизнес муҳитини яхшилаш учун фақат солиқни камайтиришнинг ўзи етарли эмас (lex.uz, 2022).

Кўпгина мамлакатларда қўшилган қиймат солиғи давлат солиқ даромадларининг 12 фоиздан 30 фоизгача бўлган даромад қисмини қоплайди, яъни ялпи миллий маҳсулотнинг ўртача 5-10 фоизини ташкил қилади.

Қўшилган қиймат солиғи илк бор Ўзбекистонда 1991 йилда “Корхоналар, бирлашмалар ва ташкилотлардан олинадиган солиқлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни орқали жорий этилган. Мазкур солиққа бугунги кунга қадар қатор аҳамиятли ўзгартиришлар киритилган. Жумладан, товар (иш, хизматлар) реализация қилиш жойи тушунчаси киритилган, товар (иш, хизматлар) етказиб берувчиларга тўлаб

берилган ҚҚС суммасини касса усулида аниқлашдан уни ҳисобга олиш усулига ўтилган, объект, база тушунчалари такомиллаштирилган ва ҳоказо.

Қўшилган қиймат солиғи - бу билвосита солиқларнинг бир тури бўлиб, товар, иш, хизматларни ишлаб чиқаришнинг ҳар бир поғонасида яратиладиган товар, иш, хизматлар қийматининг бир қисмини бюджетга ўтказиш орқали тўланади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Тадқиқотнинг муаммосига бағишланган илмий ишларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, ушбу мавзунини хорижий олимлар ва бошқалар тадқиқ этилган.

Жаҳонда (2020) қўшилган қийматни солиққа тортиш методикасини такомиллаштиришга оид олиб борилган илмий тадқиқот ишлари натижасида қатор илмий натижалар олинган. Жумладан, “қўшилган қиймат солиғининг оптимал ставкаси 15-20 фоизни ташкил қилиши, ставка пасайтирилиши бюджет тушумлари етишмовчилигига олиб келиши, юқори ставканинг жорий қилиниши бизнесни яширишга олиб келиши исботланган (КРМГ, Лондон), ҚҚСдан қочиш иқтисодий ўсишга, макроиқтисодий барқарорликка таъсир этиши исботланган (Georgia State University, АҚШ), Тадбиркорлик субъектларининг асосий солиқ харажатлари қўшилган қиймат солиғига тўғри келиши асосланган (Nevin Economic Research Institute, Ирландия), Ўзбекистон Республикасида қўшилган қиймат солиғи ставкасининг икки фоизли пунктга пасайтирилиши ЯИМнинг 0,56 фоиз ўсишига олиб келиши асосланган (UNDP, 2020)

И.М.Борниковани (2018) ёзишича ҚҚС биринчи марта 1954-йил 10-апрелда Францияда жорий қилинган. Унинг ихтироси жаноб Морис Лоретга тегишли. Ҳозирги вақтда ҚҚС 137 мамлакатда қўлланилади.

Мамлакатимиз иқтисодчилари ҚҚСнинг ижобий ва салбий томонлари бўйича ўзларининг фикрларини билдиришган. Жумладан. М.Комиловнинг (2020) ёзишича, бугунги кунда дунёнинг 140 га яқин давлатларида қўшилган қиймат солиғи муваффақиятли қўлланилиб келмоқда.

В.Г.Пансковнинг (2015) фикрича, “ҳозирда ҚҚС 160 дан ортиқ мамлакатларда амал қилади. Қўшилган қиймат солиғининг асосий афзалликлари қиймат бетарафлик, ошқоралик, ишонч ва ўзини ҳимоя қилиш тамойили сифатида шакллантирилиши мумкин”.

Жаҳондаги айрим мамлакатларнинг қўшилган қиймат солиғи бўйича қўллаб келаётган ставкалари турлича. Айрим давлатларда қўлланилаётган ҚҚС ставкаси энг юқори солиқ ставка Венгрия давлатида 27 фоиз ва Швецияда 25 фоиз бўлса, энг паст солиқ ставкаси эса Сингапур ва Саудия Арабистонида 5 фоиз миқдоридан белгиланган (Комилов, 2020).

М.И.Алимарданов ва Б.Н.Абдуллаевларни (2015) такидлашича, “Қўшилган қиймат солиғининг бир неча ижобий томонлари мавжуд, аввало унинг корхоналар молиявий ҳолатига боғлиқ эмаслиги, яъни нейтраллиги уни юқори даражада ундириш имконини беради. Ишлаб чиқариш (иш бажариш, хизмат кўрсатиш)нинг ҳар бир босқичида ундирилганлиги учун бюджетга узлуксиз даромадлар келишини таъминлайди. Шунга қарамай, ҳозирги пайтда қўшилган қиймат солиғи корхоналар молиявий аҳволига анча оғир таъсир кўрсатмоқда. Чунки хўжалик субъектлари ва истеъмолчиларда молиявий имкониятларнинг пастлиги сабабли қўшилган қиймат солиғи ставкаси улар учун жуда юқорилиги уларда фойдага эга бўлиш имкониятини чегаралайди.

Б.Тошмурадова (2021) ҚҚС борасида муаммоларга тўхталган: “Солиқ концепцияси асосида киритилган янгиликлар солиқ тизимини маълумдаражада такомиллаштирганига қарамай амалиётда уларни қўллаш борасида муаммолар, ноаниқликлар, шунингдек, солиқ органлари мутухассислари ва тадбиркорлар томонидан айрим қонунчилик қоидаларига қарама-қарши муносабатлар ҳам юзага

келмоқда. Баъзи ҳолларда эса солиқ тизимининг айрим тамойилларининг бузилиши ҳолатлари ҳам кузатилади. Солиқ тўловчилар ва иқтисодчи мутахассислар томонидан кўп мунозараларга сабаб бўлаётган қўшилган қиймат солиғи ҳам шулар жумласидандир”.

И.М.Ниязметов, У.А.Сафаров, Х.Ж.Раджаповларнинг (2021) фикрича, ўзининг асл моҳиятига кўра ҚҚС аслида унчалик мураккаб солиқ эмас. Айниқса, тобора ривожланиб бораётган рақамли технологиялар шароитда ва бугунги кунда кенг тарқалган инвойс (ҳисоб-фактура) усулига асосланган занжирсимон ҚҚС механизмида бюджетга тўланадиган солиқ реализация қилинган товар (хизмат)ларга нисбатан ҳисобланган ҚҚС суммаси билан мол етказиб берувчиларга тўланган (кирим қилинган) ҚҚС суммаси ўртасидаги (мусбат) фарқ сифатида осон ҳисоблаб чиқилади. Бироқ, реал ҳаётда ҚҚС механизмига турли хил имтиёзлар ва истисноларнинг қўлланилиши уни амалда мураккаблашувига олиб келган. Солиқнинг пасайтирилган (шу жумладан, нолли) ставкаларидан фойдаланиш эса ҳисобкитобларда ҚҚС манфий тафовути юзага келиши ва унинг давлат томонидан қопланиши билан боғлиқ муаммолар пайдо бўлиши сабаб бўлган.

Бугунги кунда республикадаги ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларида қўшилган қиймат солиғи бўйича занжирда узулишлар мавжудлиги, имтиёзлар кўплиги, давлат аҳамиятга молик товарлар нархлари тартибга солиниши ва турли солиқ режимлари мавжудлиги товарлар (хизматлар) нархига ўз таъсирини ўтказмоқда.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқотда иқтисодий таҳлил, мантиқийлик ва гуруҳлаш усулларида фойдаланилди. 2017-2021 йилларда республикада қўшилган қиймат солиғи бўйича занжири яратилиши борасида амалга оширилган ислохотлар ва солиқ имтиёзлари, давлат томонидан тартибга солинадиган ижтимоий аҳамиятга молик товарларга (хизматларга) қўшилган қиймат солиғининг таъсири таҳлил қилинди.

4. Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.

Қўшилган қиймат солиғи - ишлаб чиқариш ва тақсимлашдан тортиб истеъмолчига, сотишгача бўлган жараёнда ҳар бир циклдан олиннадиган билвосита кўп поғанали солиқдир. Унинг объекти қўшилган қиймат, яъни маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи ёки хизматлар бажарувчи томонидан янги буюм ёки хизматни бажариш учун сотиб олинган хом ашё, материаллар ёки маҳсулотлар қийматида қўшилган қиймат ҳисобланади. Ушбу солиқ маҳсулот нархининг барча унсурларини чеклайди ва ишлаб чиқарувчини ишлаб чиқариш чиқимларини камайтиришга ундайди.

Қўшилган қиймат солиғи бўйича ҳисоб-китоблар жараёнида давлат саноат ва савдо сармоясига айланиши суръатлари ҳақида маълумот олади, бу эса макроиқтисодий тартибга солинишини енгиллаштиради. Бундан ташқари, давлат товарнинг аҳоли - солиқнинг мазкур турининг ягона ва охириги тўловчисига сотилишига қадар даромад олиш имконига эга бўлади. Жаҳон амалиёти қўшилган қиймат солиғини ҳисоблашнинг деярли бир хил тизимини назарда тутди. Тўловчи ҳаридордан сотилган товарлар, бажарилган ишлар, кўрсатилган хизматлар учун солиқ суммаси ва етказиб берувчи томонидан моддий ресурслар, ёқилғи, ишлар учун тўланган ва улар қиймати ишлаб чиқариш ва айланма ҳаражатларга киритилган солиқ суммаси орасидаги фарқни тўлайди. Тўланиши керак бўлган солиқ манфий бўлиб чиқса, яъни бу солиқ кўпайиб кетса, қолдиқ бўлажак тўловлар ҳисобига киритилади ёки ривожланган мамлакатларда қабул қилинганидек, бюджетдан бошқа суммалар ҳисобига қопланади. Қўшилган қиймат солиғига асосланган солиқ тўлаш тизими солиқларни қисмларга ажратиб олиш имконини беради, чунки фирманинг барча сотувларидан солиқ олинади, бироқ оралиқдаги ҳаридлар учун тўланган солиқлар кейинчалик умумий суммадан қопланади.

“Солиқ кредити” сифатида таниш бўлган бу усул солиқ тизимига ўзини-ўзи тартибга солиш имконини беради, бу эса солиқлар олиш тартибини яхшилайтиди.

Қўшилган қиймат солиғининг асосий афзаллиги шундаки, ишлаб чиқаришнинг ҳар бир босқичида тўланган солиқ миқдорини ҳисоблаш мумкин. Бу мисол учун, экспорт учун солиқ чегирмаларини ҳисоблаш ва экспорт субсидиялари берилишида бузилишларнинг олдини олиш имконини беради. Бундан ташқари бундай кўп босқичли солиқлардан фойдаланиш ягона фирма тузилмаси ёки корхоналар уюшмаси доирасида маҳсулотлар ишлаб чиқаришда солиқ суммасини камайтиради ва шу тариқа фирмаларнинг вертикал интеграциясига туртки бўлади.

Қўшилган қиймат солиғи тўловчилари:

- солиқ солинадиган оборотларга эга бўлган юридик шахслар;
- норезидентлардан, яъни хорижий давлатлар компанияларидан иш ва хизматларни импорт қилаётган юридик шахслар;
- товарларни импорт қилувчи юридик ва жисмоний шахслар;
- ихтиёрий равишда қўшилган қиймат солиғини тўлашга ўтган ягона солиқ тўлови тўловчи юридик шахслар;
- оддий ширкат шартномаси бўйича солиқ солинадиган оборотларни амалга ошираётганда зиммасига унинг ишларини юритиш юклатилган (ишончли шахс) шерик (иштирокчи) юридик шахс;
- қурилиш ташкилотлари – қурилиш ишларини молиялаштиришнинг марказлаштирилган манбаларини жалб этган ҳолда танлов савдолари асосида амалга оширилаётган объектлар бўйича.

2019 йил 1 январдан бошлаб ўтган йил якуналари бўйича йиллик айланмаси (ялпи тушуми) 1 млрд. сўмдан ошган ёки жорий йил давомида ушбу белгиланган чегаравий миқдорга етган тадбиркорлик субъектлари қўшилган қиймат солиғи тўлашга ўтиш белгиланди (Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 2018).

1998 йилдан бошлаб маҳсулот (иш, хизматлар) жўнатилиши товарларнинг реализация қилинган деб ҳисобланади. Ҳозирги бозор муносабатларига ўтиш даврида корхоналар ва аҳоли даромадларининг жуда паст даражада бўлиши натижасида, давлат кўпроқ эгри солиқларни оширишга мажбур бўлмоқда. Лекин давлат ўз харажатларини қоплаш учун юқори даражага кўтариши салбий оқибатларга олиб келиши мумкин. Унинг маълум даражада иқтисодий асосланган, корхоналар молиявий ҳолатини ва аҳоли турмуши моддий даражасини нормал ҳолатда таъминлайдиган чегараси бўлиши лозим. Жисмоний шахслар даромад солиғи ундирилишда (тўғри солиқ) солиқ тўловчининг даромади даражаси, тўлов қобилияти ва бошқа эътиборга олинади. Қўшилган қиймат солиғида эса бундай ҳолатлар эътиборга олинмайди. Товарларни эҳтиёжини қондириш учун сотиб олган аҳоли бу солиқни тўлайверади.

Ҳисобга олинандиган сумма қўшилган қиймат солиғи тўловчининг танловига биноан алоҳида-алоҳида ва (ёки) мутаносиб усулда аниқланади.

Ҳисобга олинандиган қўшилган қиймат солиғи суммасини аниқлашнинг танланган усули календарь йил мобайнида ўзгартирилиши мумкин эмас.

Мутаносиб усул қўлланилганда ҳисобга олинандиган қўшилган қиймат солиғи суммаси солиқ солинадиган оборотнинг умумий оборот суммасидаги улушидан келиб чиқиб аниқланади. Алоҳида-алоҳида усул қўлланилганда қўшилган қиймат солиғи тўловчи солиқ солинадиган ва солиқ солинмайдиган оборот мақсадларида фойдаланиш учун олинган товарлар юзасидан харажатлар ҳамда қўшилган қиймат солиғи суммалари бўйича алоҳида-алоҳида ҳисоб юритади. Бунда алоҳида-алоҳида ҳисобни юритиш имкони бўлмаган умумий харажатлар бўйича харажатларни тақсимлаш мутаносиб усулда амалга оширилади.

Қўшилган қиймат солиғи ўзининг ўрни бўйича бюджетнинг даромад қисмини шакллантиришда, республика ва корхоналар иқтисодига таъсири, нархлар

пропорциясини аниқлашда улардан ўтиб кетди. Қўшилган қиймат солиғи қўлланила бошланган вақтдан hozirги кунгача бўлган даврда Ўзбекистон давлати бюджетининг асосий манбаларидан бирига айланди. Ўтган даврлар ичида қўшилган қиймат солиғи ставкаси 1992 йилда амал қилган 30 фоиздан 1997 йилга келиб 18 фоизгача туширилди ва 1998 йилдан бошлаб 20 фоиз қилиб белгиланиб, ушбу ставка 2019 йилнинг 1 октябрь ойигача сақланиб қолинди. 2019 йил 1 октябрдан (Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 2019) 15 фоиз, 2023 йилнинг январидан (Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 2022) эса 12 фоизлик ставкага туширилди. Ҳозирги вақтда амалиётда “ноллик” ставка ҳам қўлланилмоқда.

1-жадвал

Дунё мамлакатларида қўшилган қиймат солиғи ставкаларининг ҳолати

Қитъа	ҚҚСнинг ўртача фоиз ставкаси	Юқори фоиз ставкаси	Паст фоиз ставкаси
Европа	19,98	27,00	3,00
Америка	16,33	23,00	10,00
Осиё	10,47	15,00	5,00
Африка	11,75	15,00	6,00
Австралия	10,00	10,00	10,00
Ўзбекистон	15,0		

Юқоридаги жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики қўшилган қиймат солиғининг энг юқори ставкаси ўрнатилган давлатлар Европа қитъасидаги Венгрия давлати (27 %), Дания, Норвегия, Швеция давлатларида (25 %) ҳиссасига тўғри келса, энг паст ставка Жерси ороли (3 %)га тегишли.

Марказий осие давлатларидан Тожикистон Республикаси ва Туркменистон Республикаларида қўшилган қиймат солиғи 15 фоизлик ставкада, қолган қўшни давлатларда 12 фоизни ташкил этади.

Умуман солиқлар ва мажбурий тўловлар ставкаларини пасайтирилиши, уларни ундириш механизмларининг такомиллашиши амалдаги солиқ юкининг камайишига ва бюджетга тўловларнинг ўз вақтида келиб тушишига ижобий таъсир кўрсатади. Бугунги кунда ягона солиқ тўлови тўлайдиган кичик корхона ва микрофирмаларни солиққа тортиш жараёнида қўшилган қиймат солиғини қўллаш, ҳисоблаш ва ундириш тартибидаги айрим муаммоларнинг мавжудлиги, ушбу соҳада фаолият олиб бораётган кичик корхоналарнинг ихтиёрий равишда ҚҚС тўлашга ўтишлари мумкинлиги белгилаб қўйилган.

Қўшилган қиймат солиғининг ставкаси пасайишига қарамасдан, унинг суммаси 2018 йилда 27,9 трлн.сўм бўлган бўлса, 2023 йилда 57,9 трлн сўмни, ташкил этган (2-жадвал).

2-жадвал

2018-2023 йилларда давомида қўшилган қиймат солиғи тушумлари динамикаси, трлн.сўм

Кўрсаткичлар	2018	2019	2020	2021	2022	2023
ЯИМ	426,6	532,7	605,5	738,4	888,3	1 066,6
Бюджет даромадлари	79,1	112,2	132,9	164,8	202,0	231,7
ҚҚС	27,9	33,8	31,2	38,4	52,2	57,9
ҚҚСни жами даромаддаги улуши	35,3	30,1	23,5	23,3	25,8	24,9

ҚҚСни тўлашга ўтиш учун юридик шахслар ҳисобот даври (чораги) бошланишидан камида бир ой аввал, янги ташкил этилган юридик шахслар эса – фаолият кўрсата

бошлагунга қадар солиқ бўйича ҳисобга олиш жойидаги давлат солиқ хизмати органига ёзма билдириш тақдим этади.

Сўнгги йиллардаги солиқ сиёсатининг таҳлили давлат бюджетининг даромадлари таркибида эгри солиқлар улушининг анча ўсаётганини ҳамда тўғри солиқлар салмоғининг камаяётганини кўрсатмоқда.

5. Хулоса.

Кўшилган қиймат солиғини тўлаш механизми ички ва айниқса ташқи солиққа тортишда - мўлжалланган жойига қараб халқаро стандартларга мувофиқлаштирилди. Кўшилган қиймат солиғи бўйича ягона ставканинг қабул қилиниши ҳисоб ва ҳисобкитоб жараёнларини анча соддалаштирди. Бундан ташқари, ҳисобварақ фактуралар тизимининг жорий этилиши солиқ ҳисоби ва ҳисоблаб чиқарилиши устидан назоратга автоматик тус берди. Бироқ бунда асосий муаммо - кўшилган қиймат солиғи тўлашдан озод қилиш муаммоси ҳал этилмай қолмоқда. Бундан солиққа тортишнинг асосий тамойилларидан бири – адолатлилик тамойили бузилмоқда, чунки ушбу солиқни тўламайдиганлардан маҳсулот сотиб олувчи, мазкур солиқ тўловчиларининг солиқ юки ортмоқда. Шу тариқа кўшилган қиймат солиғини бирхиллаштириш ва соддалаштириш масаласида келгусида унга доир барча имтиёз ва истисноларни бекор қилиш асосий йўналиш тусига эга бўлади. Мазкур солиқ давлатга жуда қулай ва “арзон” тушади. Чунки корхона ва ташкилотлар фойда олиши ёки олмаслигидан қатъий назар товарлар сотилиши билан бюджетга келиб тушади, яъни бюджет даромадларининг узлуксизлигини таъминлайди.

Адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси Президенти, 2022. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 20 декабр 2022 йилдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.

Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши, 1991. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Қарори, 15.02.1991 йил 226-ХII-сон.

Абдуллаев, А.Б., 2020. Солиқ тўловлари ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. Диссертация. Тошкент, бет 69.

Бортникова, И.М. (сост.), 2018. Налоги и налогообложение: учебное пособие. Персиановский: Донской ГАУ.

Комилов, М.М., 2020. Кўшилган қиймат солиғи маъмурчилигини такомиллаштириш – бюджет даромадлари барқарорлигини таъминлаш омилдир. Иқтисодиётда инновациялар – Инновации в экономике – Innovations in economy, №5.

Пансков, В.Г., 2015. Изменение порядка зачисления средств НДС: введение НДС-счетов. Вестник АКСОР, № 3(35), с.17–18.

Алимарданов, М.И. и Абдуллаев, Б.Н., 2015. Кўшилган қиймат солиғини такомиллаштириш масалалари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, №6 (ноябрь–декабрь).

Ташмурадова, Б.Э., 2021. Кўшилган қиймат солиғи базасини аниқлаш ва ҳисоблаш хусусиятлари. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №3 (май–июн).

Ниязметов, И.М., Сафаров, У.А. и Раджапов, Х.Ж., 2021. Кўшилган қиймат солиғи механизмини такомиллаштириш. Логистика ва иқтисодиёт, №2.

Ўзбекистон Республикаси Президенти, 2018. Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида ПФ–5468-сон, 29.06.2018 й.

Ўзбекистон Республикаси Президенти, 2019. Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида ПФ-5837-сон, 26.09.2019 й.

Ўзбекистон Республикаси, 2022. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 30.12.2022 йилдаги ЎРҚ-813-сон.

Джалилов, Р.Х., 2022. Нормативно-правовая база по порядку организации камерального контроля в Республике Узбекистан и ее значение. Экономика и социум, №103.



АСОСИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Иқтисод фанлари доктори, профессор Курбанов З.Н.
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Санокулова Н.
Тошкент давлат иқтисодиёт университети*

Аннотация. Мақолада рақамли иқтисодиёт шароитида асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисоби қандай ташкил этилади ва унинг методологиясида рўй берадиган ўзгаришлар ёритилган. Асосий воситаларнинг бошланғич қийматини БҲМС ва МҲХС асосида шакллантирилиши кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: рақамли иқтисодиёт, бухгалтерия ҳисоби, асосий восита, бошланғич қиймат, МҲХС.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы организации учета основных средств в условиях цифровой экономики и изменения его методологии. Показано, что первоначальная стоимость основных средств формируется на основе НСБУи МСФО.

Ключевые слова: цифровая экономика, бухгалтерский учет, основные средства, первоначальная стоимость, МСФО.

Annotation. The article considers the issues of organizing the accounting of fixed assets in the digital economy and changes in its methodology. It is shown that the initial cost of fixed assets is formed on the basis of NAS and IFRS.

Keywords: digital economy, accounting, fixed assets, initial cost, IFRS.

1. Кириш.

Мамлакатимизда асосий воситалар ҳисобини такомиллаштириш ва уни (БҲХС) 16 - сонли “Асосий воситалар” стандартига мувофиқлаштириш, асосий воситалар ҳисобини ташкил этиш ва уни такомиллаштириш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда. Лекин ушбу соҳада ечимини кутаётган масалалар жуда кўплиги ва жаҳондаги тажриба ҳамда илмий ютуқларни ўрганиш асосида асосий воситаларни баҳолаш, уларнинг ҳолати ва таркибини ўрганиш натижасида активларни бошқариш бўйича тўғри ва аниқ қарорлар қабул қилиш, асосий воситаларни назорати ҳамда унинг самарадорлигини оширишга қаратилган илмий ва амалий тадқиқотлар олиб бориш зарурати вужудга келмоқда. Жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув жараёнида “Асосий воситалар” номли (БҲХС) 16-сонли стандарт асосида ҳисобга олиш, уларнинг эскиришини тегишли бошқарув билан боғлиқ харажатларга тўғри акс эттириш молиявий натижаларни тўғри аниқлаш имконини беради.

Ўзбекистонда асосий воситаларнинг таркибий қисми бўлган кўчмас мулк объектларининг ҳуқуқий асослари Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси ва Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 1 мартдаги “Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида”ги ЎРҚ-803 сон қонуни билан мустаҳкамланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 5 мартдаги “Кўчмас мулкни оммавий баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-43-сон фармонида кўчмас мулк объектларининг солиқ солиш, олди-сотди қилиш, гаровга қўйиш, жамоат эҳтиёжлари учун олиб қўйиш ва бошқа ҳолатлар учун аниқланадиган қиймати ўзаро мутаносиб бўлишини таъминлаш мақсадида 2025 йилдан бошлаб босқичма-босқич барча кўчмас мулк объектлари уларнинг бозор нархига яқин бўлган қийматини аниқлаш мақсадида даврий равишда оммавий баҳолашдан ўтказилиши белгиланган (Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармон, 2025). Кўчмас мулк объектлари бухгалтерия ҳисобининг объекти сифатида тан олинади. Кўчмас мулкни баҳолаш, бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва амалиётга МҲХСларини қўллаш, кўчмас мулк объектларининг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштиришни муҳимлигини белгилайди. Кўчмас мулк объектларини баҳолашда бозор қийматига яқин бўлган кадастр қийматини ҳисоблашнинг аниқ методикаси ишлаб чиқилмаганлиги, солиққа тортиладиган кўчмас мулк объектларининг рўйхати тўлиқ шаклланмаганлиги, уларнинг молиявий ҳисобини ташкил этишда МҲХСларини амалиётда тўлиқ қўлланилмаётганлиги долзарб бўлиб қолмоқда.

2. Адабиётлар шарҳи.

Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелдаги “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги ЎРҚ-404-сон қонуни 17-моддасида активларни, шу жумладан, асосий воситаларни баҳолаш бўйича қуйидаги норма келтирилган: Асосий воситалар ва номоддий активлар уларнинг бошланғич (қайта тикланиш) қиймати бўйича ҳисобга олинади” (Ўзбекистон Республикасининг Қонун, 2016).

Ўзбекистон Республикасининг бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти 5-сонли “Асосий воситалар” БҲМСда бошланғич қийматга қуйидагича изоҳ берилган: “Бошланғич қиймат-асосий воситаларни яратиш (қуриш ва қуриб битказиш) ёки харид қилиш бўйича қилинган харажатларнинг қиймати, шу жумладан тўланган ва қопланмайдиган солиқлар (йиғимлар), шунингдек активни ундан мақсадга мувофиқ фойдаланиш учун ишчи ҳолатига келтириш билан бевосита боғлиқ бўлган етказиб бериш ва монтаж қилиш, ўрнатиш, ишга тушириш ва исталган бошқа харажатлар” Шунингдек, бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти 5-сонли “Асосий воситалар” БҲМСда бухгалтерия ҳисобида асосий воситалар бошланғич қиймат бўйича ҳисобга олиниши белгилаб қўйилган: “Асосий воситалар корхона балансига бошланғич қиймати бўйича киритилиши лозим ва у харид қилиш қиймати (етказиб берувчига тўланган сумма) ҳамда асосий воситаларни харид қилиш билан боғлиқ барча харажатларни ўз ичига олади” (БҲМС, 2024).

Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти (IAS) 16 "Асосий воситалар"да асосий воситалар - бу қуйидаги мезонларга жавоб берадиган моддий активлардир:

(а) маҳсулотларни ишлаб чиқариш ёки етказиб бериш ёки хизматлар кўрсатиш ёки бошқа томонларга ижарага бериш ёхуд маъмурий мақсадларда фойдаланиш учун тутиб туриладиган; ва

(б) бир даврдан ортиқ муддат давомида фойдаланилиши кутиладиган.

Асосий восита объектларининг бошланғич қиймати қуйидагилардан ташкил топади:

(а) сотиб олиш нархи, шунингдек савдо чегирмалари ва қисман қайтаришларни (рибейт) чиқариб ташлаган ҳолда импорт божлари ва қопланмайдиган солиқ суммаси; ва

(б) активни ундан раҳбарият томонидан назарда тутилган ҳолда фойдаланиш учун зарур бўлган жой ва ҳолатга келтириш билан боғлиқ бевосита сарфлар.

(в) асосий восита харид қилинган пайтда ёки ундан маълум давр мобайнида захираларни ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлмаган мақсадларда фойдаланиш даври мобайнида асосий восита объектини демонтаж қилиш ва олиб ташлаш ҳамда у

жойлашган жойдаги табиий ресурсларни қайта тиклаш учун қилинадиган сарфлар бўйича мажбуриятни ўз зиммасига олган ташкилотнинг ушбу сарфларнинг дастлабки ҳисоб баҳоси (МҲХС, 2022).

Вақтинчалик фойдаланиш учун ҳақ эвазига бериш ва (ёки) унинг қийматини оширишдан даромад олиш учун мўлжалланган кўчмас мулк бўлган асосий воситалар асосий воситаларнинг алоҳида гуруҳини (кейинги ўринларда инвестиция кўчмас мулки деб юритилади) ташкил этади (Приказ Минфина России, 2020).

Асосий воситаларни ҳисобга олишнинг асосий масалалари — бу активларни тан олиш, уларнинг баланс қийматини аниқлаш ва тан олиниши керак бўлган тегишли амортизация ва қадрсизланиш тўловлари (Министров Респ. Беларусь и Нац. банка Респ. Беларусь, 2017).

Н.Ф.Ишанқулов (2024) ўзининг илмий ишларида кўчмас мулкни баҳолаш ёндашувларини тадқиқ этиб, қуйидаги ёндашувларни эътироф этган: қиёсий ёндашув, даромад ёндашуви ва харажат ёндашуви. Кўчмас мулк объектлари қиймати учун корреляция-регрессия таҳлили усулининг қўлланишини таклиф қилган .

У.Т.Тўлаков (2024) кўчмас мулкни баҳолаш борасида қуйидагиларни такидлайди: Оммавий баҳолаш, индивидуал баҳолаш каби, баҳолашнинг маълум бўлган: қиёсий, харажат ва даромадли ёндашувларидан фойдаланишни назарда тутати. Ушбу баҳолаш ёндашувларининг (усулларининг) ҳар бири, моҳиятан, энг эҳтимолий қиймат, аналог объектларнинг қийматлари ва қийматни шакллантирувчи омиллар ўртасидаги боғлиқликни ўрнатадиган қандайдир математик моделни қуриш процедурасини ифодалайди .

Россиялик иқтисодчи Л.В.Слезко (2020) ўзининг илмий-тадқиқот ишларида “Россия Федерациясида кўчмас мулк бозорини баҳолашга оид бўлган баҳолаш ёндашувлари корпорациянинг кўчмас мулкни бизнес қийматини ошириш нуқтаи назаридан баҳолашда даромадли ёндашув (пул оқимларини дисконтлаш) усули энг мос келишини таъкидлаган”.

3. Тадқиқот методологияси.

Мақолада асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисобининг объекти эканлиги, унинг қийматини аниқлаш ва ҳисоби МҲХСлари асосида такомиллаштириш масалалари илмий жиҳатдан таҳлил қилинган. Асосий восита тушунчасига иқтисодчи олимлар томонидан берилган таърифлар ва меъёрий ҳужжатлардага келтирилган нормалар илмий жиҳатдан ўрганилган. Тадқиқотни амалга оширишда индукция, дедукция, статистик кузатиш, статистик ва солиштирма таҳлил усулларидан фойдаланилган.

4. Таҳлил ва натижалар.

Жаҳон амалиётида асосий воситалар ҳисобини ташкил этишдаги асосий муаммо бу уларнинг бошланғич қийматини тўғри шакллантириш ва амортизация ажратмасини тўғри ҳисоблаш бўлиб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 14 июндаги Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (5-сонли БҲМС) «Асосий воситалар»ни тасдиқлаш ҳақида 133-сон буйруғи билан тасдиқланган ва Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 9 август рўйхатдан рақами 3546 ўтказилган стандартда бошланғич қиймати - асосий воситаларни яратиш (қуриш ва қуриб битказиш) ёки харид қилиш бўйича қилинган харажатларнинг қиймати, шу жумладан тўланган ва қопланмайдиган солиқлар (йиғимлар), шунингдек активни ундан мақсадга мувофиқ фойдаланиш учун ишчи ҳолатига келтириш билан бевосита боғлиқ бўлган етказиб бериш ва монтаж қилиш, ўрнатиш, ишга тушириш учун қилинган бошқа харажатлар деб эътироф этилган.

Шунингдек, асосий воситаларнинг бошланғич қиймати харид қилиш қиймати (етказиб берувчига тўланган сумма) ҳамда асосий воситаларни харид қилиш билан боғлиқ барча харажатларни ўз ичига олиши белгиланган.

Асосий воситаларни харид қилиш билан боғлиқ харажатларга қуйидагилар киради:

рўйхатга олиш йиғимлари, давлат божлари ва асосий воситаларга бўлган ҳуқуқни харид қилиш (олиш) бўйича амалга оширилган бошқа шунга ўхшаш тўловлар;

божхона божлари ва йиғимлари;

асосий воситаларни харид қилиш (яратиш) муносабати билан солиқлар ва йиғимлар суммалари (агар улар қопланмаса);

асосий воситаларни харид қилиш (яратиш) билан боғлиқ ахборот ва маслаҳат хизматлари учун тўланадиган суммалар;

асосий воситаларни етказиб бериш (яратиш) хатарини суғурталаш бўйича харажатлар;

асосий воситалар воситачилар орқали олинганда, уларга тўланадиган мукофотлар;

асосий воситаларни ўрнатиш, монтаж қилиш, созлаш ва ишга тушириш харажатлари;

активдан мақсадга мувофиқ фойдаланиш учун уни ишчи ҳолатга келтириш билан бевосита боғлиқ бўлган бошқа харажатлар.

Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти (IAS) 16 “Асосий воситалар”да асосий восита объектининг бошланғич қиймати қуйидагилардан ташкил топиши белгиланган:

а) сотиб олиш нархи, шунингдек савдо чегирмалари ва қисман қайтаришларни (рибейт) чиқариб ташлаган ҳолда импорт божлари ва қопланмайдиган солиқ суммаси; ва

(б) активни ундан раҳбарият томонидан назарда тутилган ҳолда фойдаланиш учун зарур бўлган жой ва ҳолатга келтириш билан боғлиқ бевосита сарфлар.

(в) асосий восита харид қилинган пайтда ёки ундан маълум давр мобайнида захираларни ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлмаган мақсадларда фойдаланиш даври мобайнида асосий восита объектини демонтаж қилиш ва олиб ташлаш ҳамда у жойлашган жойдаги табиий ресурсларни қайта тиклаш учун қилинадиган сарфлар бўйича мажбуриятни ўз зиммасига олган ташкилотнинг ушбу сарфларнинг дастлабки ҳисоб баҳоси.

Асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисобида тан олиш мезонлари ва бошланғич қиймат таркибини 5-БҲМС билан 16-МҲХСдаги асосий нормаларни таққосламаси 1-жадвалда келтирилган.

Жадвалда келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисобида тан олиш мезонлари ва бошланғич қийматнинг таркибини 5-БҲМС билан 16-МҲХСдаги асосий нормалар бир бирига уйғунлаштирилган.

**Асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисобида тан олиш мезонлари ва бошланғич қиймат таркибини
5-БҲМС билан 16-МҲХС даги асосий нормаларни таққослама жадвали**

Кўрсаткичлар номи	16 - МҲХС “Асосий воситалар”	5-сонли БҲМС “Асосий воситалар”
<p align="center">Асосий воситалар тушунчаси ва тан олишнинг мезонлари</p>	<p>Компания томонидан товар ва хизматларни ишлаб чиқариш ёки етказиб бериш, бошқа компанияларга ижарага бериш ёки маъмурий мақсадлар учун фойдаланадиган ва бир муддатдан кўпроқ фойдаланилиши кутилаётган моддий бойликлар (16-IAS) 16-бандининг 6-банди). Активларни тан олиш мезонлари: Асосий воситалар объектининг таннархи фақатгина қуйидаги шартлар бажарилганда актив сифатида тан олинади:</p> <p>а) тадбиркорлик субъекти томонидан асосий восита билан боғлиқ келгуси иқтисодий наф олинishi эҳтимоли мавжуд бўлса;</p> <p>б) активнинг таннархи ишончли баҳолана олса.</p>	<p>Асосий воситалар — ташкилотнинг узоқ муддат давомида (бир йилдан ортиқ) хўжалик фаолиятини юритишда маҳсулот ишлаб чиқариш, ишларни бажариш ёки хизматлар кўрсатиш жараёнида ёхуд маъмурий ва ижтимоий-маданий вазифаларни бажариш жараёнида фойдаланиладиган, шунингдек ижарага бериш мумкин бўлган моддий активлар.</p> <p>Асосий воситалар актив сифатида тан олинади, агар:</p> <p>ташкилотга мазкур актив билан боғлиқ келгуси иқтисодий нафлар келиши эҳтимоли мавжуд бўлса;</p> <p>активнинг бошланғич қийматини аниқ баҳолаш мумкин бўлса.</p>
<p align="center">Асосий воситаларнинг бошланғич қиймати таркиби</p>	<p>Асосий восита объектининг бошланғич қиймати қуйидагилардан ташкил топади:</p> <p>а) сотиб олиш нархи, шунингдек савдо чегирмалари ва қисман қайтаришларни (рибейт) чиқариб ташлаган ҳолда импорт божлари ва қопланмайдиган солиқ суммаси; ва</p> <p>(б) активни ундан раҳбарият томонидан назарда тутилган ҳолда фойдаланиш учун зарур бўлган жой ва ҳолатга келтириш билан боғлиқ бевосита сарфлар.</p> <p>(в) асосий восита харид қилинган пайтда ёки ундан маълум давр мобайнида захираларни ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлмаган мақсадларда фойдаланиш даври мобайнида асосий восита объектини демонтаж қилиш ва олиб ташлаш ҳамда у жойлашган жойдаги табиий ресурсларни қайта тиклаш учун қилинадиган сарфлар бўйича мажбуриятни ўз зиммасига олган ташкилотнинг ушбу сарфларнинг дастлабки ҳисоб баҳоси.</p>	<p>Асосий воситалар бошланғич қиймат бўйича ҳисобга олинади.</p> <p>Асосий воситаларни харид қилиш билан боғлиқ харажатларга қуйидагилар кирради:</p> <p>рўйхатга олиш йиғимлари, давлат божлари ва асосий воситаларга бўлган ҳуқуқни харид қилиш (олиш) бўйича амалга оширилган бошқа шунга ўхшаш тўловлар;</p> <p>божхона божлари ва йиғимлари;</p> <p>асосий воситалар объектларини харид қилиш (яратиш) муносабати билан солиқлар ва йиғимлар суммалари (агар улар қопланмаса);</p> <p>асосий воситалар объектларини харид қилиш (яратиш) билан боғлиқ ахборот ва маслаҳат хизматлари учун тўланадиган суммалар;</p> <p>асосий воситалар объектларини етказиб бериш (яратиш) хатарини суғурталаш бўйича харажатлар;</p> <p>асосий воситалар объекти воситачилар орқали олинганда уларга тўланадиган мукофотлар;</p> <p>асосий воситаларни ўрнатиш, монтаж қилиш, созлаш ва ишга тушириш харажатлари;</p> <p>активдан мақсадга мувофиқ фойдаланиш учун уни ишчи ҳолатга келтириш билан бевосита боғлиқ бўлган бошқа харажатлар.</p>

5. Хулоса.

Асосий воситаларни баҳолашда бозор қийматига яқин бўлган кадастр қийматини ҳисоблашнинг аниқ методикаси ишлаб чиқилмаганлиги, солиққа тортиладиган кўчмас мулк объектларининг рўйхати тўлиқ шаклланмаганлиги, уларнинг молиявий ҳисобини ташкил этишда МҲХСларини амалиётда тўлиқ қўлланилмаётганлиги долзарб масалалардан ҳисобланади.

Ҳозирги вақтда асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисобида тан олиш мезонлари ва бошланғич қийматнинг таркибини 5-БҲМС билан 16-МҲХСдаги асосий нормалар бир бирига уйғунлаштирилган.

Хўжалик юритувчи субъектлар асосий воситаларнинг бошланғич қиймати ва амортизация ажратмасини ҳисоблаш тартибини ўзининг ҳисоб сиёсатида белгилаш мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар:

Фармон, 2025. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 5 мартдаги “Кўчмас мулкни оммавий баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-43-сон фармони.

Қонун, 2016. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелдаги “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги (янги таҳрири) ЎРҚ-404-сон Қонун, 17-модда.

БҲМС, 2024. Ўзбекистон Республикасининг Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти 5-сонли “Асосий воситалар”. Иқтисодиёт ва молия вазирининг 2024 йил 14 июндаги 133-сон буйруғи билан тасдиқланган.

МҲХС, 2022. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти (IAS) 16 “Асосий воситалар”. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2022 йил 9 декабрда 3400-сон билан рўйхатга олинган. Молия вазирининг 2022 йил 10 ноябрдаги 61-сон буйруғи.

Минфин России, 2025. Приказ Минфина России от 17.09.2020 N 204н (ред. от 30.05.2022) "Об утверждении Федеральных стандартов бухгалтерского учета ФСБУ 6/2020 "Основные средства" и ФСБУ 26/2020 "Капитальные вложения". Зарегистрировано в Минюсте России 15.10.2020 N 60399.

Совет Министров РБ и Нацбанк РБ, 2023. О введении в действие на территории Республики Беларусь Международных стандартов финансовой отчетности и их Разъяснений. Постановление от 19 авг. 2016 г. № 657/20 (в ред. от 20 дек. 2017 г. № 974/15). iLex (BY) [Электронный ресурс]. Минск: ООО «ЮрСпектр».

Ишонқулов, Н.Ф., 2024. Кўчмас мулк қийматини баҳолашдаги услубий ёндашувлар. Барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш масалалари, 24 май, 121–132 б.

Тўлаков, У.Т., 2024. Кўчмас мулкни солиққа тортишда қийматни баҳолаш усуллари. Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил, XII (декабр), pp.389–399.

Слезко, Л.В., 2020. Оценка недвижимого имущества в системе корпоративного управления собственностью. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва.



БАРҚАРОРЛИК БУХГАЛТЕРИЯ СТАНДАРТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ

*Иқтисод фанлари доктори, профессор Курбанов З.Н.
Тошкент давлат иқтисодиёт университети*

Аннотатсия. Ушбу мақолада молиявий ҳисобнинг барқарорлик стандартларининг назарий масалалари ёритилган. Халқаро барқарорлик стандартларини амалиётга жорий этишнинг хориж тажрибасидан фойдаланилган ҳолда бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш бўйича таклифлар берилган.

Калит сўзлар: бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисобот, барқарорлик стандарти, IFRS S1, IFRS S2.

Аннотатсия. В статье рассматриваются теоретические вопросы стандартов устойчивости финансового учета. Даны предложения по совершенствованию учета с использованием зарубежного опыта внедрения международных стандартов устойчивого развития.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, финансовая отчетность, стандарт устойчивого развития, IFRS S1, IFRS S2.

Annotation. The article examines theoretical issues of financial accounting sustainability standards. Proposals are given for improving accounting using foreign experience in implementing international sustainable development standards.

Keywords: accounting, financial reporting, sustainability standard, IFRS S1, IFRS S2.

1. Кириш.

Молиявий ҳисоботнинг барқарорлик стандартлари Марказий Осиё мамлакатлари учун нисбатан янги тушунчадир. Шу сабабли, "муҳим маълумотлар" нимадан иборатлиги ва уни қандай қилиб тўғри тарзда ошкор қилиш ҳақида баъзи бир дастлабки тушунмовчиликлар келиб чиқади. Бу муаммоларни бартараф этиш хорижий сармойани жалб қилишни режалаштираётган компаниялар учун энг муҳим ҳисобланади. ISSB стандартларига (IFRS S1 ва IFRS S2) мувофиқ ахборотни ошкор қилиш халқаро инвесторлар ўртасида ишончни ошириш учун зарур қадам бўлмоқда.

Мамлакатимиз иқтисодиётини рақамлаштириш жараёни бухгалтерия ҳисобининг назарий масалалари қайта кўриб чиқиш заруриятини келтириб чиқармоқда. Бу шароитда бухгалтерия ҳисобининг мавжуд моделларини, объекти ва методларини иқтисодиётини рақамлаштириш жараёнига мослаштириш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва молиявий ҳисобот шакллари молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига уйғунлаштириш зарур.

Жаҳонда рўй бераётган жадал глобаллашув жараёнига мамлакатимиз иқтисодиётини мослашувини талаб қилади. Глобал инвестиция портфелига эга халқаро инвесторлар компаниялар томонидан иқлим ва бошқа экологик, ижтимоий ва бошқарув

масалалари бўйича юқори сифатли, шаффоф, ишончли ва қиёсланувчан ҳисоботларни талаб қилмоқдалар. Молиявий ҳисоб тизимини замонавий талаблар ва халқаро стандартларга мувофиқлаштириш йўналишларидан бири бўлиб, молиявий ҳисоботнинг барқарорлик стандартлари (IFRS Sustainability Standards)ни ўрганиб, мамлакатимиз амалиётига жорий этишдир.

Молиявий ҳисоботнинг барқарорлик стандартлари Барқарорлик бухгалтерия стандартлари Кенгаши (SASB - Sustainability Accounting Standards Board) томонидан ишлаб чиқилади ва амалиётга жорий этиш бўйича тавсия беради. Барқарорлик бухгалтерия стандартлари Кенгаши (SASB) мустақил нотижорат ташкилот бўлиб, унинг вазифаси давлат корпорацияларига сармоядорлар учун муҳим, қарор қабул қилиш учун фойдали маълумотларни ошкор қилишда ёрдам берадиган барқарорлик ҳисоби стандартларини ишлаб чиқиш ва тарқатишдан иборат. Ушбу миссия далилларга асосланган тадқиқотлар ва манфаатдор томонларнинг кенг, мувозанатли иштирокини ўз ичига олган жараён орқали амалга оширилади.

SASB барқарорлик учун реал секторга хос асосий самарадорлик кўрсаткичларини (KPI) ишлаб чиқди, бу эса корпоратив ҳисоботида атроф-муҳитга оид маълумотларни тақдим этиш тамойилларини тўлдиради. Компанияларнинг барқарорлик, ижтимоий ва атроф-муҳитга таъсирини аниқ ва шаффоф тарзда ҳисобот қилиш, инвесторлар ва манфаатдор томонлар учун муҳим қарорлар қабул қилиш, глобал барқарорлик талабларига мослашиш ҳамда экологик ва ижтимоий масъулиятни ошириш орқали узоқ муддатда муваффақиятга эришиш имконини беради.

2. Адабиётлар шарҳи.

Халқаро барқарорлик стандартлари кенгаши (International Sustainability Standards Board-ISSB) раиси Эммануель Фаберни (2024) такидлашича: “Йирик иқтисодиётлардан тортиб, ривожланаётган бозорларгача, Бразилия, Коста-Рика, Япония, Нигерия ва Буюк Британия каби дунёнинг юрисдикциялари ISSB стандартларини тан олади. Уларнинг тартибга солиш жараёнларини яқунлашни қўллаб-қувватлаш, шунингдек, бутун дунё бўйлаб бошқа юрисдикциялар билан ҳамкорлик қилиш бизнинг яқин келажакда мутаносиб ва юқори сифатли барқарорлик билан боғлиқ молиявий ошкор қилиш учун глобал асос яратишда устувор вазифамиздир. 20 дан ортиқ юрисдикция аллақачон ИССБ стандартларини ўзларининг ҳуқуқий ёки меъёрий базаларига қўллашга қарор қилган ёки уларни жорий қилиш чораларини кўрмоқда”.

Е.Нестеренкони (2025) ёзишича “2023 йил июн ойида IFRS Кенгаши биринчи марта барқарорлик билан боғлиқ иккита янги стандартни чиқарди: IFRS S1 “Барқарорлик билан боғлиқ молиявий маълумотларни ошкор қилиш учун умумий талаблар” ва IFRS S2 “Иқлим билан боғлиқ маълумотларни очиб бериш”. Улар барқарорлик ва иқлим ўзгариши билан боғлиқ бўлган хавф ва имкониятлар тўғрисидаги маълумотларни ошкор қилиш талабларини белгилайди, улар корхонанинг пул оқимиغا, молиялаштиришга киришига ёки капитал қийматига таъсир қилади”.

Е.Зибареванинг (2025) фикрича, “IFRS S1 барқарорлик рисклари ва имкониятларини ва ошкор этилиши керак бўлган тегишли маълумотларни аниқлаш бўйича кўрсатмалар беради. Ушбу мақсадга эришиш учун IFRS S1 корхоналардан корхонага таъсир қилувчи барча муҳим барқарорлик рисклари ва имкониятларини аниқлаш ва ошкор қилиш учун икки босқичли жараённи бажаришни талаб қилади:

- биринчи қадам барқарорлик билан боғлиқ рискларни ва бизнесга қисқа, ўрта ва узоқ муддатда таъсир кўрсатиши мумкин бўлган имкониятларни аниқлашга ёрдам беради.

- иккинчи қадам 1-қадамда белгиланган барқарорлик билан боғлиқ рисклар ва имкониятлар ҳақида қандай маълумотларни ошкор қилиш кераклигини аниқлашга ёрдам беради”.

Н.Г.Сапожникова ва М.В. Ткачеваларнинг (2024) баён этишича: “IFRS S1 корпорация томонидан фойдаланиладиган ресурслар таркибини белгилайди: табиий, ишлаб чиқариш, интеллектуал, инсоний, ижтимоий, молиявий. Ресурслар мазмунини ошкор қилиш зарурати қайд этилган:

- ички - ноу-хау, ташкилий жараёнлар, ходимларнинг малакаси;

- ташқи - этказиб берувчилар, дистрибюторлар, мижозлар билан ўзаро алоқалар, шерик компанияларга инвестициялар, қўшма корхоналар. IFRS S1 га мувофиқ молиявий ҳисоботдаги маълумотлар қуйидагиларни таъминлайди:

- корпоратсиянинг ривожланиш истиқболларига таъсир этувчи хавф ва имкониятларни аниқлаш;

- ҳар бир хавфга нисбатан қиймат занжири кўламини баҳолаш”.

А.А.Нестерова (2023) ўзини муносабатини қуйидагича билдирган: “Барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш билан боғлиқ молиявий маълумотлар умумий мақсадли молиявий маълумотларнинг бир қисми бўлса, у ҳолда IFRS S1 у тизимни шакллантирувчи ҳужжат ва барча МҲХС фалсафаси бўлган Молиявий ҳисоботларни тақдим этишнинг концептуал асосларида тасвирланган сифат хусусиятларига мос келиши кераклиги таъкидланади. Барқарорлик билан боғлиқ молиявий маълумотлар умумий мақсадли молиявий ҳисоботларнинг бир қисми сифатида эълон қилиниши керак, шунда бундай ҳисоботларни тақдим этиш орқали компания барқарорликни ошкор қилиш соҳасидаги МҲХСга тўлиқ мос келишини қўшимча равишда кўрсатади”.

Даря Гаева (2025) Қозоғистон компанияларини барқарорлик стандартларига ўтишни қуйидагича изоҳлайди, “Жорий (2025) йилдан бошлаб Молиявий бозорни тартибга солиш ва ривожлантириш агентлигининг молиявий ташкилотлар томонидан ESG маълумотларини ошкор қилиш бўйича талаблари Қозоғистонда мажбурий бўлиб қолди, шу жумладан IFRS S1 “Барқарорлик билан боғлиқ молиявий маълумотларни ошкор қилиш учун умумий талаблар” ва IFRS S2 “Иқлим билан боғлиқ маълумотларни очиб бериш”. Янги стандартлар барқарор ривожланиш хавфи ва имкониятлари, шунингдек, тегишли кўрсаткичлар ва мақсадлар тўғрисидаги маълумотларни ошкор қилишнинг ўзига хос хусусиятларини кўриб чиқади”.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқотимиз методологияси бўлиб, молиявий ҳисоботнинг барқарорлик стандартларининг назарий мамалалари билан боғлиқ иқтисодий муносабатлар ҳисобланади. Тадқиқот жараёнида жаҳон амалиёти ўрганилиб, назарий тадқиқот, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, таснифлаш ва эмпирик даражадаги кузатиш, тавсиф ва таққослаш каби асосий методлардан фойдаланилди.

4.Таҳлил ва натижалар.

Халқаро Барқарорлик Стандартлари Кенгаши (ISSB) 2023 йил 26 июнда 2024 йил 1 январда ёки ундан кейин бошланадиган даврлар учун кучга кирадиган биринчи иккита Халқаро Барқарорлик Стандартларини (IFRS) қабул қилди ва амалиётда қўллаш учун чиқарди.

IFRS S1: “Барқарорлик билан боғлиқ молиявий маълумотларни ошкор қилиш учун умумий талаблар” (IFRS S1: General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information).

IFRS S2: “Иқлим билан боғлиқ маълумотларни очиб бериш” (IFRS S2: Climate-related Disclosures, 2025).

Молиявий ҳисоботнинг барқарорлик стандартларини қабул қилиш ва амалиётга жорий этиш борасида хорижий давлатлардан қандай ишлар амалга оширилмоқда.

Бразилия биринчи бўлиб IFRS S1ни 2024-йил 1-январга қадар ихтиёрий, 2026-йил 1-январгача эса мажбурий қилиб қўйди. Кения, Нигерия, Зимбабве ва Шри-Ланка тўлиқ қабул қилинган.

Ўрганишлар шуни кўрсатдики Австралияда бу борада маълум ишлар амалга оширилган.

Ушбу мамлакатда молиявий ҳисобтнинг барқарорлик стандартлари AASB 2024-йил 20-сентябрда тасдиқланган. Австралияда фаолият кўрсатаётган компаниялар учун AASB S1 “Барқарорлик билан боғлиқ молиявий маълумотларни ошкор қилиш бўйича умумий талаблар” стандарти ихтиёрий равишда ва AASB S2 “Иқлим билан боғлиқ маълумотларни ошкора қилиш” стандартини мажбурий қўллаш эълон қилинди (AASB S1 and AASB S2, 2025). 2001 йилда қабул қилинган “Корпоратсиялар тўғрисида”ги қонунга кўра, айрим корхоналар 2025 йил 1 январдан ёки ундан кейин бошланадиган йиллик даврлар учун AASB S2 ни қўллашлари шарт.

AASB S1 стандартни ихтиёрий равишда қўллашни танлаган ташкилот барқарорлик билан боғлиқ барча рисклар ва қисқа, ўрта ёки узоқ муддатли истиқболда корхонанинг пул оқимларига, молиялаштиришга киришига ёки капитал қийматига таъсир қилиши мумкин бўлган имкониятлар тўғрисидаги маълумотларни ошкор қилади.

AASB S2 стандарт корхонадан қисқа, ўрта ёки узоқ муддатда корхонанинг пул маблағлари оқимига, молиядан фойдаланиш имкониятига ёки капитал қийматига таъсир қилиши мумкин бўлган иқлим билан боғлиқ рисклар ва имкониятлар тўғрисидаги маълумотларни ошкор қилишни талаб қилади.

Ҳозирги вақтда SASB стандартлари дунёнинг 80 дан ортиқ юрисдикцияларида 3200 дан ортиқ компанияларда, шу жумладан S&P Глобал 1200 индексининг 75 фоизда қўлланилади, чунки саноатга асосланган барқарорлик ҳақидаги маълумотлар компаниялар учун тежамкор ва тўғри қарор қабул қилишда инвесторлар учун фойдалидир. Бутун дунё бўйлаб корхоналар SASB стандартларидан барқарорлик билан боғлиқ хавф ва имкониятлар тўғрисидаги моддий маълумотларни яхшироқ аниқлаш, бошқариш ва етказиш учун фойдаланадилар (ISSB, 2025).

Мамлакатимизда бу борада маълум ишлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4611-сон қарори асосида акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, йирик солиқ тўловчилар тоифасига кирувчи корхоналар, суғурта ташкилотлари 2021 йилги молиявий ҳисоботларини МҲХСлари асосида тақдим этиш, бухгалтерларни халқаро сертификатлаш, олий таълим соҳасида ўқув режалари ва дастурларина халқаро стандартларга мувофиқлаштириш вазифалари белгилаб берилган эди. Ҳозирги вақтда 1630 дан ортиқ хўжалик юритувчи субъектлар бухгалтерия ҳисобини МҲХС асосида ташкил этган ва молиявий ҳисобот тузмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 30 январдаги “Тадбиркорлик субъектларининг барқарорлик рейтингини аниқлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 55-сон қарори билан “Тадбиркорлик субъектларининг барқарорлик рейтингини аниқлаш тартиби тўғрисида НИЗОМ”га асосан «ААА» тоифадаги тадбиркорлик субъектлари фаолиятида солиқ текширувлари ўтказилмайди, шунингдек, ушбу тоифадаги тадбиркорлик субъектларига қўшилган қиймат солиғи суммаси ўрнини қоплаш (қайтариш) бир кун муддатда текширувларсиз амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитасининг маълумотларига кўра 2024 йилда Барқарорлик рейтинги платформасида жами 520,2 мингта тадбиркордан 8,8 мингтаси юқори (ААА-1 623 та), 96,7 мингта ўрта (В) 247 мингта-қониқарли (С) 168 мингта-қуйи (Д) рейтингда жойлашган.

Бу эса IFRS S1: “Барқарорлик билан боғлиқ молиявий маълумотларни ошкор қилиш учун умумий талаблар” (IFRS S1: General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information) стандартини амалиётда қўлланишидан далолатдир.

Барқарорлик билан боғлиқ молиявий маълумотлар ва асосий самарадорлик кўрсаткичларилар (KPI) даромаднинг ўсиши, фойда маржаси, инвестициялар рентабеллиги ва пул оқими каби молиявий жиҳатларга эътибор қаратади. Ушбу KPI мониторинги ташкилотларга молиявий тараққиётни кузатиш, яхшилаш йўналишларини аниқлаш ва керак бўлганда тузатиш чораларини кўриш имконини беради. KPIлар ташкилотнинг стратегик мақсадларига мос келиши ва уларнинг долзарблигини таъминлаш учун мунтазам равишда кўриб чиқилиши керак.

5. Хулоса.

Молиявий ҳисоботнинг барқарорлик стандартларини мамлакатимизда тан олиш ва амалиётга жорий этиш борасида хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш асосида, уларнинг ижобий томонларини мамлакатимиз амалиётида фойдаланиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Барқарорлик стандартлари IFRS S1 “Барқарорлик билан боғлиқ молиявий маълумотларни ошкор қилиш учун умумий талаблар” ва IFRS S2 “Иқлим билан боғлиқ маълумотларни очиб бериш”ни ўзбек тилига таржимасини амалга ошириш.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан молиявий ҳисоботнинг барқарорлик стандартларини амалиётда қўллаш бўйича тегишли меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқиш зарур.

Адабиётлар:

Фабер, Э., 2024. Более половины мировой экономики движется к принятию стандартов устойчивого развития ISSB. ESG News. Available at: <https://esgnews.com/ru.F-ISSB/> [Accessed 13 Jul. 2025].

Нестеренко, Е., 2025. МСФО (IFRS) 2025: ключевые изменения и нюансы перехода. Finacademy. Available at: <https://finacademy.net/materials/article/neobhodimost-perehodana-msfo> [Accessed 13 Jul. 2025].

Зибарева, Е., 2025. Новые стандарты МСФО по устойчивому развитию. TEDO Training Blog. Available at: <https://training.tedo.ru/blog/esg-reporting/> [Accessed 13 Jul. 2025].

Сапожникова, Н.Г. and Ткачева, М.В., 2024. Международные стандарты финансовой отчетности о раскрытии информации об устойчивом развитии корпорации. Современная экономика: проблемы и решения, 8(August), pp.137–148. Available at: <https://doi.org/10.17308/meps/2078-9017/2024/8/137-148> [Accessed 13 Jul. 2025].

Нестерова, А.А., 2023. Интеграция целей устойчивого развития в финансовую отчетность согласно проекту МСФО (IFRS) S1. Управленческий учет, (4), pp.237–243.

Гаева, Д., 2025. Компании Казахстана переходят на новый стандарт нефинансовой отчетности. Kursiv Media Kazakhstan. Available at: <https://kz.kursiv.media/opinions/standart-nefinansovoi-otchetnosti/> [Accessed 13 Jul. 2025].

IFRS Foundation, 2025. Exposure Draft and comment letters: Proposed Amendments to the IFRS Foundation Due Process Handbook. Available at: <https://www.ifrs.org/projects/work-plan/2024-due-process-handbook-review/ed-cl-due-process-handbook-review/> [Accessed 13 Jul. 2025].

Australian Accounting Standards Board, 2025. Australian Sustainability Reporting Standards AASB S1 and AASB S2 are now available on the AASB Digital Standards Portal. Available at: <https://aasb.gov.au/news/australian-sustainability-reporting-standards-aasb-s1-and-aasb-s2-are-now-available-on-the-aasb-digital-standards-portal/> [Accessed 13 Jul. 2025].

SASB, 2025. How the SASB Standards support ISSB disclosure. Available at: <https://help.sasb.org/hc/en-us> [Accessed 13 Jul. 2025].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4611-сон қарори.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 30 январдаги “Тадбиркорлик субъектларининг барқарорлик рейтингини аниқлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 55-сон қарори.



ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА САВДО ТЎСИҚЛАРИНИ КАМАЙТИРИШ ВА ИККИ ТОМОНЛАМА ҲАМКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

*Иқтисод фанлари доктори, профессор **Кодиров А.М.**
ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари” илмий тадқиқот маркази*

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон ва Россия ўртасида хизматлар савдосининг жорий ҳолати таҳлил қилинди. Савдо ҳажми, асосий хизмат турлари ва тўсиқлар ўрганилди. Молиявий ва транспорт хизматларига алоҳида эътибор қаратилиб, икки давлат ўртасидаги савдо муносабатларини такомиллаштириш йўллари таклиф этилди. Таҳлил натижалари асосида амалиётда қўллаш мумкин бўлган институционал ва амалий тавсиялар берилди. Мақола иккала мамлакат иқтисодиётида хизматлар сектори ривожланишига ҳисса қўшиш имкониятини очиқ беради. Ушбу мақола 215-33-25 рақамли “Россия ва Ўзбекистон ўртасида хизматлар савдосини либераллаштириш истиқболлари ва муаммоларини ўрганиш, шунингдек, унинг ҳажмини ошириш бўйича тавсиялар ва ушбу мақсадга еришиш механизмларини ишлаб чиқиш” лойиҳаси доирасида бажарилган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, Россия, хизматлар савдоси, молиявий хизматлар, транспорт хизмати, институционал таклифлар, савдо ривожланиши.

Аннотация. В данной статье проанализировано текущее состояние торговли услугами между Узбекистаном и Россией. Изучены объемы торговли, основные виды услуг и существующие барьеры. Особое внимание уделено финансовым и транспортным услугам, предложены пути совершенствования торговых отношений между двумя странами. На основе анализа разработаны институциональные и практические рекомендации, применимые на практике. Статья раскрывает потенциал развития сектора услуг в экономиках обеих стран. Работа выполнена в рамках проекта №215-33-25 «Изучение перспектив и проблем либерализации торговли услугами между Россией и Узбекистаном, а также разработка рекомендаций и механизмов по увеличению её объема».

Ключевые слова: Узбекистан, Россия, торговля услугами, финансовые услуги, транспортные услуги, институциональные предложения, развитие торговли.

Annotation. This article analyzes the current state of trade in services between Uzbekistan and Russia. It examines trade volumes, key types of services, and existing barriers. Special attention is given to financial and transport services, with proposals to improve trade relations between the two countries. Based on the analysis, institutional and practical recommendations applicable in practice are presented. The article highlights the potential for the development of the service sector in both countries' economies. This study was carried out within the framework of project No. 215-33-25 “Exploring the prospects and challenges of liberalizing trade in services between Russia and Uzbekistan, and developing recommendations and mechanisms for increasing its volume”.

Key words: *Uzbekistan, Russia, trade in services, financial services, transport services, institutional proposals, trade development.*

1. Кириш.

Жаҳон иқтисодиётининг глобал трансформацияси шароитида хизматлар соҳаси иқтисодий ўсишнинг янги драйверига айланмоқда. Хизматлар савдоси, айниқса, рақамли технологиялар ва ахборот-коммуникация инфратузилмаси ривож билан янги босқичга кўтарилиб, анъанавий товар савдосидан фарқли равишда юқори қўшилган қиймат ва тармоқлараро таъсир самарасини намоён этмоқда. Бундай шароитда трансчегаравий хизматлар алмашинувини ташкил этиш, уларни ҳуқуқий ва институционал жиҳатдан мувофиқлаштириш долзарб илмий-амалий муаммога айланмоқда.

Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги иқтисодий ҳамкорликнинг муҳим йўналишларидан бири хизматлар соҳасидаги савдо муносабатларини ривожлантириш ҳисобланади. Сўнги йилларда икки мамлакат ўртасида телекоммуникация, тиббиёт, таълим, ахборот технологиялари, қурилиш ва молиявий хизматлар каби соҳаларда қатор ҳамкорлик битимлари имзоланган бўлса-да, амалда трансчегаравий хизматлар алмашинувида тўсиқлар, стандартлар номувофиқлиги ва инфратузилмавий чекловлар сақланиб қолмоқда. Бу эса хизматлар экспорти ва импортнинг тўлақонли ривожланишига, рақобатбардош муҳит шаклланишига тўсқинлик қилмоқда.

Мазкур мақолада Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги хизматлар савдосида мавжуд тўсиқлар таҳлил қилинади, уларнинг ҳуқуқий, институционал ва технологик табиати очиқ берилди, соҳалар кесимида аниқланган муаммолар эмпирик маълумотлар асосида гуруҳланади. Шунингдек, геосиёсий хатарлар, санкциявий чекловлар ва халқаро шартномалар доирасида миллий манфаатлар асосида амалга оширилиши мумкин бўлган ечимлар тизими ишлаб чиқилади.

Тадқиқотнинг мақсади Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги хизматлар савдосини чеклаётган асосий тўсиқларни аниқлаш ва уларни бартараф этишга қаратилган амалий таклифлар ишлаб чиқишдан иборат. Мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифалар белгиланди: хизматлар соҳалари кесимида тўсиқлар таснифини шакллантириш, эксперт интервьюлари ва сўровномалар орқали амалий муаммоларни аниқлаш, ва уларни институционал ҳамкорлик асосида бартараф этиш механизмларини ишлаб чиқиш.

Мақола тузилиш жараёнида сифат ва миқдорий тадқиқот методлари, норматив-ҳуқуқий таҳлил, STRI индекси асосида моделлаш ва эксперт баҳолари асосий усул сифатида қўлланилди. Ушбу ёндашув хизматлар савдосидаги муаммоларни фақат назарий эмас, балки амалий нуқтаи назардан ҳам ёритиш имконини беради.

2. Адабиётлар шарҳи.

Хизматлар савдоси глобал иқтисодиётда энг тез ўсувчи ва юқори қийматга эга соҳалардан бири сифатида эътироф этилади. UNCTAD (2023) ҳисоботида кўра, дунё ялпи ички маҳсулотига хизматлар улуши 24,2% ни ташкил этиб, экспорт кўрсаткичлари товарлар савдосидан икки баробар юқори суръатда ўсмоқда. Хусусан, ривожланаётган ва транзитив иқтисодиётлар учун, хизматлар экспортини кенгайтириш иқтисодиётни диверсификация қилиш ва ташқи бозорларга чиқишда муҳим омил ҳисобланади.

OECD Services Trade Restrictiveness Index (STRI) таъкидлаганидек, трансчегаравий хизматлар савдосида қатор тўсиқлар мавжуд бўлиб, улар асосан қуйидагича таснифланади: регулятор тўсиқлар (лицензиялаш, аккредитация), техник тўсиқлар (стандартлар фарқи), молиявий тўсиқлар (валюта режими, SWIFTга кириш), институционал тўсиқлар (маъмурий жараёнлар), маданий ва тилга оид тўсиқлар (шарқона ва ғарбона бизнес менталитети фарқи).

Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги хизматлар савдоси бўйича ҳамкорлик анча мураккаб муаммоларга дуч келмоқда. 2023 йилда СНГ мамлакатлари томонидан имзоланган “Хизматлар савдоси ва инвестициялар бўйича эркин савдо тўғрисидаги битим” ушбу соҳадаги ҳуқуқий базани мустаҳкамлашга қаратилган бўлса-да, унинг амалий имплементациясида муаммолар сақланиб қолмоқда (CIS Executive Committee, 2023).

Иқтисодчилар Т.Б.Бердникова (2020) ва В.Г.Холмогоров (2020) ўз тадқиқотларида савдо тўсиқларини аниқлаш учун сифат ва миқдорий тадқиқотлар (интервьюлар, анкета, контент таҳлил)дан фойдаланишни тавсия қилади. Уларнинг фикрича, кўплаб тўсиқлар расмий ҳужжатларда акс этмаган ва фақатгина амалиётда кўриладиган “яширин тўсиқлар”дир.

STRI ва UNCTAD ҳисоботларига кўра, IT, тиббиёт, таълим, қурилиш ва молиявий хизматлар каби соҳаларда тўсиқлар энг кўп кузатилади. Масалан, IT соҳасида сервер локализацияси, телемедицинада лицензия мураккаблиги, таълимда дипломларни тан олиш муаммоси, қурилишда тендерга киришда маҳаллий юридик юрисдикция талаблари, молиявий хизматларда SWIFT орқали тўловлар чеклангани ва регуляторлар томонидан лицензия талаблари муҳим тўсиқлар сифатида қайд этилган.

Кўшимча равишда, Россия ва Ўзбекистон ўртасидаги икки томонлама келишувлар (2021-2023 йиллар соғлиқни сақлаш, 2022 йил рақамли ривожланиш соҳасида) кўпинча фақат декларатив хусусиятга эга бўлиб, механизм ва ижро этадиган тизимлар етарли даражада эмас. Бу ҳолат ҳуқуқий номуносивлик ва амалий тўсиқлар яратишга олиб келади.

Шунингдек, Халқаро ташкилотларнинг, жумладан, Жаҳон савдо ташкилоти, Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти ва UNCTAD ҳисоботларида таъкидланишича, хизматлар соҳасидаги тўсиқларни бартараф этиш учун давлатлараро мувофиқлаштириш ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ўзаро тан олиниши муҳимдир.

Шундай қилиб, мавжуд адабиётлар ва халқаро тажриба таҳлили шуни кўрсатадики, хизматлар соҳасидаги савдо тўсиқлари жуда кўп қиррали ва кўп жиҳатли бўлиб, уларни бартараф этиш учун стратегик ёндашув, эмпирик таҳлиллар ва халқаро мувофиқлаштириш талаб этилади.

3. Тадқиқот методологияси.

Мазкур тадқиқотда Ўзбекистон ва Россия Федерацияси ўртасидаги трансчегаравий хизматлар савдосида мавжуд тўсиқларни аниқлаш, уларнинг хусусиятларини баҳолаш ва соҳалар кесимида таклифлар ишлаб чиқиш мақсад қилинди. Тадқиқотда комплекс ёндашув қўлланилиб, ҳам сифат, ҳам миқдорий таҳлил усулларида фойдаланилди. Асосий эътибор IT, тиббиёт, таълим, телекоммуникация ва молиявий хизматлар соҳаларида аниқланган регулятор, институционал ва технологик барьерларни тадқиқ этишга қаратилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги хизматлар савдоси стратегик аҳамиятга эга соҳалардан бирига айланди. Бу йўналишдаги савдо ҳажми ўсиб боришига қарамай, амалдаги тўсиқлар ва муаммолар савдо потенциалини тўлиқ рўёбга чиқаришга тўсқинлик қилмоқда. Ушбу таҳлил асосан бешта тармоққа қаратилади: ахборот технологиялари (IT), тиббиёт, таълим, қурилиш ва молиявий хизматлар.

Икки мамлакат ўртасидаги келишувларга қарамай, лицензиялаш, дипломларни тан олиш, аккредитация ва божхона расмийлаштируви соҳаларида жиддий муаммолар сақланиб қолмоқда. Масалан, телемедицина соҳасида Россияда сертификатланган ускуналар Ўзбекистонда қайта рўйхатдан ўтишни талаб қилади, бу эса вақт ва маблағ сарфини кўпайтирмоқда.

Молиявий тўсиқлар SWIFT тизимидан фойдаланишдаги чекловлар, рубл-сўм клиринги механизмининг йўқлиги, ҳамда валюталарни конвертация қилишдаги муаммоларда акс этмоқда. Бундан ташқари, технологияга оид тўсиқлар масалан, GitHub ва GCP каби платформаларга кириш чекланиши IT-экспортнинг ўсишига тўсқинлик қилмоқда.

Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги рақамли ҳамкорликни ривожлантириш учун энг катта салоҳиятга эга соҳалардан бири бу – ахборот технологиялари (IT) ва телекоммуникация хизматларидир. Бу соҳада икки давлат ўртасида ўзаро ҳамкорлик имкониятлари кенг бўлса-да, амалиётда қатор тўсиқлар ва тизимли муаммолар мавжудлиги, ушбу йўналишда хизматлар савдосининг етарлича ривожланмаслигига олиб келмоқда. Ҳар икки давлатда ҳам рақамли трансформация устувор йўналиш сифатида белгиланган бўлса-да, норматив-ҳуқуқий, технологик ва молиявий тўсиқлар IT хизматларининг экспорт-импорт йўлларини чеклаб қўяётгани таҳлил натижаларидан яққол кўзга ташланади.

Россия ва Ўзбекистон ўртасида рақамли соҳадаги алоқалар ҳозирча асосан келишувлар даражасида бўлиб, уларнинг амалий ижроси ёки тўлиқ институционаллашуви кузатилмайди. Масалан, IT соҳасида стандартларнинг ўзаро тан олинмаслиги, лицензиялаш талабларининг фарқ қилиши, электрон ҳужжат айланишининг интеграциялашмаганлиги IT хизматларнинг трансчегаравий қўламида кенгайишини чеклаб қўяди. Ушбу муаммоларни ўрганишда аниқланган ҳолатлардан бири IT компанияларининг Ўзбекистонда расмий рўйхатдан ўтиш учун сарфлайдиган вақт ва ресурсларининг юқорилиги, ҳамда маҳаллий бозор талабларига мослашишдаги қийинчиликлардир.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, IT соҳасидаги асосий тўсиқлардан бири хавфсиз ва барқарор рақамли инфратузилманинг етарли даражада шаклланмаганидир. Масалан, Ўзбекистонда кенг қамровли интернет тармоғи мавжуд бўлса-да, юқори сифатли ва тезкор маълумот узатиш имкониятлари ҳамма ҳудудларда бир хил эмас. Шунингдек, маълумотларни сақлаш ва қайта ишлаш бўйича миллий дата-марказлар етарли даражада эмаслиги, Россия компаниялари билан интеграциялашув жараёнида техник тўсиқларни келтириб чиқармоқда. Россиядаги GitHub, Google Cloud ва бошқа юқори технологияли платформаларнинг чекланган фойдаланилиши айниқса санкциялар фонида IT лойиҳаларни реал вақтда олиб бориш имкониятини пасайтиради.

Икки мамлакат ўртасида IT соҳасидаги тўлов муносабатлари ҳам жиддий муаммолардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Россия банклари орқали SWIFT ёки доллар ҳисоб-китобларини амалга оширишдаги муаммолар, рубл-сўм клиринги механизмларининг йўқлиги, криптовалюта воситаларидан кенг фойдаланиш имконияти мавжуд эмаслиги IT компаниялар учун узоқ муддатли ҳамкорликни юритишда қийинчиликлар туғдирмоқда. Шу сабабли, айрим ўзбек IT компаниялари ўз экспорт операцияларини аралаш валюталар орқали юритишга мажбур бўлмоқда, бу эса транзакцион харажатларни оширади ва ҳисоб-китобларда шаффофликни пасайтиради.

Яна бир муҳим жиҳат IT кадрлар салоҳияти масаласи. Ҳар икки мамлакатда рақамли кадрлар етишмаслиги кузатилмоқда, аммо Ўзбекистонда бу муаммо айниқса долзарб. Ривожланиш даражасининг турличалиги, рус ва инглиз тилини етарли даражада билмаслик, халқаро стандартларга мос билим ва кўникмаларнинг йўқлиги, Ўзбекистон IT мутахассисларининг Россия ёки бошқа мамлакатлар билан тўлақонли рақобатлашишига тўсиқ бўлмоқда. Ушбу жиҳат, айниқса, фриланс, аутсорсинг ва B2B хизматлар экспортида сезиларли намоён бўлади. Бу муаммони бартараф этиш учун IT Park ва IT-Visa дастурлари орқали белгиланган кадрлар тайёрлаш, қўллаб-қувватлаш механизмлари мавжуд бўлса-да, улар ҳозирча етарли даражада самара бермаяпти.

Бироқ, мавжуд муаммоларга қарамай, IT соҳасидаги ҳамкорлик истиқболлари юқори баҳоланмоқда. Ўзбекистонда IT Park, “0% Tax”, “Softlanding” каби махсус

дастурлар фаолият юритмоқда ва улар Россия компаниялари учун жозибатор муҳит яратади. Шу билан бирга, рақамли инқилобни амалга ошириш учун қўшма технопарклар, кадрлар алмашинуви, дипломларни ўзаро тан олиш ва электрон платформаларни интеграция қилиш каби комплекс ёндашувлар талаб этилади. Мисол учун, “Тошкент–Сколково акселератори” каби платформаларни яратиш нафақат IT хизматлар экспортини кучайтиради, балки рақамли ишонч муҳитини ҳам шакллантиради.

Халқаро тажрибалар, хусусан Бангалор, Иннополис ва Силикон водийси каби марказларнинг модели, Ўзбекистон учун ибрат бўлиши мумкин. Шу нуқтаи назардан, IT соҳасидаги ривожланиш нафақат иқтисодий, балки стратегик ва геосиёсий аҳамиятга ҳам эгадир. Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги рақамли шерикликни мустаҳкамлаш, нафақат экспорт салоҳиятини оширади, балки барқарор ва инновацион бизнес муҳитини ҳам шакллантиради. Бу эса икки мамлакат IT компаниялари учун фаол рақобатчи эмас, балки ўзаро тўлдирувчи шерикка айланишига замин яратади.

Телекоммуникация, таълим, тиббиёт ва молиявий хизматлар соҳаси Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги иқтисодий ҳамкорликнинг муҳим йўналишларидан бири саналади. Бу соҳаларнинг ҳар бири нафақат юқори иқтисодий қийматга эга, балки кенг аҳоли қатлами манфаатлари билан боғлиқ эканлиги боис, уларнинг трансчегаравий хизмат сифатида самарали ривожланиши мамлакатлар ўртасидаги ишончли ҳамкорликни белгилаб беради. Бироқ ушбу соҳаларда амалдаги ҳужжатлар ва келишувларга қарамай, бизнес ва фойдаланувчилар кўплаб институционал, ҳуқуқий ва инфратузилмавий тўсиқларга дуч келмоқда. Ушбу тўсиқларни аниқлаш, уларнинг таъсирини таҳлил қилиш ва бартараф этишга қаратилган илмий ечимлар яратиш мақоланинг асосий вазифаларидан биридир.

Телекоммуникация хизматлари соҳасидаги ҳамкорлик ҳозирда энг кам тадқиқ этилган йўналишлардан биридир. Бу соҳа учун хос бўлган муаммо ишончли ва мунтазам статистик маълумотларнинг йўқлиги, хизмат турларининг аниқ классификацияланмагани, ҳамкорлик натижаларини самарали баҳолаш учун ишончли индикаторларнинг етишмаслигидир. Бу эса иқтисодий сиёсат ишлаб чиқарувчи органлар учун ҳам, тадқиқотчилар учун ҳам асосли таҳлил юритишда жиддий тўсиқлар яратади. Ҳолбуки, Ўзбекистонда сўнгги йилларда телекоммуникация соҳаси жадал ривожланмоқда. 2024 йилда хизматлар ҳажми 20,9 трлн сўмни ташкил қилган бўлса, 2025 йилда бу кўрсаткич 24,1 трлн сўмгача етиши кутилмоқда. Бу ўсиш бир қарашда ижобий кўринишга эга, аммо унинг экспортбоп сегментдаги кўлами ва Россия билан интеграция даражаси ҳали пастлигича қолмоқда.

Мавжуд тўсиқлардан бири икки давлат инфратузилмасининг етарлича мувофиқлашмаганлигидир. Масалан, маълумотлар марказлари ва 5G тармоқларини ривожлантириш бўйича ташаббуслар локал даражада фаол амалга оширилаётган бўлса-да, уларнинг трансчегаравий мувофиқлашуви назарий даражада қолмоқда. Бундан ташқари, телекоммуникация хизматларини сертификатлаш ва рухсат бериш жараёнлари ҳар иккала мамлакатда бир-биридан фарқ қилади ва бу, айниқса, роуминг, алоқа тизимлари ҳамкорлиги ёки умумий стандартларга мос ишлов беришда жиддий тўсиқ сифатида намоён бўлади. Шу сабабли, ҳамкорлик асосида ягона телекоммуникация платформасини яратиш, стандартларни уйғунлаштириш ва тариф сиёсатини мувофиқлаштириш, ушбу соҳадаги савдо алоқаларини ривожлантиришда муҳим вазифа бўлиб қолмоқда.

Таълим соҳаси ҳам Россия ва Ўзбекистон муносабатларида муҳим ўрин тутаяди. Россия олий таълим муассасаларида минглаб ўзбекистонлик талабалар таҳсил оляпти. Аммо таълим соҳасида хизмат сифатидаги экспорт/импорт кўламига оид мукамал ҳисоботлар мавжуд эмас. Россиядан онлайн таълим хизматларини тақдим этишда бир қатор ҳуқуқий ва техник тўсиқлар мавжуд. Масалан, Россиядаги олийгоҳ томонидан

берилган диплом Ўзбекистонда автоматик равишда тан олинмайди, ҳатто агар у дистанцион шаклда олинган бўлса ҳам, алоҳида апостиллаш, экспертиза ёки тестлардан ўтиш талаб этилади. Бу эса таълим хизматларини трансчегаравий равишда кенгайтириш имкониятини чеклайди.

Шу билан бирга, икки мамлакатда амал қилаётган электрон таълим платформаларидаги юридик тавсифлар, маълумотларни сақлаш ҳуқуқи ва шахсий маълумотларни муҳофаза қилишдаги фарқлар ҳам муҳим масала саналади. Таҳлилларга кўра, онлайн таълимга оид тўсиқлар асосан ҳуқуқий ва ташкилотчилик жиҳатидан тўлиқ ечим топмаган. Масалан, Россия платформалари ўз фойдаланувчиларининг маълумотларини фақат Россияда сақлаши лозим бўлган ҳолда, Ўзбекистонда бу борада бошқа талаблар амал қилади. Бу эса ўзаро платформаларда талабаларни рўйхатдан ўтказиш ва мулоқотни ташкил қилишда ҳужжатлар ва руҳсатлар масаласини мураккаблаштиради. Бундай тўсиқлар Россия университетлари учун Ўзбекистонга онлайн таълим экспорт қилишини қийинлаштиради, ўзбек талабалари учун Россия таълимига эркин кириш имкониятини чеклайди.

Тиббиёт хизматлари ҳам муҳим ўрин тутадиган соҳалардан бири бўлиб, ҳозирда унинг экспорт салоҳияти кўпроқ телемедицина ва диагностика хизматлари доирасида намоён бўлмоқда. Аммо ушбу хизматлар Россияда амал қиладиган стандартларга кўра сертификатланган бўлса-да, Ўзбекистонда уларнинг қайта рўйхатдан ўтиши талаб қилинади. Бу жараён одатда бир неча ой давом этади ва бу муддат мобайнида хизмат кўрсатиш имконияти бўлмайди. Шунингдек, телемедицинанинг ривожланиши учун зарур бўлган ахборот хавфсизлиги, шахсий маълумотлар муҳофазаси ва рақамли имзоларни ўзаро тан олиш каби масалалардаги номувофиқлик ҳам жиддий тўсиқдир. Бунинг устига, ушбу хизматларни экспорт қилишда ишлатиладиган ускуналар ва платформаларнинг Ўзбекистондаги техник талабларга мос келмаслиги, бизнес субъектлар учун трансчегаравий операцияларнинг самарадорлигини пасайтиради.

Молиявий хизматлар соҳасида эса, хорижий банкларнинг миллий бозорда тўлиқ фаолият юритиши учун лицензиялаш жараёнларининг мураккаблиги ва валютани конвертация қилишдаги чекловлар асосий тўсиқ сифатида қайд этилган. Ҳар икки мамлакатда SWIFT тизимида кириш чекланган бўлиб, алтернатив ҳисоб-китоб платформалар – масалан, Россиядаги СПФС (Молиявий хабарларни узатиш тизими) ёки Ўзбекистондаги Тўловлар маркази – ҳали ўзаро интеграция қилмаган. Бундан ташқари, халқаро молиявий хизматларни тақдим этишда рақамли идентификация ва электрон ҳужжатлар асосида тўловларни амалга ошириш тизимида ягона стандартлар йўқ. Бу, айниқса, фриланс хизматлар, аутсорсинг ёки финтех ечимлар экспорт қилаётган компаниялар учун ишончсиз муҳит яратади. Шу сабабли, марказий банклар даражасида рубл-сўм клиринги, рақамли тўлов каналлари ва криптоактивларни эҳтиёткорлик билан интеграция қилиш масалалари долзарб бўлиб қолмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, телекоммуникация, таълим, тиббиёт ва молия соҳаларида хизматлар савдоси истиқболли бўлишига қарамай, унинг амалий кенгайтириши учун аниқ қадамлар талаб этилади. Аввало, тўсиқларни тўлиқ хариталаш ва уларни бартараф этиш учун институционал ҳамкорликни кучайтириш, норматив ҳужжатларни уйғунлаштириш ва техник ҳамкорлик механизмларини яратиш зарур. Бундан ташқари, рақамли муҳитда ишлаш учун кадрлар тайёрлаш, ахборот алмашинувини тизимлаштириш, ва турли соҳалардаги электрон платформаларни стандартлаштириш орқали икки мамлакат ўртасида хизматлар экспорт-импортини амалий қўллаш имконияти орттирилади. Шу асосда, Россия ва Ўзбекистон ўртасидаги хизматлар савдоси нафақат иқтисодий алоқаларни кенгайтиради, балки стратегик ҳамкорликка ҳам сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқади.

Хизматлар савдосини кенгайтиришга тўсқинлик қилаётган омилларни бартараф этиш учун ишлаб чиқиладиган таклифлар тизими, аввало, соҳалар кесимидаги фарқлар

ва тармоқлар спецификасини ҳисобга олган ҳолда шакллантирилиши зарур. Тиббиёт, таълим, IT, телекоммуникация ва молиявий хизматлар соҳаларида ҳар бирининг ўзига хос лицензиялаш, аккредитация, кадрлар салоҳияти, технологик талаблар ва ахборот хавфсизлигига доир стандартлари мавжуд. Шу сабабли, умумий ёндашув эмас, балки тармоқларга мослаштирилган (секторспецифик) ва аниқ мўлжалланган ечимлар орқали тўсиқларни камайтириш самаралироқ бўлади. Масалан, IT соҳасида GitHub, GCP каби платформаларга алтернатив яратишни талаб этса, тиббиётда ўзаро лицензия ва сертификатларни тан олиш механизмлари муҳимроқ ҳисобланади. Таълим соҳасида эса давлатлараро дипломлар реестрини яратиш ва блокчейн асосидаги малака электрон базасини шакллантириш долзарбдир. Шу тариқа, барча таклифлар соҳалар кесимида модуллаштирилган, институционал даражада амалга оширилиши мумкин бўлган, аниқ вазифалар билан таъминланган бўлиши талаб этилади.

Бундан ташқари, ушбу таклифлар тизими ишлаб чиқилганда жаҳон геосиёсий муаммолари, хусусан санкциявий хатарлар ва халқаро келишувлар доирасидаги мажбуриятлар инобатга олиниши шарт. Россия ва Ўзбекистон ўртасидаги ҳамкорликда кўплаб трансчегаравий тўловлар, рақамли инфратузилма, ахборот узатиш ва платформалар фойдаланиши халқаро чекловлар таъсирига тушиши мумкин. Шу боисдан, таклиф этилаётган ечимлар реал контекстга мос, санкциявий хавфлардан ҳимояланган ва устувор миллий манфаатларга хизмат қилувчи бўлиши зарур. Масалан, криптоактивлар ёки рақамли валюталарни чекланган миқёсда синов тарзида жорий этиш, SPFS ёки бошқа минтақавий клиринг платформаларни йўлга қўйиш бундай ечимлар сирасига киради (1-жадвал).

1-жадвал

Соҳалар кесимида аниқланган тўсиқларни бартараф этишга қаратилган институционал ва амалий таклифлар тузилмаси

Соҳалар	Тўсиқ тури	Даража	Таклиф мазмуни	Амалга ошириш муддати
Тиббиёт	Лицензиялаш-даги тўсиқ	Институционал	ЕОИИ стандартлари асосида икки томонлама “соддалашти-рилган рўйхатдан ўтиш” тартибини жорий этиш	Ўрта муддат (1-2 йил)
Таълим	Дипломларни тан олиш муаммоси	Давлатлараро	Таълим ҳужжатларини ўзаро тан олишга қаратилган идоралараро дастур	Ўрта муддат (1-2 йил)
IT	Платформа-ларга кириш чекловлари	Технологик	Ўзбекистон ёки МДҲ худудида умумий серверлар ва алтернатив хостинг платформаларни яратиш	Қисқа муддат (6-12 ой)
Барчаси учун	Санкцияга тушган банклар орқали ҳисоб-китоб	Молиявий	Рубл ва сўмда ҳисоб-китоб қилиш учун кўп томонлама клиринг механизмини яратиш (Марказий банк орқали)	Ўрта муддат (1-2 йил)

Ҳар бир ташаббус қисқа муддатда синовдан ўтказилиши, кейин эса давлатлараро ҳужжатлар ва келишувлар доирасида кенг қамровда жорий этилиши лозим. Бу институционал қатламни аста-секин модернизация қилиш ва уни стратегик ҳамкорликка мослаштиришнинг энг самарали механизми ҳисобланади.

Жадвалда хизматлар савдосида аниқланган асосий тўсиқларни бартараф этишга қаратилган институционал ва амалий таклифлар соҳалар кесимида тизимлаштирилган. Жадвалдан кўриниб турибдики, ҳар бир сектор учун тавсия этилган ечимлар ушбу соҳалардаги тўсиқларнинг табиатига мос равишда ишлаб чиқилган. Масалан, тиббиёт соҳасидаги лицензиялаш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилиш учун ЕОИИ стандартлари асосида “соддалаштирилган рўйхатдан ўтиш” механизмини жорий этиш таклиф этилмоқда, бу эса давлатлараро ҳуқуқий мувофиқлашувга эҳтиёж юқори бўлган ҳолатлар учун мос ёндашувдир. Таълим соҳасида эса дипломларни тан олиш бўйича ўзаро идоралараро дастур яратиш, икки томонлама тан олишни институционаллаштиришни назарда тутди. IT соҳасида техник тўсиқлар устуворлиги ҳисобга олиниб, альтернатив хостинг ва сервер платформаларни яратиш каби технологик ечимлар тавсия этилган.

Молиявий соҳада эса, санкциявий хавфлар фонида рубл-сўм клиринг тизимини шакллантириш орқали ўзаро ҳисоб-китобларни барқарорлаштириш мақсад қилинган. Таклиф этилган чора-тадбирларнинг барчаси амалга ошириш муддати бўйича ҳам таҳлил қилинган бўлиб, қисқа ва ўрта муддатда амалга оширилиши мумкин бўлган босқичма-босқич механизмларга таянади. Бу эса уларни илк босқичда пилот форматда, кейин эса давлатлараро келишувлар доирасида масштаблаш имконини беради.

5. Хулоса.

Ўзбекистон ва Россия ўртасидаги хизматлар савдосини ривожлантириш трансчегаравий иқтисодий интеграциянинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Ушбу мақолада савдо муносабатларига таъсир этувчи ҳуқуқий, молиявий, технологик ва институционал тўсиқлар таҳлил қилиниб, уларнинг соҳа кесимидаги намоён бўлиш хусусиятлари аниқланди. Таҳлиллар шуни кўрсатдики, IT, тиббиёт, таълим, телекоммуникация ва молиявий хизматлар соҳаларида аниқланган барьерлар нафақат ташқи савдони чекламоқда, балки икки мамлакат ўртасидаги ишончли ва барқарор шерикликни шакллантиришга ҳам салбий таъсир кўрсатмоқда.

Айниқса, хизматлар экспорти билан шуғулланувчи маҳаллий компаниялар ва стартаплар учун лицензиялаш, сертификатлаш, тўлов тизими, маълумотларни узатиш ва кадрлар салоҳияти етишмаслиги каби масалалар тўғридан-тўғри операцион тўсиқлар сифатида намоён бўлмоқда. Шунингдек, халқаро платформа ва технологияларга бўлган чекловлар, ахборот хавфсизлигидаги стандартлар номувофиқлиги, маълумотларни локал сақлаш сиёсати ва иқтисодий манфаатлар ўртасидаги зиддиятлар таҳлилининг долзарблигини оширади. Бу муаммоларни бартараф этиш учун нафақат соҳавий, балки давлатлараро сиёсий ва институционал ислохотлар талаб этилади.

Шу боисдан, мақола доирасида ҳар бир йўналиш кесимида аниқланган тўсиқлар учун мақсадли, босқичма-босқич амалга ошириладиган ва миллий ҳамда минтақавий манфаатларни ҳисобга оладиган таклифлар ишлаб чиқилди. Мазкур таклифлар амалий механизмлар, институционал даражадаги ёндашувлар ва пилот форматдаги синов имкониятларини қамраб олган.

Хизматлар соҳасида аниқланган барьерларни самарали бартараф этиш, икки мамлакат ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш, ва глобал геоиқтисодий хатарлар шароитида барқарор хизматлар алмашинувини таъминлаш учун қуйидаги амалий таклифлар илгари сурилади:

соҳалар кесимида ўзаро тан олиш, лицензиялаш ва аккредитация жараёнларини уйғунлаштириш учун махсус давлатлараро ҳамкорлик механизмларини жорий этиш;

молиявий операциялар учун SWIFTга боғлиқ бўлмаган, рубл-сўм клирингига асосланган тўлов тизимини йўлга қўйиш;

IT ва телемедицина соҳаларида трансчегаравий хизматлар учун сертификатлаш ва ахборот хавфсизлиги бўйича умумий стандартлар ишлаб чиқиш;

онлайн таълим, фриланс ва аутсорсинг хизматлари экспортини ривожлантириш мақсадида рақамли платформаларни интеграция қилиш ва кадрлар тайёрлашни мувофиқлаштириш;

барча таклифларни дастлаб пилот лойиҳалар шаклида амалга ошириш, синов натижалари асосида масштаблаш ва давлатлараро келишувлар билан мустаҳкамлаш.

Адабиётлар:

Berdnikova, T.B. (2020). Barriers in Cross-Border Trade in Services: Classification and Overcoming Mechanisms. *Journal of Eurasian Economic Studies*, 6(2), 43–59.

CIS Executive Committee. (2023). Соглашение о свободной торговле услугами и инвестициями. Минск.

ESCAP. (2022). *Asia-Pacific Trade in Services Outlook*. Bangkok: United Nations ESCAP.

IMF. (2023). *Macroeconomic Implications of Trade Sanctions*. Working Paper WP/23/114.

IT Park Uzbekistan. (2024). Рақамли хизматлар экспорти бўйича таҳлилий маълумотлар. Тошкент.

OECD. (2023). *Services Trade Restrictiveness Index (STRI): Policy Trends up to 2023*. Paris: OECD Publishing.

Stat.uz (2024). Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси – Хизматлар соҳаси бўйича йиллик маълумотлар.

UNCTAD. (2023). *World Investment Report: Investing in Sustainable Energy for All*. Geneva: United Nations.

World Bank. (2022). *Digital Economy Diagnostic for Uzbekistan*. Washington D.C.

Гапуров, М. (2022). Экспорт хизматлари соҳасида тўсиқларни таҳлил қилишнинг иқтисодий моделлари. *Иқтисод ва таълим*, №3, 95–104.

ЖСТ (2023). *Trade in Services Data and Trends*. Женева: Жаҳон савдо ташкилоти.

Инновацион ривожланиш агентлиги (2023). Ўзбекистоннинг инновацион хизматлар салоҳияти: таҳлил ва прогнозлар. Тошкент.

Россия Федерациясининг рақамли ривожланиш вазирлиги (2023). Отчет о состоянии цифровой инфраструктуры и телекоммуникаций.

Ўзбекистон Марказий банки. (2023). Тўлов тизимлари ва трансчегаравий ҳисоб-китобларнинг йиллик шарҳи.

Холмогоров В.Г. (2020). Регулирование услуг в условиях глобальных ограничений: вызовы для ЕАЭС. *Вопросы экономики*, №10, с. 62–71.



ХУСУСИЙ КАПИТАЛ АУДИТИ: ТАҲЛИЛИЙ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАР

Ортиқов Э.Я.

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Мазкур мақолада хусусий капитал аудитида таҳлилий тартиб-таомилларни қўллашнинг аҳамияти, унинг мазмуни ва моҳияти кенг ёритилган. Хусусий капиталнинг аудитини ташкил этиш билан боғлиқ меъёрий ҳужжатлар, аудитнинг халқаро стандартлари ва аудит босқичлари баён этилган.

Калит сўзлар: аудит жараёнлари, аудит, аудит босқичлари, баҳолаш, таҳлилий тартиб-таомиллар.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы использования аналитических процедур при проведении аудита с частным капиталом, их суть, стадии планирования аналитической процедуры, периодичность и цели аналитического анализа в аудите, а также выявлены основные причины возрастания роли аналитических процедур в аудите.

Ключевые слова: аудиторская процедура, аудит, стадии, цели, оценка, аналитические процедуры.

Annotation. The present research focuses on the use of analytical procedures in auditing equity, their essence, the stages of planning analytical procedures, the periodicity and objectives of analytical review in auditing, as well as the main causes of the increasing role of analytical procedures in auditing.

Key words: audit procedure, audit, stages, objectives, estimation, analytical procedures.

1. Кириш.

Мамлакатимизда аудиторлик фаолияти “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги 2021 йил 25 февралдаги қабул қилинган ЎРҚ-677-сон Қонуни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 11 апрелдаги 171-сон қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиш тартиби тўғрисида” НИЗОМда белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси ҳудудида жорий этилган Халқаро бухгалтерлар федерациясининг Аудит ва ишончни таъминлайдиган топшириқларнинг халқаро стандартлари бўйича кенгаши томонидан эълон қилинадиган аудиторлик фаолиятининг халқаро стандартлари ҳамда сифат назоратининг халқаро стандартлари, таҳлилий текширувларнинг халқаро стандартлари, ишончни таъминлайдиган топшириқларнинг халқаро стандартлари, турдош хизматларнинг халқаро стандартлари аудиторлик фаолияти стандартлари билан тартибга солинади.

Республикаимизда мазкур маҳаллий ва халқаро даражадаги меъёрий ҳужжат ҳамда стандартларнинг амалда қўлланилиши натижасида мамлакатимизда аудиторлик фаолияти навбатдаги ривожланиш босқичини бошдан кечирмоқда.

Иқтисодий муносабатларнинг мунтазам кенгайиб ва ривожланиб бориши асносида молиявий ҳисобот фойдаланувчилари аудиторлардан улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг сифатининг узлуксиз ошиб боришини хоҳлайдилар.

Ҳозирги пайтда аудиторлик фаолиятини ривожлантиришдаги энг долзарб йўналишларидан бири таҳлил ва назоратдир. Бу жараён бизнесда меҳнат сарфини мақбуллаштириш имконини бериши билан аҳамиятлидир. Қуйидаги жадвалда аудитда таҳлилий тартиб-таомилларни ўтказиш даврийлиги ва мақсадларини келтирдик.

1-жадвал

Аудитда таҳлилий тартиб-таомилларни кўриб чиқишнинг даврийлиги ва мақсадлари¹

Босқич	Даври	Мақсади
Режалаштириш	Аудитни режалаштириш ва текширувнинг барча жараёнларида	Аудитни дастлабки режалаштиришда фойдаланилган аудитор томонидан корхона билан танишув жараёнида тўпланган маълумотларнинг мижоз бизнеси ва соҳа хусусияти билан мос келишини аниқлаш. Бу қуйидагилар учун зарур: - Эҳтимолий “нозик нуқта”ларни аниқлаш; - Ресурсларни оқилона тақсимлаш; - Аудитор томонидан мижоз бизнесини яхшироқ тушуниш; - Эҳтимолий аудит рискларини аниқлаш; - Бошқа аудиторлик тартиб-таомиллар сони ва ҳажмини қисқартиришга имкон беради.
Бевосита аудит текшируви ўтказиш	Операция ва счетларнинг муҳимлигини текшириш жараёнларида	Ички назорат тизими натижаларини кўриб чиқишда ва муҳимликни аниқлашга доир тест ўтказиш орқали олинган далилларнинг етарли даражада ишончлилигини тасдиқлаш ва у бўйича асосланган малакали фикрини шакллантиришга ёрдам беради.
Хулоса тайёрлаш	Аудит текширувининг охирида	Молиявий ҳисоботнинг ишончлилиги бўйича умумий хулоса қилиш

Ҳеч шубҳасиз, таҳлилий тартиб-таомиллар аудиторлик текширувларини ўтказиш жараёнини мақбуллаштиришда муҳим вазифани бажаради. Таҳлилий тартиб-таомилларни қўллаш аудиторга ўз диққат эътиборини молиявий ҳисоботнинг муаммоли бўлагига қаратишга имкон беради, яъни, фақатгина муаммоли бўлаги бўйича батафсил тест ўтказилиб, меҳнат ресурслари харажатлари даражасини сезиларли пасайтиришга ва аудиторлик далилларининг сифатини оширишга эришилади. Чунки, таҳлилий тартиб-таомилларни қўллаш орқали бошқарув қарорлари ва профессионал мулоҳаза шакллантириш учун зарур бўладиган аналитик маълумотларни олиш ва қайта ишлашга кетадиган вақт қисқаради.

2. Адабиётлар шарҳи.

Халқаро амалиётда таҳлилий тартиб-таомиллар аудиторлик фаолиятининг моҳияти жиҳатидан қуйидагича таъриф берилган (2-жадвал).

¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

2-жадвал

Аудитнинг Халқаро Стандартларида келтирилган «таҳлилий тартиб-таомиллар» моҳияти

Манба	Таъриф
Аудитнинг Халқаро Стандарти (520-сон АХС) “Таҳлилий тартиб-таомиллар”	Аудитнинг Халқаро стандартлари мақсадларида “таҳлилий тартиб-таомиллар” атамаси ҳам молиявий, ҳам номолиявий маълумотлар ўртасидаги объектив ўзаро алоқаларни ўрганиш асосида молиявий ахборотга баҳо беришни англатади. Таҳлилий тартиб-таомиллар ишга тааллуқли бўлган бошқа маълумотларга зид келадиган ёки қутилган натижалардан сезиларли даражада фарқ қиладиган аниқланган оғишлар ва ўзаро алоқаларни ўрганишни ҳам қамраб олади.
Аудитнинг Халқаро Стандарти (500-сон АХС) “Аудиторлик далиллари”	Таҳлилий тартиб-таомиллар ҳам молиявий ҳам номолиявий маълумотлар ўртасидаги тўғри алоқадорликларнинг таҳлили орқали молиявий маълумотларнинг баҳоланишини қамраб олади. Таҳлилий тартиб-таомиллар бошқа ўринли маълумотлар билан номуносиб бўлган ёки йирик суммада қутилган қийматлардан фарқ қилган ҳолда аниқланган тебранишларнинг ёки алоқадорликларнинг зарурий текширувини ҳам қамраб олади.

Таҳлилий тартиб-таомилларнинг бундай талқини ўзаро боғлиқлик таҳлилини, жумладан, сабаб-оқибатли таҳлилни назарда тутати.

Н.А.Никифорова (2016), В.И.Бариленко (2016), Н.А.Казакова (2015) каби россиялик бир гуруҳ олимлар таҳлилий тартиб-таомиллар корхонанинг молиявий ҳолатига баҳо бериш воситаси сифатида ҳам фойдаланилишини таъкидлашган. Мазкур ҳолатда, таҳлилий тартиб-таомиллар корхонанинг муҳим кўрсаткичлари ва коэффицентлари таҳлилидан фойдаланган ҳолда амалга оширилади. Бу жараён, уларнинг бошқа тегишли маълумотлар билан мос келмаган жиҳатларини ўрганишни ва мезон кўрсаткичларидан оғишиш сабабларини тадқиқ қилишни ҳам ўз ичига олади.

Н.А.Казакова, Э.И.Белякова (2016) каби олимлар таҳлилий тартиб-таомиллар солиқ тўловчининг солиқ тўламаслик билан боғлиқ эҳтимолий рискин аниқлашда самарали механизм эканлигини таърифлашган. Бу ўз навбатида, чамбарчас ўзаро боғлиқ бўлган бухгалтерия ва солиқ ҳисоби кўрсаткичларини солиштиришни назарда тутати.

Америкалик олимлар, Э.Аренс ва Дж. Лоббек (2003) ўз илмий асарларида “Таҳлилий тартиб-таомиллар” номли 56-сон Аудит стандарти баёноти (SAS 056)да берилган қуйидаги таърифни қўллаб қувватлаганлар: “Таҳлилий тартиб-таомиллар молиявий ва номолиявий хусусиятга эга маълумотларнинг ўзаро асосли боғлиқлигини ўрганиш орқали молиявий маълумотларга баҳо беришдан иборат”.

Бизнинг фикримизча, молиявий ҳисоботни аудитдан ўтказишда таҳлилий тартиб-таомиллардан фойдаланишнинг моҳияти хўжалик юритувчи субъект фаолиятининг молиявий ва номолиявий маълумотлари ўртасидаги объектив ўзаро алоқаларни топиш ва унга баҳо беришни англатади.

Аудитда таҳлилий тартиб-таомиллар қуйидаги мақсадларда қўлланилади:

- хўжалик юритувчи субъект фаолиятини ўрганиш;
- молиявий ҳисоботни бузилиши фактларини аниқлаш;
- батафсил аудиторлик тартиб-таомиллар сонини қисқартириш;
- юзага келган саволларга жавоб олиш мақсадида тестдан ўтказишни таъминлаш;
- хўжалик фаолиятида мумкин бўлган рисклар соҳасини белгиловчи ғайриоддий ёки нотўғри акс эттирилган фактлар ва натижаларнинг мавжудлиги ёки мавжуд эмаслигини аниқлаш;

- хўжалик юритувчи субъект молиявий ҳолатига баҳо бериш.

3. Тадқиқот методологияси.

Аудитда таҳлилий тартиб-таомилларнинг қўлланилиши бўйича Халқаро стандартлар, иқтисодчилар томонидан берилган таъриф ва фикрлар умумлаштирилган. Мавзуни ёритишда адабиётлар шарҳи, маълумотларни гуруҳлаш ва таққослаш методларидан фойдаланилган.

4. Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.

Хусусий капитал аудитини самарали ташкил қилиш кўп жиҳатдан таҳлилий тартиб-таомилларнинг аҳамиятини англаш, унинг элементларидан тўғри ва оқилона фойдалана олишга боғлиқ. Қуйида хусусий капитал аудитини ўтказишда хусусий капитал рентабеллиги коэффицентини таҳлил қилишнинг амалий аҳамиятига тўхталамиз (3-жадвал).

Хусусий капитал рентабеллиги коэффицентини (англ. *return on equity, ROE*) - бу молиявий кўрсаткич бўлиб, капиталнинг соф фойдага нисбатини фоизлардаги ифодасидир.

ROE кўрсаткичи (коэффицентини) қуйидаги формула ёрдамида аниқланади:

$$ROE = \frac{\text{Соф фойда}}{\text{Хусусий капитал}} \times 100 \%$$

бунда,

ROE - хусусий капитал рентабеллиги;

СФ – соф фойда;

ХК – хусусий капитал.

3-жадвал

«Ўзбекнефтгаз» акциядорлик жамиятининг хусусий капитал рентабеллиги – ROE кўртакичининг 2019-2023 йилларга таҳлили (млн.сўм)

Молиявий кўрсаткичлар	2019	2020	2021	2022	2023
Соф фойда	460 111	3 293 050	3 348 793	1 290 209	611 557
Хусусий капитал	36 239 012	46 762 646	50 018 956	49 458 403	48 726 967
Хусусий капиталнинг рентабеллиги (ROE), %	1,27	7,04	6,70	2,61	1,26

“Ўзбекнефтгаз” акциядорлик жамиятининг хусусий капитал рентабеллиги – ROE кўртакичининг 2019-2023 йилларда қуйидагича бўлган. Ушбу кўрсаткич 2019 ва 2023 йилларда паст бўлиб, мос равишда 1,35 ва 1,27 фоиз бўлган. Энг юқори кўрсаткичлар 2020 ва 2021 йилларда бўлиб, 7,04 ва 6,70 фоиз бўлган бўлса, 2022 йилда 2,61 фоизни ташкил этган. Сўнги 5 йилда хусусий капиталнинг таркибида сезиларли ўзгариш содир бўлган. Бу ўзгариш ёпиқ обуна шаклида акцияларни қўшимча чиқариш ҳисобига содир бўлган. Жамиятнинг 2019 йил 30 декабрда тасдиқланган янги таҳрирдаги Уставига мувофиқ жамият устав капиталининг миқдори 14 629 116 950 000 сўмни ташкил қилади ва номинал қиймати 1 000 сўм бўлган 14 628 597 094 дона оддий ҳамда 519 856 дона имтиёзли акцияларга бўлинган. Шундан сўнг, акциядорларнинг тегишли қарорлари билан, устав капитал миқдори 2020 йил 24 февралда 16 185 350 602 000 сўмга (қўшимча 1 544 755 277 дона оддий ва 11 478 425 дона имтиёзли акциялар чиқариш ҳисобига) етказилган. Бундан

ташқари, жамиятнинг 2020 йил 5 мартда тасдиқланган янги таҳрирдаги Уставига мувофиқ акцияларнинг номинал қиймати 1000 сўмдан 500 сўмга пасайтирилган ва шундан сўнг устав капитали миқдори 16 185 350 602 000 сўм бўлгани ҳолда, 32 346 704 642 дона оддий ҳамда 23 996 562 дона имтиёзли акциялардан ташкил топган. Жамиятнинг 2020 йил 9 декабрдаги тасдиқланган янги таҳрирдаги Уставига мувофиқ жамият устав капиталининг миқдори қўшимча акцияларни чиқариш ҳисобига 21 536 403 001 000 сўмга етказилган. Аммо, хусусий капиталнинг бундай суръатда ўсишига қарамасдан, шунингдек, соф фойда дастлабки 3 йилда қарийб 8 баробарга ошган бўлсада, сўнги 2022-2023 йилларда соф фойданинг миқдори кескин камайган. Бунга қуйидагилар сабаб бўлган.

Маҳсулот сотишдан соф тушум 2023 йилда 2022 йилга нисбатан 1 489 879 млн. сўмга ўсгани ҳолда, сотилган маҳсулотлар таннархи 3 087 968 млн. сўмга ортиқча бўлган. Кейинги салмоқли ўзгариш асосий фаолиятнинг бошқа даромадлари 2023 йилда 2022 йилга нисбатан 1 757 064 млн. сўмга кўп бўлганлиги ижобий таъсир кўрсатганига қарамасдан, ўз навбатида, молиявий фаолиятнинг харажатлари 1 524 990 млн. сўмга, жумладан, кредит фоиз харажатлари 685 578 млн. сўмга, валюта курси фарқидан зарарлар миқдори 839 412 млн. сўмга ортганлиги соф фойданинг камайишига жиддий таъсир кўрсатган. Молиявий харажатларнинг 2023 йилда ошишининг асосий сабаби жаҳон бозорларида фоиз ставкаларининг сезиларли даражада кўтарилиши ҳисобланади, жумладан «SOFR» 25,3 %га ва «EURIBOR» 79,3 %га ошган.

Соф фойда эса сезиларли даражада ўзгаришга юз тутган. Бизнинг фикримизча, мазкур ҳолатда қуйидагиларга эътибор қаратилиши лозим:

- ✓ соф фойданинг ўзгаришига қандай омиллар таъсир кўрсатганини, бу омиллар бошқа манбалардан олинган далиллар билан тасдиқланишини ўрганиш;
- ✓ бу омиллар молиявий ҳисоботни бузиб кўрсатишга алоқаси бор ёки йўқлигини ўрганиш;
- ✓ молиявий ва номолиявий маълумотлар ўртасидаги объектив ўзаро алоқаларни топиш ва унга баҳо бериш.

5. Хулоса.

Бажарилган таҳлилий тартиб-таомилларнинг натижаси бўлиб аудитор томонидан хўжалик юритувчи субъект молиявий ҳисоботи кўрсаткичларидаги ғайриоддий четланишларнинг аниқлаш ҳисобланади. Аудитор томонидан, бошқа манбалардан олинган далиллар билан тасдиқланмайдиган ғайриоддий четланишлар аниқланган ҳолатларда, у ўтказилган таҳлилий тартиб-таомилларнинг объективлиги ва ишончлилигига шахсан ишонч ҳосил қилиш учун уларни синчиклаб тадқиқ этиши керак. Тадқиқот жараёни хўжалик юритувчи субъект раҳбариятини фикрини сўрашдан бошланиши керак. Жавоблар аудиторлик далиллари билан ёки аудиторнинг хўжалик юритувчи субъект фаолияти тўғрисидаги билимлари билан тасдиқланиши лозим. Аудитор, раҳбарият фикрини сўраш натижаларига асосланган бошқа аудиторлик тартиб-таомилларини ўтказиш имкониятларини ҳам кўриб чиқиши керак. Хусусий капитал аудитини ўтказишда кўрсаткичларнинг ўзгаришига таъсир этувчи омиллар ўрганилади. Омилли таҳлилнинг ўтказилиши аудит жараёнида тўпланадиган далилларнинг ишончлилигини таъминлайди. Хусусий капитал аудитини ўтказишда ROE кўрсаткичини таҳлил қилиш аудиторга хусусий капитал аудитини ўтказишда текширув кўламини аниқлаш, аудит рискларини тўғри баҳолаш ва аудиторлик далилларининг ишончлилигини тасдиқлаш имконини беради.

Хулоса қилиб айтганимизда капитал аудитини ўтказишда таҳлилий амаллардан фойдаланиш аудитнинг ишончлиги ва самарадорлигини оширади

Адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси, 2021. «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонун, 25 февраль, ЎРҚ-677-сон.

Вазирлар Маҳкамаси, 2022. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақидаги Қарор, 11 апрель, 171-сон.

520-сон АХС, Таҳлилий тартиб-таомиллар. (санаси кўрсатилмаган — иложи бўлса, қўшинг).

500-сон АХС, Аудиторлик далиллари. (санаси кўрсатилмаган — иложи бўлса, қўшинг).

Аренс, А. and Лоббек, Дж., 2003. Аудит: пер. с англ. Под ред. Я.В. Соколова. Москва: Финансы и статистика.

Бариленко, В.И. (ред.), 2016. Анализ финансовой отчетности: учебное пособие. 4-е изд., перераб. Москва: КНОРУС.

Белякова, Э.И. and Казакова, Н.А., 2016. Аналитические процедуры оценки налоговых рисков и контроля правильности расчетов налога на добавленную стоимость. Управленческий учет, (6), pp.20–28.

Боровицкая, М.В., 2018. К вопросу о роли аналитических процедур в процессе аудита. Азимут научных исследований: экономика и управление, 7(3), pp.57–59.

Бычкова, С.М., 2025. Использование аналитических процедур. Available at: <http://www.buh.ru> [Accessed 23 Mar. 2025].

Казакова, Н.А., 2015. Финансовый анализ: учебник и практикум. Москва: Издательство Юрайт.

Никифорова, Н.А. and Тафинцева, В.Н., 2016. Управленческий анализ: учебник для бакалавриата и магистратуры. 2-е изд. Москва: Издательство Юрайт.

Юрченко, М.Ю., 2025. Использование аналитических процедур в ходе проведения аудита операций с основными средствами. CyberLeninka. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-analiticheskikh-protsedur-v-hode-provedeniya-audita-operatsiy-s-osnovnymi-sredstvami/viewer> [Accessed 23 Mar. 2025].



НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ХАЛҚАРО ТАЖРИБАСИ

Тошпулатов Ф.А.

*ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодийтини ривожлантиришнинг илмий асослари
ва муаммолари илмий тадқиқот маркази*

Аннотация. Ушбу мақолада нотижорат ташкилотларни молиялаштиришнинг халқаро механизмлари ресурсга тобелик, институционал изоморфизм ва «Blended Value» парадигмалари асосида таҳлил қилинди. Adaptive Resilience Loop модели диверсификация, ҳисобдорлик ва легитимлик ўртасидаги мувозанатни изоҳлаб, Ўзбекистон шароитида барқарор портфел стратегияси ва инновацион молия инструментлари бўйича амалий тавсиялар тақдим этади. Методологик чекланишлар ва келгуси тадқиқотлар йўналишлари белгиланди.

Калит сўзлар: нотижорат ташкилотлар, молиялаштириш, диверсификация, грантлар, ижтимоий тадбиркорлик, ресурсга тобелик, институционал изоморфизм, Blended Value, Adaptive Resilience Loop, ҳисобдорлик

Аннотация. В статье анализируются механизмы финансирования некоммерческих организаций через призму теории ресурсной зависимости, институционального изоморфизма и концепции «смешанной ценности». Предлагаемая модель Adaptive Resilience Loop описывает баланс диверсификации, отчетности и легитимности, формулирует практические рекомендации по устойчивой портфельной стратегии и инновационным инструментам для условий Узбекистана. Определены методологические ограничения и направления дальнейших исследований.

Ключевые слова: некоммерческие организации, финансирование, диверсификация, гранты, социальное предпринимательство, ресурсная зависимость, институциональный изоморфизм, смешанная ценность, Adaptive Resilience Loop, отчетность

Abstract. This article examines financing mechanisms for nonprofit organizations through the lenses of resource-dependence theory, institutional isomorphism, and the blended-value concept. The proposed Adaptive Resilience Loop model explains how diversification, accountability, and legitimacy interact, and offers practical guidance on sustainable portfolio strategies and innovative financial instruments for Uzbekistan. Methodological limitations and future research avenues are identified.

Keywords: nonprofit organizations; financing; diversification; grants; social entrepreneurship; resource dependence; institutional isomorphism; blended value; Adaptive Resilience Loop; accountability

1. Кириш.

Нотижорат ташкилотлари жамиятда инсон капитали ривожини таъминлаш, ижтимоий адолатни мустаҳкамлаш ҳамда ижтимоий жиҳатдан заиф қатламларни қўллаб-қувватлашда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Улар давлат ва хусусий сектор ўртасидаги мувозанатни таъминловчи “учинчи сектор” сифатида фаолият юритиб, хавфсизлик, таълим, соғлиқни сақлаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш каби муҳим ижтимоий соҳаларда давлат хизматларини тўлдирувчи ролини ўйнайди. Бундай функциялар орқали нотижорат ташкилотлари иқтисодий самарадорликни ошириш ва ижтимоий барқарорликни таъминлашга ўз ҳиссасини қўшади. Шу билан бирга, бундай ташкилотларнинг таъсир доираси ва самарадорлиги кўп жиҳатдан уларнинг молиялаштириш манбаларининг барқарорлиги ва диверсификация даражасига боғлиқдир. Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, турли манбалар, яъни халқаро ва маҳаллий грантлар, давлат ташкилотлари билан шартнома асосидаги ҳамкорлик, хайриялар, жамият ва бизнес ҳамкорлик лойиҳалари, ижтимоий тадбиркорлик фаолияти орқали олинган даромадлар ҳамда капитал бозорларидаги инструментлар асосида шаклланган молиявий портфель нотижорат ташкилотларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш билан бирга, уларнинг стратегик мустақиллигини ҳам мустаҳкамлайди. Бу муносабатда халқаро ҳамда миллий олимлар томонидан яратилган назарий ёндашувлар, хусусан, ресурсларга боғлиқлик назарияси, яъни ташкилотлар ташқи манбаларга қанчалик кам боғлиқ бўлса, улар шунчалик мустақил ва инноватив бўлади, деган қараш, ўз аҳамиятини йўқотмаяпти.

Ўзбекистон каби ривожланаётган мамлакатларда нотижорат ташкилотларининг ҳуқуқий асослари сўнгги йилларда такомиллаштирилаётган бўлса-да, амалиётда бу сектор молиявий жиҳатдан ҳали тўла шаклланмаган. Аниқроғи, уларнинг фаолияти асосан қисқа муддатли грантлар ёки маҳаллий хайриялар ҳисобига амалга оширилади, бу эса узоқ муддатли, стратегик мўлжалланган ижтимоий лойиҳаларни барқарор равишда ҳаётга татбиқ этиш имкониятларини чеклайди. Халқаро молиявий институтлар ва донор ташкилотлар томонидан сўнгги йилларда илгари сурилаётган янги молиялаштириш механизмлари, масалан, оммавий жамғариш (crowdfunding), ижтимоий таъсир облигациялари, ижтимоий сармоядорлар консорциумлари, ижтимоий натижаларга асосланган шартномалар ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда ҳам муваффақиятли қўлланилиб, нотижорат секторининг молиявий барқарорлигига муҳим таъсир кўрсатмоқда.

2. Адабиётлар шарҳи.

Нотижорат ташкилотларни молиялаштиришда энг анъанавий ва кенг тарқалган манбалардан бири бу - хайрия маблағлари ҳамда грант шаклидаги молиявий ёрдамлар ҳисобланади. Лестер Саламон ўзининг “ихтиёрий сектор” тўғрисидаги моделини таҳлил қилар экан, давлат хизматлари тизимида пайдо бўладиган бошқарувдаги бўшлиқлар хайрия ва фуқаролик ташаббуслари орқали тўлдирилиши мумкинлигини таъкидлайди (Salamon, 2012). Фроэлих эса нотижорат ташкилотларнинг грантларга кучли боғлиқлиги стратегик мустақилликни чекловчи омил сифатида намоён бўлишини “ресурсларга боғлиқлик” назарияси асосида асослаб беради (Froelich, 1999). Шу билан бир қаторда, Пол Анеернинг ёзишича, хайриялар зўрма-зўравон кучларга эмас, балки ташкилотнинг инсонпарварлик ва ижтимоий адолатга асосланган миссиясига ҳамоҳанг ресурс сифатида қаралиши керак (Anheier, 2014). Айрим тадқиқотчиларнинг фикрича, грантларни диверсификация қилиш, яъни турли манбалардан молия олиш, нотижорат ташкилотларнинг молиявий хавф-хатарларга нисбатан чидамлилигини оширади (Grasse, Whaley & Ihrke, 2014).

1980-йилларнинг охиридан бошлаб, неолиберал сиёсатлар таъсири остида кўплаб давлатлар ижтимоий хизматларни ўзлари бевосита кўрсатиш ўрнига, уни фуқаролик

жамияти институтларига аутсорсинг қилишга ўта бошлади (Smith & Lipsky, 1993). Натижада, нотижорат ташкилотлар ҳукумат билан тузилган шартномалар асосида анча йирик ва кўп йиллик молиявий ресурсларга эга бўлди. Бироқ бу ҳолат бюрократик ҳисобдорлик харажатларининг ўсишига ва ташкилотларнинг ички флексибиллиги камайишига олиб келди (Young, 2000). Таъминотчи ва буюртмачи ўртасида шаклланаётган қувват муносабатлари эса баъзи ҳолларда заиф ижтимоий гуруҳларнинг эҳтиёжлари инкор этилишига сабаб бўлган (Boris & Steuerle, 2016). Шу билан бирга, Буюк Британия, Канада ва Австралия тажрибалари шуни кўрсатадики, агар давлат томонидан қулай шартнома ҳуқуқи ва натижага асосланган бошқарув тизимлари жорий этилса, квази-бозор механизмлари ижобий ижтимоий натижаларни беришга қодир (Nichols, 2020).

Ижтимоий тадбиркорлик тушунчаси нотижорат ташкилотларга ўз-ўзини таъминлаш имконини берувчи бозор операцияларини ўз миссиясига уйғун ҳолда амалга оширишга ундайди (Dees, 1998). Дэвид Янгнинг “молиявий гибрид” моделида аъзолик бадаллари, хизмат ва маҳсулот сотуви, иштирок тўловлари каби бозор инструментлари нотижоратнинг ижтимоий мақсади билан мувозанатда бўлиши шарт, деб кўрсатилади (Young, 2007). Бироқ бу модел “миссиядан оғиш” муаммосини, яъни молиявий даромад ортиши ҳисобига ташкилотнинг асосий мақсадларидан четлашиш хавфини ҳам ўз ичига олади (Jones, 2007). Бланди томонидан олиб борилган тадқиқотларда кўрсатилишича, ижтимоий тадбиркорлик билан шуғулланувчи ташкилотлар даромадларининг 30–60 фоизини ҳали ҳам субсидиялар билан тўлдиришга мажбур, бу эса молиялаштириш манбалари диверсификациясининг долзарблигини янада кучайтиради (Blandi, 2021).

Letts, Ryan ва Grossman (1997) томонидан ишлаб чиқилган “венчур хайрияси” концепциясига кўра, донорлар нотижорат ташкилотларга фақат молиявий ёрдам кўрсатиш билан чекланмасдан, уларга бошқарув тажрибаси, маркетинг кўникмалари ва тармоқ ресурсларини ҳам тақдим этади. Brest ва Born (2013) эса бундан ҳам олдинга бориб, “стратегик хайрия” моделини таклиф қилган, у ерда сармоянинг пул кўринишидаги қайтиши эмас, ижтимоий таъсир қайтиши (SROI – Social Return on Investment) ўлчов сифатида қўлланилади. 2010 йиллар бошидан бошлаб Буюк Британия, Америка Қўшма Штатлари ва Япония давлатларида кенг тарқалган ижтимоий таъсир облигациялари амалиёти (Social Impact Bonds) жамоат хизматларини хусусий сармоя орқали олдиндан молиялаштириш, натижа эришилганда эса давлат томонидан маблағ тўланиши схемаси жуда кўплаб синовларда ўзини оқлаган (Fraser, Tan & Penny, 2018). Иқтисодий Ҳамкорлик ва Тараққиёт Ташкилоти (OECD, 2021) ушбу инструментларни “ҳали тўлиқ шаклланмаган, аммо катта салоҳиятга эга механизмлар” деб баҳолайди.

Рақамли технологияларнинг ривожланиши нотижорат ташкилотларга оммавий жамғариш, яъни кенг жамоатчиликнинг майда хайриялари орқали маблағ тўплаш имкониятини берди. Belleflamme, Lambert ва Schwienbacher (2014) краудфандинг моделини “номаълумлик бозори” (market for lemons) муаммосини ҳал қилишдаги самарали усул сифатида кўради: бунда очиқлик ва ижтимоий ишонч орқали ахборот асимметрияси камайтиради. Agrawal, Catalini ва Goldfarb (2015) томонидан олиб борилган таҳлиллар эса рақамлаштириш туфайли географик тўсиқлар бартараф этилиб, нотижорат ташкилотлар глобал донорлар базасига чиқиш имконига эга бўлишини кўрсатади. Европа Иттифоқининг 2020/1503-сонли Директиваси эса платформаларни лицензиялаш ва сармоядорларни ҳуқуқий ҳимоя қилиш орқали мазкур соҳада ҳуқуқий аниқликни таъминлаган (European Commission, 2021).

Пфеффер ва Саланчикнинг “ресурсларга боғлиқлик” назарияси нотижорат ташкилотларнинг ташқи манбаларга кам боғлиқ бўлиши уларнинг стратегик мустақиллигини таъминлашини таъкидлайди (Pfeffer & Salancik, 1978). Шу билан бирга, ДиМаджио ва Пауэллнинг институционал назарияси нотижорат ташкилотларни грант бериш жараёнидаги формал талабларга мослашишга мажбур этувчи изоморфизм

жараёнларига дуч келиши мумкинлигини кўрсатади (DiMaggio & Powell, 1983). Эмерсон томонидан ишлаб чиқилган “аралаш қиймат” назарияси эса иқтисодий фойда ва ижтимоий таъсир ўртасида мувозанатни шакллантириш мумкинлигини илгари суради (Emerson, 2003). Эбраҳим, Баттилана ва Маирнинг изланишлари эса ижтимоий таъсирни ҳисобдорлик орқали аниқлаш имкони мавжудлигини, бу эса юқори хатарли молиявий воситаларни ҳам портфельга жалб қилишга йўл очишини таъкидлайди (Ebrahim, Battilana & Mair, 2014).

Олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, нотижорат ташкилотлар учун ягона молиялаштириш схемаси етарли эмас. Илмий қарашларда “портфель” ёндашуви, яъни грантлар, давлат шартномалари, бозордан келадиган даромадлар ва инновацион сармояларни ўзаро уйғунлаштирган ҳолда гибрид молиялаштириш моделини шакллантириш энг барқарор ечим сифатида кўрилатгани кузатилади (Salamon & Toepfer, 2023). Бироқ мазкур молиявий инструментлар нотижорат ташкилотнинг асосий миссиясига содиқ қолишини, бошқарув шаффофлигини таъминлашни ва ижтимоий таъсирни аниқ ўлчаш тизимларини ҳам ўз ичига олмаса, кутилган натижага эришиш қийинлашади. Шу туфайли, кейинги бўлимда турли назарий моделлар асосида молиялаштириш механизмларининг афзалликлари ва хавф-хатарлари чуқур таҳлил қилинади.

3. Тадқиқот методологияси.

Методологик нуқтаи назардан қаралганда, мақола таълимий ва услубий манбаларни танқидий қайта кўриб чиқиш, асосий концептуал моделлар, жумладан, ресурсларга боғлиқлик назарияси, яъни ташкилотлар ташқи манбаларга қарам бўлмаган ҳолда мустақил фаолият юритиши мумкинлигини таъкидловчи қараш ҳамда аралаш қиймат назарияси, яъни ижтимоий таъсир ва иқтисодий фойдани бир вақтнинг ўзида яратиш мумкинлигини кўрсатувчи концепция асосида таҳлил қилинган. Бундан ташқари, тадқиқотда институтсионал иқтисодиёт назарияси, ижтимоий тадбиркорлик, молиявий инклюзия, давлат ва фуқаролик жамияти ўртасидаги шериклик муносабатлари каби турли соҳалардаги замонавий илмий қарашлар кесишувидаги муаммоларга эътибор қаратилган.

4. Таҳлил ва натижалар.

Нотижорат ташкилотларнинг молиялашуви билан боғлиқ назарий асосларни таҳлил қилиш бу секторнинг замонавий иқтисодий ва ижтимоий функцияларини англашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Pfeffer ва Salancik (1978) томонидан илгари сурилган ресурсга боғлиқлик назарияси (Resource Dependence Theory) нотижорат ташкилотлар ташқи манбаларга қанчалик боғлиқ бўлса, шунчалик уларнинг стратегик мустақиллиги чекланиши мумкинлигини таъкидлайди. Бу қарашдан келиб чиқиб, ресурслар диверсификацияси стратегик эркинлик ва барқарорликни таъминловчи муҳим шарт сифатида қаралади. Бироқ, ҳар бир янги манба ташкилотдан ҳисобдорлик ва мувофиқлашувни талаб қилади, бу эса институционал юкни оширади.

DiMaggio ва Powell (1983) томонидан асосланган институционал назария эса нотижорат ташкилотлар грант, давлат шартномалари ёки халқаро маблағлар тўғрисидаги талабларга мослашиш натижасида муайян стандартлашувга юз тутаяди, деб таъкидлайди. Бу жараён изоморфизм деб аталиб, нотижорат секторни бюрократик нормаларга яқинлаштиради. Натижада, ташкилотлар ўзининг ижодий-новаторлик салоҳиятидан воз кечиши, институционал муҳитга мойил ҳолда ҳаракат қилиши мумкин.

Emerson (2003) томонидан таклиф этилган “blended value” парадигмаси эса ижтимоий, иқтисодий ва экологик қийматларни бир-биридан ажратмасдан, уларни

яхлит қарашда баҳолашни таклиф этади. Бу ёндашувга кўра, нотижорат фаолият нафақат ижтимоий таъсир, балки иқтисодий самарадорлик ҳам яратиши керак. Шу нуқтаи назардан, грант, тижорат даромадлари ва сармоя каби турли манбаларни уйғунлаштириш - кўп қийматли (multi-value) фаолиятни шакллантиришга хизмат қилади.

Freeman (1984)нинг стейкхолдер назарияси нотижоратларнинг фақат донорлар олдида эмас, балки кенг ижтимоий қатламлар, давлат ва хусусий сектор, фойдаланувчилар ва инвесторлар олдидаги ҳисобдорлигини ўртага қўяди. Ҳар бир манфаатдор гуруҳнинг интизоми, талаблари ва истиқболлари нотижоратларнинг молиялашув шакллари ҳам таъсир кўрсатади. Бу эса, ҳисобдорлик меъёрлари ва индикаторлар асосида натижаларни баҳолаш механизмини ривожлантиришни тақозо этади.

Salamon ва Toepler (2023) томонидан таҳлил қилинган грант ва хайрия манбалари кўп ҳолларда нотижоратлар учун миссияга мос ва манбаларни талаб этмайдиган “юмшоқ” молиялаштириш шакли сифатида баҳоланади. Бироқ ресурсга боғлиқлик назарияси нуқтаи назаридан, уларга ҳаддан ташқари боғлиқлик стратегик фаолиятни чеклаши, молиявий хавфни кучайтириши мумкин. Айниқса, маҳаллий шароитда грантларнинг қисқа муддатли ва тармоқлашмаган характери узоқ муддатли таъсирни таъминлашда тўсиқ бўлиб хизмат қилади.

Boris ва Steuerle (2016) кўрсатганидек, ҳукумат шартномалари нотижоратларга катта ҳажмдаги маблағларни жалб қилиш имкониятини яратса-да, ҳисобдорлик ва натижа талабларининг бюрократик юки ташкилотни ижтимоий мақсадлардан чалғитиши мумкин. Агар шартномаларда ижтимоий индикаторлар ва тенг ризо механизмлари мавжуд бўлмаса, квази-бозор орқали молиялашув натижадорлик ўрнига расмиятчиликни рағбатлантириши эҳтимолдан холи эмас.

Dees (1998) ижтимоий тадбиркорлик назарияси орқали нотижоратларнинг бозор операциялари орқали даромад топишини асослаган. Унингча, ижтимоий мақсад ва бозор механизми ўзаро уйғунлаштирилиши мумкин. Бироқ Young (2007) фикрига кўра, бундай “молиявий гибрид” структурада масъулиятни аниқ тақсимлаш ва миссиядан оғишмаслик талаб этилади. Jones (2007) “миссия-дрифти” муаммосини келтириб чиқарувчи омил сифатида даромадга бўлган кучли мотивацияни кўрсатади. Letts, Ryan ва Grossman (1997) томонидан илгари сурилган “venture philanthropy” модели донорларнинг фақат маблағ билан эмас, балки бизнес кўникма ва тармоқ капитали билан иштирокини назарда тутаяди.

Brest ва Born (2013) бу йўналишни “strategic philanthropy” деб атаб, ижтимоий натижани инвестиция самараси сифатида баҳолашни таклиф этадилар. Ушбу ёндашувлар нотижоратларнинг натижага йўналтирилган фаолиятини кучайтиради, бироқ мониторинг ва баҳолаш тизимларини тўлиқ ишга туширишни талаб қилади. Crowdfunding моделини таҳлил қилган Belleflamme ва ҳаммуаллифлар (2014) уни нотижоратлар учун “оммавий легитимлик синови” деб атаган. Агравал ва ҳамкорлари (2015) эса краудфандинг рақамли демократик молиялашув усули сифатида нотижоратларга глобал донорлар билан тўғридан-тўғри алоқани таъминлашини таъкидлашган.

Шу билан бирга, Европадаги ҳуқуқий базанинг шаклланиши (European Commission, 2021) ушбу механизмнинг шаффофлиги ва барқарорлигини мустаҳкамлаган. Назарий таҳлиллардан шу хулосага келиш мумкинки, нотижорат ташкилотлар учун ягона молиялаштириш модели етарли эмас. Аксинча, диверсификация қилинган ва

институционал муҳитга мослаштирилган портфел ёндошув, стратегик барқарорлик, миссия садоқати ва молиявий хавфларнинг мувозанатини таъминлашнинг энг самарали усулидир. Шу нуқтаи назардан, тадқиқотларда Adaptive Resilience Loop ёки Dynamic Portfolio Configuration каби модулли ёндашувларни жорий этиш орқали молиялаштириш фаолиятини стратегик танлов сифатида қайта кўриб чиқиш зарур.

5. Хулоса.

Хулоса қилиб айтганда, нотижорат секторида молиявий барқарорлик бу оддий бюджет баланс эмас, балки ресурс хилма-хиллиги, ҳисобдорлик тизими ва институционал легитимликнинг мураккаб ўзаро таъсирида шаклландиган динамик жараёндр. Adaptive Resilience Loop концепцияси айнан шу ўзаро боғлиқликни назарий жиҳатдан тизимлаштириш орқали, нотижорат ташкилотларга ўз миссиявий аслиятини йўқотмаган ҳолда, глобал молия бозорлари, давлат сиёсатлари ва жамият қутилмалари ўртасида стратегик манёвр қилиш имконини тақдим этади.

Бу концепция нафақат назарий асос сифатида, балки келгусида амалий сиёсат шакллантириш, институционал ислоҳотлар ва молиявий инновациялар ишлаб чиқиш учун мустаҳкам илмий платформа вазифасини бажара олади.

Адабиётлар:

Agrawal, A., Catalini, C. & Goldfarb, A. (2015) 'Crowdfunding: Geography, social networks, and the timing of investment decisions', *Journal of Economics & Management Strategy*, 24(2), pp. 253–274.

Anheier, H.K. (2014) *Nonprofit Organizations: Theory, Management, Policy*. 2nd edn. Abingdon: Routledge.

Belleflamme, P., Lambert, T. & Schwienbacher, A. (2014) 'Crowdfunding: Tapping the right crowd', *Journal of Business Venturing*, 29(5), pp. 585–609.

Blande, S. (2021) 'Hybrid income structures in social enterprises', *Social Enterprise Journal*, 17(3), pp. 412–432.

Boris, E.T. & Steuerle, C.E. (2016) *Nonprofits & Government: Collaboration and Conflict*. 3rd edn. Lanham: Rowman & Littlefield.

Brest, P. & Born, K. (2013) 'When can impact investing create real impact?', *Stanford Social Innovation Review*, 11(4), pp. 22–31.

Bryson, J.M., Crosby, B.C. & Stone, M.M. (2015) 'Designing and Implementing Cross-Sector Collaborations', *Public Administration Review*, 75(5), pp. 647–663.

Dees, J.G. (1998) 'Enterprising nonprofits', *Harvard Business Review*, 76(1), pp. 54–67.

DiMaggio, P.J. & Powell, W.W. (1983) 'The iron cage revisited', *American Sociological Review*, 48(2), pp. 147–160.

Ebrahim, A., Battilana, J. & Mair, J. (2014) 'The governance of social enterprises', *Research in Organizational Behavior*, 34, pp. 81–100.

Emerson, J. (2003) 'The blended value proposition: Integrating social and financial returns', *California Management Review*, 45(4), pp. 35–51.

European Commission (2021) *Regulation (EU) 2020/1503 on European crowdfunding service providers*. Brussels: EC.

Fraser, A., Tan, S. & Penny, J. (2018) 'Social impact bonds: Evidence-based policy or ideology?', *Public Money & Management*, 38(2), pp. 83–90.

Froelich, K.A. (1999) 'Diversification of revenue strategies', *Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly*, 28(3), pp. 246–268.

Grasse, N., Whaley, J. & Ihrke, D. (2014) 'Modern Portfolio Theory and nonprofit revenue diversification', *Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly*, 43(5), pp. 901–920.

- Jones, M.B. (2007) 'The multiple sources of mission drift', *Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly*, 36(2), pp. 299–307.
- Letts, C.W., Ryan, W.P. & Grossman, A. (1997) 'Virtuous capital', *Harvard Business Review*, 75(2), pp. 36–44.
- Nichols, G. (2020) 'Contracting for sport and leisure services', *Voluntas*, 31(6), pp. 1172–1189.
- OECD (2021) *Social Impact Investment 2020: The Impact Imperative for Sustainable Development*. Paris: OECD Publishing.
- Pfeffer, J. & Salancik, G.R. (1978) *The External Control of Organizations: A Resource Dependence Perspective*. New York: Harper & Row.
- Salamon, L.M. (2012) *The State of Nonprofit America*. 2nd edn. Washington, DC: Brookings Institution Press.
- Salamon, L.M. & Toepler, S. (2023) *Exploring Nonprofit Frontiers*. Oxford: Oxford University Press.
- Smith, S.R. & Lipsky, M. (1993) *Nonprofits for Hire: The Welfare State in the Age of Contracting*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
- Toepler, S. (2023) 'Mission, markets and hybrids: Towards a new typology', *Nonprofit Policy Forum*, 14(1), pp. 1–20.
- UNDP (2024) *Civil Society Brief: Uzbekistan*. Tashkent: United Nations Development Programme.
- Young, D.R. (2000) 'Alternative models of government-nonprofit sector relations', *Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly*, 29(1), pp. 149–172.
- Young, D.R. (2007) *Financing Nonprofits: Putting Theory into Practice*. Lanham: AltaMira Press.



ИНСТИТУЦИОНАЛ ЁНДАШУВНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Туракулов Т.А.

ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази

Аннотация. Ушбу мақолада 2000–2024 йиллар давомида Марказий Осиё ва қиёсий ривожланган мамлакатлар мисолида институционал сифатнинг иқтисодий натижаларга таъсири комплекс тадқиқ этилди. World Governance Indicators, Index of Economic Freedom ва Global Innovation Index каби халқаро базалар асосида тузилган панель маълумотлар xtreг ва xtrmg моделлари орқали таҳлил қилинди. Натижаларга кўра, институционал кўрсаткичларнинг 0,1 баллга яхшиланиши Ўзбекистоннинг киши бошига ЯИМини ўртача 4 фоизга оширишини, шунингдек, хорижий инвестициялар ва инновация натижаларига ижобий таъсир кўрсатишини тасдиқлади. Кейс-таҳлиллар суд-ҳуқуқ тизими, давлат харидлари ва грантлар соҳасидаги норасмий институтларни этик кодекс ва рақамли воситалар орқали формаллаштириш зарурлигини кўрсатди. Тадқиқот кўп қатламли институционал ислоҳотлар, университет-саноат ҳамкорлигини чуқурлаштириш ва блокчейн-реестрлар жорий этишга доир аниқ таклифлар биланг яқунланади.

Калит сўзлар: Институционал сифат; иқтисодий ўсиш; панель регрессия; суд-ҳуқуқ ислоҳоти; транзакцион харажатлар; университет-саноат ҳамкорлиги; инновация натижалари; норасмий институтлар; институционал ўзгариш; Марказий Осиё.

Аннотация. В данной статье проводится комплексное исследование влияния качества институтов на экономические результаты в странах Центральной Азии и ряде сопоставимых развивающихся и переходных экономик в период 2000–2024 гг. Панельные данные, сформированные на базе таких международных источников, как World Governance Indicators, Index of Economic Freedom и Global Innovation Index, проанализированы с использованием моделей xtreг и xtrmg. Полученные результаты подтверждают, что повышение институциональных показателей на 0,1 балла приводит в среднем к росту ВВП на душу населения Узбекистана на 4 %, а также оказывает положительное влияние на приток прямых иностранных инвестиций и инновационные выходы. Кейс-стади выявили необходимость формализации неформальных институтов в судебно-правовой системе, государственных закупках и грантовых программах посредством этических кодексов и цифровых инструментов. Исследование завершается конкретными рекомендациями по многоуровневым институциональным реформам, углублению сотрудничества «университет – промышленность» и внедрению блокчейн-реестров.

Ключевые слова: Качество институтов; экономический рост; панельная регрессия; судебно-правовая реформа; транзакционные издержки; университетско-промышленное сотрудничество; инновационные результаты; неформальные институты; институциональные изменения; Центральная Азия.

Abstract. This article presents a comprehensive study of how institutional quality affects economic outcomes in Central Asian countries and a group of comparable developing and

transition economies over 2000–2024. Panel data compiled from the World Governance Indicators, Index of Economic Freedom, and Global Innovation Index were analysed using xtreg and xtpmg models. The results show that a 0.1-point improvement in institutional indicators raises Uzbekistan’s GDP per capita by an average of 4 percent and has positive effects on foreign direct investment inflows and innovation outputs. Case studies highlight the need to formalise informal institutions in the judiciary, public procurement system, and grant programmes through ethical codes and digital tools. The study concludes with concrete recommendations for multi-layer institutional reform, deeper university–industry collaboration, and the introduction of blockchain-based registries.

Keywords: *Institutional quality; economic growth; panel regression; judicial reform; transaction costs; university–industry cooperation; innovation outputs; informal institutions; institutional change; Central Asia.*

1. Кириш.

Институционал ёндашув – бу жамиятдаги иқтисодий, сиёсий, ижтимоий жараёнларни ташкил этувчи ва бошқарув механизмларини шакллантирувчи асосий “қоида ва интизомлар” тизими сифатида эътироф этилган, кўп соҳаларда қўлланиладиган назарий ва методологик платформа ҳисобланади. Ушбу ёндашув иқтисодиёт, сиёсатшунослик, социология ва идоровий бошқарув соҳаларида кенг қўлланилиб, жамият тараққиёти, ташкилотлар самарадорлиги ва бозор механизмларининг ишлаш жараёнини шакллантирадиган институтларни таҳлил қилишга асосланади (North, 1990).

Институт тушунчаси ўз ичига формал қонун-қоидалар, норасмий урф-одатлар, қийматлар тизими ва ижтимоий шартномалар каби механизмларни қамраб олади. Ушбу институтлар шахслар ва ташкилотларнинг иқтисодий-ижтимоий рафторини муайян даражада чеклайди ёки рағбатлантиради, шу орқали иқтисодий натижаларнинг хусусиятига бевосита таъсир кўрсатади (Hodgson, 2006). Шу жиҳатдан, институционал ёндашув ижтимоий муносабатлардаги транзакцион харажатлар, уюшма-ташкилий тузилмалар, мулкчилик ҳуқуқлари ва бойлик тақсимооти каби асосий категорияларни қамраб олган ҳолда институтларнинг келиб чиқиши, эволюцияси ва ўзгариш механизмларини чуқур таҳлил қилади (Williamson, 2000).

Институционал мактаб илдизлари XX аср бошларида шаклланган бўлиб, аввал “эски институционализм” сифатида ривожланган, кейинчалик эса 1960–1970 йилларда “Янги институционал иқтисодиёт” (New Institutional Economics) тушунчаси майдонга чиқиши билан бу йўналиш янги босқичга кўтарилди. Янги институционал мактаб (Coase, 1960; North, 1991) ҳуқуқий, сиёсий ва иқтисодий омиллар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни чуқурроқ таҳлил қилиб, бозор ва идоровий келишувларнинг шаклланишини, ҳамда институтларни минимал маъмурий харажатлар асосида ислоҳ қилиш имкониятларини асослаб берди.

Бугунги кунда институционал ёндашув инсон капитали (Acemoglu & Robinson, 2012), инновация ва технологик ривожланиш (Nelson, 2005), жамоат бошқаруви самарадорлиги (Ostrom, 2010) ҳамда иқтисодий ўсишга таъсир этувчи омиллар сирасида муҳим назарий ва амалий восита сифатида қаралмоқда.

Институционал назариянинг энг муҳим жиҳатларидан бири - институтлар икки қаватли табиатга эга экани, яъни формал (қонуний) ва норасмий (информал) тартиб-қоидалар ўзаро ўрин алмашиб, иқтисодий натижаларга таъсир кўрсатиши ҳисобланади (Helmke & Levitsky, 2004). Масалан, Ўзбекистон шароитида расмий қабул қилинган бозор механизмлари ва ислохотлар фонда, ҳали-ҳамон мавжуд бўлган урф-одатлар ва норасмий “маъмурий” механизмлар тадбиркорлар ҳамда инвесторлар қарорларига кескин таъсир кўрсатмоқда. Бу ҳолат институционал ўзгариш фақат формал ҳуқуқий

тизимни эмас, балки жамиятнинг маданий, тарихий, ментал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши зарурлигини кўрсатади (Djankov et al., 2003).

Таҳлилнинг долзарблиги, биринчи навбатда, бозор иқтисодиётига босқичма-босқич ўтаётган Ўзбекистон каби мамлакатлар учун институционал ислохотларнинг аҳамияти билан боғлиқ. Халқаро амалиётлар (Жанубий Корея, Польша, Малайзия каби мамлакатлар мисолида) шуни кўрсатадики, мулк ҳуқуқларининг ҳимояланганлиги, самарали шартномалар, очиқ ва масъулиятли институционал тизимлар иқтисодий барқарорликнинг ҳамда инвестиция оқимининг бош омили ҳисобланади (Rodrik, 2008).

Шу нуқтаи назардан, институционал ислохотлар “қатламли ёндашув” асосида амалга оширилиши керак: конституцион ва сиёсий институционал ўзгаришлар, суд-ҳуқуқий тизимни ислоҳ қилиш, ҳамда микроиқтисодий даражада ижро интизоми ва контракт муносабатларини мустаҳкамлаш (Aoki, 2001).

Хулоса қилиб айтганда, ушбу мақола институционал ёндашувни назарий ва амалий нуқтаи назардан қайта баҳолаш, унинг иқтисодий ислохотлар жараёнидаги вазифаси ва салоҳиятини асослаш ҳамда Ўзбекистон каби иқтисодиётларда мазкур ёндашувни босқичма-босқич жорий этиш механизмларини ишлаб чиқишга қаратилган.

2. Адабиётлар шарҳи.

Институционал ёндашув иқтисодиёт, сиёсатшунослик, социология ва бошқарув таҳлили соҳаларида кенг қўлланилаётган назарий-методологик асос бўлиб, у жамият ривожини, ташкилотлар самарадорлигини ва иқтисодий жараёнларнинг муваффақиятли ишлашини таъминловчи қоидалар тизими институтлар тушунчасини марказга қўяди (North, 1990). Институтлар расмий қонун-қоидалар, норасмий меъёрлар, ижтимоий анъаналар ва қийматлар тизими мажмуаси бўлиб, инсонлар ва ташкилотларнинг иқтисодий рафторини чеклайди, йўналтиради ёки рағбатлантиради (Hodgson, 2006).

Институционал ёндашувнинг назарий илдизлари XIX асрнинг охирида шаклланган бўлиб, унинг дастлабки вакиллари сифатида Торстейн Веблен ва Жон Р. Коммонс қайд этилади. Веблен иқтисодий феъл-атворни жамиятда қарор топган «одатлар ва маросимлар»нинг натижаси деб қараб, бозор жараёнларини эволюцион ижтимоий менталитетсиз тушунишни мумкин эмас деб баҳолайди (Veblen, 1899). Коммонс эса “коллектив ҳаракат” назарияси асосида иқтисодий муносабатларни шартномалар, суд прецедентлари ва қонун-қоидалар орқали тартибга солиш имкониятини назарий жиҳатдан асослаб берди (Commons, 1934). Бу мактаб институтларни фақат юридик тушунча эмас, балки кенг қамровли ижтимоий тизим сифатида таърифлади.

XX асрнинг иккинчи ярмида шаклланган Янги институционал иқтисодиёт мактаби институтларнинг самарадорлик, харажат ва маълумот ноаниқлигига таъсирини аниқлашга йўналди. Рональд Коуз (1960) «транзакцион харажатлар» назариясини илгари суриб, баъзи иқтисодий фаолиятларнинг нега бозорда эмас, балки ташкилот ичида амалга оширилишини тушунтирди. Дуглас Норт (1990) институтларни “инсон томонидан яратилган, ижтимоий ўзаро муносабатларни шакллантирадиган қоидалар тўплами” сифатида таърифлаб, уларнинг вазифаси нотўлиқ маълумот ва транзакцион таваккалчиликни камайтиришдан иборат эканини қайд этди. Шу билан бирга, Норт тарихи институционал инерция (path dependence) концепциясини илгари суриб, айрим мамлакатлардаги ислохотлар самарасини уларнинг тарихий чекловлари билан боғлади (North, 1991).

Оливер Уильямсон (2000) эса институтлар таҳлилин тўрт даражага ажратиб, маданий кадрлардан тортиб конституцион институтлар, идоравий келишувлар ва ресурс тақсимолига бўлган босқичларни қамраб олди. Унинг таҳлиллари фирма-бозор чегарасини аниқлаш ҳамда иқтисодий қарорларда идоравий тизимнинг ўрнини белгилашга хизмат қилди.

1970–80-йилларда социологик институционализм уюшмаларнинг шаклланиши ва ўзгаришини «қонунли кўриниш» талаблари орқали изоҳлашга уринди. ДиМаджио ва Пауэлл (1983) томонидан ишлаб чиқилган “институционал изоморфизм” концепциясига кўра, ташкилотлар самарадорликка эмас, балки ташқи чамбардаги қонунлилик талабларига жавоб беришга интилади. Скотт (2014) эса институтларни когнитив, норматив ва регулятив устунлар тарзида тушунтириб, ташкилот хулқ-атворида “аҳамият беришга арзидиган тушунчалар” ҳал қилувчи ўрин тутди, деган фикрни илгари сурди.

Тарихий институционализм ислохотларни “критик бурилиш нуқталари” ва институционал инерция билан изоҳлайди (Pierson, 2004). Маҳоуни ва Телэн (2010) институционал ўзгаришнинг “оқибатга йўналган” (drift), “қатламлаш” (layering) ва “йўналишни алмаштириш” (conversion) каби шакллари кўрсатиб, ислохотларнинг тадрижан ва адаптив хусусиятга эга эканини асослашган.

Рационал танлов институционализи эса институтларни шахсларнинг ҳисоб-китоб қилинган рағбатларига жавобан шаклланадиган “ўйин қоидалари” деб кўради (Weingast, 1995). Острамнинг тадқиқотлари эса норасмий норма ва ўзаро назоратнинг кичик жамоаларда расмий ҳуқуқий тизимдан самаралироқ бўлиши мумкинлигини эмпирик асосда кўрсатди (Ostrom, 1990).

Жон Ходгсон институтларни эволюцион жараёнда шаклланувчи механизм сифатида кўриб, уларнинг мураккаблигини «талаб–танлов» модели орқали изоҳлайди (Hodgson, 2006). Масаҳико Аоки эса институтларни “ўйин назариявий мувозанатлар тўплами” сифатида моделлаб, давлат, жамоатчилик ва бозор ўртасидаги динамик паритетни таърифлаб берди (Aoki, 2001).

Асемоглу ва Робинсон (2012) “қатнашувчан” ва “дурбачилар” институтлар концепциясини илгари суриб, сўнгги турдаги институтлар барқарор иқтисодий ўсишга тўсиқ бўлишини таъкидлашди. Родрик ва ҳаммуаллифлар эса институционал сифатни иқтисодий ўсишнинг гипер-омили деб баҳолаб, уни савдо ва макроиқтисодий сиёсатдан устун қўйишди (Rodrik et al., 2004). Шу билан бирга, Гrief (2006) ва Helmke & Levitsky (2004) норасмий институтларнинг таъсирини ўрганишда контекстуал ва маданий чегараларни ҳисобга олиш зарурлигини уқтиришган.

Helmke ва Levitsky томонидан ишлаб чиқилган матрица формал ва норасмий институтлар ўртасидаги алоқани тўрт ҳолатда (асословчи, комплементар, зид ва алмаштирувчи) ифодалашга имкон берди. Бу, айниқса, Ўзбекистон каби бозор ислохотлари давом этаётган мамлакатларда расмий қонунчилик ислоҳларини норасмий нормалар қандай мустақамлаши ёки бекор қилиши мумкинлигини тушунишда муҳим назарий асос ҳисобланади.

3. Тадқиқот методологияси.

Ушбу тадқиқот 2000–2024 йилларда Марказий Осиё ва қиёсий мамлакатлар бўйича институционал сифат ҳамда иқтисодий натижалар ўртасидаги боғлиқликни динамик панель моделлар (xtreg, xtpmg, 2SLS) асосида баҳолади. Контент-таҳлил, интервью ва робустлик тестлари орқали натижалар тасдиқланди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Мазкур эмпирик тадқиқот институционал сифат билан иқтисодий натижалар ўртасидаги боғлиқликни 2000–2024 йиллар давомида таҳлил қилишга қаратилган бўлиб, у Марказий Осиё минтақасидаги Ўзбекистон, Қозоғистон, Қирғизистон ва Тожикистон давлатлари мисолида ҳамда муваффақиятли институционал ислохотларни амалга оширган Чехия, Польша, Малайзия ва Жанубий Корея каби таянч давлатлар билан қиёсий таҳлилни ўз ичига олади. Институционал сифатни баҳолаш учун халқаро

даражада тан олинган индикаторлар – World Governance Indicators (WGI) доирасидаги “Voice and Accountability”, “Regulatory Quality” ва “Rule of Law” субиндекслари, Heritage фондининг Economic Freedom Index (EFI) таркибидаги “Property Rights”, “Judicial Effectiveness” ҳамда умумий эркинлик баллари, шунингдек, Institutional Quality Index (IQI) ва Global Innovation Index (GII) кўрсаткичлари қўлланилди. Иқтисодий натижалар сифатида бир нафарга тўғри келадиган ялпи ички маҳсулот (GDP per capita, PPP), ялпи ички маҳсулотга нисбатан тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар улуши (FDI/GDP) ва GII доирасидаги “Innovation Output” субиндекси баҳоланди. Назорат ўзгарувчилари сифатида инсон капитали индекси (Barro-Lee маълумотлар базаси асосида), умумий инвестициялар, инфляция даражаси ва савдо очиқлиги индикаторлари киритилди. Барча маълумотлар WGI, World Development Indicators, Heritage Foundation, WIPO, ва UNDP базаларидан олинди, мамлакатлар кесимидаги панель маълумотлар асосида махсус маълумотлар тўплами шакллантирилди.

Эконометрик таҳлилларда бир неча моделлар ва методлар қўлланилди: аввало, қатъий таъсирлар (Fixed Effects) модели xtreg, fe robust шаклида; кейинча, Pesaran–Smith–Shin (1999) модели асосида ишлаб чиқилган PMG ва MG динамик панель усуллари; шунингдек, эндогенлик муаммосини бартараф қилиш учун инструментал ўзгарувчиларга асосланган 2SLS модели қўлланди. Instrument сифатида “legal origin” (юридик тизим манбаси – Британия ёки Франция ҳуқуқи) ҳамда мамлакатдаги интернет қамров даражаси танланди. Барча ҳисоб-китоблар STATA 17 SE муҳитида амалга оширилди. Бошқа методологик нуқтаи назардан, барча регрессорлар логарифм шаклида киритилиб, стандарт хатолар гетероскедастиклик ва автокорреляцияни ҳисобга олган ҳолда robust тарзда ҳисобланди.

Ўзбекистонда 2000–2024 йиллар давомида институционал кўрсаткичларда муайян яхшиланиш кузатилди. Масалан, Voice and Accountability кўрсаткичи –1,31 дан –0,52 гача яхшиланган бўлса, Regulatory Quality индикатори –0,88 дан –0,18 даражагача ўсган (World Bank, 2024). Бироқ бу ўсишларга қарамасдан, мамлакат 2024 йилда ҳам 162-ўринда қолиб, жаҳон рейтингда 12,3 пайзиллик перцентилда жойлашмоқда (Trading Economics, 2024), яъни ҳануз институционал муаммолар ҳал этилмаган. Heritage фондининг Economic Freedom Index (2025) натижаларига кўра, Ўзбекистон 100-ўринда жойлашиб, “mostly unfree” тоифасига киради. Бу индекс доирасида суд тизими самарадорлиги (Judicial Effectiveness – 34,3 балл) ва мулк ҳуқуқлари ҳимояси (Property Rights – 32,0 балл) каби муҳим субиндекслар энг паст кўрсаткичларни қайд этмоқда. Бу, ўз навбатида, иқтисодий ва ҳуқуқий институтлардаги чуқур ислоҳотлар эҳтиёжини кўрсатади.

Инновацион салоҳият нуқтаи назаридан, GII 2024 маълумотларига кўра, Ўзбекистон 71-ўринни эгаллаган бўлиб, бу муайян илгарилашни кўрсатади. Аммо инновацион ресурслар (inputs) ва натижалар (outputs) ўртасида 15 позициялик узилиш (innovation efficiency gap) кузатилмоқда. Бу ресурсларни тақсимлашда самарасизлик мавжудлигини, ҳамда “learning-by-doing” каби инновацияни амалий тажриба орқали ўзлаштириш механизмларининг етарли эмаслигини билдиради. Шу билан бирга, World Bank маълумотларига кўра, 2024 йилда Ўзбекистонда реал иқтисодий ўсиш суръати 6,5 фоизга етган, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар эса умумий инвестицияларда 30,5 фоизлик улушни ташкил этган (World Bank, 2025), бу институционал сифатнинг яхшиланиши инвестицион муҳитга ижобий таъсир ўтказаетганини тасдиқлайди.

Панель регрессия натижалари таҳлилида WGI умумий индекси 0,1 баллга яхшиланган тақдирда, ялпи ички маҳсулот бир нафарга 4,2 % га ўсиши ($\beta=0.42$, $p<0.01$),

EFI индекси 0,1 баллга яхшиланганда эса 2,8 % атрофидаги ўсиш ($\beta=0.28$, $p<0.05$) қайд этилди. PMG моделида узоқ муддатли таъсир WGI учун 0,51, Европа мамлакатларида 0,34, Марказий Осиёда 0,47 даражани ташкил этди. EFI таъсири айниқса Осиё мамлакатларида паст бўлиб, $p>0,1$ даражада аҳамиятсиз чиқди. Бу шундан далолат берадики, иқтисодий эркинлашув ўз-ўзига самара бермайди, балки у фақат очик ва самарали институтлар орқали амалга ошсагина ривожланишга олиб келади. 2SLS моделда, innovation output учун Regulatory Quality кўрсаткичи $\beta=0,36$ ($p<0,05$) ва University-Industry Collaboration $\beta=0,29$ ($p<0,05$) даражада аниқлангани инновация сиёсатида университет-саноат ҳамкорлигини чуқурлаштириш ва институтлар сифатини ошириш зарурлигини кўрсатади.

Расмий ва норасмий институтлар ўртасидаги боғлиқликни аниқлаш мақсадида кейс-таҳлиллар ҳам амалга оширилди. Масалан, 2018 йилда қабул қилинган “Давлат харидлари тўғрисида”ги қонун ва 2019 йилдан жорий этилган электрон тендер тизими расмий шаффофликни оширган бўлса-да, тадбиркорлар ушбу тендерларда қатнашиш учун “репутацион тавсия хатлари”ни талаб этилиши амалда шарт сифатида қабул қилинишини таъкидлашмоқда. Бу ҳолат Helmke ва Levitsky (2004) концепциясига кўра, “асослаштирувчи” (legitimizing) норасмий институт намунаси ҳисобланади. Шунингдек, инновацион грантлар тақсимотида 2020–2023 йилларда давлат грантларининг 37 % университетларга, 29 % хусусий секторга ва 34 % аралаш консорциумларга берилган. Расмий peer-review механизмлари мавжуд бўлса-да, устоз-шогирд тармоқлари, ижтимоий таниш-билиш муносабатлари қарор қабул қилишда муайян даражада таъсир кўрсатган.

Робустлик таҳлиллари натижалари ушбу моделларнинг барқарорлигини тасдиқлади: хусусан, WGI ўрнига Polity IV индекси киритилганда ҳам натижалар ўзгармади; 2SLS моделда Legal Origin ва Internet Coverage инструментлари институционал сифат кўрсаткичларининг статистик аҳамиятини 0,05дан юқори даражада таъминлади; Monte Carlo асосида ўтказилган ± 15 %лик симуляцияларда WGI таъсири $\pm 0,03$ пункт ичида ўзгариб, натижанинг барқарорлигини кўрсатди.

Ўзбекистон учун эришилган хулосалар шуни кўрсатмоқдаки, институционал сифат нафақат иқтисодий ўсишнинг, балки инвестиция оқимлари ва инновацион салоҳиятнинг асосий драйверидир. WGI индексида 0,1 баллга ўсиш иқтисодий ўсишни 4 % га, FDI улушини 0,2 фоизга ошириш потенциалига эга. Суд-ҳуқуқ тизимидаги заифликларни бартараф этиш, хусусан, Judicial Effectiveness ва Property Rights соҳаларида шаффоф тайинловлар, e-court платформаларини жорий қилиш орқали ҳуқуқий муҳитни мустаҳкамлаш муҳим аҳамиятга эга. Инновация жараёнларида университет-саноат алоқаларини институционаллаштириш, коллаборация учун молиявий ва регулятор рағбатлар яратиш GI натижаларида сезиларли яхшиланишга олиб келади. Норасмий институтларни расмий тизимга интеграция қилиш, тендер ва грант жараёнларидаги репутацион талабларни юридик кодексга айлантириш ва мустақил Integrity Ombudsman идорасини ташкил этиш ҳам миллий институтлар сифатини оширишда муҳим роль ўйнайди. Қолаверса, рақамли шаффофликни таъминлаш мақсадида кадастр, металл бозори ва импорт платформаларида блокчейн асосидаги реестрларни жорий этиш, “code is law” концепциясини институционал моделда амалга оширишга хизмат қилади.

5. Хулоса.

Кейс-таҳлиллар натижалари шундай хулосага олиб келдики, норасмий механизмлар, масалан, “репутацион тавсия хатлари” ёки “устоз-шогирдлик тармоқлари” расмий тендер ва грант тизимларини баъзан қувватлаб, баъзан эса шаффофлик ва рақобатни сусайтириши мумкин. Агар бундай “асослаштирувчи институтлар” (Helmke & Levitsky, 2004) устувор тусга эга бўлиб қолса, расмий ҳуқуқий тартибнинг таъсирчанлиги сўндирилиши мумкин. Бироқ уларни этик кодекслар, расмий фаолият стандартлари ва мустақил назорат институтлари орқали формал тизимга интеграция қилиш орқали ижобий таъсирга эришиш мумкин (Mahoney & Thelen, 2010).

Ушбу таҳлил асосида қуйидаги институционал ва сиёсий тавсиялар илгари сурилади. Аввало, суд-ҳуқуқ тизимида кўп-қатламли ислоҳотлар олиб борилиши зарур: макро даражада судьяларни мустақил тайинлаш механизмларини Конституция орқали кафолатлаш; мезо даражада хўжалик судларини ихтисослаштириш ва уларда коррупцияга қарши автоматлаштирилган назорат тизимларини жорий этиш; микро даражада эса e-court платформалар орқали рақамлашган ва шаффоф суд муҳитини шакллантириш керак. Шунингдек, давлат хизматлари, кадастр тизими ва мулк ҳуқуқларини рўйхатга олиш соҳаларида “code is law” тамойилига асосланган блокчейн-реестрларни жорий этиш орқали инсон омилини камайтириш ва манипуляция эҳтимолини чеклаш мумкин (De Filippi & Wright, 2018).

Инновация сиёсати нуқтаи назаридан, университет, саноат ва давлат идоралари ўртасида доимий ҳамкорликни таъминлайдиган кластерлар, масалан, “Silk Road Science Valley” каби тизимлар орқали грант, патент ва стартап лойиҳаларини ягона электрон платформада бошқариш зарур. Норасмий институтларни тартибга солишда тендер ва грант комиссиялари учун очиқ музокара жадвали ва “репутация реестри”ни жорий этиш, муҳокамаларни видеоёзув орқали архивлаш ва кузатувчиларнинг иштироки орқали шаффофликни кучайтириш мумкин. Илм-фан ва таълим соҳаларига хусусий сектор жалбини рағбатлантириш мақсадида «matching fund» модели, яъни хусусий маблағларга давлат томонидан мос рағбатлар ажратиш, Collaboration индексини яхшилаш ва GII output натижаларини оширишда катта роль ўйнаши мумкин.

Тадқиқотнинг маълум чекловлари ҳам мавжуд: биринчидан, WGI ва EFi каби индекслар субъектив ва эксперт баҳоларига асосланган бўлиб, муайян ноаниқлик эҳтимолига эга; иккинчидан, норасмий институтларни чуқур ўрганиш кенг қамровли этнографик ва социологик таҳлиллар талаб қилади; учинчидан, COVID-19 пандемияси давридаги маълумотлар макроиктисодий ва институционал жараёнларга “шок эффекти” бериб, динамик симметрияни бузган бўлиши мумкин.

Келгусидаги тадқиқотлар учун йўналишлар сифатида когнитив чекловлар (Kahneman, 2011) ва рақамли институтлар (FinTech, RegTech, GovTech) эволюциясини комплекс агент-бозор симуляциялари асосида моделлаштириш, ҳамда “инклюзив институтлар”дан “дурбачилик институтлари”га ўтиш жараёнида экспериментал дизайнлар орқали муваффақият ва муваффақиятсизлик омилларини аниқлаш зарур (Acemoglu & Robinson, 2012).

Хулоса қилиб айтганда, институционал сифат фақат ҳуқуқий ва меъёрий база билан чекланмайди, балки маданий меъёрлар, норасмий муносабатлар ва рақамли воситаларни ўз ичига олган мураккаб ва кўпқиррали тизим ҳисобланади. Уни сифат жиҳатидан яхшилаш бу Ўзбекистон каби ривожланаётган давлатлар учун фақат иқтисодий ўсишнинг драйвери эмас, балки глобал рақобатда муносиб иштирок этиш, инновацион салоҳиятни тўлиқ рўёбга чиқариш ва аҳолининг фаровонлигини таъминлашнинг стратегик воситаси ҳисобланади.

Адабиётлар:

- Acemoglu, D. va Robinson, J.A. (2012) *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity and Poverty*. London: Profile Books.
- Aoki, M. (2001) *Toward a Comparative Institutional Analysis*. Cambridge, MA: MIT Press.
- Barro, R.J. va Lee, J.W. (2013) 'A new data set of educational attainment in the world, 1950–2010', *Journal of Development Economics*, 104, pp. 184–198.
- Commons, J.R. (1934) *Institutional Economics*. Madison: University of Wisconsin Press.
- Coase, R.H. (1960) 'The problem of social cost', *Journal of Law and Economics*, 3(1), pp. 1–44.
- De Filippi, P. va Wright, A. (2018) *Blockchain and the Law: The Rule of Code*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
- DiMaggio, P.J. va Powell, W.W. (1983) 'The iron cage revisited: institutional isomorphism and collective rationality in organizational fields', *American Sociological Review*, 48(2), pp. 147–160.
- Djankov, S., Glaeser, E.L., La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F. va Shleifer, A. (2003) 'The new comparative economics', *Journal of Comparative Economics*, 31(4), pp. 595–619.
- Greif, A. (2006) *Institutions and the Path to the Modern Economy: Lessons from Medieval Trade*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Guriev, S. va Melnikov, N. (2022) 'Measuring informal institutions', *Economic Systems*, 46(4), 101012.
- Helmke, G. va Levitsky, S. (2004) 'Informal institutions and comparative politics: a research agenda', *Perspectives on Politics*, 2(4), pp. 725–740.
- Heritage Foundation (2025) *2025 Index of Economic Freedom: Uzbekistan Country Profile*. Washington, DC: The Heritage Foundation.
- Hodgson, G.M. (2006) *Economics in the Shadows of Darwin and Marx: Essays on Institutional and Evolutionary Themes*. Cheltenham: Edward Elgar.
- InnoLab (2024) *Progress Report 2024*. Bishkek: University of Central Asia.
- InnoWeek (2024) *Annual Innovation Week Report 2024*. Tashkent: Ministry of Higher Education, Science and Innovation.
- Innovation Agency of Uzbekistan (2024) *Statistics of Innovation Grants 2020–2023*. Tashkent: Innovation Agency.
- Kahneman, D. (2011) *Thinking, Fast and Slow*. New York: Farrar, Straus and Giroux.
- Knight, J. (1992) *Institutions and Social Conflict*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Law of the Republic of Uzbekistan (2018) 'On Public Procurement' (ZRU-472). Available at: <https://lex.uz> (Accessed: 6 July 2025).
- Mahoney, J. va Thelen, K. (2010) *Explaining Institutional Change: Ambiguity, Agency, and Power*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Nelson, R.R. (2005) *Technology, Institutions and Economic Growth*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
- North, D.C. (1990) *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.
- North, D.C. (1991) 'Institutions', *Journal of Economic Perspectives*, 5(1), pp. 97–112.
- Ostrom, E. (1990) *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Ostrom, E. (2010) 'Beyond markets and states: polycentric governance of complex economic systems', *American Economic Review*, 100(3), pp. 641–672.
- Pesaran, M.H., Shin, Y. va Smith, R.P. (1999) 'Pooled mean group estimation of dynamic heterogeneous panels', *Journal of the American Statistical Association*, 94(446), pp. 621–634.
- Pierson, P. (2004) *Politics in Time: History, Institutions, and Social Analysis*. Princeton: Princeton University Press.

Rodrik, D. (2008) *One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth*. Princeton: Princeton University Press.

Rodrik, D., Subramanian, A. va Trebbi, F. (2004) 'Institutions rule: the primacy of institutions over geography and integration in economic development', *Journal of Economic Growth*, 9(2), pp. 131–165.

Scott, W.R. (2014) *Institutions and Organizations: Ideas, Interests and Identities*. 4th edn. Los Angeles: SAGE.

StataCorp (2024) *Stata Statistical Software: Release 18*. College Station, TX: StataCorp LLC.

Trading Economics (2024) *Uzbekistan – Voice and Accountability – Data*. Available at: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/voice-and-accountability> (Accessed: 6 July 2025).

UNDP (2025) *Human Development Report 2025*. New York: United Nations Development Programme.

Veblen, T. (1899) *The Theory of the Leisure Class*. New York: Macmillan.

Williamson, O.E. (2000) 'The new institutional economics: taking stock, looking ahead', *Journal of Economic Literature*, 38(3), pp. 595–613.

WIPO (2024) *Global Innovation Index 2024: Uzbekistan Country Profile*. Geneva: World Intellectual Property Organization.

World Bank (2024) *Worldwide Governance Indicators Database*. Washington, DC: World Bank.

World Bank (2025) *Uzbekistan Country Overview*. Washington, DC: World Bank.

World Bank (2025) *World Development Indicators Database*. Washington, DC: World Bank.



ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ОМИЛЛАРИ ВА КОМПЛЕКС БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ

Хайдаров Х.Л.

ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази

Аннотация. Мақолада тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни (ТХИ) жалб этишга таъсир кўрсатувчи макроиқтисодий, институционал, инфратузилмавий, бозор ва геосиёсий омиллар комплекс тарзда таҳлил этилди. 2015–2024 йилларда 20 та мамлакатга оид 40 та индикатор System-GMM, АНР, TOPSIS ва DEA усуллари ёрдамида ўрганилди. Натижалар институционал сифат ва инфратузилманинг ҳал қилувчи ролини, инфляция ҳамда геосиёсий хавфларнинг салбий таъсирини тасдиқлади. Ўзбекистон мисолида ресурс самарадорлигини 16 % га яхшилаш имкони ва “яшил” энергетика орқали юқори қийматли ТХИни рағбатлантириш йўллари илгари сурилди.

Калит сўзлар: ТХИ, институционал сифат, макроиқтисодий барқарорлик, инфратузилма, АНР, TOPSIS, DEA, System-GMM, бозор ўлчами, инфляция, геосиёсий хавф, R&D, ESG, логистика, Ўзбекистон

Аннотация. В статье комплексно проанализированы макроэкономические, институциональные, инфраструктурные, рыночные и геополитические факторы, влияющие на привлечение прямых иностранных инвестиций (ПИИ). С использованием методов System-GMM, АНР, TOPSIS и DEA исследованы 40 индикаторов по 20 странам за 2015–2024 гг. Результаты подтвердили решающую роль институционального качества и инфраструктуры, а также негативное воздействие инфляции и геополитических рисков. На примере Узбекистана показана возможность повышения ресурсной эффективности на 16 % и стимулирования высококачественных ПИИ за счёт «зелёной» энергетики.

Ключевые слова: ПИИ, институциональное качество, макроэкономическая стабильность, инфраструктура, АНР, TOPSIS, DEA, System-GMM, размер рынка, инфляция, геополитический риск, R&D, ESG, логистика, Узбекистан

Abstract. This study offers a comprehensive assessment of the macro-economic, institutional, infrastructure, market and geopolitical factors that shape the attraction of foreign direct investment (FDI). Applying System-GMM, АНР, TOPSIS and DEA techniques, we examine 40 indicators for 20 countries over 2015-2024. The findings highlight the decisive contribution of institutional quality and infrastructure, while underscoring the adverse effects of inflation and geopolitical uncertainty. Using Uzbekistan as a case study, we demonstrate that enhancing resource efficiency by 16 percent and expanding “green” energy capacity could significantly boost high-value FDI inflows.

Key words: FDI, institutional quality, macroeconomic stability, infrastructure, АНР, TOPSIS, DEA, System-GMM, market size, inflation, geopolitical risk, R&D, ESG, logistics, Uzbekistan

1. Кириш.

Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳар қандай миллий иқтисодийнинг узоқ муддатли ўсишини таъминлашда стратегик аҳамиятга эга бўлган капитал шакли ҳисобланади. Улар нафақат молиявий ресурсларни жалб этиш, балки илғор технологиялар, самарали бошқарув тажрибаси, инсон капитали сифати ва глобал қиймат занжирларига интеграциялашув имкониятларини тақдим этади. UNCTAD маълумотларига кўра, 2025 йилда дунё миқёсида тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар оқимлари 1,3 трлн долларга яқинлашган. Шу билан бирга, глобал инвестиция муҳитига таъсир этувчи ташқи шоклар, хусусан, геосиёсий беқарорлик, глобал таъминот занжирларидаги узилишлар ва мафкуравий хусусиятга эга протекционист сиёсатлар трансчегаравий капитал оқимларининг йўналиши ва миқдориди кескин ўзгаришларни келтириб чиқармоқда (Kearney, 2025).

Бундай мураккаб ва ўзгарувчан шароитда миллий давлатлар тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этишда рақобатбардош устунликларини қайта шакллантириш заруратига дуч келмоқда. Бу эса, ўз навбатида, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларга таъсир этувчи омилларни ҳар томонлама тизимлаштириш ва уларнинг нисбий аҳамиятини аниқлашни талаб этади. Илмий манбаларда ушбу омиллар шартли равишда макроиқтисодий (иқтисодий ўсиш суръати, инфляция даражаси, валютанинг барқарорлиги), бозор (ички бозор ҳажми, истеъмол салоҳияти), институционал (ҳуқуқий муҳит, мулкни ҳимоя қилиш, коррупция даражаси), технологик-инновацион (илмий тадқиқотларга сарфланадиган харажатлар, R&D экотизими), инфратузилмавий (логистика, рақамли инфратузилма), ҳамда геосиёсий (сиёсий барқарорлик, ташқи сиёсий йўналиш) тоифаларга ажратилади (Dunning, 1993; OECD, 2024).

Бироқ амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, ушбу омиллар мустақил эмас, балки ўзаро боғлиқ ва динамик тусга эга. Масалан, инфляция даражасини пасайтиришга қаратилган сиёсат институционал сифатсиз, хусусан, мустақил марказий банк мавжуд бўлмасдан самара бермайди. Шунингдек, инновацион салоҳиятни оширишга қаратилган ҳаракатлар етарлича рақамли инфратузилмага эга бўлмаган шароитда иқтисодий юксалиш учун зарур мултипликатив таъсирни ярата олмайди. Шу боисдан, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар детерминантларини баҳолашда холислик ва ишончликни таъминлаш учун комплекс ёндашув талаб этилади. Бу эса кўп критерийли таҳлил (multi-criteria decision analysis – MCDA) методларини жорий этишни тақозо этади.

Ушбу мақолада тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилишига таъсир кўрсатаётган омиллар илмий-назарий жиҳатдан тизимлаштирилади, уларни баҳолашда қўлланилаётган илғор инструментлар таҳлил этилади. Хусусан, АНП (Analytic Hierarchy Process) ва TOPSIS (Technique for Order Preference by Similarity to Ideal Solution) усулларининг комбинацияси ҳамда ДЕА (Data Envelopment Analysis) моделларини ўз ичига олган интеграл ёндашув таклиф этилади. Мазкур ёндашув орқали мамлакатлар ва ҳудудлар кесимида тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш салоҳиятини аниқлаш, детерминантларнинг вазни баҳосини бериш ҳамда стратегик ислоҳот йўналишларини белгилаш имконияти яратилади. Шу тариқа, тадқиқот натижалари иқтисодий сиёсатни ишлаб чиқувчи органлар ва экспертлар учун амалий аҳамият касб этади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Хорижий инвестицияларни жалб этиш жараёнидаги асосий омилларни тадқиқ этишга оид илмий изланишлар 1970-йилларда шаклланган монетар ёндашувлардан бошланиб, 1977 ва 1993 йилларда Жон Даннинг томонидан таклиф этилган мулкчилик, жойлашув ва ичкилаштириш концепцияларига асосланган назарий асослар орқали

тизимлашган. Ушбу OLI парадигмаси хорижий инвестиция киритувчи субъектларнинг мулкый афзалликлари, қабул қилувчи мамлакатдаги жойлашув имкониятлари ва фаолиятни ичкилаштириш заруратини умумлаштирган ҳолда инвестиция қарорларини тушунтиришга ҳаракат қилган.

Кейинги даврларда институционал иқтисодиёт мактаби доирасида ушбу жараёнга ҳуқуқий муҳит, коррупция даражаси, қонун устуворлиги каби омилларнинг таъсирига оид илмий ёндашувлар кенг тарқалди. Хусусан, Дуглас Норт томонидан 1990 йилларда асосланган институционал назарияда мулк ҳуқуқлари ва расмий-норасмий институтларнинг ролига алоҳида урғу берилган. Яқинда олиб борилган эмпирик тадқиқотларда эса системали GMM моделлар ёрдамида институционал кўрсаткичлар билан тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ўртасидаги боғлиқлик аниқ равшанлаштирилган (Mistura va Roulet, 2022).

Сўнгги йилларда халқаро даражадаги глобал ҳисоботлар муаллифлари ҳам хорижий инвестиция оқимларига таъсир этувчи омилларни илмий асосда изоҳлашга ҳаракат қилмоқдалар. Жумладан, Kearney томонидан тақлиф этилган Инвестициялар бўйича Ишонч Индексида макроиқтисодий барқарорлик, ички бозор ҳажми ҳамда сиёсий-ҳуқуқий таваккалчиликлар инвестиция қарорларини 73 фоизгача изоҳлаш қобилиятига эга эканлиги қайд этилган (Kearney, 2025). Шу билан бирга, Иқтисодий Ҳамкорлик ва Тараққиёт Ташкилотининг Инвестиция Сифати Индикаторлари хорижий инвесторлар оқимининг инновацияга ҳисса қўшиш, гендер тенглигини таъминлаш ва иқтисодиётни декарбонизация қилишга қаратилган қўшимча қийматини баҳолаш имконини беради (OECD, 2024).

Амалиётда эса макроиқтисодий барқарорлик, жумладан, ялпи ички маҳсулот ўсиш суръати, инфляция даражаси, ички бозор ўлчами, савдо очиқлиги ва табиий ресурслар каби омиллар биргаликда таъсир кўрсатиши қайд этилмоқда. Масалан, Plos ONE журналининг 2024 йилдаги таҳлилига кўра, инфляциянинг ноаниқлиги ва валюта курсининг ўзгарувчанлиги хорижий инвестиция оқимларини 0,3–0,5 фоиз бандгача пасайтиради. MDPI нашридаги сўнгги мақолада эса институтлар сифати билан табиий ресурслар ўртасидаги ўринбосарлик таъсири очиқланган: яъни, коррупция даражаси юқори бўлган мамлакатларда табиий ресурсларга бойлик инвестиция самарасини чеклайди ва капитал оқимида салбий таъсир кўрсатади.

Методологик жиҳатдан олиб қаралганда, тадқиқотлар услуги диверсификация қилинаётгани кузатилмоқда. Хусусан, гравитация моделлари, панель маълумотлар асосида қурилган ARDL ва PMG моделлари ҳамда кўп критерийли қарор қабул қилиш усуллари (ANP, TOPSIS, Grey-TOPSIS, PROMETHEE) каби статистик ва эксперт баҳоларни уйғунлаштирувчи инструментлар кенг қўлланилмоқда. Ушбу усуллар эксперт хулосаларини объектив маълумотлар билан интеграция қилиш имконини яратиши сабабли, тадқиқот натижаларининг ишончлилигини таъминлайди.

Хулоса сифатида, мавжуд илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, хорижий инвестицияларни жалб этишда таъсир этувчи омиллар тўплами фақат изоляция қилинган ҳолда эмас, балки ўзаро боғлиқликда таҳлил қилиниши лозим. Умумий хулосага кўра, институционал сифат ва макроиқтисодий барқарорлик инвестиция муҳитининг базавий асосини ташкил этса, инфратузилма, инсон капитали ва инновацион салоҳият сингари омиллар эса инвестиция жалбида дифференцияловчи устунлик сифатида ҳаракат қилади.

3. Тадқиқот методологияси.

Ушбу тадқиқотда хорижий инвестицияларни жалб этишга таъсир этувчи омилларни чуқур ўрганиш мақсадида комплекс, кўп босқичли методологик дастур ишлаб чиқилди ва қўлланилди. Барча ҳисоб-китобларда логистика самарадорлиги индекси (Logistics Performance Index), коррупцияни қабул қилиш индекси (Corruption

Perceptions Index), тадқиқот ва ишланмаларга йўналтирилган харажатлар даражаси (Research and Development Intensity) каби 40 дан ортиқ кўрсаткич нормаллаштирилди. Шу билан бирга, натижаларнинг барқарорлигини таъминлаш ва хавф шокларининг таъсирини баҳолаш мақсадида сенситивлик таҳлили амалга оширилди. Ушбу таҳлилда Random Forest алгоритми қўлланилди, у асосий хавф манбаларини ва уларнинг инвестиция муҳитига бўлган таъсир даражасини моделлаштириш имконини берди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Халқаро инвестиция оқимларини жалб этиш муаммоси, айниқса, ривожланаётган мамлакатлар учун стратегик аҳамият касб этади. Глобал инвестиция муҳитида юзага келаётган ноаниқликлар, геосиёсий зиддиятлар, молиявий бозорлардаги ўзгарувчанлик ва ташқи таваккалчиликлар сабабли хорижий капитал ҳаракати йилдан-йилга сезиларли даражада ўзгармоқда. Бу эса инвесторлар қарорлари учун муҳим сигналлар сифатида хизмат қилувчи макроиқтисодий кўрсаткичларнинг долзарблигини янада оширмоқда.

Хусусан, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар оқимлари учун асосий биринчи филтёр сифатида ялпи ички маҳсулот ўсиш суръати, инфляция даражаси, давлат қарзининг нисбий юки, давлат бюджети тақчиллиги ва миллий валюта курсининг барқарорлиги хизмат қилади. Бундай кўрсаткичлар инвесторлар томонидан қабул қилувчи мамлакатнинг иқтисодий барқарорлик даражасини баҳолашда дастлабки мезон сифатида эътиборга олинади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Савдо ва тараққиёт бўйича конференцияси (UNCTAD) томонидан эълон қилинган сўнги ҳисоботга мувофиқ, 2024 йил якунида дунё бўйлаб тўғридан-тўғри хорижий инвестиция оқимлари 11 фоизга пасайган. Бундай қисқаришнинг асосий сабабларидан бири сифатида ривожланаётган мамлакатларда инфляцион босимнинг кучайиши ва миллий валюталарнинг ноаниқлиги қайд этилган (UNCTAD, 2025).

Шу билан бирга, Plos ONE журналида 2024 йилда эълон қилинган ва 33 та мамлакатни қамраб олган эмпирик тадқиқот натижаларига кўра, инфляция даражасининг ҳар 1 фоиз пунктга ошиши хорижий инвестиция оқимларини ўртача 0,42 фоизга қисқартираётгани аниқланган (Tagawneh ва бошқ., 2024). Бундай статистик боғлиқлик инфляцияни жиловлаш масаласи ривожланаётган иқтисодиётлар, жумладан, Ўзбекистон учун стратегик муаммо эканлигини кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси учун инфляцияни мақсадли даражада ушлаб туришга қаратилган “таргетлаш” сиёсатини босқичма-босқич жорий этиш нафақат ички макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш, балки хорижий инвестиция учун етарлича ишончли муҳит яратиш нуқтаи назаридан ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Миллий иқтисодиётга тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этишда институтлар сифатининг аҳамияти тобора ошиб бормоқда. Хусусий мулк ҳуқуқининг кафолатланганлиги, шартномалар ижросининг таъминланиши, коррупция даражасининг пастлиги ва тартибга солувчи органлар фаолиятининг шаффофлиги инвесторлар учун ҳудудий жозибдорликни белгилайдиган муҳим мезонлар ҳисобланади. Бундай институтлар инвестор учун “сигнал функцияси”ни бажаради, яъни иқтисодий муҳитдаги ҳуқуқий ишончни таъминлайдиган белгилар мажмуаси сифатида намоён бўлади.

Иқтисодий Ҳамкорлик ва Тараққиёт Ташкилоти (OECD) томонидан эълон қилинган Инвестиция Сифати Индикаторлари маълумотларига кўра, институционал кўрсаткичларнинг 0,1 баллга яхшиланиши, биринчи навбатда, юқори технологияли ва юқори иш ҳақи тўланадиган иш ўринларини яратадиган инвестиция оқимларини

тахминан 6 фоизга оширади (OECD, 2024). Бу эса сифати жиҳатдан самарали инвестиция оқимлари учун институтлар ҳал қилувчи омил эканлигини тасдиқлайди.

Бундан ташқари, Zhang ва Chowdhury (2024) томонидан олиб борилган системали GMM модели асосида амалга оширилган панель маълумотлар таҳлилида ҳам институционал сифат билан тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ўртасида 1 фоиз даражадаги статистик аҳамиятга эга бўлган ижобий корреляция қайд этилган. Бу каби натижалар институционал ислохотларни хорижий инвестицияларни жалб этиш сиёсатида устувор йўналиш сифатида белгиловчи илмий асосни яратади.

Ўзбекистон мисолида олиб қаралганда, айрим институционал кўрсаткичларда сезиларли фарқ кузатилмоқда. Жумладан, республикада шартнома бўйича суд ишлари ўртача 218 кун давом этади. Солиштирма ҳолда, Европа Иттифоқи мамлакатларидан бири бўлган Польшада бу кўрсаткич тахминан 120 кунни ташкил этади. Агар Ўзбекистон мазкур кўрсаткични Польша стандартига яқинлаштира, яъни суд ишлари муддатини қисқартиришга эришса, институционал индикатор тахминан 0,04 пунктга яхшиланиши мумкин. Бу эса ўз навбатида, мамлакатнинг умумий хорижий инвестиция жозибдорлигини баҳоловчи интеграл бални 0,03–0,05 пунктгача ошириш эҳтимолини юзага чиқаради.

Шу тариқа, институционал ислохотлар, айниқса, суд-ҳуқуқ тизимидаги шаффофлик ва самарадорликни ошириш фақат миллий қонун устуворлигини таъминлаш эмас, балки халқаро инвесторлар учун ишонч муҳитини шакллантириш воситаси сифатида ҳам қаралиши лозим.

Глобал инвестиция оқимларининг йўналиши ва миқдори нафақат иқтисодий кўрсаткичлар, балки бозор ҳажми, савдо очиқлиги, инфратузилма даражаси, инновацион муҳит ва геосиёсий хавфлар билан бевосита боғлиқдир. Бундай омиллар хорижий инвесторларнинг қарорларини шакллантирувчи асосий факторлар сифатида халқаро рейтингларда кенг акс эттирилади ва мамлакатларнинг инвестициявий жозибдорлигини баҳолашда муҳим мезон вазифасини ўтайди.

Kearney томонидан 2025 йилда ўтказилган Инвестициявий Ишонч Индекси сўровномасида иштирок этган халқаро даражадаги топ-менежерларнинг 73 фоизи ички бозорнинг улканлигини инвестиция киритиш бўйича биринчи даражали қарор омили сифатида қайд этган. Мазкур нуқтаи назардан қаралганда, Ўзбекистон 37 миллионлик аҳоли ва 18–20 фоиз атрофида йиллик ўсиш суръатига эга бўлган электрон тижорат соҳаси ҳиссаси билан Марказий Осиё минтақасида энг катта ички бозор потенциалига эга мамлакатлардан бири ҳисобланади. Бу эса инвесторлар учун узоқ муддатли талаб барқарорлигини англатади.

Тариф ставкалари пастлиги, эркин савдо битимлари тизими ва божхона жараёнларини рақамлаштириш орқали хужжат айланишини оптималлаштириш хорижий инвестицияларнинг йўлга чиқишида “қопқоқ очувчи” катализатор сифатида хизмат қилади. Жаҳон банки (2023) томонидан тузилган Логистика Ижро Қобилияти Индексида 2023 йилги таҳлилларга кўра, юқори бешлик мамлакатларда ялпи ички маҳсулотда хорижий инвестициялар улуши ўртача 6,2 фоизни ташкил этган бўлса, паст бешликда бу кўрсаткич атиги 1,4 фоизни ташкил этган. Ўзбекистон мазкур индексда 2,42 балл тўплаган ҳолда 79-ўринда қайд этилган, бу эса логистика модернизацияси борасида катта захира мавжудлигини кўрсатади.

Транспорт ва логистика тизими, кенгполос интернет инфратузилмаси, “яшил” энергия манбалари ва таъминот занжирининг узлуксизлиги инвесторлар учун операцион хавфни камайтирувчи асосий омиллар қаторига киради. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Савдо ва тараққиёт бўйича конференцияси (UNCTAD) маълумотларига кўра, 2024 йилда инфратузилмага йўналтирилган глобал хорижий инвестициялар оқими 8 фоизга ошган бўлса-да, энергия билан боғлиқ хавфлар туфайли бир қанча йирик инфратузилма лойиҳалари музлатилган (UNCTAD, 2025). Шу йилда

Ўзбекистонда амалга оширилган 1,2 миллиард АҚШ доллари миқдоридagi автомагистралларни реконструкция қилиш ва 3 000 километрлик оптик толали интернет тармоғини барпо этиш орқали логистика харажатларини тахминан 5–7 фоизга камайтиришга эришилди. Бундан ташқари, кўп критерийли таҳлил усулларида бири бўлган TOPSIS моделида мамлакатнинг интеграл кўрсаткичи 0,02 пунктга яхшиланди.

Иқтисодий Ҳамкорлик ва Тараққиёт Ташкилотининг таҳлилларига кўра, тадқиқот ва ишланмаларга (Research and Development) йўналтирилган харажатларнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини 1 фоиз пунктга ошириш “яшил” ва “рақамли” инвестицияларнинг кириб келишига ўртача 0,7 фоизгача ижобий таъсир кўрсатади (OECD, 2024). Ўзбекистонда бу кўрсаткич ҳозирги кунда 0,32 фоизни ташкил этади. Бундай мувозанатни тартибга солиш мақсадида ҳукумат томонидан стартап визалари, натижага йўналтирилган грант дастурлари ва венчур молиялаштириш платформалари ривожлантирилаётгани таъкидлаш жоиз.

Reuters (2025) ахборот агентлигининг 2025 йилдаги хабарига кўра, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг таҳлиллари геосиёсий таранглик ва товарларга нисбатан тариф кескинлигининг хорижий инвестиция оқимларини янада чуқур пасайтиши мумкинлигини кўрсатган. Шунингдек, Kearney (2025) томонидан ўтказилган халқаро сўровда юқори даражали раҳбарларнинг 67 фоизи глобал геосиёсий хавфларни “ўта юқори хавф” сифатида баҳолаган. Бу ҳолатда Ўзбекистоннинг “нейтрал логистика узели” сифатидаги геоиқтисодий позицияси таваккалчиликни диверсификация қилиш имкониятини яратади. Аммо глобал санкциялар тизимида эҳтиёткор ва узоқни кўзлаган сиёсий ёндашув тақозо этилади.

1-жадвал

Марказий ва Жануби-Шарқий Осиё ҳамда танланган ривожланаётган мамлакатларда ТХИ жозибadorлиги бўйича АНР–TOPSIS–DEA рейтинг натижалари²

Давлат	TOPSIS C_i	DEA θ	Категория
Жанубий Корея	0,79	1,00	Ўта жозибador
Польша	0,74	0,94	Жозибador
Вьетнам	0,71	0,92	Жозибador
Малайзия	0,69	0,89	Жозибador
Қозоғистон	0,61	0,82	Ўрта
Ўзбекистон	0,58	0,84	Ўрта
Қирғизистон	0,46	0,71	Паст

1-жадвалда Халқаро инвестиция оқимлари учун рақобат кучи ортиб бораётган бир пайтда, мамлакатларнинг инвестиция муҳитини комплекс ёндашувлар асосида баҳолаш муҳим аҳамият касб этмоқда. Мазкур таҳлилда АНР–TOPSIS интеграл моделининг натижалари (C_i), шунингдек, маълум ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини акс эттирувчи DEA индекси (θ) орқали 7 та давлатнинг тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишдаги жозибadorлиги ўзаро солиштирилди. Шу билан бирга, ҳар бир мамлакат "Категория" устунида хусусиятларига кўра гуруҳларга ажратилди.

Жанубий Корея $C_i = 0,79$ ва $\theta = 1,00$ натижалари билан мутлақ етакчи сифатида қайд этилди. Бу мамлакатда институционал муҳитнинг юксак даражадаги сифатли ривожланганлиги, инфратузилма ва инновацион сиёсатларнинг юқори даражада амалга оширилиши эътиборга молик. DEA самарадорлик кўрсаткичида 1,00 натижа мамлакат ресурслардан йўқотишларсиз, яъни тўлиқ самара билан фойдаланаётганини билдиради. Шу сабаб, Жанубий Корея “ўта жозибador” тоифасига киритилди.

² Муаллиф ишланмаси

Польша ($C_i = 0,74$; $\theta = 0,94$) ва Вьетнам ($C_i = 0,71$; $\theta = 0,92$) “жозибатор” тоифасидаги мамлакатлар қаторига киради. Польшада суд-ҳуқуқ тизими ва логистика инфратузилмасининг мустаҳкамлиги асосий устунлик сифатида қайд этилган. Вьетнамда эса экспортга йўналтирилган саноат кластерлари ва ички бозорнинг тез ўсиши жозибаторликни оширадиган муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Малайзия ($C_i = 0,69$; $\theta = 0,89$) ФТАлар сони ва глобал таъминот занжирларига чуқур интеграция бўйича илғор мамлакат сифатида қайд этилган бўлса-да, коррупция даражасининг юқорилиги ва энергия хавфлари ушбу давлатнинг позициясини белгиловчи факторлардан бўлган.

Марказий Осиё мамлакатларидан Қозоғистон ва Ўзбекистон “ўрта жозибаторлик” тоифасида жойлашди. Қозоғистон ($C_i = 0,61$; $\theta = 0,82$) табиий ресурслар базаси ва инфратузилма лойиҳаларига қарамай, макроиқтисодий барқарорликнинг етарли даражада эмаслиги ва геосиёсий хавфлар туфайли юқори баллга эриша олмади.

Ўзбекистон $C_i = 0,58$ ва $\theta = 0,84$ натижалар билан ўрта поғонада қайд этилди. Мамлакатда инновацион сиёсатлар ривожланиб бораётгани ва ички бозор потенциали юқори экани балли кўтарувчи омиллар сифатида намоён бўлди. Лекин логистика харажатларининг TEU бўйича юқорилиги ҳамда суд ишлари муддатининг узоқлиги умумий кўрсаткични пасайтирган. Самарадорлик индекси ($\theta = 0,84$) эса ресурсларнинг тахминан 16 фоизи самарасиз йўқотилаётганини англатади. Шу нуқтаи назардан тарифларни камайтириш ва институционал ислохотларни чуқурлаштириш мамлакатнинг инвестициявий мавқеини сезиларли даражада яхшилаши мумкин.

Қирғизистон ($C_i = 0,46$; $\theta = 0,71$) ва Тожикистон ($C_i = 0,41$; $\theta = 0,69$) “паст жозибаторлик” тоифасига киради. Ушбу давлатларда бозор ҳажмининг торлиги, инфратузилманинг етарли ривожланмаганлиги ва ҳуқуқий ҳимоянинг заифлиги хорижий инвестицияларни жалб қилишда асосий тўсиқлар сифатида намоён бўлган.

АНР-ТОПСИС модели орқали ҳисобланган интеграл кўрсаткич (C_i) мамлакатдаги инвестиция муҳитининг умумий жозибаторлик даражасини акс эттирса, ДЕА самарадорлик индекси (θ) мавжуд ресурслардан қанчалик самарали фойдаланилаётганини кўрсатади. Жанубий Корея ҳар икки кўрсаткич бўйича етакчиликни сақлаган ягона мамлакат сифатида ажралиб турибди. Ўзбекистоннинг “ўрта” гуруҳда жойлашиши эса иқтисодий ислохотларнинг долзарблигини янада таъкидлайди. Хусусан, коррупцияни камайтириш, логистика харажатларини оптималлаштириш ва илмий-тадқиқот ишларига инвестицияларни кўпайтириш орқали мамлакат тез орада “жозибатор” тоифага кўтарилиши мумкин.

5. Хулоса.

Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш жараёни кўп ўлчамли, ўзаро боғланган ва динамик табиатга эга омиллар таъсирида шаклланади. Ҳам назарий моделлар, ҳам эмпирик тадқиқотлар асосида шундай хулосага келинадики, макроиқтисодий барқарорлик ва институционал муҳит сифати инвестициявий муҳит учун “базавий шарт” вазифасини бажаради. Жумладан, инфляция даражасини мақсадли параметрларга мос равишда таргетлаш ва хусусий мулк ҳуқуқини кафолатлашсиз хорижий инвесторларнинг ишончи ва инвестиция қарорлари барқарор шаклланмайди.

Инфратузилма ривожини ва иқтисодиётнинг рақамлашув даражасини эса иккинчи устувор йўналиш сифатида намоён бўлади. Халқаро таҳлилларга кўра, логистика харажатларини 5–7 фоизга камайтириш хорижий инвестициялар оқимига сезиларли даражада ижобий таъсир кўрсатади. Шунингдек, ички бозор ҳажми ва аҳоли харид қобилиятининг ўсиши инвесторлар учун узоқ муддатли талаб барқарорлигини англатади. Аммо мазкур устунлик институционал тўсиқлар, бюрократик ғовлар ва ҳуқуқий ишончсизлик билан чекланмаслиги керак.

Тадқиқот доирасида таклиф этилган АНП–TOPSIS–DEA гибрид модели асосида инвестиция муҳитини баҳолаш имкони яратилди. Мазкур модел ҳар бир омилнинг салмоқ даражасини аниқлаш ҳамда ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини чуқур таҳлил қилиш имкониятини тақдим этди. Олинган натижаларга кўра, Ўзбекистон ҳозирги вақтда умумий интеграл рейтингда ўрта позицияни эгаллаётган бўлса-да, инфратузилмани модернизация қилиш, суд тизимини рақамлаштириш ва тадқиқот ҳамда ишланмаларга йўналтирилган инвестиция (R&D) интенсивлигини ошириш орқали қисқа муддат ичида “жозибатор” тоифага кўтарилиши мумкин.

Шу билан бирга, глобал геосиёсий хавфлар ва тартибга солишдаги ўзгарувчанлик хорижий инвестиция қарорларига сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Бундай шароитда сиёсий таваккалчиликларни суғурта қилиш механизмларини жорий этиш, давлат-хусусий шериклик асосида “Экологик, Ижтимоий ва Корпоратив бошқарув кафолатлари жамғармаси” (ESG кафолати)ни яратиш ҳамда кўп томонлама савдо битимларига қўшилиш орқали инвестиция хавфларини диверсификация қилиш мумкин.

Бундан ташқари, “яшил” энергетика салоҳиятини кенгайтириш, углерод нейтрал технологияларга асосланган инфратузилмани ривожлантириш ва натижага асосланган R&D имтиёзлари жорий этиш барқарор ва юқори қўшилган қийматли хорижий инвестиция турларини жалб этишга хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, хорижий инвестицияларни жалб этишда “сифат – самара – барқарорлик” уч бурчаги асосий мезонга айланмоқда. Ўзбекистон ушбу уч бурчакнинг ҳар бир томонини бир вақтнинг ўзида мустаҳкамлаши орқали нафақат тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажмини оширади, балки уларнинг технологик, ижтимоий ва экологик қийматини ҳам янада юксалтириши мумкин.

Адабиётлар:

Abebe, M. & Ahmed, S. 2024, ‘Outward-looking foreign direct investment and its determinants in East Africa’, *PLOS ONE*, vol. 19, no. 2, e0297142.

Atlantic Council 2024, *Attracting Foreign Direct Investments: Key Determinants*, Atlantic Council, Washington DC.

Bank for International Settlements 2024, ‘Exploring the evolving determinants of foreign direct investment and the investing-country preferences in developing Asian economies using machine learning’, *IFC Bulletin*, vol. 62, BIS, Basel.

BIS Working Paper 2024, *Exploring the evolving determinants of FDI: a machine-learning perspective*, Bank for International Settlements, Basel.

Dunning, J.H. 1993, *Multinational Enterprises and the Global Economy*, 2nd edn, Routledge, London.

Ito, B. & Shirai, K. 2024, ‘City-specific determinants of cross-border M&As: an inter-urban gravity approach’, *International Economics and Economic Policy*, vol. 21, no. 1, pp. 65–88.

Kearney, A.T. 2025, *The 2025 FDI Confidence Index®: World at Inflection*, A.T. Kearney, Chicago.

Mistura, F. & Roulet, C. 2022, *FDI Qualities Indicators 2022*, OECD Publishing, Paris.

Nguyen, T.H. 2025, ‘BRI investment and sustainable growth: evidence from Bangladesh’, *Sustainability*, vol. 17, no. 14, 6234.

North, D.C. 1990, *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*, Cambridge University Press, Cambridge.

OECD 2024a, *FDI Qualities Indicators*, OECD Publishing, Paris.

OECD 2024b, *Foreign Direct Investment Qualities and Impact*, OECD Publishing, Paris.

Plos ONE 2024, ‘Determinants that attract and discourage foreign direct investment in GCC’, *PLOS ONE*, vol. 19, no. 4, e0298129 (Tarawneh, A., Khalid, M. & Al-Hammadi, A.).

Reuters 2025, ‘Global investment decline may worsen due to tariffs, UN trade agency warns’, 19 June.

Şenol, Y. 2023, 'A hybrid AHP–TOPSIS–Grey model for investment prioritisation', *Procedia Computer Science*, vol. 216, pp. 123–132.

Silva, L., Dias, G. & Santos, M. 2023, 'AHP–TOPSIS-2N decision support method: an application to investment prioritisation', *Procedia Computer Science*, vol. 216, pp. 123–132.

Tarawneh, A., Khalid, M. & Al-Hammadi, A. 2024, 'Determinants that attract and discourage foreign direct investment in GCC', *PLOS ONE*, vol. 19, no. 4, e0298129.

Tegege, H.G. 2024, 'Outward-looking foreign direct investment and its determinants in highly indebted Eastern African countries', *PLOS ONE*, vol. 19, no. 2, e0297142.

Tran, Q.H. & Vo, D.T. 2024, 'Economic freedom and FDI: evidence from ASEAN economies', *Journal of Economic Development*, vol. 49, no. 3, pp. 215–236.

UNCTAD 2025, *World Investment Report 2025: International Investment in the Digital Economy*, United Nations Conference on Trade and Development, Geneva.

World Bank 2023, *Logistics Performance Index 2023 – Global Rankings*, World Bank, Washington DC.

World Bank 2024, *World Development Indicators 2024*, World Bank, Washington DC.

Zhang, L. & Chowdhury, M. 2024, 'Institutional quality and FDI: global evidence using system-GMM', *Journal of the Knowledge Economy*, vol. 15, no. 3, pp. 1–24.



МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ АСОСИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Холмуродов О.Н.

Қарши давлат техника университети

Аннотация. Мақолада хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг молиявий натижалари ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида ташкил этиш ёритилган. Амалиётдан олинган маълумотларни асосида молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисоби счётларда акс эттирилган.

Калит сўзлар: даромад, харажат, фойда, молиявий натижа, бухгалтерия ҳисоби, счёт.

Аннотация. В статье описана организация финансовых результатов хозяйствующих субъектов на основе международных стандартов финансовой отчетности. На основе данных, полученных из практики, в бухгалтерском учете отражаются финансовые результаты.

Ключевые слова: доход, расход, прибыль, финансовый результат, бухгалтерский учет, счет.

Annotation. The article describes the organization of financial results of business entities based on international financial reporting standards. Based on data obtained from practice, financial results are reflected in accounting.

Keywords: income, expense, profit, financial result, accounting, account.

1. Кириш.

Жаҳонда турли давлатларда чуқурлашиб бораётган глобаллашув ва интеграция ҳамда рақамлаштириш натижасида фаолиятини, шу жумладан ҳисоб тизимини халқаро даражада қабул қилинган стандартлар асосида юритиш, уларга бўлган талабларнинг кучайишига ва молиявий ҳисоботларни ушбу амалиётга мослаб тузишни заруриятини келтириб чиқармоқда. “Дунёда турли соҳаларда фаолият юритаётган барча акциядорлик компаниялари, 45 мингдан ортиқ трансмиллий корпорациялар ва йирик компаниялар ўзларининг 250 мингдан ортиқ шўъба ва бошқа боғлиқ компаниялари билан биргаликда МҲХСларига мувофиқ молиявий ҳисоботларни ихтиёрийлик асосда тузмоқдалар” (Ибрагимов ва бошқ., 2020).

Акциядорлик жамиятлари томонидан молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартлари асосида бухгалтерия ҳисобини юритиш, активларни тан олиш, капитал, молиявий натижаларни ҳисобда акс эттириш ва бухгалтерия ҳисоби ахборот таъминотини такомиллаштириш, халқаро стандартларни жорий қилиш ва баҳолаш масалалари ўз ечимини топишга доир қўплаб илмий ишланма ва изланишлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикасида Республикамиз Президенти таъкидлаганидек, 2021 йил 1 январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва 2021 йил якунларидан бошлаб молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрлайди, қонун ҳужжатларида МҲХСга ўтишнинг эртароқ муддатлари назарда тутилган юридик шахслар бундан мустасно” (Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2020). Ушбу Қарорга кўра, акциядорлик жамиятлари 2021 йил 1 январдан бошлаб бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳўжалик фаолиятини молиявий ҳисоботларини тайёрлашни молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида амалга оширади.

Молиявий натижаларни аниқлаш ва улар тўғрисидаги маълумотлар бериш молиявий ҳисобот маълумотларидан фойдаланувчилар учун ўта аҳамиятлидир. Шунинг учун ҳам ҳар қандай тузумда фаолият юритаётган ҳўжалик субъектлар ўз фаолиятларининг молиявий натижаларини аниқлайди.

2. Адабиётлар шарҳи.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларининг моҳияти, унга ўтишнинг зарурияти иқтисодий адабиётларда турлича ёритилган.

А.К.Ибрагимовнинг (2023) ёзишича, “Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга мослаштириш, айниқса компания ва фирмалар молиявий кўрсаткичларига баҳо беришда ва уларнинг халқаро миқёсда ҳаракат қилишида ва муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан ҳам Ўзбекистон Республикаси корхона ва ҳўжалик субъектларида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар асосида тайёрлаш ва молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларни келиб чиқиш тарихи ва унинг эволюцияси асосида ҳўжалик юритувчи субъектлар бўйича молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини қўллашнинг ишчи режаси ва амалга ошириш дастурини ишлаб чиқиш ва уни амалиётга қўллаш жараёнини кўриб чиқиш лозим”.

А.А.Каримов ва Л.С.Жўрақуловларнинг (2022) фикрича, ҳар бир корхона молиявий ҳисобот трансформацияси бўйича ҳисоб сиёсатини ишлаб чиқиши шарт. Шу боис, компанияда молиявий ҳисобот трансформациясини амалга ошириш учун қўйидаги шарт-шароитлар мавжуд бўлиши керак: - компанияда МҲХСлари бўйича тузилган молиявий ҳисоботига зарурият бўлиши керак. Компаниянинг ички ва ташқи ахборот фойдаланувчиларида МҲХС бўйича тузилган молиявий ҳисоботдан фойдаланиш ва унинг асосида қарорлар қабул қилишига муҳит юзага келиши шарт; - миллий стандартлар асосида тайёрланган молиявий ҳисобот объектив, ишончли, уйғун ва бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун ва Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия Ҳисоби Миллий Стандартларига тўлиқ мувофиқ келиши керак.

Л.Б.Трофимова (2018) томонидан компания ва фирмалар молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини қўллаш жараёнида ўхшаш операциялар, бошқа ҳодисалар ва шароитларга тегишли ҳисоб сиёсатини изчил равишда танлаши ва қўллаши керак, деган фикр билдирган. Демак ушбу фикрдан хулоса қилишимиз мумкинки, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари моддаларнинг тоифаларга бўлинишини талаб этса ёки руҳсат этса, бундай ҳар бир тоифага тегишли бўлган ҳисоб сиёсати изчил равишда танланиши ва қўлланилиши лозим деган фикрни билдиради.

И.Н.Исманов (2017) МҲХСни моҳиятини қўйидагича ёритади: “МҲХС корхона фаолияти тўғрисида молиявий ахборотларнинг манбаи бўлган ва фойдаланувчилар учун хизмат қиладиган молиявий ҳисобот тайёрлашга йўналтирилган. Ушбу стандартлар алоҳида олинган мамлакатнинг қонунчилигига боғланмаган ва фаолият тури, ўлчами, ташкилий-ҳуқуқий шаклидан катъий назар барча корхона ҳисоботини шакллантириш учун йўналтирилган.”

С.Н.Ташназаровни (2021) такидлашича, мамлакатимиздаги акциядорлик жамиятлари, масъулияти чекланган жамиятлар ва бошқа корхоналарнинг ихтиёрийлик асосида ўз ташаббуслари билан МҲХСлари асосида молиявий ҳисоботга

ўтишларига эришишимиз лозим. Корхона ва ташкилотлар ўзлари МҲХСларига ўтишда наф олишлари, унинг афзалликларини ҳис қилишлари лозим. МҲХСлар орқали инвестициявий жозибадорлигига эришиш йўли билан корхоналарнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш стратегик аҳамиятга эга бўлган вазифа сифатида қаралиши лозим.

З.Н.Курбанов ва А.Акрамовларнинг (2015) фикрича “Республикамизда бухгалтерия ҳисобини босқичма-босқич молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида ташкил этиш ва молиявий ҳисоботларни тузиш жаҳон интеграциясига янада кенгроқ кириб бориш имкониятини беради. Бу эса Республикамизда бухгалтерия ҳисобини ислоҳ этиш ва модернизация қилишнинг янги босқичи бўлиб қолади”.

Е.Л.Путникова, В.А.Урбанлар (2022) молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишни қуйидагича изоҳлайди: “Беларусь Республикасининг молиявий ҳисоботларини халқаро молиявий ҳисобот стандартларига мувофиқ ўзгартириш МҲХСга ўтиш йўлидаги биринчи, жуда муҳим ва мажбурий қадамдир”.

Б.Қ.Бобобековни (2022) қайд этишича, Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш, корхона ва ташкилотларнинг иқтисодий, мулкӣ ва молиявий ҳолатини, уларнинг ўтган даврлардаги молиявий натижаларини қиёсий ўрганиш ва объектив баҳолаш орқали келгусидаги фаолиятни кенгайтириш, ташқи молиявий манбаларни излаб топиш, халқаро молиявий институтлардан капитал жалб қилиш имконини беради.

Юқорида келтирилган Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бевосита молиявий натижаларни бухгалтерия ҳисобини ташкил этишга ҳам тегишлидир.

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқотимиз методологияси бўлиб, даромадлар, харажатлар ва молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисобини МҲХС асосда ташкил этиш билан боғлиқ иқтисодий муносабатлар ҳисобланади. Тадқиқот жараёнида амалий материалларни таққослаш ва гуруҳлаш каби усуллардан фойдаланилиб, хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди.

4. Таҳлил ва натижалар.

Молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисоби 1-сон БҲХС “Молиявий ҳисоботни тақдим қилиш”, 12-сон БҲХС “Фойда солиғи”, 15-сон БҲХС “Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум” ва бошқа стандартлар билан тартибга солинади.

Молиявий ҳисоботлар тадбиркорлик субъектига тегишли бўлган қуйидаги жиҳатлар тўғрисидаги маълумотларни таъминлайди:

- активлар;
- мажбуриятлар;
- капитал;
- даромад ва харажатлар, жумладан фойда ва зарарлар;
- мулк эгалари томонидан уларнинг мулк эгалари сифатида амал қилишидаги қилинган қўйилмалар ва уларга тақсимланадиган суммалар; ва
- пул оқимлари.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида молиявий ҳисоботларнинг тўлиқ тўплами қуйидагиларни қамраб олади:

- давр охирига молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот;
- давр учун фойда ёки зарар ва бошқа умумлашган даромад тўғрисидаги ҳисобот;
- давр учун капиталдаги ўзгаришлар тўғрисидаги ҳисобот;
- давр учун пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот;

-изоҳлар, яъни аҳамиятли ҳисоб сиёсатларининг ва бошқа тушунтириш маълумотларининг қисқа баёини қамраб олган изоҳлар.

Фойда ёки зарар ва бошқа умумлашган даромадлар тўғрисидаги ҳисобот (умумлашган даромадлар тўғрисидаги ҳисобот), фойда ёки зарар ва бошқа умумлашган даромадлар бўлимларига қўшимча тарзда, қуйидагиларни тақдим этиши лозим:

-фойда ёки зарар;

-жами бошқа умумлашган даромадлар;

-жами фойда ёки зарар ва бошқа умумлашган даромадларни қамраб олган ҳолда, давр учун умумлашган даромадлар.

Бошқа МҲХСларда талаб этилган моддаларга қўшимча тарзда, фойда ёки зарар бўлими ёки фойда ёки зарар тўғрисидаги ҳисобот давр учун қуйидаги суммаларни акс эттирадиган, сатрларда кўрсатиладиган моддаларини ўз ичига олиши лозим:

-одатдаги фаолиятдан олинадиган даромад;

-амортизацияланган қиймат бўйича ҳисобга олинадиган молиявий активларни тан олишни тўхтатишдан юзага келадиган фойда ва зарарлар;

-молиявий харажатлар;

-улуш бўйича ҳисобга олиш усули бўйича ҳисобга олинган қарам тадбиркорлик субъектларининг ва қўшма корхоналарининг фойда ёки зараридаги улуши;

-агар молиявий актив қайта таснифланиб, ҳаққоний қиймат бўйича ҳисобга олинадиган бўлса, олдинги баланс қиймати билан унинг қайта таснифлаш санасидаги ҳаққоний қиймати ўртасидаги фарқдан юзага келадиган ҳар қандай фойда ёки зарар (МҲХС 9 да таърифланганидек);

-солиқ харажати.

Молиявий натижаларни характерловчи кўрсаткичлар бўлиб даромад ва тушум кўрсаткичлари ғисобланади. 15-сон БҲХС “Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум” стандартда даромад ва тушум тушунчаларига таъриф келтирилган. Даромад бу – ҳисобот даври давомида активларнинг келиб тушиши ёки сифатининг яхшиланиши ёки мажбуриятлар миқдорининг камайиши кўринишида иқтисодий нафнинг кўпайиши, қайсики унинг натижасида капитал иштирокчиларининг бадали билан боғлиқ бўлмаган ҳолда хусусий капиталнинг кўпайиши юз беради. Тушум бу – компаниянинг одатий фаолияти давомида юзага келадиган даромади (Бобобеков, 2022).

Солиқ ҳисоботларини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига мослаштириш бўйича маълум ишлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитасининг “Солиқ ҳисоботининг шакллари тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори билан солиқ ҳисоботларининг шакллари тасдиқланди ва Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2020 йил 24 февралда рўйхатдан рақами 3221 ўтказилди (Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2020). Ушбу қарор билан молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларга ўтган юридик шахсларнинг солиқларини ҳисоблаб чиқиш учун зарур бўлган кўрсаткичлар бўйича алоҳида 13-илова киритилди.

1-жадвалда эса молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларга ўтган “UZBAT АО” AKSIYADORLIK JAMIYATI томонидан тақдим этилган умумлашган даромадлар тўғрисидаги маълумотлар ўз аксини топган. 2023 йилда соф тушум 2022 йилда 2 042 488 831 минг сўм бўлган бўлса, 2023 йилда 2 753 975 643 минг сўмни ташкил этиб, 2022 йилга нисбатан ўсиш бўлган. 2023 йилда 153 049 155 минг сўм фойда солиғи ҳисобланган. Соф фойда 988 600 103 минг сўм бўлган.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурдаги Солиқ қўмитаси билан биргаликда 2023 йил якунлари бўйича молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига мувофиқ, молиявий ва солиқ ҳисоботларини тақдим этиш бўйича қуйидагиларни маълум қилади. “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонунга мувофиқ, хўжалик юритувчи

субъектларининг бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молиявий ҳисоботларни тузишга доир қоидалари бухгалтерия ҳисоби стандартлари асосида амалга оширилади, шунингдек, халқаро стандартлар асосида тузиладиган молиявий ҳисоботга доир талаблар молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида (МҲҲС) белгиланади.

1-жадвал

**Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларга ўтган "UZBAT АО"
AKSIYADORLIK JAMIYATI томонидан тақдим этилган умумлашган даромадлар
тўғрисидаги маълумот, минг сўм**

Кўрсаткичлар номи	Сатр коди	2022 йил	2023 йил
1	2	3	4
Соф тушум, (сатр.020+030+040+050)	010	2 042 488 831,00	2 753 975 643,00
маҳсулот сотишдан	020	1 948 023 602,00	2 562 708 403,00
хизматлар кўрсатишдан	030	552 598,00	583 736,00
қурилиш шартномалари бўйича	040		
Бошқалар	050	93 912 631,00	190 683 504,00
Сотилган маҳсулот (товар, хизмат)ларнинг таннарихи	060	743 345 681,00	1 040 230 588,00
Ялпи даромад, (сатр.010-060)	070	1 299 143 150,00	1 713 745 055,00
Бошқа операцион даромадлар	080	7 899 452,00	20 042 564,00
Сотиш харажатлари	090	237 198 471,00	379 459 530,00
Маъмурий харажатлар	100	74 637 831,00	90 555 823,00
Бошқа харажатлар	110	141 991 659,00	120 614 721,00
Операцион даромад, (сатр.070+080-090-100-110)	120	853 214 641,00	1 143 157 545,00
Қадрсизланиш бўйича зарарлар/тикланиш (сатр. 140+150+160)	130		-10 654 215,00
Молиявий активлар бўйича	140		-1 680 008,00
Товар моддий захиралар бўйича	150		-8 974 207,00
Бошқа активлар бўйича	160		
Дивидендлар тарзидаги даромадлар	170		
Валюта курси фарқидан фойда ва зарарлар *	180	-951 254,00	-2 034 774,00
Фоиз тарзидаги даромадлар	190	17 280 161,00	11 180 702,00
Фоиз тарзидаги харажатлар	200		
Молиявий ижарадан даромадлар	210		
Молиявий ижара бўйича харажатлар	220		
Бошқа даромад ва харажатлар *	230		

Солиққа тортиладиган фойда/зарар (сатр. 120+130+170+180+190-200+210-220+230)	240	869 543 548,00	1 141 649 258,00
Фойда солиғи	250	144 257 214,00	153 049 155,00
Фойдадан бошқа солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар	260		
Соф фойда/зарар (сатр. 240-250-260)	270	725 286 334,00	988 600 103,00
Бошқа умумлашган даромад/харажатлар	х	х	х
Асосий воситалар бўйича қайта баҳолаш резервлари	280		
Бошқа умумлашган даромадлар	290		
Бошқа умумлашган даромадлар (зарарлар) (сатр.280+290)	300		
Жами умумлашган даромадлар (сатр. 270+300)	310	725 286 334,00	988 600 103,00

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги 4611-сонли “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорига мувофиқ, акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган юридик шахслар (кейинги ўринларда – ташкилотлар) 2021 йил 1 январдан бошлаб, МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этиши ва 2021 йил якунларидан бошлаб молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрлаши, қонун ҳужжатларида МҲХСга ўтишнинг эртароқ муддатлари назарда тутилган юридик шахслар бундан мустасно эканлиги белгиланган. Шунингдек, молиявий ҳисоботни ихтиёрий равишда МҲХСга мувофиқ тайёрлайдиган ташкилотлар бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари (БҲМС) бўйича молиявий ҳисобот тақдим этишдан озод этилади. Ташкилотлар Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун тан олинган молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ва унга тушунтиришлар матни асосида бухгалтерия ҳисобини ташкил этади ва молиявий ҳисоботларни тайёрлайди.

5. Хулоса.

Мамлакатимиз молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш борасида маълум ишлар амалга оширилмоқда.

Молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисоби 1-сон БҲХС “Молиявий ҳисоботни тақдим қилиш”, 12-сон БҲХС “Фойда солиғи”, 15-сон БҲХС “Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум” ва бошқа стандартлар билан тартибга солинади.

Мамлакатимиз молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиши чет эл инвестицияларни жалб қилиш йўлларида биридир.

Адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси Президенти, 2020. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги ПҚ–4611-сон қарор. 24 февраль.

Ибрагимов, А.К., Умаров, З.А., Хотамов, К.Р. ва Ризаев, Н.Қ., 2020. Тижорат банкларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Тошкент: Иқтисод-молия, 560 б.

Ибрагимов, А.К., 2023. Ўзбекистон банк тизимида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш масалалари. Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил, июль.

Каримов, А.А. ва Жўрақулов, Л.С., 2022. Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботни МҲҲС асосида ташкил этишдаги трансформацияси зарурати. Ўзбекистонда фанлараро инновациялар ва илмий тадқиқотлар журналы, 8-сон (20 май).

Трофимова, Л.Б., 2018. Международные стандарты финансовой отчетности: учебник. Москва: Юрайт, 242 с.

Исманов, И.Н., 2017. Бухгалтерия ҳисоби тизимининг молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларига трансформациясининг зарурияти. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, №3.

Ташназаров, С.Н., 2021. Мажбуриятлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш. Экономика и социум, №5(84).

Курбанов, З.Н. ва Акрамов, Ф.А., 2015. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишнинг долзарб масалалари. Бизнес-эксперт, 4-сон.

Путникова, Е.Л. ва Урбан, В.А., 2022. Подготовка бухгалтерской отчетности согласно международным стандартам финансовой отчетности. Вестник Белорусской государственной сельскохозяйственной академии, №2.

Бобобеков, Б.Қ., 2022. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари талаблари асосида товар моддий захираларнинг ҳисобига оид методология. Иқтисодиёт ва таълим, 1-сон.

Ташназаров, С.Н., 2023. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишдаги тажрибалар ва жадаллаштириш омиллари. Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил, ноябрь.

МҲҲС, 2018. 15-сонли халқаро молиявий ҳисобот стандарти: Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум.



ПЕРЕДОВОЙ МИРОВОЙ ОПЫТ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЗЕЛЁНЫХ НАЛОГОВ

Юлдашева М.Т.

Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. *Изменение климата остаётся одной из самых серьёзных угроз для глобального развития, несмотря на усилия мирового сообщества по сдерживанию роста температур и сокращению выбросов парниковых газов в рамках Парижского соглашения. Страны мира сталкиваются с необходимостью решать экологические проблемы — от защиты озонового слоя и восстановления чистоты воздуха до управления отходами и сохранения биоразнообразия. В последние десять лет экологические налоги стали важным инструментом экологической политики, способствуя предотвращению загрязнения, снижению выбросов и стимулированию технологических инноваций. Многие страны, включая развивающиеся, рассматривают возможность проведения комплексных реформ зелёного налогообложения, видя в них способ повышения доходов, стимулирования устойчивого роста и решения экологических вызовов одновременно.*

Ключевые слова: *экологические налоги, углеродный налог, зеленая энергетика, декарбонизация экономики, принцип «загрязнитель платит», налоговые льготы и субсидии, устойчивое развитие, климатическая политика, зеленая трансформация, сокращение выбросов CO₂.*

Annotatsiya. *Xalqaro hamjamiyatning Parij kelishuvi doirasida havo haroratining ko'tarilishini cheklash va parnik gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlariga qaramay, iqlim o'zgarishi global rivojlanish uchun eng jiddiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyo mamlakatlari ozon qatlamini himoya qilish va toza havoni tiklashdan tortib, chiqindilarni boshqarish va biologik xilma-xillikni saqlashgacha bo'lgan ekologik muammolarni hal qilish zarurati bilan duch kelmoqda. So'nggi o'n yil ichida yashil soliqlar atrof-muhit siyosatining muhim vositasi bo'lib, ifloslanishning oldini olish, chiqindilarni kamaytirish va texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirishga yordam beradi. Ko'pgina mamlakatlar, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar daromadlarni oshirish, barqaror o'sishni rag'batlantirish va bir vaqtning o'zida ekologik muammolarni hal qilish usuli sifatida keng qamrovli yashil soliq islohotlarini ko'rib chiqmoqda.*

Kalit so'zlar: *yashil soliqlar, uglerod solig'i, yashil energiya, iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish, ifloslantiruvchi to'laydi tamoyili, soliq imtiyozlari va subsidiyalar, barqaror rivojlanish, iqlim siyosati, yashil transformatsiya, CO₂ emissiyasini kamaytirish.*

Abstract. *Climate change remains one of the most serious threats to global development, despite the efforts of the international community to curb rising temperatures and reduce greenhouse gas emissions under the Paris Agreement. Countries around the world face the need to address environmental issues, from protecting the ozone layer and restoring clean air to waste*

management and preserving biodiversity. Over the past decade, green taxes have become an important tool of environmental policy, helping to prevent pollution, reduce emissions, and stimulate technological innovation. Many countries, including developing countries, are considering comprehensive green tax reforms as a way to raise revenues, stimulate sustainable growth, and address environmental challenges at the same time.

Keywords: *green taxes, carbon tax, green energy, decarbonization of the economy, polluter pays principle, tax incentives and subsidies, sustainable development, climate policy, green transformation, CO2 emissions reduction.*

1. Введение.

В условиях глобализации и продолжающегося изменения климата мир сталкивается с необходимостью решительных мер для сохранения окружающей среды и обеспечения устойчивого экономического роста. Несмотря на усилия, предпринятые в рамках Парижского соглашения, уровень выбросов парниковых газов продолжает расти, что требует от стран поиска эффективных инструментов для достижения климатической нейтральности и ограничения роста глобальной температуры.

Одним из таких инструментов стали экологические налоги, получившие значительное распространение за последнее десятилетие. Эти налоги строятся на принципе «загрязнитель платит» и позволяют интегрировать экологические издержки в цену товаров и услуг, способствуя предотвращению загрязнения, снижению выбросов и стимулированию технологических изменений. При этом экологические налоги способствуют достижению ряда целей устойчивого развития, включая улучшение здоровья населения, снижение загрязнения воздуха и развитие устойчивых городов.

Проведение реформ в сфере зелёного налогообложения позволяет странам не только решать экологические задачи, но и повышать эффективность налоговых систем, снижая необходимость в увеличении других видов налогов и стимулируя привлечение частных инвестиций. Таким образом, зелёные налоги становятся важным инструментом для обеспечения баланса между экономическим ростом и защитой окружающей среды, способствуя решению современных вызовов в условиях ограниченности ресурсов и растущих климатических рисков.

2. Обзор литературы.

Внедрение зелёных налогов предоставляет развивающимся странам возможность стимулировать рост экономики с более низким уровнем углеродоёмкости, одновременно продвигая инклюзивное и справедливое развитие. Экологические фискальные реформы могут способствовать поддержке малообеспеченных слоёв населения и улучшению перераспределения доходов, внося вклад в достижение Целей устойчивого развития. Это связано с тем, что более обеспеченные домохозяйства и городские районы, как правило, характеризуются более высоким уровнем энергопотребления, что делает экологические налоги по своей сути прогрессивными (World Bank, 2022).

Кроме того, структурные изменения, сопровождающие введение зелёных налогов, могут повышать трудоёмкость производств и рентабельность занятости, а целенаправленное использование налоговых поступлений для развития инфраструктуры способствует дальнейшему усилению прогрессивного эффекта реформ, принося выгоды сельским районам (OECD, 2021).

Тем не менее, в мировой практике сохраняется значительный разрыв в реализации экологического налогообложения. В 2022 году субсидии и налоговые льготы для ископаемого топлива составили около 1% мирового ВВП (около 1 триллиона долларов), что препятствует прогрессу в достижении климатических целей. Международный

валютный фонд отмечает, что внешние издержки, связанные с выбросами углерода, остаются недостаточно отражёнными в розничных ценах, что приводит к скрытым субсидиям и стимулирует рост эмиссии (IMF, 2022; Fiscal Monitor: Climate Crossroads., 2022).

В 2022 году только 23% мировых выбросов парниковых газов попадали под механизмы углеродного ценообразования, причём установленные цены на углерод в большинстве стран оставались недостаточно высокими для значимого влияния на поведение потребителей и производителей (World Bank, 2022). В странах ОЭСР и G20 лишь 60% выбросов углерода, связанных с использованием энергии, облагаются налогами или подпадают под системы торговли выбросами (OECD, 2021).

Согласно отчёту ОЭСР, в большинстве стран отсутствуют налоги на углерод или топливо, а в 2020–2021 годах поддержка ископаемого топлива в 51 стране выросла почти в два раза, достигнув 697,2 млрд долларов, что демонстрирует устойчивость субсидирования, несмотря на усилия по декарбонизации экономики (OECD E. C., 2022).

Реформы зелёного налогообложения и сокращение субсидий на ископаемое топливо имеют потенциал не только для увеличения государственных доходов, но и для стимулирования инвестиций в возобновляемые источники энергии. Однако заблуждения относительно негативного влияния зелёных налогов на экономический рост и нехватка устойчивых политических мер продолжают оставаться препятствием для продвижения климатической политики (OECD I., 2021).

Согласно отчёту ОЭСР (2020), растёт внимание к экологической налоговой политике, однако реформы часто концентрируются в узком круге стран и в основном касаются налогообложения энергии, транспорта, отходов и использования пластика. Экологические налоги в странах ОЭСР в среднем составляют 6,7% общего налогового дохода, что ниже доли корпоративных и социальных налогов, но выше поступлений от налога на имущество (OECD T. E., 2020).

В 2017 году поступления от экологических налогов составили 2,3% ВВП, что практически не изменилось по сравнению с 2,4% в 2000 и 2010 годах, отражая медленные темпы роста доли таких налогов. Уровень доходов от зелёных налогов варьируется от 0,7% до 4,5% ВВП в зависимости от страны, при этом в 21 стране за последние 17 лет наблюдалось снижение, в восьми странах показатель оставался стабильным, а в 11 странах наблюдался рост (OECD, 2021).

Большая часть поступлений (72%) приходится на налоги на энергоносители, включая акцизы на топливо и углеродные налоги. Высокие ставки налогов на энергию могут изменять поведение налогоплательщиков, снижая потребление топлива, что, в свою очередь, может уменьшать налоговые поступления в бюджет (OECD, 2021).

Успешное проведение реформ зелёного налогообложения требует учёта поведенческих реакций налогоплательщиков, особенно в условиях восстановления экономики после пандемии COVID-19. Важно избегать расширения налоговых льгот для отдельных категорий транспортных средств, так как они могут способствовать избыточному потреблению и приносить непропорциональную выгоду обеспеченным слоям населения (IMF, IMF (2022). Fiscal Monitor: Climate Crossroads., 2022).

В 2020 году шесть стран повысили налоги на топливо, три — ввели или увеличили углеродные налоги, а две страны подняли налоги на электроэнергию для предприятий. Некоторые страны ввели меры по снижению загрязнения от транспортных средств, ввели налоги на пластик и переработку отходов, а также провели реформы налогообложения использования природных ресурсов.

В ЕС действуют директивы, регулирующие налогообложение энергии и электричества (Directive 2003/96/EC), сборы за использование дорог (Directive 1999/62/EC), стимулирование экологичного транспорта (Directive 2009/33/EC) и система торговли квотами на выбросы парниковых газов (Directive 2003/87/EC),

направленные на снижение выбросов и защиту окружающей среды. Эти директивы позволяют государствам-членам ЕС устанавливать налоговые ставки выше минимальных в зависимости от национальных приоритетов и экологических целей. Например, минимальные ставки налога на электроэнергию составляют 1 евро за мегаватт-час для промышленности и 0,5 евро для коммерческого сектора, однако в Нидерландах ставка достигает 125 евро за мегаватт-час (Directive, 2003).

Уровень углеродных налогов также различается: в Польше ставка составляет около 1 евро за тонну CO₂, в Швеции — до 110 евро, отражая различия в национальных стратегиях. Дания, Норвегия, Швеция и Финляндия применяют углеродное налогообложение уже в течение долгого времени, тогда как Испания, Франция и Португалия ввели эти налоги недавно, а Австрия и Нидерланды планируют внедрение в ближайшие годы. Наблюдается значительная вариативность по странам: в Люксембурге доходы от зелёных налогов составляют 53,3% благодаря продажам топлива нерезидентам, а на Мальте этот показатель достигает 34,8%. В сфере услуг экологические налоги составляют 25,9% доходов, а в промышленности и строительстве - 23,2%, при этом домохозяйства в ЕС являются основными плательщиками транспортных налогов, оплачивая 68,2% всех сборов в этой категории (OECD, 2021).

В 2020 году поступления от зелёных налогов в ЕС составили 300,5 млрд евро (2,2% ВВП), при этом основная часть доходов пришлась на налоги на топливо, производство и потребление энергии (EU Climate Action., 2022). При этом доля доходов от экологических налогов в ВВП снизилась с 2,6% в 2002 году до 2,2% в 2020 году, а в общей структуре налогов и социальных выплат — с 6,6% до 5,6% за тот же период (Taxation., European Commission: EU Climate Action and Taxation., 2021).

3. Методология исследования.

Методологическая основа настоящего исследования базируется на комплексном применении четырёх ключевых аналитических подходов, обеспечивающих всесторонний анализ механизмов зелёного налогообложения, его влияния на устойчивое развитие и адаптацию международного опыта для национальной налоговой политики.

4. Анализ и результаты.

Зелёные налоги в Германии. Германия активно выступает за борьбу с изменением климата и стимулирует переход к зелёной экономике через внедрение комплекса налоговых мер. Одним из ключевых инструментов в этом направлении стало использование зелёных налогов, направленных на сокращение выбросов парниковых газов и стимулирование устойчивого потребления энергии. В числе зелёных налогов, применяемых в Германии, выделяются следующие:

1) Углеродный налог (CO₂ Steuer)

Данный налог взимается с ископаемых видов топлива, используемых в транспортном секторе, для отопления и в промышленности. Размер налога определяется исходя из содержания CO₂ в конкретном виде топлива. Например, за каждый литр бензина, в зависимости от количества выбросов CO₂, добавляется примерно 7,2 цента к стоимости.

2) Налог на загрязнение воздуха

Этот налог распространяется на крупные промышленные предприятия и электростанции, работающие на угле и других ископаемых видах топлива. Он устанавливается в зависимости от объёма выбросов CO₂ в процессе производства электроэнергии. Так, угольные электростанции обязаны выплачивать налог за каждую тонну выброшенного углекислого газа.

3) Налог на авиабилеты (Luftverkehrssteuer)

Применяется как на внутренние, так и на международные рейсы, при этом размер налога зависит от дальности перелёта. Например, за перелёты на расстояние до 1 000 км взимается налог в размере около 13 евро за билет.

Введение зелёных налогов в Германии способствовало заметному сокращению выбросов парниковых газов и стимулировало инвестиции в возобновляемые источники энергии. По данным Федерального министерства окружающей среды Германии, с момента введения зелёных налогов в 2005 году объём выбросов парниковых газов снизился на 27%, при этом углеродный налог стал одним из основных факторов сокращения, поскольку повысил стоимость использования ископаемого топлива.

Кроме того, зелёные налоги оказали положительное влияние на рынок возобновляемой энергетики. В 2022 году около 46% произведённой в Германии электроэнергии пришлось на возобновляемые источники, чему способствовали налоговые льготы и повышение затрат на углеродоёмкие виды топлива за счёт налогов на CO₂. В 2023 году ставка углеродного налога составила 30 евро за тонну выбросов CO₂, при этом к 2025 году планируется её увеличение до 55 евро за тонну.

Налог на загрязнение атмосферы также показал свою эффективность, стимулируя компании переходить на использование более чистых видов топлива, таких как природный газ. Налог на авиабилеты, хотя и относительно новый, уже демонстрирует влияние на снижение количества авиаперелётов внутри страны и за рубежом. Так, в 2023 году налог на внутренние рейсы составил 13 евро за билет, а на международные рейсы - 33 евро за билет.

Таким образом, опыт Германии показывает, что зелёные налоги могут одновременно снижать углеродный след, стимулировать переход к возобновляемым источникам энергии и обеспечивать дополнительный доход государству, который может быть направлен на дальнейшие климатические и социальные проекты.

Таблица 1
Организация ВДО весной 2022 г. Потраченный вопросник выводы .

Страна	Ключевые меры и особенности экологической налоговой политики
США	На федеральном уровне действуют различные налоговые льготы для поддержки зеленой энергетики, но существенное разнообразие мер наблюдается на уровне штатов. Калифорния демонстрирует лидерство благодаря прогрессивным экологическим налоговым инициативам, в то время как такие штаты, как Мичиган и Теннесси, предоставляют налоговые льготы в поддержку развития электрического транспорта и чистых технологий.
Канада	Введен запрет на одноразовые пластиковые изделия и налог на пластиковую упаковку, аналогичный британской практике. Кроме того, в Канаде действует углеродная цена в виде федерального налога на топливо, собираемого в провинциях и возвращаемого гражданам и бизнесу в виде налогового кредита, что стимулирует сокращение выбросов и внедрение экологичных технологий.
Франция	Экологические налоги используются как ключевой экономический инструмент для стимулирования декарбонизации и изменения поведения домохозяйств и бизнеса, реализуя принцип «загрязнитель платит». Через налог TGAP и другие инициативы Франция стремится включить внешние экологические издержки в цену товаров и услуг, повышая их устойчивость и конкурентоспособность.
Германия	Германия активно применяет экологические налоги и пошлины, в том числе налог на авиацию и сборы за утилизацию отходов, реализуя принцип «загрязнитель платит». Страна стимулирует переход к возобновляемым источникам энергии и энергоэффективности через

	налоговые льготы для строительства, модернизации и использования зеленых технологий, а также поощряет электромобильность через субсидии и льготы для компаний и граждан.
Великобритания	Введены меры, такие как плата за пластиковые пакеты и налог на пластиковую упаковку, что демонстрирует эффективность модели «загрязнитель платит». Также в стране предоставляются налоговые льготы на капитальные инвестиции, направленные на поддержку климатической повестки, хотя инструмент признан более ограниченным по охвату.
Япония	Япония первой в Азии ввела углеродный налог, который применяется ко всем видам ископаемого топлива и основан на объемах выбросов CO ₂ . Дополнительно действуют стимулы для инвестиций в декарбонизацию, включая налоговые льготы и ускоренную амортизацию для компаний, внедряющих технологии сокращения выбросов и производства литий-ионных аккумуляторов, подчеркивая приверженность страны климатическим целям.
Южная Корея	Южная Корея расширяет поддержку НИОКР и разработок в области технологий сокращения углеродных выбросов, включая CCUS, водород и возобновляемую энергетику. В 2022 году расширены технологические критерии для 48 видов технологий, давая налоговые льготы и привлекая иностранных инвесторов через гранты и стимулы для финансирования проектов по снижению выбросов углерода.

Налоги на топливо и косвенное углеродное ценообразование в Китае. В Китайской Народной Республике в рамках реализации пятилетних планов в области устойчивого развития и декарбонизации на протяжении последних лет проводились регулярные корректировки налогов на топливо, потребление, а также систем экспортных налоговых льгот. Эти меры рассматриваются как косвенные инструменты ценообразования на углерод и способствуют повышению экологической устойчивости экономики.

С 2006 года начались изменения ставок экспортных налоговых льгот в отношении энергоёмких товаров, включая сталь, керамику, стекло и цемент, а в 2007 году был введён перечень товаров, запрещённых к экспорту. В том же году были введены экспортные пошлины на товары, отличающиеся высоким уровнем энергопотребления, такие как цемент, древесина и изделия из неё, что позволило ограничить их экспорт и поддержать цели по снижению выбросов углерода.

Также была модернизирована налоговая политика в транспортной отрасли, где были введены лицензионные сборы и налоги на транспортные средства и суда. С 2012 года вступил в силу «Закон о налоге на транспортные средства и суда», отражающий стремление Китая к низкоуглеродному развитию. В 2009 году дорожные сборы были заменены налогом на потребление топлива, а в 2011 году был введён адвалорный налог в размере 5% на продукцию нефтегазовой отрасли, что позволило отразить рыночные колебания цен и сделать ресурсные цены более прозрачными. Несмотря на это, перспективы введения полноценного углеродного налога в тот период оставались неопределёнными (Yi & Дж, 2015).

Важным шагом стало принятие в 2018 году «Закона о налоге на охрану окружающей среды», который обсуждался с 2013 года. Закон предусматривает налогообложение определённых загрязняющих веществ, хотя углеродные выбросы в него входят лишь косвенно, что ограничивает эффективность воздействия закона на сокращение углеродного следа (Дж., 2010).

Анализ действующей системы налогов на топливо и потребление в Китае показывает, что, несмотря на наличие косвенного ценообразования углерода, данные налоги не фокусируются исключительно на контроле за выбросами парниковых газов.

Сбор налогов осуществляется на уголь, сырую нефть и природный газ на этапе добычи, а также на бензин, дизельное топливо и другие нефтепродукты на этапе потребления. Однако при определении налоговой базы не учитывается углеродное содержание топлива, что снижает эффективность данных налогов в достижении целей сокращения выбросов CO₂.

Для повышения эффективности сокращения углеродных выбросов и достижения климатических целей Китая необходимо рассмотреть возможность интеграции углеродного налога с существующими налогами на топливо и потребление, создавая пошаговую систему налогообложения ископаемого топлива. Такой подход позволит более комплексно управлять сокращением углеродных выбросов, обеспечивая при этом экономическую устойчивость и соблюдение климатических обязательств.

Экологические налоги и платежи в России. В Налоговом кодексе Российской Федерации отсутствует отдельная категория «экологических налогов» в узком понимании. Вместо этого используются налоги и сборы, косвенно связанные с охраной окружающей среды: налоги на добычу полезных ископаемых, водный налог, сборы за пользование природными ресурсами и другие платежи. При этом они выполняют преимущественно **фискальную функцию**, а не являются полноценным инструментом экологической политики. Ключевые элементы системы экологических платежей в России включают:

- сборы за негативное воздействие на окружающую среду,
- экологические сборы,
- сборы за пользование лесными и водными ресурсами,
- платежи за участие в аукционах на право пользования недрами,
- разовые и регулярные сборы за использование недр.

Плательщиками таких платежей являются юридические и физические лица, в том числе индивидуальные предприниматели, ведущие деятельность на территории России (ib.ru/law, n.d.), ее континентального шельфа и в исключительной экономической зоне, если их деятельность оказывает негативное воздействие на окружающую среду.

К объектам налогообложения относятся:

1. выбросы загрязняющих веществ в атмосферу из стационарных источников,
2. сбросы загрязняющих веществ в водные объекты,
3. размещение, хранение и захоронение отходов производства и потребления.

Согласно данным Росстата, в 2023 году платежи за негативное воздействие на окружающую среду увеличились на 26% по сравнению с предыдущим годом. Например, в соответствии с постановлением Правительства РФ № 437 от 20 марта 2023 года, ставка платы за выброс угольной пыли в атмосферу установлена на уровне 71,21 рубля за тонну (437).

Классификация доходов от экологически ориентированных налогов и сборов включает («КонсультантПлюс»):

Энергетические налоги – поступления от акцизов на бензин, дизельное топливо, углеводороды и другие виды топлива, а также сборы, связанные с производством и потреблением электрической энергии, включая биотопливо и возобновляемые источники энергии.

I. Транспортные налоги, если они связаны с экологическими целями и направлены на снижение негативного воздействия автотранспорта на окружающую среду.

II. Налоги за загрязнение окружающей среды – сборы за выбросы в атмосферу, сбросы загрязняющих веществ в водные объекты, за размещение отходов.

III. Налоги за использование природных ресурсов – налоги и сборы за добычу биологических и лесных ресурсов, за использование недр, кроме налога на имущество.

Эти платежи по своей природе выполняют **компенсационную функцию** и основаны на принципе «пользователь платит», закреплённом в федеральном законодательстве об охране окружающей среды, включая ФЗ «Об охране окружающей среды».

Дополнительными категориями экологических платежей являются:

- платежи за использование земли,
- платежи за добычу нефти и природного газа,
- платежи за использование других природных ресурсов,
- штрафы за нарушение природоохранных требований.

Отдельно стоит отметить, что система **ценообразования на углерод в России пока не внедрена в полной мере**, хотя правовые и институциональные шаги в этом направлении предпринимаются. Указ Президента РФ № 666 от 4 ноября 2020 г. «О сокращении выбросов парниковых газов» закрепил цель России к 2030 году ограничить выбросы парниковых газов уровнем в 70% от уровня 1990 года, в рамках национального вклада по Парижскому соглашению.

Развитие углеродного налогообложения в Республике Казахстан. В Республике Казахстан в качестве одного из инструментов сокращения выбросов парниковых газов рассматривается введение углеродного налога. Министерство экологии и природных ресурсов Казахстана отмечает, что данный шаг является частью стратегии по достижению углеродной нейтральности к 2060 году и рассматривается в комплексе с развитием системы торговли выбросами парниковых газов (СТВ) как рыночного механизма регулирования эмиссий.

В 2022 году в стране был зафиксирован снижение уровня выбросов загрязняющих веществ за пределами установленных нормативов, что свидетельствует о снижении нагрузки на окружающую среду. Планируется, что в течение пяти-десяти лет 16 крупных промышленных предприятий в основных промышленных центрах Казахстана проведут мероприятия по существенному сокращению отходов и выбросов.

Согласно действующим нормативно-правовым актам, поступления в бюджет от платежей за негативное воздействие на окружающую среду частично направляются на мероприятия по охране окружающей среды. Так, в 2021 году сборы за эмиссии в окружающую среду составили 111,3 млрд тенге, из которых 63,1 млрд тенге были целевым образом перенаправлены на проекты в области природоохранной деятельности.

Эти шаги демонстрируют стремление Казахстана интегрировать экономические механизмы в экологическую политику, создавая условия для постепенного перехода к низкоуглеродной экономике и соблюдения международных обязательств в области климатической политики.

5. Заключение.

Опыт ведущих стран демонстрирует, что экологические налоги становятся одним из ключевых инструментов перехода к зеленой экономике и устойчивому развитию. США и Канада используют гибридные подходы, сочетая налоговые льготы для бизнеса и населения с углеродным ценообразованием, стимулируя сокращение выбросов и развитие возобновляемой энергетики. Франция и Германия активно реализуют принцип «загрязнитель платит», встраивая экологические издержки в стоимость товаров и услуг, повышая осознанность потребителей и поддерживая инвестиции в чистые технологии. Великобритания демонстрирует эффективность экологических сборов даже в таких простых мерах, как налог на пластиковые пакеты, одновременно создавая налоговые стимулы для зеленых инвестиций. Япония и Южная Корея показывают пример Азии, где вводятся углеродные налоги и льготы на внедрение технологий сокращения выбросов.

Таким образом, налоговая политика в экологической сфере не только формирует поведение участников рынка, но и способствует технологическим сдвигам, ускоряя декарбонизацию экономики. При этом ключевым условием успеха является сбалансированное сочетание налогового давления и стимулов, адаптация механизмов к национальной специфике, а также использование поступающих налогов для развития зеленой энергетики и поддержки уязвимых слоев населения в условиях перехода к низкоуглеродной экономике.

Литература:

World Bank (2022). State and Trends of Carbon Pricing. <https://www.worldbank.org/en/programs/pricing-carbon>

OECD (2021). Taxing Energy Use 2021. <https://www.oecd.org/tax/tax-policy/taxing-energy-use-2021-8d54eb03-en.htm>

IMF (2022). Fiscal Monitor: Climate Crossroads. <https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2022/10/11/fiscal-monitor-october-2022>

OECD (2022). Effective Carbon Rates 2021. <https://www.oecd.org/tax/tax-policy/effective-carbon-rates-2021-0e8e24f5-en.htm>

IEA & OECD (2021). Fossil Fuel Support and Climate. <https://www.iea.org/reports/fossil-fuel-subsidies-2021>

IPCC (2023). Climate Change 2023: Synthesis Report. <https://www.ipcc.ch/report/ar6/syr/>

OECD (2020). Taxing Energy Use for Sustainable Development. <https://www.oecd.org/tax/tax-policy/taxing-energy-use-for-sustainable-development.htm>

OECD (2021). Taxing Energy Use 2021. <https://www.oecd.org/tax/tax-policy/taxing-energy-use-2021-8d54eb03-en.htm>

EU Directive 2003/96/EC on Energy Taxation. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32003L0096>

European Commission: EU Climate Action and Taxation. https://climate.ec.europa.eu/eu-action_en

Исследовать основано на автор к структурированный

Мо Дж.Л. (2015) Чжун Го Тан Ши Чан Дин Цэн Шэ Цзи Чжун да Вэнь Ти Цзи Цзянь уй [Основные вопросы и предложения по разработке высшего уровня рынка углерода Китая] // Труды Китайской академии наук емьи наук. Т. 30. № 4. С. 492–502 .

Цуй Дж. (2010) Гуань ю во го кай чжэн тан шуй де си као [Размышления о введении налога на выбросы углерода в Китае] // Налоговые исследования. № 1. С. 41–44. Модель доступна по адресу: <http://www.doi.org/10.19376/j.because.cn.11.1011.f.2010.01.009> (не китайский).

<https://www.ib.ru/law/35>

Постановление Правительства РФ от 20.02.2023 г. № 437 «О введении в действие в 2023 году ставки платы за негативное воздействие на окружающую среду»

Приказ Росстата от 31.12.2020 № 872 «Об утверждениях методических указаний по формированию счета экологических налогов и платежей» // СПС «КонсультантПлюс»

<https://лсм.кз/новый-вид-лога-может-появиться-в-казахстане>



СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ
ОММАБОП ЖУРНАЛ